

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BASHORAT JAMILOVA

BOLALAR ADABIYOTIDA ZAMONAVIYLIK

O'quv qo'llanma

Bilim sohasi : 100000 – Ta'lism

Ta'lism sohasi : 110000 – Ta'lism

70110501 – Ta'lism va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lism)

**BUXORO 2023
“BUKHARA HAMD PRINT” NASHRIYOTI
UO'K 813.415.21(076)**

B 88

Bashorat Jamilova.

Bolalar adabiyotida zamonaviylik [Matn] / O'quv qo'llanma
B.Jamilova. - Buxoro: "BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti, 2023.- 264
b.

KBK 83.3

Taqrizchilar:

D.H.Quvvatova,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

U.Amonov,
Buxoro davlat universiteti, pedagogika
instituti dotsenti, PhD.

*O'quv qo'llanma O'zbekiston respublikasi oliv va ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 29-maydagi 232-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berildi.*

Ro'yxatga olish raqami № 232-709

ISBN 978-9943-9667-9-6

ANNOTATSIYA

O'zbek bolalar adabiyoti jahon adabiyotining ilg'or an'analari ta'sirida rivojlandi va rivojlanmoqda. Ta'kidlash kerakki, har bir davr o'z adabiyotini yaratadi. Hozirgi davr bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Bu adabiyotning iste'dodli adiblari ijod namunalarining jahondagi mavjud adabiy an'analardan ijodiy oziqlangani holda allaqachon o'z qobig'ini yorib chiqib, ko'pgina jahon xalqlarining adabiy mulkiga aylangani qalbimizda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Mustaqillikka erishilgandan keyin boshlangan ma`naviy tiklanish jarayoni o'zbek bolalar adabiyotiga oid qadimiy va zamonaviy manbalarga xos poetik xususiyatlarni chuqur tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirib, o'zbek bolalar adabiyoti namunalarida poetik tafakkur yangilanishi evolyutsiyasini o'rganish xalqimiz badiiy tafakkurining shakllanish tarixini yoritishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan ham dolzarbdir. Bunday asarlarda aks etgan umuminsoniy g'oyalar yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalashda hamda ma`naviy kamolot sari etaklashda muhim badiiy-estetik hamda amaliy ahamiyatga egadir. "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazamiz". Mamlakatimiz miqyosida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi keng yo'lga qo'yilgani, "Yosh kitobxonlar tanlov"larining tashkil

etilishi va bugungi kunda uning yanada yuksak mavqe` kasb etayotgani ham shundan dalolat beradi. Badiiy adabiyotning, ayniqsa, yosh avlod ma`naviy kamolotidagi beqiyos o`rnini belgilash adabiyotshunoslikning o`zak vazifalaridan biri sifatida hozirgi bolalar adabiyotimiz o`ziga xosliklarini belgilash va ijodkorlar badiiy mahoratini baholashda alohida ahamiyat kasb etishi esa o`quv qo'llanmaning dolzarbligini asoslaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yangi avlod o`quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o`quv, o`quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash oliy ta'lim tizimini kelgusida rivojlantirishning eng muhim vazifalari qatorida turishi belgilab berilgan. Shuningdek, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o`quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o`quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Qolaversa, Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o`quv dasturlari, o`qituvchi va domlalar uchun metodik

qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozimligi, bolalarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarurligi ta'kidlandi. Binobarin, 2022 yil 28 fevraldagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ham sifatli ta'lim asosini takomillashtirilgan o'quv qo'llanma, darslik, o'quv-usuliy qo'llanmalar tashkil etishi anglashiladi.

Mazkur "Bolalar adabiyotida zamonaviylik" o'quv qo'llanmasi ham shu ma'noda Oliy o'quv yurtlarining 70110501-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistratura mutaxassisligi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriligi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti tomonidan 2022-yil, 30.08 dagi 1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan.

АННОТАЦИЯ

Узбекская детская литература сложилась и развивается под влиянием передовых традиций мировой литературы. Следует отметить, что каждая эпоха создает свою литературу. Современная детская литература не является исключением. Вызывает чувство гордости тот факт, что произведения талантливых писателей этой литературы, творчески возвращенные сложившимися литературными традициями мира, уже прорвали свою скорлупу и стали литературным достоянием многих народов мира.

Процесс духовного возрождения узбекского литературоведения, начавшийся после обретения независимости, обусловил необходимость глубокого исследования поэтических особенностей древних и современных источников узбекской детской литературы, изучения эволюции обновления поэтического мышления на примерах Узбекская детская литература, формирование художественного мышления нашего народа, также актуальна, так как служит в определенной мере освещению истории. Общечеловеческие идеи, отраженные в таких произведениях, имеют важное художественно-эстетическое и практическое значение в воспитании молодого поколения в духе благородных традиций наших великих предков и ведении их к духовной зрелости.

«Мы будем воспитывать молодых людей независимыми и рациональными мыслителями, обладающими благородными качествами, основанными на современных знаниях и опыте, национальных и общечеловеческих ценностях». Об этом свидетельствует тот факт, что в нашей стране реализована комплексная система мер, направленных на повышение книжного чтения и культуры чтения, организация «Конкурсов юных читателей» и то, что сегодня она завоевывает все более высокие позиции. Определение беспримерного места художественной литературы, особенно в духовном развитии подрастающего поколения, как одна из основных задач литературоведения имеет особое значение в определении особенностей современной нашей детской литературы и в оценке художественного мастерства творцов, обосновывает актуальность учебника.

В постановлении Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева от 20 апреля 2017 года №PQ-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» создание учебной литературы нового поколения и внедрение их высшие учебные заведения Широкое внедрение в учебный процесс, обеспечение высших учебных заведений современной учебной, учебно-методической и научной литературой является одной из важнейших задач перспективного развития системы высшего образования. Также в решении № ПФ-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и

науки в период нового развития Узбекистана» национальное образование, способное выдержать сегодняшнюю жесткую конкуренцию в мировом масштабе. Особо обсуждались вопросы становления системы образования, совершенствования учебников и учебных пособий с учетом требований времени, создания их нового поколения, оптимизации образовательных программ и стандартов.

Кроме того, в Послании Президента Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года в целях коренного повышения качества образования в первую очередь необходимо было адаптировать образовательные программы, методические пособия для учителей и педагогов к передовым международным стандартам, способность детей к аналитическому и творческому мышлению, подчеркнута необходимость создания всеобъемлющих и понятных учебников для их развития. Поэтому в Государственной программе по реализации «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 февраля 2022 года в «Год внимания к людям и качественного образования» понимается, что основу составляет усовершенствованная учебное пособие, учебник и методические пособия.

Настоящее учебное пособие «Современность в детской литературе» также в этом смысле для магистратуры специальности ВУЗ 70110501-Образование и теория и методика образования (начальное образование) Республики

Узбекистан Подготовлено в соответствии с типовым учебным планом, утвержденным Министерством высшего образования, науки и инноваций Педагогического института Бухарского государственного университета приказом № 1 от 30.08.2022.

ANNOTATION

Uzbek children's literature has developed and is developing under the influence of the advanced traditions of world literature. It should be noted that each era creates its own literature. Modern children's literature is no exception. It causes a feeling of pride that the works of talented writers of this literature, creatively nurtured by the established literary traditions of the world, have already broken through their shells and become the literary heritage of many peoples of the world.

The process of spiritual revival of Uzbek literary criticism, which began after gaining independence, necessitated a deep study of the poetic features of ancient and modern sources of Uzbek children's literature, studying the evolution of renewal of poetic thinking on the examples of Uzbek children's literature, the formation of the artistic thinking of our people, is also relevant, as it serves in a certain to the extent of telling the story. The universal ideas reflected in such works are of great artistic, aesthetic and practical importance in educating the younger generation in the spirit of the noble traditions of our great ancestors and leading them to spiritual maturity.

"We will educate young people as independent and rational thinkers with noble qualities based on modern knowledge and experience, national and universal values." This is evidenced by the fact that our country has implemented a comprehensive system of measures aimed at improving book reading and the culture of

reading, the organization of "Young Readers' Contests" and the fact that today it is gaining ever higher positions. Determining the unparalleled place of fiction, especially in the spiritual development of the younger generation, as one of the main tasks of literary criticism, is of particular importance in determining the features of our modern children's literature and in assessing the artistic skill of creators, substantiates the relevance of the textbook.

In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev dated April 20, 2017 No. PQ-2909 "On measures for the further development of the higher education system", the creation of a new generation of educational literature and the introduction of their higher educational institutions Wide introduction into the educational process, providing higher educational institutions with modern educational , educational, methodological and scientific literature is one of the most important tasks for the future development of the higher education system. Also, in the decision No. PF-6108 of November 6, 2020 "On measures to develop the fields of education and science in the period of new development of Uzbekistan", national education that can withstand today's fierce competition on a global scale, the issues of establishing the education system, improving textbooks and training allowances, taking into account the requirements of the time, creating their new generation, optimizing educational programs and standards.

In addition, in the Address of the President to the Oliy Majlis dated December 29, 2020, in order to radically improve the quality

of education, it was first of all necessary to adapt educational programs, methodological manuals for teachers and educators to advanced international standards, the ability of children to analytical and creative thinking, the need to create comprehensive and understandable tutorials for their development. Therefore, in the State Program for the implementation of the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated February 28, 2022 in the "Year of Attention to People and Quality Education", it is understood that the basis is an improved textbook, textbook and teaching aids.

This textbook "Modernity in children's literature" is also in this sense for the magistracy of the specialty University 70110501-Education and Theory and Methods of Education (Primary Education) of the Republic of Uzbekistan Prepared in accordance with the model curriculum approved by the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Pedagogical Institute of Bukhara State University by order No. 1 dated 30.08.2022.

I MODUL. BOLALAR ADABIYOTINING YANGILANISHI

1-MAVZU. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING YANGILANISH OMILLARI

Reja:

1. Bolalar adabiyotida janriy va shakily izlanishlar.
2. Badiiy tafakkur yangilanishining asosiy manbalari.
3. Bolalar adabiyotida poetik tafakkur ifodasi.

Tayanch tushunchalar: *janr, tur, tafakkur, poetika, zamonaviylik, an'ana, vorisiylik, mezon, badiiy-estetik, g'oya, adabiyotshunoslik, umumadabiyot.*

Jahon adabiyotshunoslida bolalar adabiyotining maydonga kelish, tarkib topish, turlar va janrlar bo'yicha o'ziga xosliklarini o'rGANISH, uning badiiy-estetik, ma'rifiy-ma'naviy va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etish yosh avlod ma'naviy kamoloti va millat kelajagini belgilashda muhim o'rIN tutadi. Zero, bolalar adabiyotiga e'tibor insoniyat ma'naviy kamolotiga munosabat sifatida jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir milliy adabiyotda o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turadi.

Ayniqsa, bugungi kunda bolalar adabiyotiga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, bolalar va kattalar o'rtasida kechadigan munosabatlarning badiiy talqini masalalari jahon bolalar adabiyoti namoyandalarining milliy bolalar adabiyotlarini yuksaltirishdagi o'rni, turli xalqlar adiblari ijodining mavzu ko'lami, badiiy talqindagi o'ziga xoslik va mushtarakliklarini o'rGANISH dolzarblik kasb etmoqda.

Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlar yoshlarning badiiy-estetik

didini tarbiyalash nuqtai nazaridan ham muhim. Ma'lumki, bolalar adabiyoti ham umummilliy adabiyotning uzviy qismidir. Shu bois, o'tgan asrning so'nggi choragi badiiy-estetik tafakkuri, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning poetik ifodasiga xos bo'lgan o'tish davri murakkabliklari, ijodiy evrilishlar, shakliy-uslubiy izlanish jarayonlari bolalar adabiyotida ham muayyan darajada o'z ifodasini topdi. Mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotda kecha boshlagan o'zgarish va yangilanishlar bolalar adabiyotida ham yangicha estetik printsiplarni yuzaga keltiruvchi va shakllantiruvchi asosiy omillarga aylandi.

Sho'ro davri umumadabiyot bilan bir qatorda bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham jiddiy to'siq tashlagan edi. Natijada uning ko'plab namunalarida soxta adabiy qahramonlar, "mehnatsevar" va "vatanparvar"larning obrazlari ibrat namunasi sifatida taqdim etildi. Ammo bolalik olamining o'ziga xos murakkab dunyosini real, ta'sirchan, badiiy jihatdan jozibador tarzda aks ettirgan asarlarning yaratilishiga jiddiy to'siq bor edi.

Ta'kidlash oiz, o'zbek bolalar adabiyotining sho'ro davrida yashab ijod etgan aksariyat namoyandalari chinakam iste'dod bo'lib, kichkintoylarga bag'ishlangan betakror asarlarni yarata oldilar. Jumladan, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min singari shoirlarning bolalar ma'naviy olamini boyitib, estetik didini o'stirishga xizmat qiladigan talay asarlari mavjud. Binobarin, istiqlolga erishgach, o'zbek bolalar she'riyatidagi yangilanish iste'dodli ijodkorlarning faolligi bilan tadrijiy ravishda o'sib bordi.

Davr bolalar she'riyati ko'plab yosh iste'dodlar hisobiga boyigani alohida e'tirofga loyiq. Xususan, T.Adashboev, Q.O'taev, Anvar Obidjon, A.Ko'chimov, H.Imonberdiev, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Z.Isomiddinov singari ko'plab shoirlar istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining shakliy va mazmun-mundarijasi, obrazlar olamini yangilashga erishdilar.

Darhaqiqat, istiqlol yillarida ayniqsa bolalar dabiyotini rivojlantirish, kelajak bunyodkori hisoblanuvchi yosh avlod tafakkurini oshirish jarayonining asosi sifatida qaraldi. Yangilangan poetik tafakkur asosida o'zbek bolalar she'riyati va nasrining eng sara namunalari jamlanib, ikki jildli "O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi" chop etilgani o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Adabiyotshunos olim R.Barakaev fikri bilan aytganda antologiya qamrab olingan davr, saralangan asarlar badiiyati nuqtai nazaridan ham, mavzular rang-barangligi jihatidan ham, o'zbek bolalar adabiyoti she'riyati va nasrini bugungi yosh kitobxonlarga tanishtirishi va bolalar adabiyotimizning bir asrdan ortiqroq vaqt mobaynidagi qiyofasini ko'rsatishga xizmat qilishi bilan ham yosh kitobxonlarga munosib tuhfa bo'ldi.

Umuman, o'zbek bolalar she'riyatining janriy va mavzuviy doirasi, badiiy olami, qahramonlar ruhiyati kabilar o'zbek bolalar she'riyati va nasrida, qisman dramaturgiyada yangidan bo'y ko'rsatdi, deyish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bolalar adabiyotining ijtimoiy-estetik vazifasi, mustabid sho'ro tuzumi davrida yaratilgan badiiy yuksak asarlarning yangi talqinlari, shu bilan birga ijodkorlarning erk va ozodlik ruhiyati bilan sug'orilgan betakror she'r va hikoyalari tadqiqiga oid qator qo'llanma va darsliklar, risolalar e'lon qilina boshladи¹. Bu jihatdan O.Safarovning G'.G'ulom

¹ Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 184 б.; Қаҳрамонов Қ. Адабий жараён ва эстетик талқин. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2014. – 162 б.; шу муаллиф. Болаликка ошуфта кўнгил. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 40 б; Баракаев Р. Жонажоним, шеърият. – Тошкент: Чўлпон, 1997. – 88 б.; шу муаллиф. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.; Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; шу муаллиф. Кувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2005. – 36 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати. – Тошкент: Фан, 2004. – 256 б.; Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012. – 40 б.; Баракаев Р., Ашурев Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.; Баракаев Р. Янгиланиш // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент. – 2000, 19 май; Баракаев Р. Истиқлол даври ўзбек болалар адабиёти: анъана, ворисийлик ва изланиш // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – №3. – Б. З. Сафаров О. Болаликнинг ойдин осмони. – Тошкент, 2009. – 362 б.; Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Тошкент: Мусика, 2010. – 100 б.; Сафаров О. Фольклор – бебаҳо хазина.– Тошкент: Мухаррир, 2010. – 360 б.; Сафаров О., Жамилова Б. Болалик – боқийлик тимсоли. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2011. – 76 б.; Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 356 b.; Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma/ – Buxoro: Durdona, 2019. – 420b.;

ijodiga bag'ishlangan "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2007), Q.Muhammadiy she'riyati haqidagi "She'rim - ochil dasturxon" adabiy portreti (2010), E.Malik badiiy olamini aks ettiruvchi "Bolalik boqiylik timsoli yoxud "muxbirlikning olis yo'llari" (B.Jamilova bilan hammualliflikda, 2011); shuningdek, Elbek, H.Olimjon, Oybek, S.Jo'ra, Sh.Sa'dulla, T.G'oyipov, S.Barnoyev kabi bolalar adabiyoti salaflarining badiiy olami tahlil va tadqiq etilgan "Bolalikning oydin osmoni" (2009) maqolalar to'plami fikrimizni asoslaydi. To'plamdan o'rin olgan maqolalarning ilmiy ahamiyati haqida D.O'rayeva shunday yozadi: "Badiiy va ilmiy asarlar yosh avlodni yuksak axloqli, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralsa, bolalar adabiyotining zukko tadqiqotchisi O.Safarov tomonidan yaratilgan bu saylanma alohida e'tiborni tortadi. Undagi materiallar bolalar ijodkorlarining mahorat sirlarini, ular ijodida bolalik olamining qay darajada badiiy tahlil va talqin qilinganligiga xos xususiyatlarni, shuningdek, bolalar adabiyotining tabiatini, mundarijasini, taraqqiyot omillari va yo'naliishlarini yanada chuqurroq bilib olishga yordam beradi"². Darhaqiqat, xuddi shunday fikrni A.Rasulov, R. Barakayev, B.Ashurov tadqiqotlari³, yoki T.Adashboyev, S.Barnoyev, A.Obidjon va boshqa ko'plab ijodkorlarga bag'ishlangan jamoa to'plamlari haqida ham aytish mumkin. Ularda o'zbek bolalar adabiyoti masalalari haqida aytilgan dolzarb fikrlar ham yangilanayotgan tafakkur namunasidir.

Shu kabi manbalarda bolalar adabiyotining sifat jihatdan yangilanishi ijtimoiy taraqqiyot, ijod ahli uchun yaratilgaí imkoniyatlar, millat estetik tafakkurida odam va olamni anglash borasida yuzaga kelgan yangilanishlar bilan uzviy bog'liqligi e'tirof etildi. Zero, bolalar adabiyotimizdagi badiiy yuksalish va

² Ўраева Д. Охунжон Сафаров. – Тошкент: Мұхаррир, 2010. – Б.19. – Тошкент: Турон-икбол, 2011. – Б.335.

³ Расулов А.Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012. – 40 б.; Фаройиб салтанат. – Тошкент: Адиб, 2012. – Б.40.; Баракаев Р., Ашуроев Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.

yangilanishlarning tub asoslari mohiyat e'tibori bilan ijtimoiy hayot, jamiyat kishilari ongidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, ijod erkinligi xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jahon adabiyotini va tarixiy-madaniy qadriyatlarimizni o'z mohiyati negizida emin-erkin o'rganish, undan oziqlanishga zamin yaratdi. Xususan, o'yin qo'shiqlari, marosim qo'shiqlar, tez aytish, topishmoq kabi kichik folklor janrlarini o'rganish va targ'ib etishga e'tibor kuchaytirildi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Gulxaniy singari ulug'mutafakkirlarning ma'noviy jihatdan serqatlam asarlari teran mazmun-mohiyati, poetik ifoda ko'lami bilan talqin etila boshladi, darslik va majmualardan joy oldi. Adabiy-ma'rifiy nashrlar va vaqtli matbuotda Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Elbek singari XX asr jadid adabiyoti namoyandalarining bolalarga bag'ishlangan ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari hamda jahon adabiyoti durdonalaridan qilingan tarjimalarga ko'proq o'rin berildi .

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma'nан va jismonan sog'lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Zero, har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, umrining ma'nosи qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratligi haqidagi ta'kidlar bejiz emasdi.

Chindan ham mustaqillik davri bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e'tibor qaratilishi, shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta borgani yorqin ko'rina boshladi. Milliy bolalar matbuoti ham mavzu material, g'oyaviy- badiiy jihatdan o'sib, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirilayotgani ta'kidga loyiq.

Shu bilan birga yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilayotgani diqqatga sazovor. Binobarin, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlari ustuvorligi (S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik asarlarida); kichkintoylar va bolalar fe'l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning hajviy-yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (X.To'xtaboyev, A.Obidjon ijodida); bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyat olami (psixologizm) teran aks etgan asarlar, qolaversa, tabiat va jamiyat muammolari falsafiy talqin etilayotgan badiiy ijod namunalari (N.Fozilov, M.A'zam, A.Obidjon, T.Adashboyev asarlari) yarq etib ko'zga tashlanadi.

Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g'oyaviy-badiiy, axloqiy-ma'rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahliliga oid salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolarini yangicha tafakkur, istiqlol mafkurasi nuqtayi nazaridan o'rganish joizligini asoslab berdilar.

Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta'sir ko'rsatgani beziz emas. Ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi. Bu ishga badiiy so'z qudrati bilan hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilarning yangi avlodi yetishib chiqqanligi e'tirofga sazovor. Ya'ni, nafaqat Anvar Obidjon, T.Adashboyev, Miraziz A'zam, R.Tolipov, S.Barnoyev singari professional adib va shoirlarning o'zgacha talqin hamda yo'nalishdagi ijod namunalari balki Q.O'tayev, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Rustam Nazar, Vali Ahmadjon, S.Inoyatov, Qo'zi Ismoil, Zafar

Isomiddin, Erpo'lat Baxt kabi ijodkorlarning bolalar adabiyotiga "yangi havo" olib kirishlari bilan e'tibor qozondi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ta'lim-tarbiya, yoshlar siyosatiga oid vazifalar barkamol avlod shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keng miqyosda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat o'quvchi-yoshlar psixologiyasida, balki jamiyat hayotida sog'lom, faol va samarali ijobjiy muhitning yuzaga kelishiga asos yaratmoqda. Istiqlol tufayli ijod erkinligining ta'minlangani esa ana shunday adabiy-madaniy muhitda bolalar adabiyotining rivoji uchun keng imkoniyat ufqlarini ochib berdi. Rasmiy tsenzura tazyiqidan, "yuqori"dan beriladigan "buyurtma" va "yo'l-yo'riq"lardan xalos bo'lgan ijodkorlar bolalar she'riyatini mavzusiga ko'ra turli-tuman, mazmuniga ko'ra har jihatdan teran va shaklan rang-barang, usluban serjilo asarlar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Endilikda yosh kitobxonni yaqin o'tmishdagi kabi pand-nasihat mazmuni va ohangidagi she'r va dostonlar bilan "aldagani bola yaxshi" qabilida ovutadigan kitoblar qoniqtirmasligi ijodkorlar oldiga yangi estetik maqsad va vazifa qo'ydi.

Fikrimiz dalili sifatida Anvar Obidjonning tanqidchilikda ko'p bora tilga tushgan "Yaylovn ni sog'ingan qo'y" she'rini keltirish mumkin:

– Ishlar qalay?–
Desam, qo'y,
Javob berdi
Surib o'y:
 – Kamchilik yo'q
Oziqdan.
Bezor bo'ldim
Qoziqdan.

Ushbu she'rda yashiringan ma'no borasida adabiyotshunoslikda talaygina fikr-mulohazalar aytildi. Jumladan,

R.Barakayevning “Jonajonim she’riyat” risolasida “...istibdod zanjirlari ostida ezilgan, qorni to‘q bo’lsa-da, qadri yo‘q, boshi egiklar timsoli” sifatida talqin etilgan qo‘y ramziy obrazi xususidagi fikr-mulohazalar Z.Ibrohimovaning quyidagi e’tirofida yanada kengaytirildi: “Anvar Obidjon ushbu ixchamgina she’ridagi qoziqqa bog’langan Qo‘y timsolida xalqimiz tutqunlikda yashayotganligini, o‘zligidan, minglab yilgi tariximizdan, an’analarimiz, ma’naviyatimiz o‘chog‘i bo‘lmish ko‘hna “yaylov”idan uzib qo‘yilganligiga e’tiborni qaratadi. “Qorni uchun emas, qadri uchun yig‘layotgan” qo‘yning “o‘ychanligi”dagi hazinlikni, og‘riq va sog‘inchni yosh kitobxonlar shuuriga etkazishga intiladi. Shuning uchun ham qoziqdan bezor bo‘lgan qo‘yning sokin isyonи o‘quvchi qalbini beixtiyor jimirlatib yuboradi”.

Yosh olma N.To‘xtaboyeva fikricha esa Anvar Obidjon his-o‘ylari, fikr-tuyg‘ulari, dunyoni poetik idrok etishdagi o‘ziga xosligining yangilanib, milliy asosda takomillashib borayotgani ma`nosida tushunish maqsadga muvofiqdir.

G.Jo‘raeva esa ushbu she`rni quyidagicha baholaydi: nazarimizda, bu she`rni mustamlaka davri xalq hayotining tutqunligi ifodasi, deyishdan ko‘ra, ko‘proq shaxs erki bilan bog‘lab talqin etish to‘g‘riroq va aniqroq bo‘ladi. Har qanday sharoitda ham shaxs erkining bo‘g‘ilishi “oziqdan kamchilik sezmagan”, biroq “qoziqdan bezor bo‘lgan” qo‘y fojeasiga olib keladi. Mazkur she`rning bunday turli talqini asarda muallif nazarda tutgan g‘oyaning ko‘lamini kengligini, bu qadriyat umuminsoniy miqyos kasb etishini anglatib,

istiqlol arafasida o'zbek bolalar she'riyatidà yangilanish jarayonlari boshlanganini ham dalillaydi.

Ko'rinaridiki, o'zbek bolalar she'riyatida bo'y ko'rsata boshlagan o'zgarish va yangilanishlar olimlarning shu tariqa munosabatlari, bahs-munozaralari asosida ijtimoiy-estetik tafakkurga aylana borgan.

Ayni shu jarayonni nazarda tutib adabiyotshunos Q.Qahramonov shunday yozadi: "Bu davrga kelib bolalar adabiyotiga faqat ma'rifiy-tashviquy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-estetik hodisa, deb qarash yetakchilik qila boshladi. Natijada bu davrda bolalar adabiyoti namunalarida badiiy mukammallikka intilish, obrazlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda lirizm, fikrchanlik, majoziylik kabi xususiyatlar yetakchi tamoyillarga aylana boshladi". Har qanday davrda ham bolalar she'riyati o'zining soddaligi, ta'sirchanligi, mavzularning rang-barangligi, ifodaning tushunarligi, tasvirning jozibadorligi bilan kattalar adabiyotidan farqlanib turadi. Vatan, millat, tabiat, maktab, hayvonot olami, narsa-buyumlar, o'quv qurollari bilan bog'liq mavzular ko'pchilik bolalar shoirlari ijodida yetakchilik qiladi. O'tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyotiga dadil kirib kelgan H.Imomberdiyev, N.Dushayev, Z.Isomiddinov, S.Inoyatov, Rustam Nazar, K.Turdiyeva, M.Qodirov, Dilshod Rajab, Vali Bobomurod, Orif To'xtash, Qo'zi Ismoil, Erpo'lat Baxt, N.Ostonov kabi ijodkorlar esa istiqlol sharofati tufayli erkin ijodiy muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, sertuyg'u, mushohadaga boy asarlar yarata

boshladilar. Ular ijodida yangicha yondashuvlarga asoslangan shakliy rang-baranglikdan tashqari, bolani favqulodda o'ylantirib, hayot haqida, ijtimoiy munosabatlar borasida fikrlashga majbur etadigan teran mazmun singdirilganini ham ko'rish mumkin.

Shu ma`noda, T.Adashboyevning "...ibratli mavzularni hayiqmay, ochiq-oydin yozish imkoniyatiga istiqlolimizga erishganimizdan keyin ega bo'lganimizni alohida ta`kidlashni istardim", degan e'tirofi asoslidir. Darhaqiqat, "mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti ham mavzu rang-barangligi, ham uslublar xilma-xilligi, badiiy tasvir va talqinda teranlik kasb etgani bilan oldingi zamonlarda yaratilgan asarlardan tubdan farq qiladi".

Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotini kuzatganda lirik tur yetakchilik qilishiga guvoh bo'lamiz. Bu davrda ijod qilayotgan ko'plab shoirlar bolalar she'riyatini sifat jihatidan yangilashga erishdilar. Ular mustaqillik davri bolalar she'riyatida, sho'ro davridagidan farqli ravishda, tashviqiy xarakterdan tasviriy talqinga o'tish uchun zamin yaratdilar.

Anvar Obidjonning "So'nggi axborot" she'rida mevalar va sabzavotlar misolida ko'zga tashlanadi:

Bo'lib o'tdi qishloqda	Shamollatdi qornini,
Kecha zo'r shamol.	Oshqovoq polvon.
Natijada ro'y berdi	Pachoq qildi burnini,
Anchayin kor-hol.	Mulla baqlajon.
Uzum boshi aylanib,	Uyqichiroq bir tarvuz
Bo'p qoldi kasal.	Yumalab borib,
Shoxdan yiqilib olma,	Uyg'onibdi qovunning
Yotibdi o'sal.	Boshini yorib.
Hatto gilos lat yedi,	Noklar yerga to'kildi,

Bo'lsa ham abjir.
To'qnashuvda anorga...
Chaplandi anjir.

Bo'lishib bir jom.
Ammo zarar ko'rmadi
Sabzi va sholg'om.

Ko'rinaridiki, harakatlanayotgan har bir narsa o'ziga xos sazoga ega bo'lishidan tashqari, bolalar sho'xligini ham eslatadi. Kichkintoylar bu harakat va "jang" zamirida o'sha narsalarning o'zini va o'zlarini ko'rib turganday sezadilar. Ammo, bolalar ulg'aya borgani sari ular zohiridagi bu dinamika botiniga, tasavvuriga ko'cha borganidan, o'smirlar adabiyotida detektiv, yoxud fantastik asarlar tarzida davom etadi. Binobarin, ulug' munaqqidlar ta'kidlaganidek, bolalar adabiyotida "borliqni va barcha mavjudotni harakatga keltirmoq zarurligi" masalasi bolalikning o'zi qadar umrboqiylik kasb etadi. Haqiqatan, kichkintoy bola nazdida "soqov tosh ham, dala-dashtdagi xas-xashaklar ham shivirlab, oqayotgan ariqcha ham, sokin esayotgan shamol ham parvoz qilib, guldangulga qo'nayotgan kapalak ham muhabbat va hayot tilida so'zlashi" tabiiy.

Bolalarning lug'at boyligi ularning saviyasini belgilovchi asosiy mezon. Ular ma'nan ulg'aygani sari voqelikni o'zlashirish imkoniyatlari, til boyliklari orta boradi. Jamiyat taraqqiyoti bu tamoyilni yanada orttiradi. Yosh avlodning did-saviyasi, tafakkuri o'sishida so'z boyligi, ularning ma'no qirralaridan kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. ZOTAN, bolalar adabiyotining tili endilikda shu jihatdan rang-baranglik kasb etayotir. E.Vohidovning bolalar uchun yozgan "Olma" she'ri shunday so'z jilolanishiga ega:

Men sizlarning
Olmangiz.
Xomligimda
Olmangiz.
Nortojiga o'xshab so'ng
Voy qornim, deb
Qolmangiz.

Ma'lumki, turkiy xalqlar she'riyatida tajnisli qofiyaga asoslangan lirik janr – tuyuq mavjud. Bunda shakldosh so'zlar mo'jazgina matn doirasida turli ma'nolarda va o'rini qo'llanadi. Bu esa shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladi. Shuningdek, tuyuq ona tilining go'zalligidan zavqlanish, uning beqiyos imkoniyatlari bilan faxrlanishga asos bo'lar ekan, bolalarni bu badiiy san'atga o'rgatish maqsadi ko'zlanganiga shubha yo'q. Ta'kidlangan so'zdagi ikki xil ma'no – meva (olma) va harakatni bildiruvchi buyruq fe'li (olmoq) she'r mazmunini osongina yod olish bilan birga, ona tilimizning serjiloligini ham namoyon qiladi. Bu shoirning "Qarag'ay" she'rida ham kuzatilgan. Unda o'rmonda tik o'sadigan doimo yashil turuvchi ignabargli daraxt (*qarag'ay*) bilan tilimizda o'z yoki o'zga shaxsini bo'rttirib ko'rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora (akang *qarag'ay*) omonimi hamda *qaramoq* fe'lidan yasalgan paronim so'zidan (*qaragay*) o'rini foydalanilgan.

Bo'yin cho'zib
Qarag'ay,
Yon-atrofga
Qaragay,
Der u :
Barcha daraxtdan
Baland *akang-*
Qarag'ay.

Anglashiladiki, kelajakda o'tkir idrokli, keng mushohadali bolalarni tarbiyalash, ona tili va o'z yurti boyliklarining haqiqiy egasi bo'la oladigan avlodni voyaga etkazishda mazmundor, serqirra asarlarning ta'siri katta. Shu ma'noda, tilning aniqligi, yorqinligi, yoxud, serqirraligi jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boraveradi. Ijodkorlarning o'ziga xos tasvir uslubi, ramziy ko'chimlardan foydalanish mahorati, poetik obrazlarning yangilanishi bilan badiiy so'z kamalakday jilolanadi. "Aslida biz hayratga tushadigan narsalarnigina o'qishimiz zarur", - degan edi V.Gyote. Bu jihat bolalar adabiyoti uchun yanada muhim hisoblanib, ular kitobxonligining adresliligini ta'minlaydi desak, xato bo'lmaydi.

Po'lat Mo'minning "Bolalarning baxti kulgan", Q.O'tayev va O.Begaliyevlarning "Tabiatga rahmat", Miraziz A'zamning "Bir cho'ntak yong'oq", Yo'ldosh Eshbekning "Daraxtlar ertagi", H.Imomberdiyevning "g'aroyibkent hangomalari" she'riy kitoblaridan o'rinni olgan she'r, doston va she'riy ertaklarda obrazli tasvirning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Shu bois ular ijodi keyingi o'zbek bolalar she'riyatining rang-baranglashuviga, poetiklashishiga, asl adabiyot namunalariga aylanishiga turtki berdi, degan xulosaga kelish mumkin.

Professor Q.Yo'ldoshev istiqlol davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida shunday yozadi: "Bugungi adabiyot odamlarga yo'l ko'rsatishni gardaniga olmaydi, o'quvchiga aql o'rgatmaydi, muallimlik da'vosini qilmaydi. U tasvirning ingichkaligi, ifodalarning kutilmaganligi bilan o'quvchida munosabat uyg'otadi. Shuni aytish

kerakki, istiqlol adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zamirida”.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida, jumladan, she’riyatda kechayotgan ushbu tub yangilanish, o‘zgarishlar jarayoni kattalar adabiyoti bilan bir qatorda bolalar adabiyotida ham kuzatilayotgani quvonarli hol. Umuman, istiqlol davri bolalar she’riyati tadqiqotchisi N.To‘xtayeva ta’kidlaganidek, o’tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyotiga dadil kirib kelgan ijodkorlar istiqlol sharofati tufayli erkin ijodiy muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, sertuyg‘u, mushohadaga boy asarlar yarata boshlaganligi ular ijodida yangicha yondashuvlarga asoslangan shakliy rang-baranglik, bolani favqulodda o‘ylantirib, hayot haqida, ijtimoiy munosabatlar borasida fikrlashga majbur etadigan teran mazmun singdirilgani muhim hodisadir⁴.

Darhaqiqat, hozirgi bolalar she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishini ko‘plab shoirlar ijodida kuzatish mumkin. Bunga zamin hozirlagan, aniqrog‘i, o’tgan asrning so‘nggi choragidan e‘tiboran bolalar she’riyatida yuzaga kelgan yangi bir "to‘lqin"ni alohida e‘tirof qilish o‘rinli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Bolalar adabiyotining yangilanishi ehtiyojmi, zarurat?
- 2.O‘zbek bolalar adabiyotidagi badiiy tafakkur evrilishi deganda
nimani tushunasiz?
3. An'anaviy va zamonaviy bolalar adabiyotini qanday talqin etasiz?

⁴ Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятининг етакчи хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O’zbek bolalar adabiyoti. O’quv qo’llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetik tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To’xtayeva N. Istiqlol davri o’zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

2-MAVZU. ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE’RIYATI

Reja:

1. Davr bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari.
2. Adabiy jarayon va badiiy tafakkurdagi evrilishlar.
3. Bolalar she’riyatining ma’rifiy, ijtimoiy-estetik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: *adabiy tur, adabiy jarayon, ma’rifiy she’r, estetik ta’sir, didaktik, folklorizm, ramz, timsol, tashbeh, milliy kalorit*

Istiqlolning dastlabki yillarda, bolalar she’riyatida ham tabiiyki, vatan, millat, erk va ozodlik mavzulari yetakchilik qilgan. Chunki bolalarning shu muqaddas tushunchalarga bo’lgan munosabatini shakllantirish, ular qalbiga mehr, sadoqat, erk va tinchlikka shukronalik kabi tuyg’ularni singdirish muhim masala edi. Ayni paytda, ushbu mavzularga ham ochiq didaktika yo’li bilan emas, yuqorida ta’kidlanganidek, sof badiiyat tamoyillariga asoslangan yondashuv yetakchilik qila boshlagandi. Xususan, Miraziz A’zamning "Qizil quyosh" (1992) she`ridagi quyidagi misralar e’tiborni tortadi:

Turing qani o'rningizdan,
Turing, oppoq bolalar,
Qizil quyosh chiqqanini
Qutlamoqda dalalar.

Shoir bolalarning rangin dunyosiga munosib poetik tasvirdan bilan foydalanib o'ziga xos obraz yaratadi. Oq rangning poklik, beg'uborlik, tinchlik ramzi; qizil rangning jo'shqinlik, hayot, tiriklik ramzi ekanligiga ishora qiladi. Bunday obrazli yondashuv, sodda so'zlar va qisqa misralar yosh kitobxon dilidan osongina joy oladi. She`rning xalq qo'shiqlari yo'lida yozilganligi, milliy qadriyatlar, xalqona ohanglarga hamohangligi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bolalar she'riyatida yangi poetik tafakkur shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Rustam Nazar ham istiqlol davri bolalar she'riyatiga yangicha badiiy tafakkur tarzini singdirishga, bolalik olamini yangicha ifoda rakurslarida idrok etishga, uni ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-estetik jihatdan boyitishga munosib hissa qo'shdi. Spoir she'rlaridagi bolalar dunyosi uchun xarakterli bo'lgan poetik obrazlar mohiyatini ham ijtimoiy, ham estetik ma'no-mazmun bilan boyitishga xizmat qildi. Shu jihatdan shoirning "Bardosh haqida", "Bir qushcha", "Oriyat", "Zoologiya muallimining hikoyasi", "Sobiq piyoda", "Hamrohlar", "Qaltis o'yin" kabi she'rlari ibratlidir. Bu she'rlarga xos yetakchi xususiyatlardan birini obrazli ifodalar vositasida bolalarni hayotning murakkab so'qmoqlari sari otlantirish, ularga so'zning tag ma'no qatlamlari orqali ijtimoiy-estetik mazmunni singdirish, fikrchanlik, teran mazmun va jiddiy mavzularning qalamga

olinishida ko'ramiz. Buni shoirning o'zi ham e'tirof etib, "Men bolalar she'riyatini jiddiy lashtirishga, unga kattalar adabiyotiga xos unsurlarni olib kirishga harakat qildim", deb yozadi .

Shoir 'Oyoqsizlar' she'rida qumda sudralib borayotgan ilonni kuzatar ekan, noxush hisdan eti seskanib:

Oyoqsizlar zaharli
Bo'lar ekan-da!" ("Yerdagi quyosh", 9-b.)

degan xulosaga keladi. Ayni shu xulosa she'rning asosiy leytmotivini tashkil etadi va bolalarni mushohadaga undaydi. "Oyoqsizlar" so'zining she'rda qo'llangan "zahar" so'zi bilan aloqador ijtimoiy mazmuni haqida bosh qotirishga, ma'nosini anglashga chaqiradi. Shoir "Hamrohlar" she'rida ham bolalar uchun real voqelik bo'lgan oyoq va etik poetik unsurlarini obraz darajasiga ko'tarib, o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitadi.

Oyoqlar yo'l boshladi,
Yuraverdi etikvoy.
Yuraverdi demay g'ing,
Uchrasha ham balchiq, loy ("Yerdagi quyosh", 43-b.)

She'r davomida top-toza, gard yuqmagan oyoqlar loy va balchiqqa botgan etikni yo'lakda qoldirib, uyga o'zi kirib ketadi va shoir ushbu manzaradan nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham ibrat bo'larli ijtimoiy-estetik xulosalar chiqaradi:

Goh hamrohlik boshqa-yu,
Munosabat bo'lak- da:
Loyga botgan Etikvoy
Qolib ketdi yo'lakda! ("Yerdagi quyosh", 43-b.)

Shoirning topqirligi va mahorati kundalik turmushda ko‘p uchraydigan oddiy voqealarni katta ijtimoiy-psixologik mazmunda badiiy idrok etishi va poetik ifodaga ko‘chirishida namoyon bo‘ladi. Eng muhim shoir undan bolalarni o‘ylashga, mustaqil fikrlashga undaydigan tarbiyaviy xulosa chiqaradi. Bu tipdagi she’rlar bolalarni katta hayotda odamzodning turfa xil o‘yinlari borligi, ayrimlar mehnatkash, to‘g‘ri va halol bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha qadr topmasligi, aksincha, o‘zini zahmatkashning birodari deb ko‘rsatgan soxta kimsalar qadr topib, ijtimoiy adolat tamoyillari buzilishi mumkinligidan ogoh etadi.

“Bardosh haqida ertak” she’rida tilga olingan sabr-bardosh tushunchasining butun mohiyatini anglab yetish esa bola uchun murakkablik qiladigandek tuyuladi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, shoir o‘z ijodiy tamoyiliga sodiq qolib (ya’ni, bolalar adabiyotiga katta adabiyotga xos jiddiy mavzularni olib kirib), she’rni bola tilidan, obrazli tasvirlagan. Bu usul bilan bolalarning she’rda qalamga olingan mavzuni anglab olishlariga imkoniyat yaratgan. Ertakning birinchi qismida haykaltaroshning ijod jarayoni - tosh yo‘nishdagi mashaqqatli mehnati tasvirlanadi. Ikkinchi qismda esa haykalning bunyod bo‘lishi, gavjum maydonda uning poyiga ta’zim bajo keltirish lavhasi beriladi. Beso‘naqay toshlar sabr-toqat hamda haykaltarosh iste’dodi samarasi sifatida go‘zal san’at obidasiga aylanadi:

Ko‘ring, toqat-sabrimiz
Mevasidir bu:
Endi aziz siymoga

Aylandik mangu! ("Yerdagi quyosh", 8-b.)

Yuqorida tahlilga tortilgan she'rlarning rang-barang talqinlaridan shoirning bolalar adabiyotiga bo'lgan estetik munosabatini ko'rishimiz mumkin. Rustam Nazar bolalar dunyosini katta hayotiy haqiqatlar bilan boyitishni, sirli, ramziy-majoziy mazmun bilan to'yintirishni istaydi. Shabl va ifoda yo'sinidagi soddalikdan murakkablikka, undan tagma'noli va mushohadakor badiiy talqin va tahlillarga o'tishni ma'qul ko'radi. She'r mangulikka daxldor bo'lib qolishni istagan odam haykallardek mashaqqatlarga bardoshli bo'lishi kerakligi haqidagi hayotiy haqiqat bilan bola tilidan xulosalanadi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, xalqimizda haykaldek qotma, degan maqol ham bor. She'r harakatsiz, bir joyda muqim turgandan umrni ezgu amallarga sarflamoq afzalroq degan mulohaza ham uyg'otishi tabiiy.

Yangicha yondashuvlarga asoslangan istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining takomili, badiiy tafakkurdagi yangilanish va ma'no-mazmun bilan boyishiga asos bo'lgan ijtimoiy-ma'rifiy, adabiy-estetik omillar nimalardan iborat? Bizningcha, ayni masalada quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratmoq lozim bo'ladi.

1. Jamiyatdagi tub o'zgarishlar tufayli vujudga kelibtobora barqarorlashayotgan ijtimoiy-psixologik yangilanishlar o'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.
2. Ijod erkinligi, milliy o'zlikni anglash yangicha ijodiy muhitning vujudga kelishiga badiiy tafakkurdagi evrilishlarga jiddiy turtki berdi.

3. O'tgan asrning 80-90 yillarida ko'plab iste'dod egalari - jonli bir to'lqinning adabiyot maydoniga kirib kelishi yangi tipdagi bolalar she'riyatining vujudga kelishi, sifat belgilari bilan boyishiga xizmat qildi. ZOTAN, ular o'z asarlari bilan badiiy tafakkurni izchil yangilay boshladilar.

Ushbu omillarning yuzaga kelishi, birinchi galda, mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida hayotda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bulardan tashqari, adabiy ta'sir, jahon adabiyotining nodir namunalaridan amalga oshirilgan va izchil davom etayotgan tarjimalar ham milliy badiiy tafakkur yangilanishidagi asosiy omillardan hisoblanadi.

Binobarin, shu kabi ko'plab ichki va tashqi omillarga ko'ra, istiqlol davriga kelib yangicha badiiy tafakkurni shakllantiradigan, yuksaltiradigan o'zbek bolalar she'riyatining vujudga kelish jarayonè boshlandi.

"Istiqlol davrida xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi. Qayta uyg'onish jarayonida o'zbek bolalar she'riyatining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Ushbu davr o'zbek bolalar she'riyatining eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona Vatan - kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiat - qir-adirlarini, tog'u o'rmonlarini, bog'-rog'larini, daryoyu ko'llarini avaylab asrashga, Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari -

mutafakkir olimu shoirlari, ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha`niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi". Darhaqiqat, bolalar she`riyatida ma'rifiy ahamiyatga molik mavzularni kengroq va teranroq ifodalash kuzatilmoxda.

Ushbu jihatdan Miraziz A`zamning "Qirq bolaga qirq savol", "Ona tilim", T.Adashboevning "Tuproq", "Ona tilim", "Zar uqali" she`rlari xarakterlidir. Jumladan, Miraziz A`zamning "Ona tilim" she`rida shunday misralar bor:

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim o'zbek tilim,
Avaylayman seni doim
Qabiq ila ko'zdek tilim .

Shoir bolaning ona tiliga bo'lgan mehrini oshirishda an'anaviy ta`riflarni qo'llash bilan birga Qabiq ila ko'zdek qadrli ekanligini aytib ayricha xalqona poetik o'xshatish qo'llaydi. Insonning bir-biriga yaqin, biri ikkinchisini taqazo etuvchi eng nozik tana qismi hisoblangan qabiq va ko'z, har qanday noxush holatda ham himoyalanadi. Demak, ma`naviy boyligimiz hisoblangan o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan yozilgan ushbu she`r ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etib, bolalarga tanish bo'lgan xalqona timsollar orqali ifodaga ko'chadi, tilning Davlat tili maqomida bo'lishi nima ekanligini bilmagan bolaga ham hissiy idrok orqali uning qadri anglatildi.

T.Adashboev esa ayni mavzudagi "Ona tilim" she`rida milliy tilimizning jarangiyu go'zal fazilatlarini tavsiflash barobarida, uning

Amir Temur, Mir Alisher Navoiy, Bobur Mirzolar ko'kka ko'targan, ulug'lagan, ijod qilgan til ekanligidan faxrlanish tuyg'usini ham singdiradi. Shoir ona tilini ulug'lashga shunchaki da`vat etmaydi, aksincha "til" so'zining nafis ifoda va serqatlam ma'nolaridan ijodiy foydalanib, tajnis san`atining go'zal namunasini yaratadi va poetik mazmunni kuchaytiradi:

Bobur Mirzo she`rlaridan,
Rang va ohang olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Yoki o'gay sanar bo'lsam,
Qiyma-qiyima bo'lsin tilim,
Ona tilim - jonu dilim .

Tilni ardoqlagan lirik qahramon qalbidagi sha'n va g'urur, fidokorlik hamda samimi tuyg'ular kitobxon qalbiga ko'chib, ijtimoiy-ma'rifiy qimmat kasb etadi.

Anvar Obidjon "Maktab" she`rida mustaqil yurt farzandlarini ilm olishga, buyuk ajdodlarga munosib bo'lishga, ularning olamshumul ishlarini davom ettirishga chaqiradi. Bu bejiz bo'lmay o'tish davri ijtimoiy hayotida uchrovchi ayrim iqtisodiy tangliklar bolalarni maktablardan qisman uzoqlashtirgan edi. Ayrim ota-onalar moddiy manfaatdorlik dardiga mubtalo bo'lib, maktab yoshidagi farzandlarini ham shunga jalg qilishga urinishgandi. A.Obidjonning "Maktab" she`ri ana shunday kayfiyatdagi o'quvchilarga qaratilgan ma'rifiy da`vat edi, go'yo. Zotan, mustaqil yurt kamoli ajdodlariga munosib vorislar - ziyoga tashna yoshlarga bog'liq ekanini anglatmoq ijod ahli zimmasidagi ulug' mas`uliyat edi. Buni yaxshi anglagan shoir:

Baxtga narvon, bilimga kon erur maktab,
Zakovat doniga xirmon erur maktab.
O'g'il-qizlar, o'qing ulkan murod ko'zlab,
Ziyo topmoq uchun imkon erur maktab.
O'qing, minglab ahli dono kerak yurtga,
Yana Bobur, ibn Sino kerak yurtga . deb yozadi.

Anvar Obidjon har bandning so'nggi misrasida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, To'maris, Abdulla Qodiriy, Nodira, Cho'lpon singari buyuk allomalar, milliy qahramonlar, mustaqillik uchun jonini fido qilgan shoiru adiblarimiz nomini tilga oladi, yurtga ulardek insonlar kerakligiga o'quvchini ishontiradi. Bobolariga munosib farzand bo'lishiga da'vat etadi. Baxtli kunlar uchun ajdodlar oldidagi qarzdorlik hissini eslatish uchun takrorlarga murojaat qiladi. Talmeh san'atining qo'llanilishi she'rning badiiyatini yuksaltirib, estetik ta'sir kuchini oshiradi:

Surib davron, Vatanda xon bo'ling doim,
Qadoqqa'l bu elga darmon bo'ling doim.
Shahar tiklang, oching dunyo sari yo'llar,
Nomi besh qit'ada doston bo'ling doim.

O'qing, ongli qiz-u o'g'lon kerak yurtga,
Qodiriy, Nodira, Cho'lpon kerak yurtga...

Ma`rifatsiz elat maqsadga jam bo'lolmas,
Ma`rifatli o'lka yotga qaram bo'lolmas.
Agar maktab quyosh ersa, ilm nurdir,
Fikrsiz bosh ichra hattoki sham bo'lolmas.

O'qing, fikri yorug' avlod kerak yurtga,
Va ertangi taraqqiyot kerak yurtga

("Kichkintoylar uchun bayramlar kitobi", 20). M.A`zamning "Qirq bolaga qirq savol" she`ri bu turkumning yanada yorqin namunasi bo`la oladi. Shoirning savollari baayni "aqli chaqqonroq, "mitti janoblar" larga mo`ljallab berilib, teran mushohada yuritishga da`vat etuvchi jumboqlardan iborat ekani bilan ahamiyatli. Shoirning she`riy satrlari orasidan savol qilib berilgan jumlalarni aniqlashtirib olganda ham, ularga javob berish uchun kamida xalq va yurt tarixidan xabardor, turkiycha, o'zbekcha so'zlar va ularning serqirra ma`nolarini tushungan, o'tmish ajdodlarimiz, ulug' mutafakkirlarimizni tanish, ulardan iftixon qilish tuyg'usiga xalq dostonlari, qahramonlari, sarkardalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish iymon va e`tiqod nimaligini anglagan, sobiq tuzum falokatlari va asoratlari haqida eshitgan, umuman, o'z yurti, xalqi, Vataniga doir qomusiy bilimlarni egallahsga shay, idroki-yu tafakkuri uyg'oq qalblar bo`lmog'i joizligi anglashiladi.

Masalan, 4-savol shunday jaranglaydi:

"Turkiston" qanday nom?

"Turon" qanday nom?

Bu ulug' so'zlarni eshitganmisiz?

Ýshitgan bo'lsangiz ma`nosini ham,

Maydalab, sinchiklab tekshirganmisiz?

Tekshirgan bo'lsangiz, ayting, bularning

Sizga aloqasi bor ekanmi sal?

Yo siz boshqamisiz, Turon boshqami?

Menga javob ayting, javobki tugal .

Yoki 8-savol:

Nega bizning yurtimizda

Ozod degan bola ko'p?

Ozod, Ýrkin, Hurriyat deb

Ot qo'yganda otalar

Ne xayolga borishdiykin?

Qaysi bola aytolar?

Bugun bu savollarga javob berish oson tuyular. Ammo endigina mustaqillikka erishgan mamlakatning istiqboli qanday bo'lishi, o'z erkinligini mustahkamlay oladimi yoki bu juda qimmatga tushadimi, porloq istiqbolni orzu qilgan bilan o'zi paydo bo'ladimi, degan jumboqlar qalashib ketgan edi. SHu ma`noda ijodkorlar, jumladan, bolalar shoirlari katta jur`at va jasorat bilan uning kelajagini aniq tasavvur va bashorat qila oldilar, deyish mumkin.

Abdurahmon Akbar she`rlarida jajji lirik qahramon Shuhratjon "Bir daftar savol" tuzib, ularni "Bekatda tug'ilgan savollar", "Yo'lda tug'ilgan savollar", "Maktabda tug'ilgan savollar", "Uyda tug'ilgan savollar" singari guruhlarga ajratib oladi. Ya`ni "Gulzor" deb nomlangan bekat atrofiga nega gul o'smasligi, bobosining bobosi kim bo'lganini, o'zbek degani o'ziga bek deganimi kabi mushohadalar yosh qahramonga tinchlik bermayotgani baayni tafakkurdagi evrilishlar natijasi edi. Yosh avlod ham shó tariqa kattalar bilan yonma-yon o'zgarayotgan yurt, jamiyat, dunyoqarashda faol ishtirokchi sifatida badiiy talqin etildi. CHunki A.Obidjonning "Jumboq" she`rida ta`kidlanganidek:

Bu olamning jumbog'i ko'p,
Bu olamning so'rog'i ko'p,
Bu olamda savol cheksiz,
Bu olamda xayol cheksiz... ,

- ekanligini mustaqillik yillarida katta-yu kichik teran his qilgani, ularga birin-ketin javob topish uchuí bolalar shoirlari ham tinimsiz izlangani ayonlashadi. Xususan, ixchamgina she`rlarga zalvorli

fikrlarni ortish an`anasi kengaydi, turli poetik ifodalarni yangilash orqali bolalar she`riyati yangi obrazlar, mazmun va shakl bilan boyidi.

Bilimning kuch-qudrati nimalarda ekanligini, ajdodlarimiz ham ilm-ma`rifat orqali yurtimizni dunyogà tanitgani obrazli tasvirlarda beriladiki, o'quvchi undan ham estetik zavq, ham ma`naviy quvvat oladi. Mustamlaka yillarida yo'qotilgan qadriyatlardan iftixor va kelajakka ishonch tuyg'ularini qayta tiklashda ushbu she`rning ma'rifiy-ijtimoiy ahamiyati nihoyatda kattadir.

Shu bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni endilikda ko'proq mantiqiy bilimlar, insonning ruhiy kechinmalari, tabiat va jamiyat munosabati masalasi qiziqtirayotgani sir emas. R.Tolibning "Kim baxtiyor?" she'ri shu ma'noda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tabiatiga monand:

O'tirib goh Mirjalol,	O'zicha aytar bobo:
O'zicha surar xayol:	"Alam qilarkan goho,
"Bobom qanday	Ko'z xira oyoq og'rir,
baxtiyor?	
O'zlarida ixtiyor,	Keksalik ekan og'ir.
Birov bermaydi tanbeh.	Yaxshi emas ishtaham,
Yanglishsalar hamki ...	Unum yo'qdir ishda ham,
eh,	
Doim hurmatda bobom.	Tunbo'yi kelmay uyqu
Hamma beradi salom,	Bosar keksalik, qayg'u.
Joy tayyor, dimog'i chog',	Qani, endi bo'lsam yosh,
Avtobusga chiqqan chog'	O'tirmasdim qashlab
	bosh.
"Bobomlarga maza xo'p,	Kuchi, sog'liqlari bor,
Uxlaydilar rosa ko'p.	Yoshlar qanday
	baxtiyor?"
Xunob bo'lib erta-kech,	

Misol yechmaydilar hech.

She'rda inson umrining ikki qarama-qarshi qutblari – keksalik va yoshlik yuzma-yuz kelgan. Shoир keksalikni dastlab, zohiriy jihatlarinigina bola tasavvuri orqali aks ettiradi. Bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos bo'lgan uyquni yaxshi ko'rish, arifmetik misol va masalalardan xunob bo'lish, shumtakaliklari uchun dakki yeaverish kabilar bilan muvoziy qo'llanib, tasvirdagi aniqlikni ta'minlay olgan. Bobo o'ylari orqali esa umr poyonidagi botiniy kechinmalar, qarilikning o'ziga yarasha tashvishlari his qilinadi. Yosh kitobxon bobo va nevara xayolidan ogoh bo'lgach, keksalarni ko'proq e'zozlash zarurligi, haqiqiy baxtiyorlik esa yoshlikda ekani, "bosh qashlab" o'tirmay, bilim olish, izlanish zarurligini anglaydilar.

Adabiyotshunos R.Barakayev "Boshlang'ich sinflarda Anvar Obidjon ijodining o'rganilishi" maqolasida: "Yosh bola tabiatan xayollar ummonida suzishga, orzular qanotida parvoz qilishga moyil bo'ladi. Ulg'ayib qaysidir kasb egasi bo'lish, o'zi sevgan kasbni puxta egallab el-yurtga nafi tegishini xohlamaydigan, biror ishni qoyillatib bajarib, boshqalarni hayron qoldirishni istamagan bola bo'lmasa kerak" deydi va shoirning "Yaxshi niyat" she'rini tahlilga tortadi. Xayol surayotgan kichkina Avazga otasi (yoxud bobosi) "Qaylarga uchdi zikring?" deb savol bergenida:

U der: "Qaniydi bo'lsam
Men quruvchi-kosmonavt.
Qurar edim oyda ham
Bog'cha, maktab, internat"

deya javob beradi .

Orzular olamida yashash bolalikning o'ziga xos jihatni. Jahon bolalar adabiyotining eng go'zal namunalari ham romantik o'y-xayollar, bolaning fantastik tasavvurlari mahsuli bo'lgan asarlardir (Pushkinnin "Tilla baliq va baliqchi chol haqida ertak"ini eslash kifoya).

Istiqlol davri bolalar she'riyatida xalq og'zaki ijodining, xalqona pedagogika va didaktikaning turli-tuman janr va motivlariga xos bo'lgan xususiyatlarning keng qo'llanilayotgani poetik an'ana va vorisiylik tuyg'usining yashovchan xarakterini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalar uchun mo'ljallangan asarlarda milliy koloritning kuchayishiga, xalqona hikmatlar, matallar, maqollar, o'tkir iboralarning bolalar ongiga singishiga, pirovard natijada ularda milliy qadriyatlardan oziqlanuvchi go'zal fazilatlarning shakllanishi va yuksalishiga, nutqining boyishi o'zbekona tushuncha va atamalar bilan sayqal topishiga xizmat qiladi. SHuning uchun istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotining kattagina qismini she'riy ertaklar tashkil etishi kuzatiladi. Anvar Obidjonning "O'g'irlangan pahlavon haqida ertak", "Odil Burgutshoh va "Zamburug" laqabli jesus haqida ertak", "Bulbulning cho'pchaklari" kabi turkum she'riy ertaklari, yumorga boy she'rlari hamda "Meshpolvonning janglari" kabi ertak-dostonlari shular jumlasidandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida adabiy jarayonda qanday o'zgarishlar kuzatildi?
2. Bolalar adabiyotida yangilanish qaysi adabiy turda ko'proq ko'zga tashlanadi?

3. Sho'ro davri bolalar adabiyotining byakrangligi nimada edi?

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

3-MAVZU. BOLA RUHIYATINI YANGICHA IDROK ETISH USULLARI

Reja:

1. Bola obrazining realistik, hajviy, ramziy majoziy talqini.
2. Bola obrazida milliy, umuminsoniy qadriyatlar.

Tayanch tushunchalar: *lirik qahramon, realistik ifoda, ramz, majoz, hajv, ummuminsoniy, qadriyat, allegorik, poetic, simvol, tazod, tashbeh, sochma.*

Istiqlol davri bolalar she'riyatida bolalar obrazini yaratishda yangi bosqich boshlandi. Zero, o'tish davriga xos bo'lgan ziddiyatu murakkabliklar bolalar dunyosiga ham daxl qilib, o'ziga xos ruhiy holat, vaziyatlarni vujudga keltirdi. Natijada, bu davrda yaratilgan she'riy asarlarda bolalik olami ko'proq voqelikka, narsa-hodisalarga, keng ma'noda, butun olamga munosabatlar tarzida namoyon bo'la boshladi. Shu jihatni bilan u shoirning estetik ideali darajasiga ko'tarila boshladi.

Aslida, "estetik ideal" kategoriyasi badiiy asarning mag'ziga singdirilganda asarning mohiyati, ayniqsa, ta'sirchanlik darajasi

ortadi. Bunga mumtoz adabiyotimizning tarixidan ham, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ham, milliy qahramonlarimiz obrazlari gavdalantirilgan tarixiy asarlardan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy yaratgan Farhod va SHirin, Layli va Majnun; xalq og'zaki poetik ijodining bahodirlik timsoli bo'l mish Alpomish, G'o'ro'g'li; yoxud zamonaviy o'zbek nasridagi sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi obrazlari bosh qahramon qilib olingan asarlar fikrimizni dalillaydi.

Ayniqsa, istiqlol arafasida yuzaga kelgan va istiqlol bergen erkin ijod muhitida bitilib, kitobxonlar qo'liga tekkan ko'plab asarlarda ijodkorlar milliy qadriyatlar va xalqona ideallarni qahramonlar xarakteri, voqealar silsilasi, dramatik to'qnashuvlar tasviri orqali real ko'rsatib, adabiy jarayonga yangi nafis, milliy ruh olib kirishdi. Azaliy qadriyatlar, boqiy mavzularga murojaat etish orqali bolalik olamini yangicha idrok etishga intilish ortgani ham muhim etakchi xususiyatlar sirasiga kiradi. Zotan, bolalik dunyosini "ezgulik", "go'zallik", "tiriklik mohiyati", "insonparvarlik", "adolatparvarlik" singari estetik ideal bilan uzviy bog'liq tushunchalardan xoli tasavvur etib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida yaratilayotgan badiiy asarlarda xalqimizning mental tafakkuri, zamondoshlarimizni bezovta qilgan fikr-o'ylar o'zining ancha jozibali talqinlari bilan e'tiborni tortadi. Ýng muhimi, bu xususiyat millat ma'naviyatiga xos azaliy qadriyatlarni quruq didaktik pand-nasihat negizida targ'ib etish, ulug'lash va yoki shunchaki eslatish yo'sinida emas, balki jonli hayot

voqealari, zamondosh kishilar ruhiyati orqali obrazli tasvirlash tarzida namoyon bo'ladi. Shu bois, o'zbek bolalar adabiyotining istiqlol davriga xos poetik izlanishlarda ma`naviy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar, an`analar bola dunyosini badiiy-estetik idrok etishda o'ziga xos milliy kolorit yaratish vositasiga aylandi.

Yangicha poetik obraz va timsollar, badiiy tasvir vositalari orqali badiiy ifodalana boshladи. Zotan, she`riyatda ruhiyat tasviri, asosan, lirik "men" kechinmalari asosida yoritiladi. Shunga ko'ra, lirik "men"ning oniy holatdagi kechinmalarini bolalik olamining o'ziga xos manzaralari, deyishimiz mumkin. She`r lirik "men"ning lahzalik holat-kechinmalarini abadiyatga muhrlagani bois istiqlol davrida yaratilgan va bolalar qalbida kechgan tuyg'ularni ifoda etgan manzumalarni o'z mazmun-mohiyati, shakli, uslubi nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Bolalarning ruhiy olamini realistik tasvirlar orqali aks ettiruvchi she`r va dostonlar.
2. Bola ruhiyatini hajviy tarzdagi tasvirlarda ifodalovchi asarlar.
3. Bolalik olamini ramziy-majoziy obrazlar orqali tasvirlovchi she`riy asarlar.

Demak, mustaqillik davri bolalar she`riyatida shu uch etakchi yo'nalishda bolalik olami, ularning ruhiyati va jonli hayotiy obrazlar yangicha poetik kashf qilinmoqda.

T.Adashboev, Q.O'tayev, Anvar Obidjon, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar kabi shoirlarning bir turkum she`rlarida

bolalik olamining realistik tasviri etakchilik qiladi. Bu shoirlar she`rlarida tasvirlangan bolalar mustaqilligimizning buyuk ne`mat ekanini his qiladigan, u bilan faxrlanadigan, Vatan, Ona zamin singari muqaddas tushunchalarni qalban his etadigan qahramonlardir. Jumladan, T.Adashboyevning "Tuproq" she`rida lirk qahramon ona zaminga hamdu sano o'qimaydi, aksincha, ayni mavzuda fikrlar ekan tuproqni qadr-qimmatli, ota-bobolarimizdan bizga qolgan muqaddas meros, ona-Vatanning bir bo'lagi sifatida his badiiy idrok etadi:

Ajdodlardan meros bo'lib
Qolgan tuproq.
Bobolarning qon va teri
Tomgan tuproq

Lirk qahramon ta`rifidagi "qon va ter" otameros vatanning o'ziga xos tarixidir. Shoir ushbu tushunchalàð ko'lамини keyingi misralarda o'ziga xos tarzda kengaytirib poetiklashtirish asnosida antiteza usulidan mohirlik bilan foydalanadi:

To'kin sochin dasturxonni
Solgan tuproq.
Dori-darmon, sinovlardan
Tolgan tuproq ("Orzularim - qo'sh qanotim", 13).

"Qotilni ham, botirni ham" ehtiyotlab, birday qabul qilgan bag'ri keng ona-tuproq suratini badiylashtiradi. Ýng muhimi, yosh kitobxon she`rni o'qish barobarida yurt tuprog'ining quruq madhi - maqtovlarini emas, o'ziga xos og'riqli qismatini ham birdek anglaydi va his qiladi. "Zar uqali" she`rida shoir mustaqillikka ta`rif berar ekan, "paxtaday oq", "sutdayin oq", "iy mondayin toza"(16) kabi ixcham sifatlashlarni o'rinali qo'llaydi.

Rustam Nazarning "Vatan tuyg'usi" she`rida esa boshqacharoq manzarani kuzatamiz. She`rda muallimning Vatan haqida ko'plab allomalar aytgan fikrlarini keltirish orqali o'quvchilarda tasavvur hosil qilmoqchi bo'lgani, kichik kitobxonning esa vatan haqida, soddagina bo'lsa ham, o'z tushunchasi, o'ç fikri bo'lishini orzulab, ustoz keltirgan fikrlardan qoniqmasligi tanqidiy ruhda fosh qilinadi va bundan quyidagicha xulosa chiqariladi:

Nedir Vatan tuyg'usi?
Xayollarga tolarmiz.
O'zgalarning fikrini
Aytib maqtov olarmiz!

Shoir she`rda lirik qahramonning Vatanga muhabbati, his-tuyg'ulari o'zgalarning chiroyli, hatto teran mantiqli so'zlari bilan emas, balki har bir bola o'z qalbida his etgan, aql-idrokidan sizib chiqqan ta`riflar bilan ifodalanishini orzu qiladi. Shoirning "Urush qurban" she`rida ham mustaqillik tushunchasininā ohorli, yangicha talqiniga guvoh bo'lamiz. Urush vaqtida dushmanlarga qarshi kurashib, halok bo'lgan va rus zaminida dafn etilgan o'zbek askarining ruhi mustaqillikka erishganimizdan so'ng ona Turonga qaytadi va urushni la`natlaydi. Uning bezovta ruhi urush bo'limganda tanim yot ellarda "muhojir" bo'lib yotmasdi, deya xitob qilib kitobxonda urushga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otadi.

Abdurahmon Akbarning "Quyosh" she`rida O'zbekistonning poetiklashgan manzarasi yaratilib Quyoshning turli mintaqalarga xos tasvirlari chiziladi. Masalan, olis Shimol yurtlarida qishda quyoshni oylab chiqmasligi, bolalarning uni intazorlik bilan kutishlari, Birma, Hindiston kabi mamlakatlarda esa uning yomg'ir

mavsumida bulutlar orqasiga berkinib olishi bolalar idrokiga mos tarzda gavdalantiriladi. She`rda O'zbekiston tabiatining o'ziga xosligi, hatto qishning chillasida ham quyosh o'zining iliq nurlarini sochishi yuqoridagi manzaralarga qarama-qarshi qo'yib tasvirlanadi. Quyosh obrazining makoni tasviri orqali serquyosh yurtimiz fazilatlari ta`riflanadi. Keltirilgan qiyoslar bola qalbiga Vatan mehrini muhrlashi bilan qimmatlidir.

Dilshod Rajabning bir turkum she`rlari ham Vatan mavzusiga bag'ishlangan. Jumladan, "Vatan haqida she'r"da ona-yurtga muhabbat tuyg'usi bolalar ruhiyati bilan uyg'un tarzda tasvirlanadi. SHe`rdagi voqealar maktab o'quvchilari hayotiga oid bo'lib, shoir undan muhim ma'rifiy ma`no chiqara olgan. Xoin rolini o'ynay lirik qahramon maktab sahnasidan turib "ko'r bo'l, Vatan" deb aytishi lozim edi. Lekin u sahnaga chiqqanda bu so'zlarni nafaqat aytishni istamaydi, balki to'garak rahbarining "bemani" etoviga yurishni xohlamagani uchun sahnani ham, dramto'garakni ham tark etadi:

Shu kun kelib uyimga, yonib
Ilk bor oldim qo'limga qalam.
Yurtin so'kkan xoinni yanib,
Yozdim unga o'ch-nafrat bilan .

Shu tariqa, lirik qahramon sahnada rol o'ynovchi aktyor emas, balki yurt madhini kuylovchi shoирgà aylanadi va vaqt kelib o'sha sahnada vatan haqidagi she`rini o'qiydi. Anglashilarlik, lirik qahramon ruhiyati bolalar psixologiyasi kundalik hayotiga, mashg'ulotlariga mos bo'lgan tabiiy, xarakterli epizodlar orqali tasvirlanayapti. Dramto'garak, maktab sahnasi, turli-tuman rol o'ynashlar - bular barchasi bolalar hayotiga oid voqealari hodisalardir.

Shoir bolalarga tanish bo'lgan ana shunday voqelikdan muhim ma'rifiy xulosa chiqara olgan.

Dilshod Rajabning "Baxshi bola - yaxshi bola" she'riy to'plamiga kirgan shu nomdagi turkum she`rlarida milliy qadriyatlar va urf-odatlarga hurmat, vatanga muhabbat, faxr-iftixor, ertangi kunga ishonch, ezgo orzular, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, bolajonlik, halollik, yaxshilik kabi milliy-mental g'oyalarning umuminsoniy miqyos kasb etishini ko'rish mumkin. An'anaviy mavzu doirasidani poetik ifodaning yangiligi, xalqona ohangning milliylik, vatanparvarlikka yo'g'rilgan holda baxshi bola tilidan ifodalanishida ko'rindi. She`rning asosiy g'oyasi - vatanparvarlik. Boshqa barcha yondosh g'oyalar uning tarmoqlari bo'lib, markaziy g'oyani yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan. O'z millatidan faxr-iftixor tuyg'usini his etgan baxshi bola xalqimizga xos fazilatlar, milliy qadriyatlarimizni tarannum etadi. Shoir xalqimizga xos mehnatsevarlik, bolajonlik fazilatlarini dala va bola detallariga ishora qilish orqali o'ziga xos ifodalagan:

...Niyatlari pok - asl
Ichida yo'q kir - qorasi,
Uning jondan suygani
Dalasiyu bolasi.

Navro'zi olam madhiga bag'ishlangan she'rda ham vatanparvarlik tuyg'usi milliy qadriyatlar, yaxshiliê, mehnatsevarlik tushunchalari bilan yo'g'rilgan holda, go'zal bahoriy tabiat ifodasi orqali namoyon bo'lgan. Shoir kamalak tasvirini o'ziga xos, original tasvirlar orqali mehrli, nurli misralarga joylagan.

Sumalakni yalanglar,

Kamalakka qaranglar -
Eru ko'kni bog'lagan
Nurli ko'prik bu ranglar ("Baxshi bola - yaxshi bola",
9).

Shoir navro'zi olamni nafaqat elning, balki dilning ham bayrami deya haqli ta`riflar ekan, bu ulug' kunda qalblarni poklashga, yaxshilikka intilishga da`vat qiladi.

Ta`kidlash zarurki, bu davrda yaratilgan aksariyat she`rlar badiiy jihatdan baquvvat, ijtimoiy mazmuni salmoqli, fosh qilish pafosi, estetik qimmati bilan e`tiborni tortadi. Shu jihatdan, ayniqsa, T.Adashboev, Anvar Obidjon, Q.O'taev, H.Imonberdiev, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar kabi shoirlarning ijodi alohida ahamiyatga egadir.

D.Rajabning "Dehqon dalasida" turkumidagi to'rtliklarida yangi poetik detallar uchraydi:

Tinmay ishlar, er chopar dehqon,
To kechgacha, saharlab turib.
"Dam oling" deb yolvorar ketmon,
Oyog'iga har dam bosh urib .

Ketmon nimaligini shaharda yashovchi bolalarning aksariyati bilmasligi rost. Ammo unda dehqon tinmay er chopishini eshitgan. Ketmon dehqon "oyog'iga bosh urishdagi kinoyani katta avlod darrov ilg'aydi, yosh avlod esa ketmonga rahm qilmagan dehqonni ko'z oldiga keltirib, kulib qo'yadi. Ketmonga dam berish zarurligini anglaydi (axir, bola nazarida ketmon tinmasligiga dehqon sababchida). SHunday bo'lsa-da, bola qulog'iga quyilib qolgan satrlar vaqt kelib mustaqillikkacha bo'lgan davr xalqimizning og'ir mehnat azobini boshidan kechirgani, ammo dehqon dam olmay ishlasa ham, "kosasi oqarmaganini, ya`ni shoirning bu haqdagi kinoyasini

tushunib etadi. SHoir she`rining g'oyadorligi ana shunday kinoyaviy ifoda orqali yanada teranroq anglashiladi. Ammo bola uchun uning tashqi sifati - obrazli tasviri muhim.

Shoir ijodida ma`naviy san`atlardan foydalanish, badiiy so'z va uning ko'p qirrali ma`nosini poetiklashtirish hodisasi ham ko'p uchraydi. SHu jihatdan D.Rajabning "Belkurak" she`rida lingvopoetik xususiyat orqali g'oyaviy dolzarb fikr ilgari surilgani namoyon bo'ladi:

Dehqon bobo, doim tik-ku belkuraging,
Lekin nechuk hol-ahvoling, bel, kuraging?
Keng maydonga tushgan chayir polvon o'zing,
Tolmagaysan, sira ko'rmas er kuraging.

Ta`kidlab ko'rsatilgan so'zlar shakl va talaffuzda bir xil bo'lgani bilan ikki tushunchani (birinchi - mehnat quroli belkurakni, ikkinchisi inson ta`na a`zolari bo'lgan bel, kurak somatizmlarini) ifodalayotgani anglashiladi. Bu - bolalar tasavvuri uchun yangi topilma. Bolalar dehqonning qo'lidagi belkurak bilan beli va kuragi qanday aloqadorligini dastavval ilg'amasligi mumkin. Poetik tafakkur yangilanishi takomillashgani sayin bolalar mutolaasida, dunyoqarashida yangilanish, evrilish yuz berishi tabiiy. Natijada, dehqon bobolarimiz bir umr belkurakda er qazib, tuproq olib, o'z bellari, elka va kuraklari og'rish-og'rimasligiga e'tibor ham bermay qo'ygani, alal-oqibat qaddini tik tutishga ham qiynaladigan bo'lib qolish sabablarini anglab etadilar. SHunday bo'lsa-da, asl polvonlar kuragi erga tegmasdan - yiqilmay-engilmay dong taratgani mantiqiy xulosadir. Bu ikki so'z tajnisning betakror namunasi hamdir. Dilshod Rajabning "Panshaxa", "Panshaxaning e'tirozi" she`rlarida ham bolalarcha tafakkur birlamchè ma`no kasb etadi:

O'ylab so'yla,
Birodar,
Besh panja ham
Barobar.

Shoir narsa va predmetlarning nomlanishiga ham bolalar tili, tasavvuri bilan qaraydi. Ularning fikrlashini tom ma`noda ma`qullashga erishadi. Ya`ni tashqi shakl, birlamchi ma`no bola uchun asosiy ekanligini anglaydi. Yoki shoirning "Jumboq bola" she`rida o'qiymiz:

Qor desang, bobo deydi (qorbobo),
Muz bilan qaymoq eydi (muzqaymoq),
Teshikdan kulcha ko'rар (teshikkulcha),
Atirni gulday terar (atirgul).
Toshlik baqa bo'lar, der (toshbaqa),
Soat qumga to'lar der (qumsoat),
CHechakni boy deb aytar (boychechak),
Boltani oy deb aytar (oybolta).
O'zi qandoq bola bu,
Ajib, jumboq bola bu!

Chindan ham, qavs ichidagi so'zlarning jumboqligi bolani fikrlashga undaydi va bola o'zicha ularning izohini shu tarzda talqin qilishi tabiiy. SHoir esa bolalar fikrini, nutqini shunchaki she`rga tushirgandaé go'yo.

Bolalar she`riyatida poetik tafakkur yangilanishining yana bir ko'rinishi geometrik yoki shakliy, figurali she`rlarning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Bu jihat D.Rajabning poetik ifodani musavvirga xos tasvirlashida yorqin kuzatiladi. SHoirning o'zi ham bu turkumni "Musavvirning she`rlari" deb nomlagan. Jumladan, uning "Tanbeh" she`rida ham mazmunan, ham shaklan belkurakning musavvirona chizilgan tasvirini ko'rish mumkin:

To'plaganing bor-yo'g'i
Ikki uyum xas-xashak.
Darrov cho'zilib olib
Yotganing ne, Xashxashak?

SHuncha erni ag‘darib,
O‘tirmasdan yana, ko‘r;
Ishlayman, deb,

B
E
L
K
U
R
A
K

T i k k a
u n
r a
a k
R o‘

Rasmda ham, mazmunda ham belkurakning tikka turgani shu tariqa chizilishi bola uchun ikki ma`noda muhim. Avvalo, u belkurakni hali ko‘rmagan bo‘lsa, rasmidan bilib oladi. Ikkinchidan, shu shakl - rasmga joylashtirilgan so‘zni to‘g‘ri topib o‘qish uchun ham qunt kerak. Buni uddalay olsagina, badiiy-estetik zavq olishdan tashqari, ijodiy tafakkurlay bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Natijada keyingi she`rdagi rasmga yashiringan so‘zlarni topishga oshiqadi. Uning mazmuni topishmoq janriga ham o‘xshaydi:

Aytish joizki, so‘zlari shaklga yashiringan she`rning ilk namunalari soddarоq mazmunga ega bo‘lsa ham, bu keyingi mazmundor, yanada tafakkurlashga etaklovchi, purma`no satrlar tilsimlanishiga yo‘l ochishi jihatdan muhimlik kasb etadi.

Dilshod Rajab ijodidagi figurali she`rlarni mantiqan jahon va rus adabiyotida mavjud grafikali she`rlarga qiyoslash mumkin. Tadqiqotchi olimlar fikricha, bolalar uchun yozilgan har bir satr she`rdan rasm

chizish mumkin bo‘lishè shart. Bunday ijod namunalarini grafikali she`r deb ataladi.

Demak, bolalar uchun grafika, rasmlar orqali mazmunni to‘ldirish, boyitish, o‘quvchi diqqatini jalb qilish uchun muhim. Ko‘rinadiki, hozirgi o‘zbek bolalar she`riyati poetik tafakkur yangilanishi jihatidan e`tirofga arzigulik tarzda davom etmoqda. Ishimizning dastlabki sahifalarida sanab o‘tilgan tadqiqot va dissertatsiyalarning aksariyati istiqlol yillarida yozilgani e`tiborga olinsa, poetik tafakkur yangilanishi tadriji faqaò ma`no va mazmunda emas, shakliy o‘ziga xosliklarda ham namoyon bo‘layotgani oydinlashadi. Jumladan, o‘zbek bolalar she`riyatida yangilanayotgan shakliy o‘ziga xosliklar toifasiga alifbe she`rlar, "uchchanoqlar", "ikkiliklar", "ignabarglar" deb nomlanuvchi adabiy janrlar misol bo‘la oladi.

O‘zbek bolalar she`riyatida shakl ixchamligi-yu, ma`no kengligining yorqin namunalaridan biri "ignabarglar"dir. Rost, bugun hatto bir so‘zdan iborat "she`r" haqida ham bahs boryapti. SHunga o‘xhash bir satrli she`rlarning istiqboli noayon bo‘lsa-da, hozir yashayapti. So‘z uning badiiyati haqidà borsa, bahstalabligi aniq, ammo poetik tafakkur yangilanishi yoki aynan serqirra ma`no bildiruvchi poetik ifodalarning bolalar adabiyotidan o‘rin olayotgani e`tirofga loyiq. A.Obidjon ijodiga xos bu shakl namunasi haqida mulohaza bildirilgan, albatta. Jumladan, Q.Yo‘lchievning "Ignabarg she`r va tinish belgilari" maqolasida bunday she`rlar semantik mazmuni, stilistik ifoda tarzi, ko‘p nuqtalarning fikr davomiyligi, kuchliligi, ta`sirchanligi bilan bog‘liq jihatlariga e`tibor qaratilgan. Aytaylik:

Yirtiq paypoq nafaqa kutar...

- misrasidagi ko‘p nuqta kinoya va fikrning davomi borligini bildirishi ta`kidlanadi. Paypoq aniq shaxs obrazi bo‘lishi haqiqatga yaqinroq deyiladi. "Yirtiq" epiteti esa uzoq yillar ishlab, o‘zining bor imkoniyatlarini ishga solib charchagach, yordam, ya`ni nafaqa kutishi shart va tabiiylici ko‘rsatilgan tarzda xulosa chiqariladi.

Albatta, o‘quvchilar tafakkuri, idroki turlichaydi. Har qanday she`r yoki hikoya haqida tugal xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Davr, shaxs, makon va zamon, tafakkur yangilanishi bilan yangi talqinlar paydo bo‘laveradi. Shu jihatdan qaraganda, yuqoridagi ignabarg she`rning yanada serqirra ma`nosini axtarishdan charchamaslik kerak, nazarimizda. Bunda kiyim-kechaklar orasida eng arzoni, shu bilan birga, eng ko‘p xizmat qiladigan, ezilgan, qisilgani paypoq bo‘lsa-da, yangisini sotib olishga hamisha oylikdan nasib qilmaganiga istehzo qilinadi. SHuningdek, nafaqa ham ishga yaramay qolgandan keyin beriladigan juda oz miqdordagi pul ekaniga sha`ma bor. Asosiy mehnatni qiladigan odamni rag‘batlantirish hech kimning esiga kelmasligi kinoyasini ham sezish mumkin va h.k.

A.Obidjonning ramzlar, kinoya va majozga, yumorga to‘la ijodi e`tiborga olinsa, hayotdagi achchiq haqiqatlar uni so‘z aytishga undaydi, deyish o‘rinli. Zotan, shoirning "Zindonda bit? Gunohi nima?", "O‘zi oqil, nafsi g‘irt jinni", "Sotib oldim uch kilo kitob", "Ro‘molcha bor, Dezdemona yo‘q", "SHe`r yozmadim... Ana mahorat!", "Suvni taloq qilgan mish Orol...", "Bilaman, sen maqtaysan qarzga" kabi ignabarglarida ana shunday kinoya tajassum . Bu misralarni o‘qigan yosh kitobxonlar hech bo‘limganda birlamchi ma`nolarini anglashi maqsadga muvofiq. Aytaylik, Orolning qurishi va taloq so‘zining ma`nosini yoki laganbardorlar hamisha manfaat yuzasidangina birovni

maqtashi, yaxshi insonlar ham mansab kursisiga chiqqach, nafsi hakalak otib, yo'ldan ozishi, vafodor qizlar qolmagani kabi o'tkir haqiqatlarni anglamaslik mumkin emas.

Shoir ikkiliklari sarlavhaga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati aforizm, hikmatli so'zlarga o'xshab ketadi. Masalan, "Chalaturkiylik" (Satangso'z to'dalar aro giz-gizlab, Yuribman... kasalmand tilimni izlab..), "Zo'rlovsiz turmush" (- Narxi ne-da erkning? Cho'qqisi qayda? - Erk - tazyiqdan qo'rquv bo'limgan joyda..), "O'zimiz kim?" (O'ng ko'zing aldansa, gar chap ko'zingdan, Bil, ular o'rgangan buni o'zingdan) kabi ikkiliklarida ma`no va mazmun aniq tushunchaga ega.

Uchchanoqlar ham shoir ijodining alohida mahorati sanalib, ko'pchilikning e`tiboriga tushgan. "Uchchanoqlar, – deb yozadi L.Sharipova, – bolalarga o'git, kattalarga berilgan tanbehdir. Odatda, A.Obidjon uchliklari a-a-b tarzida qofiyalanadi. XX asrning ikkinchi yarmida dunyoga kelgan uchchanoqlarda hamma biladigan so'zlar shunday tartibda berilganki, uch qisqa satr ulkan xulosani qamray olgan. Uchchanoqlar sodda libosdagi ulug'vor falsafiylik sifatida o'zbek uchligini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa bildi".

Haqiqatan, uchchanoqlar bolalar she`riyatida yangi poetik tafakkur namunasi sifatida teran tadqiqotlarga ega bo'lmoqda. Muhimi, ular bolalar adabiyoti mulkiga aylanib ulgurdi.

O'zbek bolalar adabiyotida bunday yangi adabiy tur va janrlarning kirib kelishi ham o'ziga xos badiiy-estetik, xalq va millat tafakkuridagi ko'tarilish jarayonidan belgidir. Shu o'rinda yangi she'rié janrlar haqida munosabat bildirgan Q.Yo'ldoshning fikrlari ham

e`tiborga loyiq. Olim A.Boyqo‘ziev ijodidagi milliy poeziyamiz tarixida ko‘rilmagan ikki, uch, to‘rt, besh so‘zdan iborat she`r janrlarini yaratib, “beshnavolar”, “choryorlar”, “uch og‘aynilar”, “irmoqchalar” deb ataganini e`tirof qilib, ularning mohiyati haqida: “She`r qancha qisqa bo‘lsa, unda aytildasdan, ishora qilingan narsa shuncha ko‘p bo‘ladi. Bunda she`rxonga matndan turli-tuman kashfiyotlar qilish imkoniyati beriladi”, - deb yozadi.

Chindan ham, qisqa misralarda badiiy so‘zning ifoda imkoniyatlari kengayib, o‘quvchini mushohadaga undashi jihatidan ham poetik tafakkur evrilishlari yangilanib boraveradi.

Hozirgi bolalar she`riyatidagi poetik tafakkur yangilanishi shakliy o‘ziga xosliklar orqali namoyon bo‘layotgani haqida so‘z borganida, A.Akbar ijodini tilga olish joiz. Shoirning she`riy hikoyalari shó ma`noda ahamiyatli. “Dadamning qalbi”, “Dadamning fikri”, “Ari”, “Supacha”, “Dadamning hazili” kabi she`rlarning har biri mustaqil syujetga ega bo‘lsa-da, aynan lirik qahramonning dadasi haqidagi xotiralar ularni birlashtirib turadi. Bu holat Hamzaning XX asr boshlaridagi “Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi”, “Bir kishining bor edi to‘rt bolasi” kabi she`riy hikoyalari vazn va qofiyalanishi (a-a, b-b, v-v ..), ritmikasi jihatidan tashqari syujeti, kompozitsion butunligida (tugun, kul'minatsiya va echimi) ham kuzatiladi. A.Akbarning she`riy hikoyalari sinkretik xususiyatlarga ega. Masalan, turkumdagи birinchi she`riy hikoyani o‘qiymiz: “Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to‘rt she`ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu,

ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko‘rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish..."

Uni bu shaklda ham o‘qish mumkin:

Armon uyasimish / dadamning qalbi	a	6+5 =11
Dadamning qalbida/ kularmish sevinch	b	6+5 = 11
Dadamning qalbida /ummon bor emish	v	6+5 = 11
Bor emish dadamning/ qalbida ilinj	b	6+5 =11
Yozgan uch-to‘rt she`ri /dadam qalbining, a		6+5 = 11
topgan quvonchi-yu / ozori emish	b	6+5 = 11
Dadamning yuragi /dunyo ko‘rmagan	v	6+5 = 11
sonsiz fikrlarning /mozori emish	b	5+5 =10

Ko‘rinadiki, ritm va ohang jihatdan, qofiyalanishi va hijolar miqdoriga ko‘ra barmoq vaznida yozilgan she`rga osongina tushdi. Ammo unda hikoyaga xos bo‘lgan kompozitsiya, biror voqeа tafsiloti yo‘q. Shunga ko‘ra uni sochmadagi, nasrdagi she`r shaklida aytish to‘g‘iroqdir. Bu shaklning bolalar adabiyotiga olib kirilishida esa shoirning poetik mahorati e`tirofga loyiq.

Turkumdagи "Supacha" deb nomlangan hikoya esa noan`anaviy uslubi bilan ajralib turadi. Uning syujetida hikoyaga xos voqeа boshlanmasi (Azim tuti bo‘lgan bu uyning ko‘chaga qaragan betida, odamlar-la doim serqatnov yo‘lakchaning shundoq chetida, bo‘lar ekan mo“jaz supacha), voqeа rivoji (Unga sholcha, ko‘rpacha solib, ammajonim o‘tirarkanlar salomlarga aliklar olib. Cho‘kkalarkan dadam ham ba`zan (ko‘proq ishdan uyga qaytgan dam) - Bollarining og‘zi tegsin, - deb, tut tutarkan so‘rashib ammam. Hayot hayot ekan-da qarang, ammamiz ham fursati etib, o‘tibdilar yorug‘ dunyodan...), tugun (Qaysi bir kun razm solsalar devor yoni emish tep-tekis), kul'minatsiya (Odamlar ham sezmasmish ajab -

supachadan qolmagan mish iz. Bir necha kun faromush bo'lib, joy topolmay qo'yarga o'zin, tillaridan qo'ymadi dadam, "fosiq" so'zin, "supacha" so'zin), echim (fosiqlik ham asli g'am ekan. Tashrifi tez ekan bu g'amning. O'z bolasi buzib tashlabdi supachasin Oygul ammamning) kabilar kompozitsion butunlikni tashkil eta olgan. Uni ifodali o'qiganda ohang va ritm jihatdan erkin she'r vaznining chiroyli namunasi hosil bo'ladi. Bunda A.Akbarning, avvalo, iste'dodli bolalar shoiri ekanligini, boshqa tomondan, o'tgan asrning boshlarida jadid adabiyotida Fitrat, Cho'lpon ijodida ko'zga tashlangan sochma she'rlar an'anasini bolalar adabiyotiga olib kirganini ta'kidlashga to'g'ri keladi.

Hozirgi davr bolalar she'riyatida poetik tafakkur yangilanishiga kattalar uchun ijod qiladigan shoirlarning ham hissalari qo'shilayotganini ta'kidlash mumkin. Aslida bu an'ana ilgari ham bo'lgan. H.Olimjon, G.G'ulomdan E.Vohidovgacha bo'lgan adibu shoirlarning ko'pchiligi bolalar uchun turli janrda asarlar bitganlar. Shu ma'noda I.Mirzoning "Erkatoy, erka toy" jajji she'riy to'plamini A.Obidjonning quyidagi e'tirofi bilan oydinlashtirish mumkin: "O'zim mumtoz adabiyotimizning ayrim janrlarini bolalar adabiyotiga olib kirgan bo'lsam, nega farzandlarimiz uchun ham tuyuqlarimizga hamohang so'z o'yinlari yozish mening xayolimga kelmedi ekan".

Rost, u kichkintoylar uchun jajji she'rlar tarzida bitilgan, har bir ikkilik o'z sarlavhasiga ega. Ammo undagi nafaqat shakldosh so'zlarning ma'noviy qirralari, balki ramziy mazmunini anglashda

bolalar va o'smirlar chuqur mushohada qilishlari zarur bo'ladi. Masalan, "Tulkixonning ukasiga dashnomi" (Qanaqa betartibsiz, Dumimga bet artibsiz!), "Mushukchaga kuchukchadan savol" (Menga dedingiz "miyov", Meni dedingizmi yov?), "Xo'randa timsohlar xulosasi" (- Sho'rva ajoyib bo'pti, - Sho'r va .. ajoyib bo'pti!), "Itbaliqning iftixori" (Qarindoshmiz chinakam - Ko'k kit mening chin akam!) va h.k.

Darhaqiqat, jahon bolalar she`riyatida bola tasavvurining va xayolot olaming serqirra bo'yoqlarini, bolalarcha tasavvurning keng badiiy ifodasini ko'rish mumkin. Ayniqla, mактабгача tarbiya yoshidagè, kichik maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan she`rlarda ana shu individual yosh leksikoni o'z ifodasini topib, qiziqarlilagini ta'minlaydi. Masalan, A.Obidjonning "G'alati maktublar" turkumidagi she`rlari bolalar va o'smirlar kitobxonligiga mos yumoristik she`rlar hisoblanadi. A.Obidjon o'z she`rlarida arxaik va tarixiy so'zlar, bugungi yoshlar deyarli o'z nutqida qo'lllamaydigan tushuncha va iboralardan keng foydalanish orqali yumoristik kulgi yaratadi. "Kalishning botinkaga", "Chaynamayshimining xo'rozqandga", "Qo'raning qumg'onga", "Sopolkosaning chinnikosaga" "yozilgan xat"laridagi kinoya, kesatiq, istehzo va majoz, tamsil singari badiiy unsurlar kulgining turli xillarini namoyon qila olgan. Masalan, qumg'onning qo'rada kuyib-pishib choy qaynatishi-yu, odamlar esa "burni osmonda" Choynakvoyni e`zozlab, likopchaga o'tqazishi, "dunyo o'zi teskari"ligi jamiyatdagi laganbardorlar, "O'roqda yo'q, mashoqda

yo'q, xirmonda hozir "larga ishora qilinayotganini anglamasalar ham, aynan ana o'sha predmet va buyumlarning maktubi yoki asori-atiqaga aylanib borayotgan nomi kulgi uyg'ota oladi. "Chaynamayshiming, odosh, tatalab, Chorig' bobong, Shippak opang, Xirom akang, cho'tir Kirza tog'ang, Mahsibibi oying, Amirkoni xolang" singari bolalar tiliga xos bo'lgan so'z birikmasi, ya`ni izohlovchi izohlanmish nafaqat she'rni kichkintoylarg'a yaqinlashtiradi, balki aynan bola shu poyafzal turlarini o'zining yaqin qarindoshlari sifatida tasavvur qilib, miriqib kuladi.

Ta`bir joiz bo'lsa, mazkur e'tirofni bolalar adabiyotidagi serqirra ijodkorlarning poetik mahorati to'g'risida ham aytish mumkin bo'ladi. Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida, jumladan, she'riyatida kechayotgan ushbu tub yangilanish, o'zgarishlar jarayoni, yosh avlod ma`naviy olami, tafakkuridagi yangilanish ana shunday asarlar botiniga, matn ichiga e'tibor qaratish orqali ochilib boraveradi. Muhimi, zamonaviy bolalar she'riyatida poetik tafakkur yangilanishi, avvalo, jamiyat taraqqiyoti va undan ancha ilgariroq qadam tashlab borayotgan ijodkorlar tafakkurining hosilasi yanglig' namoyon bo'ladi.

O'zbek bolalar she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri H.Imonberdiev istiqlol davri bolalar she'riyatiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning "Lofchilar - aldoqchilar" (1991) she'riy to'plami istiqlol davri bolalar she'riyatining yaxshi namunalaridandir. H.Imonberdiev she'rlari bolalik olami o'ziga xos topqirlilik, bir chimdim humor orqali ifodalangan sodda va samimiy

misralari bilan ajralib turadi. Shoir bolalar xarakterini an`anaviy tarzda tasvirlaydi. Uning qahramonlari ham o'zidan oldingilarga o'xshab jindek o'yinqaroq, lof urib maqtanchoqlik qilishni xush ko'radigan, shirinlikka o'ch, ochofat, ba'zan esa adlamchilik qilishdan ham qaytmaydigan bolalar sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, shoir she`rlarida bu xususiyatlar avvalgilaridan farqli ravishda, favqulodda topqirligi, poetik ifoda vositalarining originalligi va fantaziyaga boyligi, umumshe`riyatga xos bo'lgan tush, xayol motivlar asosida ifodalanishi bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatni biz shoir kitoblarining nomlanishidan tortib, she'r sarlavhalarining umumlashtiruvchi mazmun tashishida ham ko'ramiz. "G'aroyibkent hangomalari", "Lofchilar - aldoqchilar" singari nomlar bolalikka xos tasavvurlar olamiga uyg'undir. "Kim shirin?", "Qo'li ochiq bola", "Lofchilar", "Shirinliklar oroli", "Urushqoqlar", "Sirli futbol" kabi she`rlar nafaqat ma`no-mazmuni, balki nomlanishi bilan ham yosh kitobxon e'tiborini tezda o'ziga jalb qiladi. Chunki odatda, kim emas, nima shirin degan savol mantiqan to'g'ri. "Kim shirin" iborasida esa ko'proq kichkintoylarga urg'u berilishi ma'lum. SHuning uchun she'r sarlavhasidanoq kitobxonda kichkintoy bolalar haqida bitilgani anglashiladi. SHe'rni o'qigandan so'ng esa ilk taassurot yanada ravshanlashib, shoirning mavzu va g'oyani umumlashtira olish mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. SHe'r mazmuniga ko'ra ikkita qip-qizil pishgan qulupnay "men shirinman", deb bir-biri bilan tortishib qolishadi. SHu lahza hoziru

nozir bo'lgan Nor esa ko'p tortishmanglar, kim shirinligini hozir sinab ko'ramiz deb oraga tushadi.

Shunday deb ikkovic tez
Bir hamlada eb qo'ydi.
So'ng: - Ha, shirin ekansiz
Ikkovingiz ham, - deb qo'ydi.

Ko'rinib turibdiki, she'r xalq og'zaki ijodi motivlari asosida hayvonlaru parranda-darrandalar olamini aks ettiruvchi ba'zi bir ertagu masallarni yodga tushiradi. Shoир ushbu she`rda maqtanchoqlikning zararli oqibatlarini bolalar kundalik hayoti va tabiatiga xos bo'lgan lavha orqali badiiylashtirmoqda. Bunda maqtanchoq qulupnaylardan tashqari bolaning ham o'ziga xos mug'ombirona xarakter xususiyati ham ochilmoqda.

Shoirning "Qo'li ochiq bola" she`rida esa kichkintoylar orasida tez-tez uchrab turadigan va ular olaming bezagi bo'lgan xususiyatlar topqirlik bilan tasvirlanadi. Qo'lidagi nokni iste'mol qilayotgan bolani ko'rgan sherigi unga nima deyishi mumkin? She`rda mana shunday holatdagi bolakaylor ruhiyati mahorat bilan chiziladi.

-Do'sting Eson
G'irt qizg'anчиq.
Sening esa,
Qo'ling ochiq.
To'g'rimi?
- Ha.
-Tilingga bol.
Kel nokimning
Yarmini ol ("G'aroyibkent hangomalari", 50).

"Shirinliklar oroli" she`rida ham shoир bolalarning fantaziyaga boy tasavvurlaridan foydalanib, o'ziga xos "shirinliklar oroli"ni

yaratadi. Dars jarayonida "shirinliklar oroli"ni xayolan yaratib, ulardan yasalgan kemada orol tomon yo'lga otlangan bola romantik orzularining hayotdan uzoqligi tufayli sinfdoshlarining kulgisiga qolishi she`rning yumoristik ruhini kuchaytiradi.

Umuman, Hamza Imonberdiev ijodiga xos yumoristik ohang so'nggi davr bolalar she`riyatining ajralmas qismi sifatida adabiyotimiz tarixiga muhrlandi.

O'yin - bolalik olamining ajralmas bir qismi. So'nggi davrlarda bolalar olamini turli xil o'yinlar vositasida tasvirlashga ham katta e'tibor qaratilmoxda. Jumladan, H.Imonberdievning "Urushqoqlar", "Oilaviy ansambl", "Mehmon oshsa haddidan" kabi she`rlarida ham o'yinqaroqlik bola xarakterini ochuvchi asosiy vositaga aylanib, muhim ijtimoiy-ma'rifiy g'oyani ifodalashga xizmat qiladi.

"Mehmon oshsa haddidan" she`rida "mehmon-mehmon" o'yini orqali bolalar xarakteriga xos bo'lgan jihatlar mohirlik bilan chiziladi. Bunda mehmon va mezbon roli o'ynayotgan bolalar o'rtasidagi munosabatlar mehmonning surbetligi tufayli nihoyasiga etadi. SHe`rda shoir yumordan mohirlik bilan foydalanib, turmushda uchraydigan jiddiy nuqsonni beg'araz fosh qiladi.

Dilshod Rajabning "O'yin" she`rida esa "Urush-urush" o'yinining yanada yangicha talqinlariga duch kelamiz. Bunda bolalar o'yinlari kattalarning nigohi orqali kuzatilib, tasvirlanadi. Bolalarning "yog'och miltiq"lar bilan o'ynayotganini ko'rgan muallif, sizning o'yiningiz mutlaqo xatarsiz, chunki otgan o'qingizdan odamlar o'lmaydi, hech bir yurt vayron bo'lmaydi, shu bois ushbu

o'yinlaringizdan kattalar ibrat olsa arziydi, degan fikrlarni bayon etadi:

Ibrat olsa arziydi,
Hamma sizdan, bolalar.
Urushni zo'r o'yinga,
Aylantirgan bolalar.

Shoir mahorati shundaki, bolalar o'yini orqali bir jihatdan bolalik olamining o'ziga xos tasvirini berayotgan bo'lsa, boshqa bir jihatdan kattalarning vayronagarchiliklarga olib kelayotgan urushlari qoralanmoqda. "Urushni zo'r o'yinga // Aylantirgan bolalar" - bu shoirning ijtimoiy-psixologik mazmunga yo'g'rilgan o'ziga xos badiiy topilmasi, bo'lsa-da, nazarimizda urush-urush o'yiniga xayrixohlikni ham mohiyat e'tibori bilan ma'qullah u qadar to'g'ri emasday tuyuladi.

Abdurahmon Akbarning "Norning futbol o'ynagani" she`rini esa bolalar olamini tasvirlovchi o'ziga xos manzara - she`r deb atash mumkin. Bunda bir guruh bolalarning futbol o'yini manzaralari jonli tasvirlanadi. SHe`rda asosan darvozada turgan Norning xarakter xususiyatlari ochiladi. Darvozabon Nor o'zin davomida har bir o'yinchiga baqir-chaqir qilib ko'rsatma berishga, ularning xatolarini topishga harakat qiladi. Oxir-oqibatda esa:

To'p o'tkazvorib
Bir emas, o'n bor,
Tinmay javrardi
Darvozabon Nor...

Ko'rinib turibdiki, bu she`rda yuqorida tahlilga tortilgan she`rlardagi kabi botiniy-ramziy mazmun yo'q, aksincha, bolalar

o'yini jarayonida Norning o'z aybini boshqalardan izlashdek illatga yo'g'rilgan xarakter sifatlari nishonga olinmoqda.

X.Komilovning "O'yinchoqlarim" she`rida esa kichkintoylar tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri rangin kechinmalar fonida tasvirlanadi. SHe'r qahramoni bo'lmish kichkintoyning sher, mashina, dutor, toy kabi to'rtta o'yinchog'i bor:

Mashinacham buzildi,
Sherning bo'yni uzildi.
Dutorning tori chirik,
Toychog'im hali... tirik ("Mazali kitob", 33).

Kichkintoylarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'yinchoqlar bilan faol o'ynash va ularni sindirishlarida ko'rinadi. Shoir she`rda bolalar tabiatiga xos bo'lgan ushbu holatni jonli tasvirda bera olishga erishgan.

Yuqoridagi qisqa tahlillardan ma'lum bo'layotirki, o'zin bolalar she`riyatida muhim hayotiy tamsil bo'lib, shoirlarimiz uchun ham ramziy-falsafiy yo'sinda fikrlash ham real bolalik olamini ifodalovchi badiiy vositaga aylanishi mumkin.

Dilshod Rajabning "Otamning bog'i", "Poezdning bolasi", Z.Isomiddinov bilan birgalikda chop etgan "Endi zerikmayman" to'plamlaridagi she`rlari bolalik olamini majoziy, poetik obrazlar orqali kashf qilishning o'ziga xos namunalaridir. "Daryo ko'ngil" kitobidagi bitiklar esa kattalarni ham mushohadaga undaydi. Shoirning "Majnuntol", "Tut", "Somonning o'giti", "Bug'doyning taqdiri" kabi she`rlari shu jihatlar bilan xarakterlidir. Bu she`rlarda ijtimoiy mazmun bilan badiiy-estetik talqin uyg'unlashib ketgan.

Shoir she`rlarida shakl ijtimoiy mazmun estetik ta`sirchanligini hosil qiluvchi vosita vazifasini o'taydi. Jumladan, shoir majnuntolning shoxlarini egib turishida muhim ijtimoiy-ma'rifiy mazmun topadi, uning poetik talqiniga ko'ra, majnuntol boshidan juda ko'p jabru jafolarni, sitamlarni kechirgan ko'ngli o'ksik, ma'yus boshini sajdaga qo'yan muslimlar timsolga aylanadi. Ayni paytda, she`rdagi xayrixohlik, hamdardlik ruhi ushbu manzarani muslimlarning o'zligini anglab olishiga undov tarzida ham jaranglaydi. Bu jihat she`rning estetik ta`sir quvvatini oshirishga xizmat qilgan. SHoir she`rni quyidagi salmoqli mazmun singdirilgan ramziy - obrazli murojaat va ja`vat bilan yakunlaydi:

Qarshingda hayronu vayron turdim! Ay,

Daraxtim, sen qachon ko'tarasan bosh?! ("Daryo ko'ngil", 20).

"Majnuntol" she`rining badiiy-estetik kuch-qudrati, lirik qahramonning istak-tilaklari aks etgan xitoblarda mujassamlashgan. Zotan, murojaatda xalqona ruh va ohang bilan bir qatorda, jafokash elning o'zligini anglashiga bo'lgan ichki bir da`vat aks etgan. "Tut" she`rida ham tut daraxtining shakliy ko'rinishè botinida yashirin fidokorlik, odamlar munosabatidagi shafqatsizlik tasviri orqali katta ijtimoiy-estetik mazmun ifodalanganini ko'ramiz. Odatda, pilla qurtini boqish uchun har yili tut shoxlari kallaklab ketiladi, tut pishig'ida esa mevalari duv-duv qoqib olinadi. "Tutday to'kildi", - degan ibora ham shundan olingan. SHoir ushbu holatni ikki satrda ixcham tarzda quyidagicha ifodalaydi: "Mevasini qoqishar,

Novdasini chopishar". SHoir tut daraxtining ushbu qismatidan kelib chiqib, o'zining poetik xulosasini shunday ifodalaydi:

Oh, dunyoga bir kelib,
Ketgil bir bora o'lib.
Tutday kesilmagin hech,
Tutday to'kilmagin hech! ("Baxshi bola - yaxshi bola", 21).

Ushbu misralardan ayon bo'layotirki, shoir bu she`rida ham, xuddi "Majnuntol"dagi singari, narsa va hodisalarning, predmetning tashqi ko'rinishi, shakli va xususiyatidan kelib chiqib, ramziylashgan ijtimoiy-estetik mazmunni ishonarli, ta`sirchan ifodalamoqda. Bu dalil ham mustaqillik davriga kelib bolalar she`riyatiga "aldagani bola yaxshi" qabilida engil-elpi qaralmay, balki badiiy mazmun salmoqdorligi, estetik ta`sirchanlik, manzara va obrazlilikka katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Dilshod Rajabning "O'zbek" she`rida ham belgi-shakl orqali poetik mazmunni ifodalashning o'ziga xos namunasini ko'rish mumkin. Odatda, o'zbek xalqi haqida gap ketganda "mehmondo'st", "bag'rikeng", "jo'mard, yalangto'sh" kabi sifatlashlar ishlataladi. Shoir millatning ana shu fazilatlaridan kelib chiqib, she`rda o'zbekning betakror siyrati - portretini yaratadi. She`rning har bir to'rtligida o'zbek xalqining eng xarakterli fazilatlari olqishlanadi. Misralar quyma, qofiyalar tabiiy, so'zlar ohangdor ekani ham manzumaning o'qishli, ta`sirchan chiqishini ta`minlagan muhim omillardir. Birinchi to'rtlikda o'zbek xalqining mehmondo'stligi xarakterli epizodlar orqali ta`rifланади: tor bo'lsa ham o'zbek uyida hamisha do'sti uchun joy topiladi, yo'lovchiga doim uning bir piyola choyi bor; bolam-chaqam, deb har yili yozda

imorat quradi. Keyingi to'rtlikda esa, uning bolajonligi "o'g'il-qizi - toyi" borligi ta`kidlanadi. SHe`rning oxirgi to'rtligida o'zbekning qalbi va O'zbekistonning tabiat - xalq va Vatanning poetiklashgan suratu siyrati quyidagicha chizilaäè.

Do'ppisini ko'kka otib,
Shodlansa arzir.
O'zbekiston degan jannat
Joyi bor uning ("Daryo ko'ngil", 45).

Bu kabi samimiylar va chin iftixor tuyg'ulari singdirilgan tasvirlarni Abdurahmon Akbar va U.Shukurov she`rlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Abdurahmon Akbarning istiqlolning dastlabki yillarida chop etilgan "Uyquchining tushlari" she`riy to'plamiga kirgan ko'pgina she`rlarida bolalik olamining turfa manzara-holatlari o'zining jozibali ifodasini topganini ko'ramiz. Shoir she`rlari o'zining fikrchanligi, obrazlarining realistik mohiyati bilan e'tiborni tortadi. She`rlarda bolalarning orzu-intilishlari, iztirob-armonlari haqqoniy ifodasini topgan. "Omonning orzusi" she`rida qahramon imkon topsa har yangi yilni o'rmonda, tabiat qo'ynida qushlaru, quyonlar bilan birgalikda kesilmagan archa tevaragida o'tkazishni orzu qiladi. Shu talpinishlari bilan loaqlal bitta archani kesilishdan asrab qolishni niyat qilgan Omonning orzusi chindan-da hayotiy, ezgu va tabiiy ekanligiga ishonch hosil qilamiz. "Kitobni ko'p o'qiydigan ukam" she`rida esa, kitobxon bola - uka obrazining nafaqat kamgap, balki xayolot olamining keng ekanligi ham e'tiborni tortadi. ZOTAN, uning hamdardlikka yo'g'rilgan fikr-o'ylari hayotiy tamsillardan teran ma'nolarni izlashga asoslanadi. Jumladan, oq mo'ynali qalpoqlarni

"Quyon edi, joni bor edi", deb tasavvur qilib achinadigan, bir so'z bilan aytganda, odamlar qilmishini taftish etib fikrlaydigan bola obrazining ma`naviy-ruhiy olami bilan yaqindan tanishamiz. Shoirning "Armon haqida she`r'i ham yuqoridagi kabi dardchil, fikrchan ruhni ifodalaydi. She`rda hayotiy voqeа tasvirlanadi. Bir sinfda a`lochi, lekin kasalmand Nigora ismli qiz o'qiydi. Bu qiz o'rnidan tura olmaydigan kasalga chalingan. Sinfoshlar har kuni uni ko'rgani borishar, tuzalib ketasan, deya dalda berishar edi. Biroq qiz tuzalmaydi, armon bilan dunyodan ko'z yumadi. She`r quyidagi misra bilan yakunlanadi:

Ko'zimizni qizartirdi g'am,
Qalbimizdan armon ketmadi.
Ko'taraylik tobutin desak,
Bo'yimiz etmadi, etmadi... ("Uyquchining tushlari", 53).

Mazkur she`rning mazmuni juda teran. Unda bevaqt xazon bo'lgan nogiron qizchaning fojeasi, uning tobutini ko'tarishga bo'ylari etmagan bolalarning armoni o'quvchini beixtiyor o'yga toldiradi: taqdir, o'lim, mavjudlik haqida mulohaza yuritishga undaydi. SHoir she`rda armonga aylangan umidning dardchil poetik manzarasini realistik lavhalarda tasvirlashga erishgan. A.Akbarning bu kabi fikrchan she`rlari agar voqelik kechinilmagan bo'lsa, bolalar she`riyatida ham jiddiy, realistik va hatto fojeiy talqindagi asarlar ham yaratish mumkinligini ko'rsatadi. Jahon bolalar adabiyotida ham bu tipdagи she`rlarni ko'plab uchratish mumkin.

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O’zbek bolalar adabiyoti. O’quv qo’llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To’xtayeva N. Istiqlol davri o’zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

4-MAVZU. BOLALAR SHE’RIYATIDA IJODIY-USLUBIY IZLANISHLAR

Reja:

1. An’anaviy mavzularga yangicha yondashuvlar.
2. Bolalar she’riyatida janriy-uslubiy takomil.
3. Bolalar she’riyatida falsafiy va lingvokreativ xususiyatlar.

Tayanch tushunchalar: uslub, kitobxon, manzara she’r, humor, estetik mazmun, eksperiment, dialiktik, poetik nigoh, uslub, lingvokreativ

Uslub ijodkor o’zligining namoyon bo’lishidir. Uslub adabiyotshunoslikda keng va tor ma’nolarda talqin qilinadi. Keng ma’noda biron-bir davr adabiyotiga xos bo’lgan va boshqa davrlardan farq qiluvchi o’ziga xos jihatlar - mavzular ko’lami, badiiy tasvir vositalaridagi o’ziga xosliklar, poetik obraz va timsollar yaratishdagi izlanishlar, mushtaraklik va badiiyatdagi boshqa o’ziga xosliklar nazarda tutiladi. Tor ma’noda esa, uslub tushunchasi orqali muayyan ijodkorni boshqalaridan farqlantirib, ajratib turuvchi, faqat uning o’zigagina xos bo’lgan yozish manerasi nazarda tutiladi. Biroq shuni ta’kidlash zarurki, keng va tor ma’nolardagi uslublar o’rtasida muayyan darajada bog’liqlik mavjud. Chunki ma’lum bir davrda

yashab ijod etgan qalam ahli o'z asarlari bilan o'zlari mansub bo'lgan davr adabiyotining yetakchi tamoyillarini, asosiy estetik printsiplarini, adabiy jarayon "ob-havo"sinи yaratadilar va, ayni paytda, keng ma`nodagi uslubiy izlanishlarning mushtarak manzarasini belgilashga xizmat qiladilar. Shu ma`noda, uslubiy izlanishlarda ham umumiylig bilan xususiylikning dialektik birligi o'z ifodasini topadi.

O'zbek bolalar she`riyatining o'ziga xosligi an`anaviy mavzularda yozilgan asarlarning ham poetik mazmuniga, ham badiiy ifodasiga ko'ra yangilanganligida ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu davr bolalar she`riyatida sho'ro davriga xos bo'limgan topqirlik - manzara she`rlar, rasmi shе`rlar, savolli she`rlar, raqamli she`rlar kabi bir qator ijodiy izlanishlar, adabiy eksperimentlar amalga oshirildiki, bu hol bolalar shoirlari poetik nigohi o'tkirlashib shakliy-uslubiy izlanishlari salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Z.Isomiddinov, U.Shukurov kabi shoirlarning poetik izlanishlari ayniqsa xarakterlidir.

Dilshod Rajabning manzara she`rlarida favqulodda topqirlik yaqqol ko'zga tashlanadi. U qalamga olinayotgan mavzuning eng xarakterli jihatlarini badiiy obraz darajasiga ko'tarib, humor bilan katta estetik mazmunni engil va ta`sirchan tarzda yosh kitobxon qalbiga etkaza oladi. Shoир she`rlarini o'qigan yosh kitobxon o'zi har kuni ko'rib-bilib yurgan, lekin deyarli e'tibor bermagan ayrim narsa-hodisalarning favqulodda nafis va topqirlik bilan chizilgan manzaralaridan hayratga tushadi. Muhimi shundaki, bu manzaralar shunchaki chizilmaydi, balki ularga salmoqli ijtimoiy-estetik vazifa singdirilgan bo'ladi. Shu tariqa, bolalarga atalgan, sirdan qaraganda "quvnoqqina" she'r o'ziga xos tarzda falsafiy mazmun bilan boyitilganligini kuzatamiz. Shu jihatdan shoirning "Baxshi bola - yaxshi bola" saylanmasiga kiritilgan bir turkum she`rlari xarakterlidir.

"Kuz", "Chanoq", "Xirmon", "Kimga ish, kimga olqish", "O'q haqida", "Ohu", "Qun botgach" kabi she`rlar, shuningdek,

"Uchqunbekning savollari", "Fikratjonning fikricha", "Shikoyat daftari" turkumlaridagi she`rlari ayni shu xususiyatlari bilan e`tiborni tortadi.

Shoir "Kuz" she`rida mazkur faslga xos bo'lgan tabiat o'zgarishlarini bolalar kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan "urush-urush" o'yiniga shakli va mazmuniga qiyosan, bolalar tasavvuriga monand tarzda tasvirlaydi: kuz bostirib kirgach, daraxtlar alvon barglari - "bayroqlarini" erga tashlab "asir" bo'lishadi. "Uzum dorga osiladi", olma, anor, noklar barchasi yashikka teriladi. Ko'pgina sabzavot mahsulotlari o'ralarga "avaxta" qilinadi.

She`rda kuz fasliga xos yig'im-terim ishlari jang manzarasiga monand tasvirlanadi. Biroq she`rning yakuni kutilmagan, ya`ni bolalik olamiga xos bo'lgan quvnoq manzara bilan xotimalanadi:

Bu g'alaba

Kuzniki,

Endi mazza bizniki!

Shoirning "Chanoq" she`rida ham ushbu xususiyatni ko'rishimiz mumkin. She`r to'rt qatordan iborat bo'lgani uchun uni to'liq keltiramiz:

Suluv terimchi qizlar

O'tar dog'da qoldirib -

Angrayib qarab qolar,

Og'zidagin oldirib ("Baxshi bola - yaxshi bola" 27).

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek bolalar adabiyotida paxta va uning chanog'i bilan bog'liq she`rlar ko'plab yaratilgan. Bu tipdagi asarlarda ilgari, asosan, mehnatsevarlik motivlari ilgari surilar, bolalarning paxta bilan faxrlanishlari, mehnat qilib charchamasliklari, kichkintoylarning chanoqda qolib ketgan yoki yo'l chetiga to'kilgan momiqlarni terib xirmonga topshirishlari, shu tariqa davlatga "oq oltin" topshirish rejasining vaqtida bajarilishiga munosib hissalarini qo'shganliklari ibrat sifatida targ'ib etilardi.

O'tgan asrning 80-yillarida H.Imonberdiev "Chanoq" she`rini yaratib, unda paxtasi terib olingen chanoqni besh bahoga qiyoslab, bu

turkumga oid she`rlarning poetik mazmunini ma`lum darajada yangilashga uringan edi. Lekin bu she`rda ham o'sha davrga xos ma`rifiy-didaktik mazmun ("besh" baho) etakchilik qilgani kuzatiladi.

Dilshod Rajab esa yuqoridagi badiiy talqinlardan tamoman farqli tarzda chanoqning o'ziga xos poetik obrazini yaratadi: she`rda suluv terimchi qizlarning chaqqon harakatlariga, mehnatiga lol qolib, og'zidagini oldirgan chanoqlarning "angrayib qolgan" o'ziga xos surat-holati chiziladi. Bu manzara kitobxonda favqulodda zavq-shavq uyg'otishi barobarida kitobxonni hushyorlikka ham undaydi. Aslida, shoirning poetik topqirligi ham shu nuqtada namoyon bo'ladi.

"Xirmon" she`rida ham dehqonchilikda ishlataladigan ish buyumlari - ketmon, o'roq, xaskash, panshaxalarning o'ziga xos yumoristik obrazlari chiziladi va ularning harakatlari orqali bug'doyning ekilishidan tortib, xirmon bo'lib sovurilishigacha bo'lgan barcha jarayonlar ixcham satrlarda poetik manzaralashtiriladi. Bu o'rinda shoir quvnoq yumor orqali o'roq, xaskash, panshaxa detallarini o'ziga xos mehnatkashlik timsoli tarzida gavdalantiradi. Ketmon bug'doyni ekadi, u pishib etilgach, o'roq uni o'rib beradi, xaskash esa uyib xirmon qiladi. O'roqda yo'q, mashoqda yo'q panshaxa esa kutilmaganda paydo bo'lib:

Shuncha xirmonni kelib

Zumda elgasovurdi ("Baxshi bola - yaxshi bola", 27).

Ko'rinish turibdiki, shoir "O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir" xalq maqolini she`rning mazmuniga ustalik bilan singdirib yuborgan va muhimi, uni mehnat jarayonining poetiklashgan manzarasiga muvofiq tarzda ifodalashga erishgan. She`r ayni shu jihatlari bilan kitobxonda quvnoq tuyg'ular hosil qiladi, uni g'ayrat ko'rsatishga undaydi.

Dilshod Rajab "Kimga ish, kimga olqish" she`rida ham tabiat fasllaridan jozibali qiyoslar topib, ulardan ustalik bilan foydalanadi, poetik mazmunni o'ziga xos va ta'sirchan ifodalashga erishadi. Aslida, tabiat tasviri bolalar adabiyotining azaliy mavzularidan biri bo'lib, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min, Zafar Diyor va

boshqa ko'plab bolalar shoirlari turli davrlarda ushbu mavzuda she`rlar yaratishgan. Istiqlol davrida bitilgan she`rlarda esa, aksariyat shoirlarimiz bu an`anaviy mavzu mazmunining ko'nikilgan talqinlarini takrorlamasdan, yangicha poetik izlanishlarni amalga oshirmoqdalar. Dilshod Rajabning yuqorida tilga olingan she`ri bunga misol bo'la oladi. To'rt qismidan iborat mazkur she`rning birinchi qismida qish tugab bahor fasli kelgach, mehnatsevar Bahoroyning dov-daraxtlarni gullatib, meva tugdirib, ekinlarni ektirib, hosilga kirdirgan paytida 90 yoshga to'lib, bor budini yozga vasiyat qilib hayotdan ko'z yumishi tasvirlanadi. Jo'shqin, g'ayratli Yoz esa, Bahorning vasiyatini amalga oshirish uchun uzzu-kun ter to'kib mehnat qiladi va mo'l hosil etishtiradi. She`rda yozning umr poyoni quyidagicha tasvirlanadi:

Tinmay manglay ter to'kib
Hosil etishtirgan chog',
Attang, oltin yozning ham
Umri tugadi, evoh.
"Mehnat qilib mevamiz
Eyolmasdan ketding-a",
Deb daraxtlar g'am chekib,
Boshlarini egdilar.

She`rning davomida uyqudan turib ko'zini ochgan Kuz dov-daraxtlarning, maysa o'tlarning ko'zlarida yosh - shabnamlarni ko'radi. Dov-daraxtlar shoxlarini egib, g'amgin turishibdi. Kuz atrofga qarab bog'larda pishgan olma, noklarni, shirin-sharbat uzumlarni, dalalardagi mo'l hosilni ko'rib, ularni yig'ishtirib olishga kirishadi. She`rning to'rtinchi qismida quyidagicha xulosa beriladi:

Bahoroy-u oltin Yoz
Ketdilar rosa ishlab.
Tayyor hosilni yiqqan
Kuzga bo'ldi olqishlar. ("Baxshi bola - yaxshi bola", 28).

Albatta, tabiat fasllarini, manzaralarini qarshilantirib she`r yaratish an`anasi qadim zamonlardan beri mavjud. Xalq og'zaki ijodi

namunalarida qish bilan yozning bir-biriga qarama-qarshi holatlari tasvirlangan she`riy asarlarni ham uchratamiz. Shuningdek, turkiy tildagi ilk yozma manbalardan biri - "Devonu lug'atit turk" asarida ham bunday manzaralar mavjud. Biroq, bolalar shoiri Dilshod Rajabning she`rida boshqacharoq manzara - bahor va yoz fasllarining o'zaro vorisligi ta'kidlanib, ularga xos mehnatsevarlik motivlari kuylansa, kuz obrazida "tayyorga ayyorlik" psixologiyasi ifodalangan. Bunday tasvir mazmunan shoirning topqirligini namoyon etgan bo'lsa-da, biroq she`rning xulosa qismi badiiy kontseptsiya sifatida o'zini oqlagan, deyish qiyin. Chunki she`rni o'qigan yosh kitobxonda kuzga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkindek taassurot paydo bo'ladi. Vaholanki, kuz obrazida ham vorisiylik mavjud. Bahor bilan yoz hosilni etishtirib bersa, kuz uni yig'ishtirib, saranjom-sarishtalaydi. Bu jihatdan vorisiylik bardavom. Shubhasiz, shoir bu o'rinda mehnatni boshqalar qilib, olqish oluvchi "tayyorga ayyor" kimsalarning hajviy obrazini kuz timsoli orqali ifodalamoqchi bo'layapti. Lekin, nazarimizda, ayni shu faslga xos tabiiy xususiyatlarning yuqoridagi kabi talqini o'zini oqlamaydi.

Albatta, bu tipdagi manzara she`rlar juda katta badiiy-estetik ta'sirchanlik va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Manzara she`rlarning go'zal namunalarini iste'dodli bolalar shoiri T.Adashboev ijodida ham kuzatish mumkin. Shoir ayni uslubda 80-yillardayoq bir turkum she`rlar yaratgan edi.

"To'rt fasl" she`ri esa ana shu turkumning eng yaxshi namunalaridan biridir. Biz ushbu she`r tahliliga kirishishdan avval, shuni ta'kidlab o'tishni lozim deb bilamizki, mazkur she`rning Dilshod Rajabning "Kimga ish, kimga olqish" she`ri bilan talaygina o'xshash jihatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ya`ni, har ikkala she`rda ham yilning to'rt fasli tilga olinadi va har ikkalasida ham yil fasllariga xos xususiyatlar alohida-alohida ta'kidlanadi. Biroq biz uchun ikki davrda: T.Adashboevning istiqqloldan oldin yaratilgan "To'rt fasl" she`ridan Dilshod Rajabning istiqlol yillarida yozilgan "Kimga ish, kimga olqish" she`rigacha bo'lgan uslubiy o'zgarishlar - tasvir

vositalaridagi, mavzuga yondashuvdagi tabiat hodisalari tasviri orqali umumlashtirilgan mazmun-g'oyani ifodalash tarzidagi yangilanishlar, o'sish-o'zgarishlar ko'proq e'tiborlidir. T.Adashboev she`rini kuzatamiz:

Bahor qutlar olamni,
Mushak otar zambarak.
Bargak taqqan sochiga,
Boshida gulchambarak.
SHamol quvar bulutning
Uvadayu, laxtagin,
Mehnatkash er g'ayratdan
Echib tashlar yaxtagin.
Burkab oldi ob-havo
Birdan qovoq-qoshini.
Janub sari turnalar
Jo'nab qoldi shoshilib.
Hademayin qor tushib,
Kirza etik g'ijirlar.
Tinim bilmas chanacha
Ýndi SHokir, Barchinlar.

Shoir bahorni she`riyatdagi an`naviy obraz - Bahoroya, go'zal, yasan-tusan qilgan qizga o'xshatib: sochiga bargak taqqan, boshiga gulchambar qo'ndirgan holatda tasvirlaydi. Ko'klam bulutlarini quvib-haydab yoz kirib keladi, er g'ayrat otiga minib, mehnat qilishga kirishadi: yaktagini echib tashlaydi. She`rda ayniqsa, qosh-qovog'ini uyib kirib kelgan kuzning xarakterli belgisi - turnalarning shoshiliá janub sari jo'nab ketishlari jonli va zavqli ifodalangan. Tabiiyki, kuz ortidan qish keladi. Shoir buni eslay turib, bolalarga quvonch bag'ishlaydigan, tinim bermaydigan chana uchishlar zavqiga ishora qiladi.

Yaxlit olganda, she`rda yil fasllarining jozibali talqinlari har bir faslga xos bir-ikki xarakterli detallar bilan gavdalantiriladi. Tabiiyki, bunday beozor, samimiyl poetik talqin bolalarni tabiatning turfa

jilvalariga xos jonli manzaralar bilan yaqindan tanishtiradi, ularni har bir fasning o'ziga xos manzarasi jozibasidan bahramand bo'lishga, go'zallikni tiyrak ko'z bilan kuzatish va undan zavqlanishga o'rgatadi. T.Adashboev ijodiga xos ushbu xususiyatlar uning tabiat mavzusidagi she`rlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham alohida ta`kidlanadi. Jumladan, tadqiqotchi B.Ashurov "Tursunboy Adashboevning poetik mahorati" monografiyasida shunday yozadi: "T.Adashboevning yil fasllari va tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan asarlaridagi turli badiiy san`atlarni mohirona qo'llashga asoslangan tasvir uslubi manzara mukammalligi va jonlilagini oshiradi, yuksak badiyatni ta'minlaydi, shoir tasvirlagan manzaraning yosh kitobxon ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi". Shuningdek, B.Ashurov tabiat manzaralari tasvirlangan T.Adashboev she`rlarining tarbiyaviy ahamiyatiga xos: go'zallikning qadriga etish, tabiatni asrab-avaylash, ona tabiat qadriga etish kabi jihatlarni ham alohida ta`kidlaydi.

Anglashiladiki, "To'rt fasl" she`ri T.Adashboev ijodining ham, sobiq sho'ro davri o'zbek bolalar she`riyatining ham tipik namunasi bo'lib, unda shoirning individual uslubiga xos: beozor kulgi, engil kinoyali imo-ishora, ijtimoiy ziddiyat - illatlarni chetlab o'tish, ravonlik, soddalik, samimiyl talqin singari xususiyatlar o'zida istiqlolgacha bo'lgan bolalar she`riyatining etakchi uslubiy fazilatlarini namoyon etadi. Darhaqiqat, tabiatdagi, ichki kurash, ayovsizlik, shafqatsizlik (qishga xos), isyon, yangilanishga intilish bilan bog'liq ziddiyatlar (bahor havosi) tasviri orqali jamiyatdagi qaramaqarshiliklarga ham ishora qilish uslubi nafaqat T.Adashboev ijodiga balki, istiqlolgacha bo'lgan butun o'zbek bolalar she`riyatiga ham xos uslubiy xususiyatlardir. Bu hol bir tomondan, o'sha davr adabiy-siysiyl talablari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, tabiat hodisalariga kutilmagan rakurslardan yondashish, ularni poetik obraz darajasiga olib chiqib gavdalantirishdek adabiy-badiiy, uslubiy-estetik tajribalarning hali shakllanish bosqichida ekani bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, Dilshod Rajabning "Kimga ish, kimga

olqish" she`rini kuzatsak, manzara-holat tasvirlari aks etgan bu turkum she`rlarda jiddiy yangilanishlar, uslubiy o'zgarishlar ro'y berganiga guvoh bo'lamiz. CHunonchi, Dilshod Rajabning yuqoridagi she`ri sarlavhasidagi kimdir ishlayotgani va kimdir olqish olayotgani bilan bog'liq ta'kiddayoq o'quvchini bir qadar ziyraklikka chorlaydigan ijtimoiy ohang seziladi.

She`rning ilk satrlarida biz Bahoroyning hamma yoqni gullatganiga guvoh bo'lamiz. Biroq u yoshini yashab, mehnatni qilib, 90 yoshga to'lib, yozga o'z vasiyatini aytib, tiriklik bilan vidolashadi. Tabiat hodisasidan olingan bu poetik ifoda beixtiyor yosh kitobxonni o'ylantiradi: qancha go'zal bo'lmasin, baribir, Bahoroyning ham umri bitdi, demak, hayot, uning zavq-shavqlari ham fasllardek o'tkinchi ýêáí qabilidagi mulohazalar sari etaklaydi. Demak, shoir achchiq haqiqat tasviri orqali tiriklikning tarovati bilan birga, uning fojeasiga ham ishora qilgan.

She`r davomida tiriklikning bardavomligi, hayotning achchiq-chuchuk sinovlari ortidan rohat-farog'atli pallasi ham kelishi ta`kidlanadi. Etib kelgan yoz fasli eng shimarib Bahoroyning vasiyatlarini ro'yobga chiqarishga kirishadi: manglay terini to'kib, hosilni pishiradi. Biroq dov-daraxtlar negadir afsus va iztirobda: Yoz mehnatni qilib, hosil etilgan palla o'rnini Kuzga bo'shatib beradi.

Shoir Kuzning fe'l-atvori, o'ziga xos xususiyatini shu faslga xos ranglar - mahzun, ma'yus manzaralar, o't-o'lan, dov-daraxt shoxlaridagi ko'z yosh - shabnamlar detali orqali ta`sirchan ifodalaydi.

Umuman, yil fasllari mavzusidagi she`rlarda, qarama-qarshiliklar kurashining o'zi aslida tabiat dunyosiga xos ekanligi Dilshod Rajabning ushbu she`ridailk bor ijtimoiy-falsafiy yo'sinda badiiy talqin etilganini ko'ramiz. Ý'tiborli jihat shundaki, shoir tabiatdan zavq olishga, undan nimalarnidir o'rganishga, go'zallikni his qilishga yoki tabiatni asrab-avaylashga ochiqdan-ochiq da`vat etmaydi. Garchi tahlilga tortilgan uning she`r bunday axloqiy-didaktik ishoraviylikdan butkul xoli bo'lmasa-da, shoir yil fasllarini jonli obraz darajasiga yuksaltiradi: Bahoroy - mehnatkash ayol; Yoz - mirishkor

dehqon qiyofasida jonlanadi. Biroq bu qiyofalar timsolida o'quvchiga mehnatkashlik targ'ib etilmaydi, balki mehnat inson umrining mazmuni o'laroq, hayotni, turmushni bezashi, misoli yil fasllari almashib kelganiday, ajdodlardan avlodlarga ezgu vasiyatlar qilishi yosh kitobxon shuurini charxlashga, fikrini o'stirishga xizmat qildiriladi. SHuning uchun Dilshod Rajab o'z she`rida "vasiyatga" urg'u berarkan tiriklikning, hayotning shafqatsiz qonuni - umr o'tkinchiliginu, avlodlar almashinuvini muqarrarligini alohida ta`kidlaydi.

Darhaqiqat, bolalar yosh va o'smir bo'lishiga qaramasdan ularning idroki bunday hodisaning mohiyatini anglashga qodir. Hayotiy falsafalar ziyrak bo'lishga, o'tkinchi umrni qadrlashga, Bahoroy va Yozday mehnatkash hamda mirishkor bo'lishga undaydi. Yuqorida kuzatilgan xususiyatlar - hayotning go'zal va foje tomonlarini qorishiq va bir qadar keskin, biroq haqqoniy ifodalashga intilish istiqlol davri bolalar she`riyatidagi uslubiy izlanishlarning tobora teran va rang-barang bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Rustam Nazarning "Erdagi quyosh" saylanmasiga kirgan "Bahor keldi" she`ri ham yangicha uslubiy izlanishlarga, poetik topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir bahor va qishning tasvirini yoritishda bolalar olamiga yaxshi tanish bo'lgan holatlardan foydalanadi. Bahorga o'chakishgan qishniňä to'poloniyu, qo'rqib qochishi bolalarga tanish, o'zlarining tabiatiga yaqin odatlar hisoblanadi.

Shoir qishning qochishiga sabab bo'lgan yana bir hayotiy dalilni quyidagicha tasvirlaydi:

Ko'rgandi son-sanoqsiz
Kurtaklarning mushtini,
Yoki uning diliga
Shundan hadik tushdimi?!

Odatda, shoirlar daraxtlarning uyg'onishi - kurtak otishini nafis va go'zal ohanglar orqali tasvirlashga urinishadi. Biroq, Rustam Nazar tabiatdagi ushbu yangilanish va yasharishni she'r mazmuniga - qish

va bahorning kurash hamda bahsi tarzida badiiy idrok etib, an`ana mazmuniga yangi poetik libos kiydiradi. Zero, bahor va qishning kurashi yana bir hodisaning yuzaga kelishida - daraxtlarning kurtak otishi, kurtaklarning mushti tirilishiga omil bo'ladi. SHoir shu tarzda poetik ifodaning yangilanishiga erishadi.

An`anaviy mavzularga yangicha yondashuv deganda, beixtiyor alifbo-she`rlar ham ko'z oldimizga keladi. Zero, bunday ma'rifiy she`rlar XXI asr boshlari bolalar adabiyoti namunalaridayoq ko'zga tashlanà boshlagan edi. Barcha davrlarda shoirlarning eng sevimli mavzusi, bolajonlarning esa ko'p bora murojaat etib yod oladigan, savodxonligini oshirishga qaratilgan she`rlari sirasiga kiradi. Adabiyotshunos R.Barakaev "Alifbo-she'r va o'zbek bolalar she`riyatining ma'rifiylik xususiyatlari" nomli maqolasida "...Shermuhammad Munisning XIX asr boshlari (1804 yil)da yaratilgan "Savodi ta`lim" risolasi bolalarga mo'ljallab asar yaratish yo'lidagi ilk izlanishlardan biridir. Zero, xat bitishni o'rganish ishtiyoqidagi shogirdlariga chiroyli yozuvni o'rgatish umididagi muallif qo'liga tushib qolgan chiroyli yozuv qoidasi xususidagi risolani nazmga solish asnosida "Savodi ta`lim" maydonga kelganini asar boshidayoq ta`kidlaydi.

Muallif arab alifbosidagi deyarli barcha harflarga ta`rif beradi. Mumtoz adabiyotimizda ma'shuqa go'zalligini arab alifbosi harflariga qiyoslash an`anasi mashhur bo'lsa, Munisning harflarni yosh kitobxonlarga tanish turli narsalarga, masalan, "zo"ni qushga, "shin"ning egrilagini tig' (qilich)ga va naddof (to'quvchi)ning kamoniga o'xshatishi ushbu an`ananing o'zgacha ko'rinishi tarzida namoyon bo'ladi.

Binobarin, "Savodi ta`lim" yuqoridagi singari jihatlari bilan o'zbek bolalar she`riyatida yosh kitobxonlargà mo'ljallangan ta`limiy asarlar, xususan, alifbo-she`rlar ibtidosini tashkil qiladi, desak, xato bo'lmasa kerak", - degan mulohazani ilgari suradi. Adabiyotshunos alifbo-she`rlarning Sulton Jo'ra ("Harflar paradi"), SHukur Sa`dulla ("Alifbe"), Quddus Muhammadiy ("Harflar o'yini"), Adham Rahmat

("Alifbe") kabi ijodkorlar tomonidan XX asr o'zbek bolalar she`riyatidagi sara namunalari yaratilganini e'tirof etib "XX asrning 80-yillariga kelib o'zbek bolalar she`riyatida alifbo-she`r yaratish an`anasini T.Adashboev Jovanni Rabonining "Qaysar raqamlar" she`riga javoban yozilgan "Harflarning sarguzashti" ertak-she`ri bilan yangi pog'onaga ko'tardi", - deb yozadi. Demak, ilk mакtab darsliklaridan boshlangan an`ana keyinchalik izchil davom ettirilgan.

Mustaqillik yillarida ham ushbu an`anaviy mavzuga yangicha yondashuvlarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, Anvar Obidjonning "Harflar nimaga o'xshaydi?", Kavsar Turdievaning "Alifbo olamiga quvnoq sayohat", Olqor Daminning "Quvnoq "Alifbe""", Dilshod Rajabning "Qiziq alifbo", Zikrilla Ne`matning "Vatan alifbosi qo'shig'i" she`rlari shular jumlasidan. Zamonlar o'zgarishi, yozuvning almashinishi alifbo-she`rlarga bo'lgan ehtiyojning ham yangilanib borishini taqozo qiladi. SHuningdek, bu jarayonda har bir davr kitobxonining talab-ehtiyojlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Alifbo-she`rlarga muayyan davrlar orasida talab paydo bo'lishi tabiiy hol. Masalan, XX asrning 30-yillari oxirida yaratilgan alifbo-she`rlar 60-yillar yosh kitobxoni talabiga to'la javob berolmaydi. Binobarin, avlodlar almashinuvi bilan bir zamonlarda yaratilgan alifbo-she`rlar eskirib, ularning o'rнiga yangilari paydo bo'lishi shu bilan izohlanadi," - deb yozadi.

Olqor Damin "Quvnoq "Alifbe"" asarida har bir harfga bolalarga tanish bo'lgan hayvonlar, sabzavot va mevalar haqidagi xarakterli to'rt misrali jajji she`rlar bag'ishlaydi.

U (U)

Uzumlarning uzumi -
Husayniman Husayni!
Dugonaman qizlarga,
O'g'llarga og'ayni.

Dilshod Rajab esa nomi muayyan harflar bilan jonivorlarni tasvirlar ekan, misralardagi so'zlarni o'sha harf bilan boshlash orqali harfiy takror asosida ta'kidni kuchaytiradi. Birinchi sinf bolasi

tasavvuriga mos "ukki" va "bu zoqcha" obrazlarining o'z tabiatiga monand yoxud nomuvofiq xatti-harakatlarini jonli tasvirlash orqali kulgili vaziyatlar yaratadi:

U (U)

Uchqur uchuvchi Ukki
Uzoq-uzoqqa uchdi.
Uloqcha uchaman, deb,
Uzala erga tushdi.
U yon-bu yon boqib so'ng
Uf tortdi tushib cho'kka:
"Uchqur qanotim bo'lsa,
Uchardim men ham ko'kka".

Mustaqillik yillarda yaratilgan alifbo-she`rlar o'z ma'rifiy xarakterini saqlagan holda sof badiiyat namunalariga ham aylanib bormoqda. Ular bolalarga estetik zavq beradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan poetik topilmalar bilan boyimoqda:

H (H)

Hakka harbiy xizmatda
Himoyachi zo'r posbon.
Havodan o'tmas pashsha,
Hattoki erdan sichqon. (Baxshi bola - yaxshi bola, 119).

Zikrilla Ne`matning "Vatan alifbosi qo'shig'i" asarida ham alifbo-she`r mavzusiga yangicha yondashuâié kuzatamiz. Shoir vatan mavzusini o'ziga xos yangicha uslub va shaklda tasvirlaydi. Vatan madhi tasvirini etakchi o'ringa chiqarib, alifbo turkumidagi she`rlar mazmuniga yangilik kiritadi. Ikki tushunchani uyg'unlashtiradi. Ifodaning yangiligi alifbo tartibi bo'yicha har bir harfga mos so'z va ohangning topilganida ko'rinadi. Ta`kidlanganidek, bolalar adabiyotida alifbo she`rlar ko'plab uchraydi. Jumladan, Kavsar Turdieva, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbarlar ijodida kuzatiluvchi alifbo she`lar o'zining mavzu va ifodasiga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Zikrilla Ne`matning so'z yuritilayotgan she`rida esa bolalarning alifbo kitobidan olgan bilimlari mustahkamlanishi bilan

bir qatorda, vatan tushunchasining mazmuni hamteran anglanadi. Murg'ak qalbga vatanparvarlik ruhi alifbo sabog'i bilan uyg'un singdiriladi. Shoir bir qator she'riy san`atlardan, jumladan, talmeh, tashbeh, tanosib (ayniqsa, tanosib - bir biriga uzviy aloqador so'zlardan tabiat tasvirini ifodalashda o'ziga xos obrazli lavha yaratgan) kabilardan mohirona foydalaniib, she'rning badiiy va estetik qiymatini oshirishga erishgan. Talmeh she'riy san`ati vositasida xalqimizning qadim tarixiga, tarixiy shaxslar, ma`naviy merosimizga ishora qilinadi va shu yo'l bilan yosh avlod qalbida milliy g'urur vaiftixor tuyg'ularini yuksaltirishga erishiladi:

A

"Avesto" ni o'qib kuch oldim
Ajdodlarning qalb sadosidan.
Aziz Vatan, men uchun o'zing
Abadiyat alifbosisan .

Shoir aziz vatanni "abadiyat alifbosi" deya ta`rif etar ekan, vatan tushunchasiga yangicha falsafiy-poetik ma`no yuklaydi. Demak, inson uchun vatan - abadiyat ilmidir. Bu ilmni o'rganish nafaqat millat tarixini, balki o'zlikni anglashga ham yordam beradi.

Lirik qahramon nomusu or, mardlik shiddatini Najmuddin Kubrodan o'rganganini ta'kidlaydi. Ma'lumki, Najmuddin Kubro ulug' shayx va donishmand bo'lib, hatto nuroni yoshda (et mish besh yoshida, 1221 yilda) bo'lishiga qaramay, aziz vatanini mo'g'ul bosqinchilaridan mardona himoya qilib qahramonlarcha jon bergen. Demak, uning bu jasorati va vatanparvarligi yosh avlod uchun bir umr ibrat namunasi bo'ladi.

Shuningdek, "Vatan alifbosi" she'rining "S" harfiga bag'ishlangan to'rtligida ham talmeh she'riy san`ati vositasida buyuk ajdodlarimizning o'lmas qiyofasi gavdalaniib, nafaqat ulug' ajdodlarimiz va qahramonlarimiz nomi bilan tanishtirib boriladi, ayni paytda, bolalar ular ruhidan ma`naviy quvvat ham olishadi.

S

Siyovushdan meros qo'rg'onim,

Sarhadlaring tinch-omon bo'lgay.
Sohibqiron sha`niday shonim,
Salobating dilga o't solgay ("5 baho olgan kunim", 7).

She`rda tabiat tasviriga alohida urg'u qaratiladi. Ayniqsa, jannatmakon yurtimiz jamolini tavsiflashda tabiatning go'zal tasviri vatan tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi. Vatanni abadiyat alifbosiga, dildagi sajdagohga, erk qo'rg'oniga, gullarga kon qadim makonga, oftob yurti - tengsiz bo'stonga, mangu porloq quyoshga, lolazorga, rizvon bog'iga qiyos etsa-da, lirik qahramon unga munosib timsol topa olmaganidan ozurda bo'lib, ona vatanidan bu no'noqligini kechirishni iltijo qiladi.

Ona diyorimizni erkin, baxt o'lkasiga, ezgulik malikasiga, erk qo'rg'oniga qiyos etgan shoir o'quvchi qalbida vatanga muhabbat ruhini jo aylabgina qolmay, ezgulik urug'i nish urishiga ham yordam beradi. Ko'rinish turibdiki, "Vatan alifbosi" she`ri bolalar intellektual tafakkurini boyitibgina qolmay, ularni ma`naviy komillikka etaklashi bilan ham muhim ma'rifiy qimmatga kasb etadi.

X.Komilovning "Ko'klam" she`rida esa, tabiatning go'zal tasviri ona yurt qiyofasi bilan uyg'unlashib ketgan.

Feruza osmon,
Parquv bulutlar.
Atrof nopalmon
Baxmalday o'tlar.
Nurga cho'milgan
Zangori ko'llar,
Gulga ko'milgan
Hattoki, cho'llar ("Mazali kitob", 5).

Tabiat va vatanni bunday go'zal tashbehlar, poetik topilmalar bilan tasvirlashdan tashqari, she`rninä sodda, ravon uslubi ham shoir badiiy mahoratidan darak beradi. Go'zallik tasviri uchun uning asl musavviriga (tabiat, Ollohga) tasanno aytgan shoirning o'ziga xos badiiy olam - jahonni nurga yo'g'rilgan holda tasavvur etishi va buni

poetik ifodaga ko'chirishi yosh kitobxonga jonli satrlardan ufurib turgan ko'klam ifori tarovatini tuyish va undan estetik zavq olish tuyg'usini tuhfa etadi.

Ushbu mavzuga bag'ishlangan "Qish manzarasi" she`rida esa shu mavsumga xos bo'lgan izg'irin shamol, oppoq qor, ayoz kabi belgisifatlarning obrazli tasvirida qiziqarli tasvir uslubini qo'llash orqali bola e'tiborini jalb qilishga erishilgan:

Izg'irin shamol esar,
Qor yog'adi bo'ralab.
Daraxtlar qovoq osar,
Oppoq to'nga o'ralib.
Derazalar ko'ziga
Chizar ayoz jamalak,
Zarrin oyning yuzida
Aks etadi kamalak ("Mazali kitob", 6).

Shuningdek, she`rda sharqona falsafiylik, milliylik ruhi mujassamlashgan. Misralar qatiga zulmatdan nur qidirish "tunni oqqa o'rash", ayozning jamalak chizishi, yaxshilikka, yorug'likka intilish tuyg'ulari singdirilgan. SHe'rning so'nggi bayti fikrimizni tasdiqlaydi:

Qish o'zi-o'zi bilan
Battar yog'dirsa ham qor,
Boychechak ko'zi bilan
Mo'ralab turar bahor ("Mazali kitob", 6).

Shoirning "Laylakning javobi" she`rida tinchlik deb atalmish beba ho ne'mat o'ziga xos ramzlar vositasida tasvirlanadi. Aslida laylak - tinchlik, ramzi hisoblanib, osuda yurtni makon etadi. Lirik qahramon va laylakning dialogik savol-javoblaridan tinch va osuda shahrimiz, oljanob xalqimizga xos xususiyatlar angilanadi. X.Komilov oksimaron (qarshilantirish) usulidan mohirona foydalanib poetik yangilikka erishgan. Ya`ni, oliyjanob insonlar maskani hisoblangan ona yurtimiz shaharlarida tutun, zaharli gazlar, diqqinafa faslik bo'lsada, tinchlikning sof havosi, xotirjamlik va insoniy mehr-oqibat mavjudligini laylak poetik obrazi tilidan ifodalashga erishilgan.

SHe`rning yana bir ma`rifiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, otabobolar nasihat va o'gitlariga amal qilish lozimligi laylak va uning katta dadasidan eshitganlarini xotirlashi orqali oydinlashadi. Aslida, zohiran uncha ahamiyatsizdek tuyulgan ushbu misra zamirida yosh avlodni kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, tinchlikni ulug'lashga ishora mujassam.

X.Komilovning turli mavzularagi ko'pgina she`rlarida (xoh u varrak mavzusida bo'lsin, xoh laylak, xoh ko'klam, qish va h.k.) vatanparvarlik ruhi ufurib turadi. Jumladan, "Varragim" she`rida bolaga yaxshè tanish bo'lgan varrak detali vositasida Ona vatan - O'zbekistonning buyuk kelajagi, yuksak parvozi, bunda yosh avlodning o'rni, mas`uliyati va orzulariga hamohang tarzda tasvirlanadi.

"Kalishning deganlari" she`rida esa, vatanparvarlik tushunchasi mash`um urushning fojiaviy oqibatlarini tasvirlash orqali yoritiladi. Fabrikadan juft chiqqan kalishlarning ajralib ketishiga xaridorning bir oyog'i yo'qligi sabab bo'ladi.

Olis janglar illati,
Ýgamni-ku qaqshatdi,
O'sha urush - la`nati,
Bizlarni ham ajratdi ("Mazali kitob", 8).

She`rdagi dramatizm yosh kitobxon qalbiga kuchli ta`sir etadi va uni urushning oqibatlarini teran anglashga, tinchlikni qadrlashga undaydi.

Shuningdek, shoир ijodida kuzatiluvchi nasihat yo'sinida yozilgan didaktik she`rlar ham o'zining chuqur falsafiy asosiga ega. Bilamizki, nasihat bola dunyoqarashini shakllantirish, oq va qorani farqlashda muhim ma`rifiy-didaktik vazifani o'taydi. Biroq badiiy asardagi didaktika quruq bayonchilik, nasihat qilishdan xoli bo'lsa, obrazlashgan poetik timsollar bag'ridagi hikmatni aql vositasida mushohada etib anglash, ruhan his qilish mumkin. Shu jihatdan, shoирning "Daraxtning niholga nasihat", "Xandon pistaning bodomga nasihat", "Baliqning bolasiga nasihat", "Qiyomat qarz" she`rlari

xarakterlidir.

"Daraxtning niholga nasihatni" she`rida daraxt - donishmand, nihol -bola, bolta, kunda - johillik, tig', olov - xavf-xatar ramzida kelib yosh kitobxonni mushohadaga, yon atrofni obrazli anglashga, tasavvurlarini umumlashtirishga chorlaydi.

"Xandon pistaning bodomga nasihatni" she`rida insonlarga xos bo'lgan manmanlik, dimog'dorlik illatlari qoralanib, kamtarlik fazilati ulug'lanadi. Bunda shoir o'ziga xos o'xshatishlar bilan pistaning tilidan bodomga qarata shunday deydi:

Bu qovog'u
Qoshingga,
To'qmoq tushar
Boshingga ("Mazali kitob", 9).

Endigina shakllanib kelayotgan bola ongu tafakkuriga ushbu axloqiy tushunchaning obrazlashgan tasviri estetik ta'sir etib, mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

"Baliqning bolasiga nasihatni" she`rida esa ilon, chayon, ajdardan emas, nafs timsoli sifatida kelgan chuvalchangdan qo'rqish kerakligi uqtiriladi. Bunda insoniyatning ma`naviy tanazzuliga sabab bo'luvchi nafs balosi chayon va ilonning zahridan-da xavfli ekanligiga ishora qilinadi.

Shoirning "Osmondagi tuyalar" she`ri yangicha badiiy topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Manzara tasviri aks etgan bu manzumada bulutning yangicha poetik talqinini ko'rish mumkin. Shoir osmondagi bulutlarni tuyalar karvoniga qiyoslab, ularning o'rkachidagi xumchalar jo'mragidan oqayotgan suv tomchilarini jala, yomg'ir, do'l va qorlarga mengzab o'ziga xos jonli manzara yaratadi. Shoir tabiat hodisalari tavsiri orqali bola tasavvurini boyitishga urinadi.

"Tanishuv" she`ri esa, mavzuning originalligi bilan ajralib turadi. Unda o't-o'lanlar, milliy urf-odatlarimiz, Navro'z kabi milliy bayramlarimiz tasvirining yangicha talqini qalamga olinadi. Ayni bahor chog'ida borliq go'zal, yam-yashil tusga burkangan kezda ilk

bor tanishgan otquloq va ismaloq o'zlarining keyingi uchrashuvlarini quyidagi tarzda belgilashadi:

- Navro'z kuni
Azonda,
Uchrashamiz
Qozonda ("Mazali kitob", 18).

X.Komilov Navro'z haqida bolalar she'riyatida yozilgan o'nlab she'rlar syujetini tamomila yangilaydi. Doshqozonlarda sumalakning qaynashi an'anaviy tasviri o'rniga she'rni ko'k somsa va chuchvara ichiga tugiladigan shifobaxsh ko'katlar - otquloq va ismaloqni jonlantirib, bola tasavvuriga osongina singadigan uchrashuv kartinasi bilan yakunlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Uslub deganda nimani tushunasiz?
2. Ijodiy izlanishlarning istiqbolini qanday izohlaysiz?
3. An'anaviy mavzularning yangicha talqini sizningcha qanday?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

II MODUL. BOLALAR NASRI POETIKASI

5-MAVZU. ZAMONAVIY BOLALAR HIKOYALARINING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Bolalar hikoyalarining mavzu-mundarijasi.
2. Bolalar hikoyalarida makon va zamon ifodasi.
3. Bola obrazining va ruhiyatining yangilanishi.

Tayanch tushunchalar: *hujjatli, publitsistik, fantastik, tarixiy, humoristik, didaktik, animalistic, axloqiy, hikoya, badia, esse, ramziy, tamsiliy*

Erkin Malik o'tgan asrning 70-yillaridayoq badiiy ijod sohasida ham tanila boshlagan edi. To'g'rirog'i, muallifning sobiq sho'ro tuzumi davrida yozgan hikoyalari tuzum mafkurasidan xoli emasdi, biroq ularda bolalar va o'smirlar jasorati, amalga oshirgan real qahramonliklari umuminsoniylik ruhiyatidan mosuvo emasdi. Qalamkashning "O'n uchlar toshbo'roni", "Salim tomdan tushdi", "Ko'r g'orning siri" (To'plamda: Quyoshli yo'llar. T., "Yosh gvardiya", 1978, 37-42-betlar) kabi hikoyalari shu jihatdan fikrimizga dalil bo'la oladi. Yozuvchining bevosita mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida vujudga kelgan, qayta nazardan o'tkazilgan hikoya va qissalari esa yangi davr voqeligi ifodasiga bag'ishlangani, zamondosh o'quvchi qiziqishlarini qamrab olgani bilan e'tiborni tortadi. Ular mavzu va uslubiga ko'ra rang-barang: hujjatli, publitsistik, fantastik, tarixiy, humoristik, didaktik va hokazo. Xususan, adibning "Subhidam hikoyalari", "Champo otli ilon"

to'plamlarida o'ziga xos olam mujassam. Ularda hayotiy voqelik bolalik olami in`ikosi sifatida ko'zga tashlanadi. Garchi hikoyalarning qahramonlari turli zamon vakillari, ya`ni, o'tgan asrning 20-yillaridan tortib bugungi davr avlodlarigacha bo'lsa ham asar qahramonlari sifatida harakat qiluvchi bu insonlarning aksariyati bolalardir; voqelik esa ular orasidagi turli munosabatlar yoxud katta avlodning bolalik xotiralaridan iborat. Yoxud ularning ko'pchiligi animalistik mavzuga bag'ishlangani bilan diqqatni tortadi. Shunga ko'ra yozuvchining bu to'plamlardagi hikoyalarini quyidagicha guruhash mumkin:

1. Ijtimoiy-hayotiy, tarbiyaviy mavzudagi novellalar ("Xayrli tush", "Oqsoqol", "Kalavaning uchi", "Kelin tushdi", "Qo'rquv qachon chekinadi", "Bir dasta gul" va boshqalar);
2. Axloqiy mazmunga ega didaktik hikoyalar ("Jannatning rayhonlari", "Mukofot va jazo", "Ikki dono bir bo'lsa", "Arigan dard", "Bir tola qil", "Tilsim", "Sarupo", "Mol achchig'i", "Katta tomosha" va h.k.);
3. Animalistik mavzudagi hayvonlar haqidagi hikoyalar ("CHampo otli ilon", "Ilonlarni qandoq qilib eganimiz haqida", "O'zim chaqirgan mehmon", "Osmondan tushgan Oqtosh", "Ko'kttoy" kabi turkum hikoyalar).

"Subhidam hikoyalari" to'plamida o'ttiz sakkizta ixcham hikoyalar jamlangan bo'lib, mohiyatan zamondosh o'quvchi ma`naviyatini oshirishga qaratilgan. SHunisi diqqatga sazovorki, hikoyalarning ko'pchiligi zamonaviy, hayotiy voqealar asosida, ya`ni,

ular siz-u biz ko'rib-ko'rmaslikka, bilib-bilmaslikka olgan hodisalarga munosabat tarzida yozilgan. Ularni tamsiliy hikoyalar ham deyish mumkin. Ya`ni, yozuvchi hayotimizdagi biror voqeani bayon etar ekan, xulosa qismida uning mazmuniga mos keluvchi xalq maqollari, rivoyat, falsafiy va hikmatli so'zlarni keltiradi. Bunda muallif asosan ikki maqsadni ko'zlaydi: avvalo, jiddiy mavzudagi masalalarga kitobxon e'tiborini tortish; ayni paytda, xalq ma'naviyatidagi mumtoz hikmatlar, rivoyatlar bilan yosh avlodni tanishtirish.

Hikoyalar hajman ixcham, novella shaklida yozilgan. Aytaylik, ijtimoiy mavzudagi "Xayrli tush" hikoyasida insoniy ezgulik oddiy voqeal yordamida ifoda etiladi. Unda bayon qilinishicha, Dadaxonning xotini og'ir kasalga chalinadi. U do'xtir bo'lgani uchun dardini yaxshi bilardi. SHunda ham erini ko'nglini ko'taradi: "...tuzalib ketsam, ishdan bo'shayman, ona-bola sigir olib berasiz, ovunib yuraman". Garchi Dadaxon xotini-o'ttiz yillik bosh vrachning sigir sog'ishini tasavvur qilolmasa-da, ona-bolalik sigirning pulini ro'molchaga tugadi-da, xotiniga ko'rsatib, g'aladonga tashlab qo'yadi. Ammo shu kunlarning birida ukasi pul so'rab keladi. Dadaxon yo'q deya olmaydi... Ukasi o'sha pulni olib kelganda esa... Pul bor, bozor to'la ona-bolali sigir... Lekin uni sog'adigan beka yo'q... Dadaxon shularni o'ylab, dardi yangilanib turganda, qizchasi ko'chadan chopqillab kirib keladi va qo'shnining bolasini darvoza bosib qolganini aytadi. Dadaxon g'aladondan pulni olib, ko'chaga yuguradi. Bolani kasalxonaga olib ketishibdi. Shundog'am

O'tkirjonning ikkita bolasi nogiron edi. SHu pulni ularga bermoqchi bo'lib, ko'chaga chiqqan Dadaxonga boshqa bir qo'shnisi tutoqib bunday deydi:

"-Ey, zap qiziq odamsiz-da, qo'shni. Kimga yaxshilik qilmoqchisiz, kimga? Yaxshi bo'lsa, o'z mahallasiga o'g'irlikka tushib, qamalib chiqarmidi! ...Qo'ying, aralashmang. Battar bo'lsin, bo'limganga bo'lishmang-e."

Dadaxon bunga ahamiyat bermay, kasalxonaga telefon qilib, surishtirib, bolaning ahvoldidan xabar oladi va xotirjam tortib, uyquga yotadi. SHu kuni u marhum xotinini tush ko'radi: Chamanoy kattakon bir targ'il govmishni sog'ish bilan ovora edi. Chelak oppoq sutga to'lib-toshib borayotibmish. Dadaxon hayron bo'lib dermish:

"- Qulluq bo'lsin, onasi?

Xotini kulib dermish:

- Egasiga qulluq, adajonisi, egasiga qulluq...
- Egasini bilsak bo'ladimi?
- Qo'shimiz O'tkirjon-da, biram suyundim deng..."

Bu tushdan keyin Dadaxon O'tkirjoni yoniga oladi-da, bozorga jo'naydi. Allohning marhamati bilan tushida ko'rgan ona-bolali targ'il sigir shundoqqina ro'parasidan chiqadi. Dadaxon sevinch yosHLARIDÀÍ o'zini tiyolmaydi...

Yozuvchi xulosasi shuki, ezgu-savob ish insonning yuragida bo'lsa, unga yaratganning O'zi to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yomonni ba'zan yaxshilik tarbiyalaydi. Tush ko'rish detali, marhum ayol ruhining eriga madadkor bo'lishi yozuvchi g'oyasini asoslashga qaratilgan.

Muallif qo'ni-qo'shnichilikdagi hamdardlik, e'tiborni ulug'lash orqali, mahalla tarbiyasining alohida o'rnini ta'kidlamoqchi.

"Oqsoqol" hikoyasida keksa otaxon so'zining ulug' qudrati, qariyalarga xos ish tutgani ko'rsatib berilsa, "Darak"da Chirchig'u Toshkentni bog'lab turgan temir yo'l vagonlarining ko'rkar va qulay bo'lib borayotgani, bu kelajakdagi yaxshi kunlardan darak berayotgani tasvirlangan; "Kalavaning uchi" hikoyasi ham bir qaraganda oddiy, hayotiy voqeа talqiniga bag'ishlangan: chashma va tog' odamlarining et bilan tirnoqdek munosabati va bunda donolik bilan ish ko'rish. "Hayot deganlari chindan chalkash kalavaga o'xshaydi. Uchini topish, hammaning ham qo'lidan kelavermas ekan" Hikoya so'nggidagi ana shu hikmat bugungi odamlarning tadbirkorligini oydinlashtiradi.

"Bir dasta gul" ham shu kunlarning hangomasi. Unda tug'ruqxonalardagi "orzu-havas"larning kimo'zar poygasi va bu holatlarning atrofdagilarga ta'siri yaqqol aks etgan. Hikoyada uch xil toifadagi ayollar tasvirlanadi. Ulardan biri eridan ajralgan, ikkinchisining eri bo'lgani bilan qo'chqordek o'g'il tug'ishiga qaramay, bir dasta gulga arzitmaydi. Ular shu jihatdan hamdard. Ammo palatalariga o'zidan oldin gullari kelgan uchinchi juvon joylashadi-yu, ular qalbi o'rtanadi. ...Xonaga birin-ketin qog'oz xaltalar kira boshlaydi. Anor deysizmi, banan deysizmi, mandarin, apel'sin, pista-bodom, turli xil shirinliklar... Bu dabdabalar anavi ikki ayolning g'ashini keltiradi. Axir bitta qoringa qancha narsa kerak!?. Yangi hamxona esa endigina tanigan dugonalarini qo'yarda-qo'ymay

ziyofat qilar, kelgan narsalarni hamshiralarga tarqatardi. Bu ham etmaganday, juvonning biznesmen eri uyiga do'xtir yollab, ikki kundayoq xotinini olib ketadi. Ayolga uyidan shohona kiyimlar keltirishadi. Darvozadan uzun qora va oq mashinalar ko'rindi. Karnay-surnay. Bir zumda tug'ruqxona to'yxonaga o'xshab ketadi. Ana gullaru mana gullar... Videoga oluvchilar... Ikki ayol bu holni ko'rib boladek quvonishar, ammo ich-etlarini nimadir kishi bilmas kemirardi. Ýrsiz ayol og'ir xo'rsinib, o'zini joyiga tashlaydi. Ikkinchisi bo'lsa, kutilmaganda jazavasi tutadi:

"-Quribgina ketsin, shuyam hayot bo'ldi-yu... Ýrimga manavi uzugimni, zanjirimni echib beraman. Sotsin-da, mashina, gul, videolar olib kelsin. Men ham ana shu xotindek ko'kragimni kerib chiqib ketaman mana shu joydan. SHunday qilmasam, otimni boshqa qo'yaman" (42-bet).

Oilada chaqaloqning dunyoga kelishi oliy baxt. Ammo bu jarayonni tomoshagohga aylantirish dinu-diyonatimizga to'g'ri kelmaydi. O'tmishda yangi tug'ilgan chaqaloqni va ko'zi yorigan ayolni qirq kun davomida begonalar nazaridan uzoqda saqlashgan. Ona-bola sog'ayib, chillasidan chiqmagunicha, hech qanday marosimlar o'tkazilmagan. Bu tibbiy jihatdan ham juda o'rini. Binobarin, bir dasta gul orzusidagi juvonlarning hoyu havasi orqali inson ma'naviyatidagi kemtiklik va shu tufayli yuz bergen behalovatlilik ko'rsatilayotir. Ta'bir joiz bo'lsa, bu holat davr fojiasiga aylanib ulgurmoqda. Hamchunin, adib bu mavzudagi hikoyalarida inson o'zining oliy mavjudot egasi ekanligini va ijtimoiy

hayotdagi muhim vazifasini unutmasligi, turli amallaru boylikni ko‘z-ko‘z qilish madaniyat belgisi emasligini uqtirmoqchi bo‘ladi..

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning mashhur Chor devoni va undagi devonlarning nomlanishini bilmagan kitobxon kamroq. Ularda kishi umri yil fasllariga qiyoslanishi-da, bejiz emas. Inson ham aslida tabiatning bir bo‘lagi ekanligi yana ko‘plab adabiyotlarda talqin etilgan. Yoshlik ("G‘aroyib us-sig‘ar"), yigitlik ("Navodir ul-shabob"), o‘rta yoshlik ("Badoyi ul-vasat") davrida olgan bilim va izlanishlari, kuzatishlari, ortirgan tajribalari ijodkorning kibar yoshida asqotadi. Hayotdan olgan saboqlari ko‘z oldida kaftdagidek namoyon bo‘ladi. Ýndi bu yoshda avlodlarga aytajak pandlar o‘z-o‘zidan quyilib kelaveradi. Kimdir suhbatida, kimdir maqol va naqllar orqali, yana kim ilm-u amalida aks ettiradi fikr qaymog‘ini... Ijodkor xalqining esa qalami bir zum tinmaydi... Ilhom bulog‘ining yangi-yangi irmoqlari ko‘z ochaveradi go‘yo. Mazmun shakllarga sig‘maydi...Fikrlar mazmunan o‘quvchi yoshini tanlamaydi...

Zero, Ýrkin Malikning "Subhidam hikoyalari" to‘plamidan joy olgan axloqiy mavzudagi tamsiliy -didaktik hikoyalar fikrimizga ana shu jihatdan asos bo‘ladi. Mustaqillik inson tafakkuridagi jamiiki narsalarning ro‘yobga chiqishi uchun imkon berdi. SHu bilan birga, aziz bo‘lgan dinu diyonatimiz, e`tiqodimizga erishdik va u haqda gapirish mumkin bo‘ldi. Ma`naviyatimizda esa kemtiklar hali bisyor. Insoniyat tabiati inchunin-da, murakkab. U o‘zidagi nopok xilqatlardan tozarishi, a`molida sobit bo‘lishi oson kechmayapti. To‘plamda jamlangan badiha va hikoyalar o‘quvchini ana shu

jarayondan ogoh etadi. U istiqlolning subhi sodig'i-birinchi o'n yilligi arafasida chop etilgan. Hikoyalar mavzu mohiyatiga ko'ra katta-yu kichik uchun birdek, ma'rifiy ahamiyatga ega. Masalan, bir hikoyada Payg'ambarimizning "Bolalar jannatning rayhonlaridir" degan hadislari, ul muborak zotning bolalarga birinchi bo'lib salom berishlari, etimlarni o'z yonlaridan kiyintirib qo'yishlari quyidagi voqeа misolida talqin etiladi: Abduvohid ota nabirasini bog'chaga etganda gulday bolalar chetlari titilib, paloslik holati qolmagan bir juldirvoqining ustida o'ynashardi. "Endi dunyoni ko'rayotgan bokira ko'zlar shularni ko'rib ulg'ayishi kerakmi?", - o'laydi ota. Esizgina, kecha masjidga etib tashlagan yangi gilamning joyi asli shuer ekan... O'sha kuni yangi gilamni ko'rgan masjid imomi Abdullajon qori shunday degan edi: "Aziz birodarlar, qavmlarimizdan biri masjidga gilam to'shab ketibdi. Ularga Allohning beedad ajrlari bo'lsin. Ammo poyondozlarimiz gilamlarimiz uch qavatdan bo'p ketgan. Sajdaga borganda peshona qattiq joyga tekkani ma'qul. Mahalladagi qo'li qisqa beva-bechoralarga qaraylik. Ehson ham bir korga yarasagina o'z o'rniغا tushadi..." Abduvohid ota peshin namoziga barvaqtroq bordi-da, masjid imomiga ko'nglini ochdi.

-Juda yaxshi o'ylabsiz, taqsir,-dedi u,- bolalarni Alloh subhanahu va taolo-mening ne'matim degan. Ishimizdan Alloh rozi bo'ladi va chandon-chandon ajrlar yozadi, gilam egalariga. Jamoa bilan kengashaylik-da, bir emas, ikkitasini bolalarimiz tagiga to'shab beraylik. Axir ertaga o'rnimizni to'ldirib, bizga savob yuboradiganlar shular-da... (13-bet).

Ha, mustaqillik tufayli juda ko'p masjidlar yangidan qad rostladi, ta'mirlandi. Xalq hasharlari orqali xayrli ishlar amalga oshirildi. Afsuski, oramizda masalaga bir yoqlama qaraydigan, ya`ni faqat masjidlarga ehson qilsagina, ko'ngli joyiga tushadigan himmatlilar uchrab turadi. Hikoya ana shunday insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashga qaratilgan. Hadis esa o'quvchiga muallif g'oyasini teranroq anglatishga xizmat qiladi. Shunga o'xhash, "Mukofot va jazo" hikoyasida Rasululloh sallalohu alayhi va sallamning sahobalariga: "Qo'shnining haqi nima ekanligini bilasizmi",- deb so'ranganlari va o'zlari : "Qaytarib berish sharti bilan qarz so'rasa, qarz berasiz",- degan o'gitlari singdirilgan. "Ajr muborak"da esa "Ikki mo'minni yarashtirib qo'yish-Alloh huzurida bitta masjid qurish bilan barobar" degan hadis talqini aka-ukalarni yarashtirib qo'yan Tohir boyvachcha misolida ko'zga tashlanadi.

Istiqlol ne'matlaridan biri mustabid sho'ro tuzumi davrida ta`qiqilangan islom dini va ta`limoti haqidagi ma`naviy -ma'rifiy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishidir. Qur`oni karim, Hadisu sharif kabi muqaddas kitoblarni bugun yoshu qari o'qish imkoniyatiga ega. Hatto bu ta'lim dasturlarida ham ifodasini topayotir. Yoxud, xalqimizning haj,umra safari bilan bog'liq orzulari amalga oshayotgani-da, shukuhli kunlarning isboti. Shunga qaramay, o'sha aziz kitoblardagi oyat va suralar, hadislarning mazmun-mohiyatini hamma birdek tushunayotir, deb bo'lmaydi. Aksincha, hodisaga bir yoqlama yondashish, yoki, dinni niqob qilib olgan turli oqimlarga ko'r-ko'rona ergashish, baayni bolalar va o'smirlar orasida ko'p

uchraydi. Zero, muallifning ushbu to‘plamidagi hikoyalari o‘quvchiga din mohiyati, Payg‘ambar (s.a.v.) amallarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Shu tariqa, hikoyalarda qo‘ni-qo‘schnichilik, insoniylik, do‘stlik va kishilarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatlariga beriladigan ajrlar, aldamchilik va firibgarlikning jazosi to‘g‘risida mushohada yuritilib, ularda shu mavzudagi hadislarning mag‘zi chaqiladi. Ibodat, savob (masalan, insonning bu dunyoda ekkan daraxtlari, yaratgan bog‘-rog‘lari, zurriyodlar tarbiyasi, qurban ko‘prigu, qazigan ariqlari), yaxshilik (uning katta-yu kichigi bo‘lmasligi), sadaqa berish(talabgorlarga), iymon(Allohga) va e`tiqod(dinu a`molida) nima ekanligi atrofimizda kechayotgan voqealar misolida sharhlanadi va bu haqda yaxlit tasavvur uyg‘onadi. Shuningdek, to‘plamidagi tamsiliy hikoyalarda xalq rivoyatlari singdirilib yuborilgan. "Savobning kushandas", "Bir tola qil", "Arigan dard", "Ikki dono bir bo‘lsa" kabi hikoyalarni shu jihatdan rivoyatlar asosiga qurilgan, deyish mumkin. Masalan, "Ikki dono bir bo‘lsa" hikoyasidagi tamsillar e`tiborni ko‘proq tortadi. Unda keltirilishicha, ikki yo‘lovchi uchrashib qoladi. Biri ancha keksa, yoshini yashagan, ikkinchisi yosh, navqiron yigit . Ularning yo‘li bir uchun, shahardan qishloqqacha suhbatlashib ketadilar. Bir muddat jimlikdan so‘ng yigit: “– Ota, keling, bir-birimizni ko‘tarishib ketaylik, birpas siz, birpas men, yo‘limiz yaqin bo‘ladi”, -deydi. Chol yigitga bir g‘alati qarab qo‘yyadi-yu, indamaydi. Yo‘lda dehqonlar bug‘doy o‘rayotganini ko‘rgan yigit yana so‘raydi:”-Ota, so‘rab biling-chi, ular o‘rayotgan bug‘doylarning boshog‘i to‘qmikan,

puchmikan?" Yana bir joyga etishganda, odamlar yig'i-sig'i bilan marhumni qabristonga olib ketishayotgan ekan. "E, ota,-debdì yigit,-so'rab ko'ring-chi, bu tobutda yotgan tirikmikan, o'likmikan?" Nihoyat, chol yigitning "poyintar-soyintar" gaplaridan bir devona o'ylab, jim kelaveradi. Nihoyat, qishloqning bir chekkasiga kelgach,

"-Men etib keldim",-deydi hamrohiga."-Kechirasiz, uyingizdan bir kosa suv topiladimi, chanqadim,-so'raydi tag'in yigit". "Tavba, uy bo'ladi-yu, bir kosa suv topilmaydimi",- g'o'ldiraganicha suv olib ÷eqääè chol. Yigit kosani olib endi ichaman desa, suv yuzida bug'doy qiltanoqlari suzib yurganmish. Ko'nglè sust ketib turganmishu, qiltanoqlari ichishga yo'l qo'ymasmish, ularni olib tashlay desa, juda mayda emish. Yigit top-toza suv betida suzib yurgan bu narsalarning sirini anglaganday bo'libdi.

-Rahmat, ota, kunim boru, kechim yo'q, og'zim kuygan edi, puflab-puflab ichdim,-debdì yigit.

Cholning bir oqila qizi bor ekan. U devor orqasidan yigitning gapini eshitib qolib: "Hamrohingiz ko'p dono ekan,-debdì otasiga, - nega uysa taklif qilmadingiz? Chol ensasi qotib "nodon"ning yo'l bo'yi vaysagan gaplarini qiziga aytib beribdi. Qizi esa:

-Ey, ota, siz uni tushunmabsiz, "Bir-birimizni ko'tarishib ketaylik, yo'limiz yaqin bo'ladi", degani-gaplashib-gurunglashib ketaylik degani. "Boshoqlar to'qmikan, puchmikan" degani-dehqonlar hosilni qarzga to'larmikan yo bola-chaqasi bilan o'zi ermikan, degani. "O'likmikan-tirikmikan" degani -bu dunyoda savob ishlar qildimikan, solih farzandlar tarbiyaladimikan degani. Yana u

sizdan "kunim bor, kechim yo'q", deb yotishga joy so'radi, siz hayam, yo'g'am demadingiz,-deydi.

-E, ha,-debdi chol peshonasiga urib. - Alloh menga shunday dono yigitni yo'l dosh qilibdi-ku, men nodonlik qilibman.

Chol shoshib ko'chaga chiqadi va ketayotgan yigitni chaqirib, uyidan joy beradi. Qizidan gap ochilganda : "-Qizingiz ko'p dono va va oqila ekan, - ta`kidlaydi yigit,-suv yuziga qiltanoq solib nafsimni o'ldirdi".(60-bet).

Alqissa, bu yigit shahzoda bo'lib, o'ziga munosib qayliq izlab yo'lga chiqqan ekan va u cholning oqila qizi bilan murodu maqsadiga etadi. Ko'rinaridiki, rivoyatda yigit va qizning donishmandligi mulohazabop savollar orqali ko'rsatib berilgan. Bu har qanday o'quvchini o'ylashga da'vat etadi va dono, zukko bo'lishga undaydi. Qadimda ham donishmandlar o'z ta'lim-tarbiyalarida, yoxud, qissaxonlik, bedilxonlik, hofizxonlik, navoiyxonlik kechalarida ulug' mutafakkirlar asarlari ma'nolari ustida babs yuritishga, har bir so'zning yangi-yangi ma'nolarini izlashga e'tibor qaratishgan. Binobarin, rivoyatdagi yigitning so'zini chol singari biryoqlama tushunish bugungi avlodga tekkan yomon "kasallik". Yozuvchi shu tariqa, donolik qudrati haqida yoshlarga o'git beradi. Umuman, didaktik adabiyot singari islomiy ta'lim-tarbiyaga asoslangan ma'rifiy hikoyalari yozish Ýrkin Malik ijodining o'ziga xos uslub yo'nalishiga aylandi, desak yanglishmaymiz.

Bola qalbida beg'uborlik, qiziquvchanlik va jo'shqinlik bilan birga tabiat ne`matlariga ishtiyoq ham kuchli bo'ladi. Ayniqsa, jonivorlar bilan "tillashish", tabiat qo'yni-bolakaylarning jonu dili. Zero, bolalar adabiyotida animalistik mavzudagi asarlar alohida yo'nalishni tashkil etadi. SHunisi diqqatga sazovorki, bu yo'nalish ijodkorlari, avvalo, o'zida bolalik olamini hamda to'rt oyoqli va qanotli do'stlarimizga samimiyligi muhabbatini saqlab qola olganligi bilan ajaralib turadilar. Insonparvarlik manbaalaridan biri ham aslida jonivorlarga nisbatan yuksak g'amxo'rlikning mavjudligidir. Bu alaloqibat insonlarga mehr-oqibat ko'rsatish, yaxshilik qilishga olib keladi. Ya`ni, tabiatni va uning bir qismi hisoblanuvchi hayvonot olamini avaylash insonparvarlikning ilk bosqichidir.

Shu ma`noda, Erkin Malikning "Osmondan tushgan Oqtosh", "Oqtosh raqsga tushadi", "Ro'molchaxat", "Ko'ktoy" "Champo otli ilon", "Ilonlarni qandoq qilib eganimiz haqida", "O'zim chaqirgan mehmon" turkum hikoyalari animalistik mavzuda bo'lib yosh kitobxonlarni qiziqtira oladi. Adib bu hikoyalarda tilsiz jonivorlarning ko'pgina xususiyatlarini aniq chizgilarda tasvirlaydi. Jumladan, muallif Sharik, Reks, Ko'ktoy, Oqtosh obrazlari orqali itlarlarning real xarakterini tadqiq etgan. Bunda yozuvchining hayotda ko'rgan-kuzatganlari, eshitganlari asos bo'lgan, albatta. Chunki bu hikoyalarning ko'pchiligi aniq xotiralar, hujjatli dalillar asosiga qurilgani bois, ular g'oyat ishonarli va aniq chiqqan. Xususan, adibning Oqtosh ismli it haqidagi turkum hikoyalari yaxlit kompozitsion syujetga egaligi, kengqamrovli ma'lumotga egaligi

hamda teran tadqiq asosida bayon qilingani bilan e`tiborni tortadi. Hikoya qilinishicha, bu it muallif dalahovlisida osmondan tushganday, birdaniga paydo bo'ladi. Va hech e`tirozsiz, yangi egasiga darhol bo'ysuna boshlaydi. Qirq yildan ziyod tog'da podachilik qilaverib, itlarning fe'l -atvorini yaxshi biladigan Boymurod aka uning rangiga ishqiboz bo'lib surishtira boshlaganda, adib unga nazar tashlaydi va ismini ham bexosdan o'zi qo'yadi. Shunday bo'lsada, it "xo'jayini"ning aytganlariga quloq soladi-yu, Boymurod akani ko'rganda tinmay irillaydi. Boymurod aka fikricha, bu xususiyat faqat oq rangli itlargagina xos bo'lib, ular it go'shtini egan yoki yog'ini yalagan odamni ajrata olarkan va ularni ko'rganda tinmay irillarkan. Muallif Oqtoshning sadoqatliligi, odam ajrata bilishi, sezgirligini ham qator misollar bilan dalillaydi. Oqtosh "egasi"ni bekatgacha kuzatib, uning aynan qaysi vagonga kirishigacha bilgan. Shu bois "Men kunma-kun Oqtoshni kashf etib borardim,-hikoya qiladi adib. U ko'rinas ip bilan bog'lab qo'yilgandek menden ajralmas edi. Biror yoqqa otlanib qolsam, menden oldin yo'lga tushardi. Men tappi terib kelish, tog'dan o'tin olib tushish, suv ochish uchun boshqa-boshqa so'qmoqlardan borardim Oqtosh hovlidan chiqmasimdanoq, o'sha so'qmoqda meni kutib turardi. Tavba, shu yoqqa yurishimni qaerdan biladi, deb hayron bo'lardim. Gapga tushinishi bir sari edi-yu, odamning fikrini uqib olishi ham bir sari edi. Keyinchalik bu sirning tagiga etdim. Oqtosh qo'limdagi narsadan fol olar ekan. Elkamga ketmon tashlab

chiqsam, qulqoq boshiga, qop ko'tarib olsam tappiga, qo'limda arqon bo'lsa o'tinga borishimni sezarkan." (313-bet.)

Bir kuni adib odatiy hamrohi Boymurod aka bilan toqqa o'tin tergani chiqadi, sheringining suhbatlariga andarmon bo'lib ancha-muncha o'tin yig'ib qo'yadi. Qoldirib ketgani ko'zi qiymaydi. Shunda atrofida girdikapalak bo'lib yurgan Oqtoshni sinab ko'rmoqchi bo'ladi. "Oqtosh, bu yoqqa ke",-deydi uni o'ziga imlab. Oqtosh "egasi"ning yoniga keladi-yu, fikrini uqqandek nafas olmay, bo'yin cho'zadi. Adib ro'molchasini itning bo'yniga bog'laydi-da: "-Borjonivor, kennoyingni yordamga boshlab ke",-deb uyi tarafini ko'rsatadi. Oqtosh topshiriqni olib, ko'zdan g'oyib bo'ladi.

"- Qog'oz-qalam bo'lganda yanayam o'rniga tushardi-da, bu "ro'molchaxatimiz"ni kennoysi tushmagur "o'qiy" olarmikan?!", -deydi adib.

- Nima qilamiz, kennoyini kutamizmi?,-so'raydi Boymurod aka. Nimagadir u kishi Oqtoshning odam boshlab kelishiga ishonardi.

- Keling, chiqmagan oftobga isinmaylik, qimirlagan qir oshar,-deya inqillab-sinqillab o'tinni elkasiga oladi muallif va qir osha yuriy boshlaydi... Bu orada ular oyoqlari ostidan chiqib qolgan qo'tirbuloq suviga qonib, bu arning nomi, o'tmishda ziyoratgoh bo'lgani, ammo bir vaqtlar cho'chqalar keltirilib boqilgani tufayli Ollohnning qudrati bilan ko'chki bosgani haqida ancha mahal suhbat quradilar... SHu payt kutilmagan g'ala-g'ovurdan cho'chib tushishadi. Bundoq qarashsa, tepalarida bir dunyo odam. Dalabog'dagi qo'shnilar. Ýrkagu-ayol, bola-yu baqra... Ma'lum bo'ladiki, Oqtosh

"ro'molchaxat"nè etkazgan, kennoyi xavotirga tushib, qo'shnilar ni oyoqqa turg'izib, olib kelgan ekan. Boymurod aka "aytmadimmi" degandek itning "egasi" ga qarab qo'yadi...

Hikoyadagi yana bir voqeа tilsiz jonivorga nisbatan o'quvchi hayratni oshiradi. Ta`kidlanishicha, qиø kunlari dala hovlilar huvillab qoladi. Bunday paytda och qolgan itlar odamlar yashaydigan mahallalarga, choyxona taraflarga gala-gala bo'lib yurishadi. Oqtosh esa ularga qo'shilmaydi. Undan ko'ra och qolishni, sabr qilishni afzal biladi. Shu bois egasi olib kelgan emishlarni, nonlarni olib borib, turli-tuman kungay joylarga ko'mib keladi. Bir safar adib buni ataylab kuzatadi va diqqat qilib sanab ko'rsa, beshta joyga ko'mibdi. Ha, it egasi kela olmaydigan hafta kunlaridagi nasibasini olaqarg'a, hakka va begona itlardan yashirib qo'yishi inson zakovatiga monand.

Yozuvchi hikoyalaridagi hayvonlarga g'amxo'rlik qilish haqidagi mana shunday jonli dalillar o'quvchini ko'proq ishontira oladi. Rost, itlarning vafodorligiga bag'ishlangan, ular obrazi yaratilgan asarlar bisyor. Hatto bu alohida monografik tadqiqot darajasigacha ko'tarilgan. Rus bolalar adabiyotshunosligida Boris Begakning "Istochnik chelovechnosti" (M.:Det.lit.,1986) kitobi shunday qimmatga ega. Unda etuk yozuvchi va shoirlarning hayvonlar va qushlar obraziga bag'ishlangan asarlari o'rganilar ekan, bu tabiat va jamiyat birligini ta'minlovchi yuksak g'amxo'rlik, umuminsoniylik omili sifatida tadqiq etiladi. Xususan, "Milaya moya sobaka" ("Mening tantiq itim") nomli ilk suhbatda Mixail Prishvin,

Konstantin Paustovskiy, Yurii Yakovlev, Georgiy Skrebitskiy, Andrey Batuev, Eduard Shim kabi bolalar adiblarining to'rtoyoqli do'stlarimizning urush davrida, jang paytlari, tabiiy ofatlar vaqtida insonlarga ko'rsatgan ulkan sadoqatlari to'g'risida, ya'ni qadrdon va qahramon itlar haqida yozishgani eslab o'tiladi. Rus adiblaridan birining iqrori esa qay jihatdandir, Erkin Malik e'tirofiga hamohang: "Mening hayotimda,-deb yozadi Yurii Yakovlev,-it yangilik timsoli. Uning yordamida hayotning yangi chiziqlarini o'rgandim. Yashashning, quvonch va qayg'uning betakror qirralarini kashf etdim. ...Men yozayapman, it esa yonimda cho'nqayib o'tiribdi. U xuddi mening fikrimni uqqanday, mening hissiyotlarimni sezganday... Men esa o'z his- tuyg'ularimni unga ishonganday... U bilan yo'lak bo'ylab yurarkanman, o'zimga notanish kishilarni kashf etaman. Ha, kimki itlarni yaxshi ko'rsa, u odamlarni yanada kuchliroq sevadi. Kishilardagi bag'ritoshlik ikki xil bo'lmaydi. Ó bir xil ko'rinishda. Agar inson itlarga bag'ritoshlik qilsa, odamlarga nisbatan ham shunday ïóíñàáàòäà bo'ladi. Ýzgulik ham yomonlik kabi bir butundir. Hatto eng murakkab vaziyatlarda ham.???(Dobro, kak i zlo, nedelimo. Ono edino daje v samix svoix slojnx proyavleniyax)" (str. 19) Bu e'tirofda jon bor. Inson ruhiyati, fe'l-atvori ilk bolalik pallasidayoq shakllana boshlaydi. Ota-onal tarbiyachilar kichkintoylarni yoshligidanoq atrofdagi narsalarga, jonivorlaru hayvonlarga nisbatan mehrli bo'lishga o'rgatishsa, keyinchalik bu hissiyot bola qalbini ezgulikka to'ldiradi. Bolalar ularni sevish, g'amxo'rlik qilish orqali tabiatga, so'ngra jamiyatga

muhabbat qo'yadilar. Shunday ekan, Erkin Malikning hayvonlar tilsimi haqidagi rivoyat va haqiqatlari yosh kitobxonlar uchun baayni zarur mavzu.

Yozuvchining itlar, ilonlar to'g'risidagi hikoyalarida ularning rangi ham alohida xususiyat sifatida tasvirlangan. Biri Oqtosh bo'lsa, ikkinchisi-oq ilon. "Shu oq rangli jonivorlarda biz bilmagan mo'jizalar bor,-deydi adib bu haqda. Bolaligimda eshitganman. Buvamlar Andijondan Qovunchi tomonlarga quloq qilinganda bir odamning uyida ijarada turishadi. Bu uyning oq iloni bor ekan. Adam va ammalarim qo'rqishsa, buvamlar qo'rqmanglar, bu sizlar o'ylaganchalik ilonmas, jinlarning musulmoni, uning uyda bo'lishi juda yaxshi, kofir jinlarni yo'latmaydi, uni har zamonda bir kaft un bilan siylab tursa bo'ldi, deydilar. Oq ilon un yalagan kunlari hamma uxlaganda xonani aylanib chiqar, quzar, uy xushbo'y iforga to'lar ekan. Uydagilar shunda ajoyib-g'aroyib tushlar ko'rib uyg'onisharkanki... Xuddi gulzor ichida uxbab, gulzor ichida uyg'ongandek. Ifor hidi uyda anchagacha saqlanib turar, bosh og'rigan, tumov bo'lgan odam bu xonaga kirsa, dardi arib, vaqt chog' bo'lib chiqib ketar ekan... Oq ilonning ana shunaqa fazilatlari bor ekan. Bekorga oq ilon oppoq ilon, oydinda yotganing qani deb qo'shiq aytishmas ekan..." Muallif bu eshitganlarini tog'lik bir kishining hikoyasi orqali yanada to'ldiradi. Ma'lum bo'lishicha, tog'dagi so'lim, buloq suvi otilib turgan joyda ilgari bir qimizchi oilasi bilan kapa qurib yasharkan. Xotini har kechqurun sirli chelakda qatiq ivitar va ertalab qatiqni suzma qilish uchun

chelakning qopqog'ini ochsa, yuzidagi yog'ini nimadir eb qo'ygan bo'larkan. Avvaliga ayol bunga e'tibor qilmabdi. Keyin eriga aytibdi. Ularning rosa boshi qotibdi. Shunda eri o'g'rini poylashga tushibdi va bir oqshom supa ustida nimadir qimirlagandek bo'libdi. U timirskilanib chelakning tagiga boradi va bag'rini chelakka berib tepaga o'rlay boshlaganda ilon ekanligi bilinib qoladi. "Ishonasizmi, oq ilon,-deydi qimizchi hayajonini yashirolmay. Tog'da yuraverib ilonning har qanaqasini ko'rgandimu, oqini ko'rmagandim. Eshitardim lekin." Qimizchi ilonning dumiga tayanib boshi bilan qopqoqning bir chetini osongina ko'tarishi va chelakning ichiga boshini tiqishini kuzatib turadi. Uni qo'lga tushirmoqchi bo'lib, o'rnidan turganda, sim karavot g'ijirlab, o'g'rini cho'chitib yuboradi, Qopqoq daranglab erga tushadi-yu, ilon qochib qoladi. Shundan keyin satilning ustiga g'isht bostirib qo'yadilar. Ammo oradan ko'p o'tmay, qimizchi o'sha oq ilonga yana duch keladi. "Cho'llab shu buloqdan suv ichayotsam, bir nima sadafdek yaltiraydi deng,-hikoya qiladi u. Tepamga qarasam, o'sha oq ilon, manovi qizil olchaga o'ralib turibdi. Qaydanam belimda chopqim bor ekan. Bir sermab ikkiga bo'ldim-qo'ydim. Shu payt bir chinqiriq bo'ldi, bir chinqiriq bo'ldi deng... O'takam yorilib, hov bog' o'rtasigacha qochib boribman. Xayolimda ilonnimas, odamni ikkiga bo'lib qo'yganga o'xshardim." Qimizchining hikoyasidan adib anglaydiki, shu voqeadan keyin bu joylarni qop-qora, qop-qora zaharli ilonlar bosib ketgan, odamlar ko'chib qutilishgan va shunday so'lim go'sha vayronaga aylangan.

Erkin Malik bunday hikoyalarni keltirishi bejiz emas. Uning nazdida tabiatdagi har bir narsa Allohning marhamati bilan yaratilgan mo‘jiza. Ularga ozor etkazish mumkin emas. Buni payg‘ambarimiz(s.a.v.)ning oq ilonni ko‘rsa o‘ldirmaslik, itlar-jamiki jigari bor narsalardan ajr borligi haqidagi hadislari ham tasdiqlaydi. Binobarin, yozuvchining hayvonlar, jonivorlar bilan bog‘liq voqeiy hikoyalari ma‘rifiy-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan. Adibning "Champo otli ilon", "Champoning o‘limi", "Ilonlarni qandoq qilib eganimiz" nomli hikoyalari ham shu mavzuga bag‘ishlangan. Champo degani bu oddiy ilon bo‘lib, yozuvchining o‘zi tasodifan qo‘ygan nom. Muallif bu turkum badihalarida dalahovlisida ko‘rgan-kuzatgan, zaharli-zaharsiz, katta-kichik ilonlar haqidagi ajoyib-g‘oroyib âîqâàëàðíè áà,í qiladi. Ularning xil-xususiyati, boshidagi qo‘shuv alomatiga qarab zaharli ekanini bilish, ilonlar o‘z o‘rdalari atrofida yashashi, boshqa joyga etib tashlansa, qaytib kelmasligi, ammo uni o‘ldirsa jufti yoki bolalari qasos olishi mumkinligi haqidagi daliliy hodisalar chindan-da, qiziqarli. Xususan, bir hikoyada ilondan zaharlanish voqeasi tilga olingan. Bayon qilinishicha, zaharlangan bola lohas bo‘lib, bo‘g‘ila boshlaydi, ko‘zları xira tortib, zo‘rg‘a qo‘shnilari Mamariza tog‘adan madad so‘raydi. Chambarakdagi sutdan ichiá shu ahvolga tushgan bemorni tog‘a ariqchani bo‘yiga boshlaydi-da, toldan ikkita gavron olib, savalay boshlaydi. Bola zo‘rg‘a qutilib qocha boshlaydi, tog‘a uni quvlashga tushadi va har zamonda "Ahmoq, bachchag‘ar! Etib olsam go‘shtingni mayda-mayda qilaman" deb po‘pisa qiladi. Hovli

bo'ylab tinimsiz yugurgan bola ham, tog'a ham shallabo terga botib, hansirab qoladi. Bolaning hammayog'i momataloq bo'lib, yiqilib qolguncha savalagan tog'a, oxiri uning ko'zini ochib ko'radi va bir nimalar deb duo o'qiydi... Shu tariqa, Mamariza tog'a bola tanasidagi zaharni xivchinu ter bilan haydab chiqaradi.

Bundan tashqari, adib o'z bolaligida guvohi bo'lgan bir voqeani ham eslab o'tadi. U surgun qilingan xitoyliklarning bolalari bilan mol, poda boqib, ular dalada ilondan tayyorlagan mazali taomning guvohi bo'lgan edi. ...Bir kuni kelgindilar bolalarni ilon tutib kelishga buyuradi. Ammo ilon tirik bo'lishi kerakligini alohida ta`kidlashadi. Oshpaz tutib kelingan ilonlar ichidan eng uzun, semizini tanlab oladi-da, boshqalarini qo'yib yuboradi. Bolalar olib kelgan guruchlarni dokaga solib, buloq suviga tashlab qo'yadè va echki,sigirlardan oz-oz sut sog'ib oladi-da, mis ko'zaga solib olov yoqadi. Ilonni ham buloq suviga bir- ikki chayib olgach, mis ko'za ichiga kiritib yuboradi. Guruch tuzi rostlangach, olov qizig'ida mis ko'zadan boshini chiqarib kappa-kappa ochayotganda og'ziga sopi uzun yog'och qoshiq bilan guruch solaveradi. Xullas, olov tezlatilgani sayin ilonning ham, oshpazning ham harakati tezlanib, dokadagi guruch tamoman ilonga ediriladi. Sut toshib ko'zadan chiqa boshlaganda suv solib uning tafti tushiriladi. Oxirida ilon og'zini karrakdek ochib, sutga cho'kib ketadi. Endi ko'za shamolgoh joyda sovutiladi, nihoyat, hasipga aylangan ilon olinib dasturxonga tortiladi. Ko'zadagi sut hammaga bir xil tarqatiladi. So'ngra bola nechta bo'lsa, hasip ip bilan o'lchanib, shuncha bo'laklarga bo'linadi.

Bu taomning mazasini bilgani uchun muallif uning shunday ta`rifu tavsifini keltiradi..."Tavba, men sutni bir ho'plamdayoq tuflab tashlasam kerak, deb o'ylagan edim. Ammo tomog'imdan qanday o'tib ketganini sezmay qoldim. U sal sho'rtangroq, ammo eritilgan sariyog'dek mazali edi. Men shu paytgacha bunaqà mazani birinchi marta his qilib turardim..." Oppoq guruchlari ko'rinish turgan mazali va yog'li xasipni ham xitoylik bolalarga qarab qo'llari bilan "oshalagan" qahramon o'sha kuni kechga dovur ochqamaganini ta`kidlaydi. Ha, hali tibbiyat rivojlanmagan, zamonlarda xalq tabobati usullarini donishmand keksalarimiz yaxshi bilardi. Hozir ham tog' va dashtlarda yashovchi kishilar tasodifiy falokatlarda bir-birlariga yordam ko'rsatish niyatida tabiatning o'zidan davo topadilar. Erkin Malik aytmoqchi tafsilotlar bugungi yosh avlod nazdida ertakka o'xshasa-da, ular asosida hayotiy voqelik, otababolarning real turmushi in`ikos topgan. Shu sababli muallif o'z xotiralari vositasida hikoyalarga "jon kiritadi". Jonivorlarning "sir-asrori"ni maroq bilan hikoya qilarkan, har bir voqeaga avval bolalik ko'zi, so'ngra o'z nuqtai nazaridan turib yondashadi. O'zbek bolalar she'riyatida Quddus Muhammadiyning tabiatshunos shoir sifatida alohida o'rni bor. Uning besh kitobga jo bo'lgan nabotot va hayvonot dunyosiga bag'ishlangan she'rlari chin ma'noda tabiat alifbesi, bolalarbop qomusidir. Q.Muhammadiyning biolog-shoirligi bolalar adabiyotidagi ana shu ehtiyojni to'ldirishga xizmat qila olgan. E.Malikning animalistik mavzudagi hikoya va badihalarini esa onatabiatimizga ana shunday e'tiborning, e'tirofning nasrdagi

namunasi, deyish mumkin. Zero, adibning bu mavzudagi turkum hikoyalari katta-yu kichik o'quvchilar qiziqishini uyg'otishiga aminmiz.

Davr bolalar hikoyachiligidagi S.Barnoev, T.Malik, H.Nazir, F.Musajonov, X.To'xtaboev, A.Ko'chimov, E.Malik, Sh.Bo'tayev kabi adiblarning hikoya va qissalarida o'ziga xos yangilanish kuzatiladi. Aytaylik, E.Malikning "O'qilmagan sahifalar", "Toshlar tilga kirganda", "Akbarobod ertaklari", "Yo'l dosh ota", "Xayr, etimlik", "Bular ertak emas", "Bir boshoq don-bir tishlam non" hikoyalari; "Nevara", "Onaizor", "Yetim qolgan xotiralar", "Qaldirg'och" kabi qissa va badialarining har biri mavzu va talqin yangiligiga ko'ra ohorlilik kasb etadi. Ba'zilari esa kompozitsion tuzilishiga ko'ra bolalar adabiyotida originallikka ega. Masalan, "Onaizor" qissasining kompozitsiyasi epistolyar negizga ega. Asarning har bir bobi onaning o'g'liga yo'llagan maktubi shaklida yozilgan. SHu orqali maktublarda keltirilgan rang-barang voqealar yagona maxrajda bog'lanadi. Ayni paytda, adabiyotda qayta tiklanayotgan iymon va e'tiqodning namunasi sifatida Onaning birinchi maktubida poklik, halollik, imonlilik haqida so'z boradi.

Asardagi Ona obrazni barcha yolg'iz ayollarning umumlashma obraziga aylana olganligi, erkaklarning o'rni nafaqat oila to'kisligi, avvalo, bolalik olamining ruhiyatiga ozor etkazishi o'g'il - Sherning bolalik iztiroblari misolida ochib berilgan. Bola oilasini tashlab, hamma narsani aroqqa almashtirib ketgan bo'lsa-da, dadasi borligiga o'rtoqlari bilan garrov o'ynaydi, bunga ishonmagan bir

o'rtog'ini sudrab otasining vayrona kulbasiga olib keladi, kattakon qulf osilganiga qaramay, kechgacha shu erda qolib ketadi: "Ketmaysan, ketmaysan, dadamni ko'rasan, dadam bor... axir, hozir keladilar", - deya o'rtog'inining yoqasiga yopishadi; yig'lab turib, yorbora boshlaydi. Bolaning o'rtog'i oldida izza bo'lib, papkasining ustiga o'tirib, boshini tizzalari orasiga olib hiq-hiq yig'lay boshlashi ham Ona maktubida eslanib: "Sen hech qachon, ha, hech qachon o'z farzandingni bunaqa ahvolga solmaysan. Bu azobni go'dak boshingdan o'tkazding", - deyilishi asar markazida ko'proq bola ruhiyati, o'ksik qalb jarohatlari turishini oydinlashtiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. E.Malik hikoyalarining o'ziga xoligi nimada?
2. Hikoyalarning mavzu-mundarijasi hamda axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini qanday izohlaysiz?
3. Bolalar hikoyalari sizningcha qanday bo'lmog'I kerak?

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

6-MAVZU. BOLALAR QISSACHILIGINING TAKOMILI

Reja:

1. Bolalar qissalarining yo'nalishi.
2. Sarguzasht va ilmiy-fantastik qissalarning taraqqiyot xususiyatlari.
3. Detektiv qissalarda qahramon ruhiyati ifodasi.

Tayanch tushunchalar: *qissa, badiiy-realistik, biografik, sarguzasht, ilmiy-fantastik, qatag'on, tarixiy, ilmiy-fantastik, sayohatnoma*

O'tgan asrning 80-yillari bolalar adabiyotida poetik tafakkur yangilanishining asosiy xususiyatlari quyidagi larda namoyon bo'lganligini ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, o'tgan asrning 20-30-yillarida millat ziyorilari boshiga tushgan qulqlashtirish, ommaviy qatag'on fojiasi bolalar nasrida (T.Malikning "Qaldirg'och" asari), (N.Fozilovning "Shum bolaning nabiralari", "Qush qanoti bilan" asarlari) badiiy-realistik, biografik qissalar tarzida maydonga keldi.

T.Malikning "Qaldirg'och" biografik qissasida A.Avloniyning hayoti va faoliyati, taqdiri misolida XX asrning 20-yillari o'zbek ziyorilari qatlaming fojeiy qismati hikoya qilinadi. Asadulla obrazi, uning farzandlari, oilasi uyi bilan qo'shib yoqib yuborilishi voqealari A.Avloniy hayotiga juda mos kelmasa ham, badiiy to'qima, obraz tipiklashtirilishi natijasida xalqimizning bir asr ilgari madaniy-ilmiy dunyoqarashi, kurashi umumlashtirib aks ettirilgani anglashiladi. Xususan, qissaning istiqlol yillaridagi qayta nashrida "Savohil" deb nomlanishi ham uning ijtimoiy-siyosiy dolzarb

ahamiyatini yorqinlashtiradi. Asarning biografik qissa ekanligini dalillovchi juda ko‘p realistik, tarixiy ma`lumotlar (masalan, Turkiston Markaziy ijroiya qo‘mitasi bugun, asosan, Farg‘ona vodiysidagi ahvolni muhokama qilishi kerak edi. Buxorolik va afg‘onistonlik oliy zotlardan bir qanchasining vodiyda yurgani, mayda qo‘rboshilarni birlashtirishga harakat qilayotgani haqida darak topishgach, Asadulla voqeani oydinlashtirish uchun Qo‘qonga borgan edi... va h.k.) bor va 1920 yilda Turkiston Markaziy ijroqo‘midagi yagona o‘zbek - Asadulla Mir‘alamov Afg‘onistonga elchi - konsul bo‘lib borgani kabilar aslida Abdulla Avloniy siymosini oydinlashtiruvchi detallar ekanligi ayonlashadi. Yozuvchi g‘oyasi muqaddima o‘rnida keltirilgan qaldirg‘och haqidagi rivoyatda aks etib, butun qissa davomida millatni uyg‘otuvchi xalq ziyolilari, ma`rifatparvarlari qismati qaldirg‘ochning insonni qutqarganini anglagan ilon misol sho‘roning yovlashib, tinch qo‘ymaganligi realistik, badiiy talqinlarda ifodasini topgan. Bu qissa nafaqat o‘zbek bolalar adabiyoti, balki umumadabiyot uchun ham xalq tarixining qorong‘i sahifalarini yoritishga bag‘ishlangan dastlabki asarlardan biri sifatida e`tirofga loyiq.

Bu jihatdan N.Fozilov ijodi ham bolalar adabiyotida alohida ahamiyatga ega. Adib qissalarida ham milliy tariximizdagi dolg‘ali yillarda xalq hayoti, bolalar va o‘smlilar olami zamondosh o‘quvchilar, ya`ni nabiralar sa`y-harakati bilan xotirada tiklanishi o‘ziga xos yangi uslub hisoblanadi. Bunda makon va zamon, tarix

va taqdirlarni tutashtiruvchi poetik detal', syujet, eng muhimi, adabiy ana`ana mavjud. "Shum bolaning nabiralari" nomining o'ziyoq bunga ishora qilib, G'.G'ulom "Shum bola"sidan ijodiy ta`sirlanish, undagi "bir yolg'onda qirq yolg'on" motivi stilizatsiyasini yangi zamon va makon orqali yuzaga chiqarishdan dalolat beradi . Natijada, toshkentlik bolalarning Nazarbekda istiqomat qiluvchi bobolaridan eshitganlari syujet asosini belgilagan. Qissada To'lanxo'ja va Matkarim sho'ro voqeasi keltirilgan. Zamonali obrazi tavsifi ayricha diqqatga sazovor. U Anvarning bobosi. To'lanxo'jani Farg'ona bosmachilaridan quroq sotib olib, sho'ro hukumatining dushmanlariga bergenligi uchun uyidan bandi qilib olib chiqadilar va qurollar yashirilgan Bo'rijar tomoniga sudrab olib ketayotganlarida, Matkarim sho'ro o'q uzadi va o'ldiradi. Go'yoki sho'roga qarshi ish qilganligi uchun shunday qilgan. Aslida uning o'zi ham To'lanxo'jaga sherik bo'lib, fosh bo'lmaslik uchun o'zinikiga o'zi o'q uzungandi. Furqatning bobosi Qodir bu vaqtlar o'smir yoshda bo'lib, ushbu voqealarning guvohi bo'lgan. Zamonali shu ma'noda ramziy obraz. CHunki bugun bu voqealarga xolis baho berilib, sho'roga ishonganlik fojalari ayonlashmoqda. Zamonalining sa'y-harakatlari o'z otiga munosibligini yozuvchi ta'kidlamoqchi. Muhimi esa bugungi o'quvchilar voqea tafsilotini o'z tafakkurlari bo'yicha talqin etishga qodir. Asardagi komizm Javlonxo'janing Anvar va Furqat tomonidan shum bolaga monand aldanishi hayotdagi o'tmish tarix ham aslida aldovlardan iborat ekanligiga ishora, deyish mumkin.

Ya`ni, boy ota bu - sho`ro, shum bolalar o‘z nomi bilan to‘polon ko‘tarib, unga qarshi kurashib o‘ch olmoqchi bo‘lgan xalq... Asar hali mustaqil yurt haq-huquqi qo‘lga kiritilmagan paytda yozilgan esa-da, qayta qurish va oshkorlik shabadalari Zamonalilar timsolini qalamga olishga asos bo‘la olgan. Asarni siyosatdan xoli o‘rganganda ham, bolalar va o‘smirlar olamining kechinmalar, qiziqishlari, ba`zan o‘zaro qizg‘anish yoki havas, qiziqish hamda shumtakaliklar real aks ettirilgani uning o‘qimishlilagini ta`minlaydi.

N.Fozilovning "Qush qanoti bilan" qissasi asar so‘zboshisida ta‘kidlanganidek, zukko adabiyotshunoň To‘xtasin Jalolovga bag‘ishlangan . Unda qatag‘onlik va shaxsga sig‘inish davri oqibatlari yoritilgan bo‘lib, tuhmatga uchrab nohaq qamalgan Akmal aka qismati o‘smir yigit Sarvar tilidan hikoya qilinadi. Qamoqdan bo‘sab, surgun muddatini o‘tagani Turkiston qishloqlaridan biriga yuborilgan Akmal akaga qishloq ahli, avvalo, bolalar qilgan g‘amxo‘rlik, uning sovuq yurtlarda tortgan sitamlari, o‘z xalqi, shogirdlari orasidan chiqqan "chayon"larning kirdikorlari o‘smirlar tafakkuri nuqtai nazaridan tahlil etilishi ham davor bolalar adabiyoti uchun yangilanish edi. Bu kabi tarixiy haqiqatning badiiy talqini o‘smirlar ma`naviy olami, dunyoqarashini yangilashga hissa qo‘sha olgani aniq.

Ikkinchidan, urush bolalari mavzusi yangi zamon va makon talqini hamda voyaga etgan avlodning achchiq xotiralari tarzida

yangicha nigoh bilan ("Saraton", "Besh bolali yigitcha", "47-yil hikoyalari", "Afg'on hikoyalari") badiiy talqin etildi.

O'zbek bolalar adabiyoti tarixida Sulton Jo'ra kabi jangchi shoirlar urushning bolalar qismatiga fojeiy ta'sirini ko'rib, his qilib epistolyar she`rlar yaratgan bo'lsa, S.Barnoev, N.Fozilov, X.To'xtaboev mansub avlod vakillari front ortidagi og'ir mehnat, judolik va ayriliq iztiroblari, otasidan erta etim qolgan bolalarning o'ksik qalb kechinmalarini boshidan o'tkazdi. Bolalar adabiyotida bu alohida yo'nalish bo'lib ko'zga tashlanishida S.Barnoevning o'ziga xos uslubi, ohangi, hatto aynan 47-yil voqealarini umumlashtiruvchi alohida hikoyalar turkumi o'ziga xoslik asb etadi.

S.Barnoyev badiiy mahoratini monografik tizimda o'rgangan tadqiqotchi H.Nusratova yozadi: "1947 yil hikoyalari" turkumini birlashtiruvchi muhim jihatlari bisyor: a) mavzui yagona - vayronagarchilik va kishilik boshiga cheksiz kulfatlar keltirgan mash`um urushni qoralash; b) beshala hikoyaning ham qahramonlari bolalar - urush davri bolalari, ular qalbining turfa jilolari. ...Hikoyalarning syujetini tutashtiruvchi chiziq bitta - urush va uni la`natlash motivi. Shu orqali o'quvchida ham urushga qarshi nafrat uyg'otilgan, ham syujet chiziqlarining barchasi shu nuqtada kesishuvi ta`minlangan".

Darhaqiqat, S.Barnoev she`riyati va nasrida urush bolalarining taqdiri avtobiografik xarakterdagi realistik ifodalar bilan to'yinganligi sezilib turadi. Masalan, "Tandir" hikoyasida otasi

urushga jo'nayotgan jajji bolakay Abbas obrazi ta'sirchan ifodalangan. U kattalarning butun dardu alamini, urush fojiasi boshiga solgan tashvish iztiroblarini dildan tuyadi, onalarning dodfaryodi, o'z yaqinlari, dilporalarini bir umrga kuzatib, mung'ayib qolgan g'amgin nigohlarni bolalik xotiralariga darj etgan muallif hikoya so'ngida "Abbos bu - men edim...", - deydi.

Ijodkorning "Qirq ettinchi yil hikoyalari" turkumi, - deb yozadi shu munosabat bilan professor N.Rahimjonov, - psixologik tahlilning ko'rkmak ko'rinishini, adib badiiy mahoratining yangi qirrasini namoyish etadi".

Haqiqatan, o'zbek bolalar adabiyotida etimlik (G'.G'ulom), urush va unga nafrat motivi (Z.Diyor, G'.G'ulom, I.Muslim...) aks etgan asarlar ko'pchilikni tashkil qilsa-da, aynan "urush majruh qilgan bolalik" (O.Safarov) xotiralarini teran aks ettiruvchi ijod namunalari yo'q edi. Aniqrog'i, kattalardan farqli ravishda bolalar uchun otalik baxtidan mosuvolik armonlari, o'g'llari va sevgilisi, yostiqdoshidan bevaqt ayrilib, xazondek so'lgan onalar-u qizjuvonlar dardiga hech qanday dalda bo'lolmaganlik alamlari bir umr ta'qib qilgan ruhiy iztiroblar iskanjasida yozilgan dardli asarlar bolalar adabiyotida kuzatilmagan edi. Binobarin, bolalar uchun yozilgan roman, qissa va hikoyalari yoki she'r va balladalarda kichkintoylar, bolalar va o'smirlar qalb kechinmalari, tafakkuri, ruhiyati, munosabati birinchi o'rinda turgani; yosh qahramonlar obrazi shunchaki voqealar kuzatuvchisi emas, faol

ishtirokchisiga aylangani poetik tafakkur talqinidagi evrilishdan dalolatdir.

"Afg'on hikoyalari" turkumini S.Barnoev bevosita afg'on urushida qatnashib, uning bolalar qismatiga ko'rsatgan fojiali ta'sirini anglash negizida yozgan she'r va hikoyalarini tadqiqotchi H.Nusratova "Afg'on kundaliklari" tarzida atash ham mumkinligini ta'kidlaydi. SHularni inobatga olib aytish mumkinki, o'zbek bolalar adabiyotida urush va unga nafrat mavzusi bolalar adabiyotida o'tgan asrning so'nggi choragida yangicha badiiy talqin evrilishlari, tafakkur yangilanishi natijasidagi ifodalari bilan boyidi.

Uchinchidan, mustabid sho'ro tuzumi va mustamlaka - qaram davlat hayotining fojialari hajviy-yumoristik, (A.Obidjonning "Alamazon va uning piyodalari" va "Yaltiroq tugma" dilogik qissalari) fantastik talqin etila boshladи .

A.Obidjon asarlarining bibliografik ko'rsatkichida "Alamazon va uning piyodalari" 1984 yilda rus tilida ("Alamazon i ego pexota") 60.000 nusxada, 2014 yilda esa o'zbek tilida 5000 nusxada chop etilgani aniqlashadi . SHuning o'ziyoq, mulohazaga etaklaydi. Buni asar syujetini eslash orqali oydinlashtirish mumkin: qissaning bosh qahramoni Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida "gurkirab yonayotgan gulxan"ni anglatadi. Alamazon yoshligidanoq kitobga mehr qo'yib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari CHippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finni, o'zbek xalq dostonlaridan Alpomish, Ravshanbek kabi qahramonlarni savodi chiqqandan buyon taniydi. SHuningdek, o'zbek va jahon mumtoz adabiyoti

durdonalaridan bahramandligi ayonlashadi. Alamazon bu kitoblarni shunchakè o'qish bilan cheklanmay, ulardan ta'sirlanib, do'sti Ýshmat bilan xazina qidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash haqida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatlari uy, marmar devorli kattakon choyxona qurish, ko'chalarga asfal't yotqizib, ko'priksi yangilash, umuman, qishloqlarda zamonaviy inshootlar barpo etish, hatto butun umri boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab terak bo'y়i haykal o'rnatmoqchi bo'ladi.

Ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlar mohiyati bugungi kitobxon uchun hayratlanarli emas, albatta. Ammo sobiq sho'ro zamonida bu so'zlarning ishorasi, kinoyaviy mazmuni mafkura tazyiqiga uchragani tayin (rus va qardosh xalqlar bolalar kitobxonligida, ehtimolki, bu so'zlar ta'sirchanligi asliyatdagidek jaranglamas (yoxud tushirib qoldirilar - B.J.). Qolaversa, o'zbek xalq dostonlaridan bebahralik, o'z xazinasiga egalik qilish orzusi, milliy qahramonning gurkirab yonayotgan olovga o'xshatilishi tamomila yangilangan poetik tafakkur namunasiga dalildir.

Rost, qissadagi voqealar ertaklarga xos sayohat, tush ko'rish, tilsimlanish motivlari yordamida tasvirlanadi. Goh ilmiy-fantastik, goh realistik bo'yoqlarda badiiy talqin etilgan hikoyalar zaminida hayot haqiqati mavjud. Alamazon tog'asi professor Og'abek Turkoniy olib kelgan antiqa dori - uni tatib ko'rganda kishi xuddi ertaklardagidek murod maqsadga etishiga qiziqib qoladi: buni o'zi va o'rtog'i Eshmatda sinab ko'radi. U Jek Londonning "Uch qalb"

kitobidagi qahramonlar, ularning g'ordan topgan behisob xazinalari haqida xayol surib yurganidan, o'zlarining Jandag'origa ham "xazina bijib yotgan"iga ishonganidan, dori ta'sirida uxlagach, tushida Zimistonsaroy orqali Yulduzistoniga kelib qoladi. U erda Humo Xartum, Qo'tirlar sulolasi, Isqirtlar mamlakati va ular boshqargan tuzum hamda odamlari bilan tanishishga tuyassar bo'ladi. Tirtiq, SHiltiq, Qo'tir Beshinchi, Malika Maston, Idris Ibrohim, Barri Baraka, Qo'tir Beshinchi, Fisqiddin Makru Maraz, Isom Ittu Iskabtopar, Hoshim Heziddin Xum nomining ma'nosi kasb-kor va fe'l-atvor bildiruvchi kishilar bilan tanishadi. Ayniqsa qo'tirlar sulolasi tugab, Isqirt Birinchining taxtga o'tirish marosimi shunday bayon qilinadi:

- He-he, he-e-e-ey! Ýslilaru nodonlar, xafalaru shodonlar, go'ng hidlagan cho'ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglar-o-ov! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g'amxo'rlik ko'rsatib, bugundan e'tiboran ularni yuvinish va cho'milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar... qasddan yuvinayotgan yoki cho'milayotgan paytda qo'lga tushirilgan baliqpadarlar esa xavfli g'alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar" . Ko'rinadiki, mustabid tuzum qaram xalqqa foydali eng oddiy ishlarni ham ularga yaxshilikday ko'rsatib taqiqlaydi.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari tasnif qilinganda uning ikki yo'nalishli ekani, bolalar uchun asar syujeti, kattalarga esa g'oyasi muhimligi ta'kidlanadi. Mazkur asar katta-yu kichié kitobxoniga birdek xizmat qila olishi shundan. Qahramonlarning

nomlanishi, Isqirt Birinchi yuvinishiè yomon ko'rgani uchun butun mamlakat isqirtlikka yuz tutishi, unga xizmat qiladigan Dutoriy singari shoirlarning "Yuvilmagan betingiz muncha chiroyli, Mog'or bosgan etingiz buncha chiroyli, U yoningiz kir erur, bu yoningiz kir..." qabilidagi she`rlar bitib, irkitlikni ommalashtirishga hissa qo'shganidan miriqib kulta, etuk tafakkurli insonlar bu kinoyalar ostida zil-zimbil dard, yaqin o'tmishdagi tarixning majoziy tasviri aks etganini yaqqol anglaydi. SHu ma`noda asardagi Yulduziston, Ajdarobod, Elkantog', Tandir, Jandag'or, Issiqaq'or, Qo'chqorsoy kabi joy nomlari ham ramziy tamsillardir. Bu so'zlardagi qo'shimchalar yoki o'zak so'zlarning kinoyaga boyligini idrok qilish uchun etuk tafakkur zarurligi shundan.

Adibning o'rta asrlar tarixi, sobiq mustabid tuzum davri voqealarini goh xalq dostonlari ohangida, goh hajvga yo'g'irib, goh esa bolalarga xos yashirin tilda aks ettirishi bejiz emas. Unda uchragan joy va odamlar nomi biror geografik xarita yoki asarda uchramaydi. Bularning ko'pchiligi - muallif topilmasi, ammo ular o'quvchini mushohadaga undaydi. Chunki har bir ifoda va obraz talqinida ramziylik ustuvor. Qahramonlar o'zi tug'ilib o'sgan qishloq, yurti tarixini bilishi, ulug' mutafakkirlar qoldirgan ma`naviy merosdan bahramand bo'lishni juda-juda xohlaydi, dinini chala-chulpa biladigan, o'tmishidan xabarsiz, soxta, isqirt dohiylar boshqarishi tufayli noplilikka yuz tutgan mamlakat qachondir yorug'likka chiqishiga ishonishadi. Bunda Humo Xartum alohida o'rnak bo'ladi. ZOTAN, Alamazon uyqudan uyg'onsa ham, g'ordagi

odamlarni Yorug' dunyoga boshlab borishga va`da beradi: " - Azizlarim, menga ishoning, men baribir sizlarni yolg'iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistonagi hamma odamlarni qorong'i g'ordan etaklab chiqaman...".

Asarning bosh g'oyasi - Yorug' dunyoga chiqish. Bu so'z zamirida nima yotgani endi barchaga ma'lum. Ammo asar yozilgan vaqtida, chindan ham, o'sha "Qora tuynuk" qachon ochilishi noma'lum edi. Istiqlol tufayli Humo qushi xalq boshiga qo'ndi. Natijada, avlod-ajdodini tanimay ulg'ayayotgan Yulduzistii farzandlari Zimistonsaroydan qutulganiga amin bo'lamiz. Yorug' dunyo nafaqat bugungi kunlar, balki keng dunyoga intilish, tanilish timsoli ekan.

Shu ma`noda Anvar Obidjonning "Alamazon va uning piyodalari" qissasida intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yosh qahramonning vatanparvarlik, yurtparvarlik tuyg'ulari yorqin namoyon bo'lgan. Asarda xalq onaga, mamlakat esa uning yo'rgagidagi go'dakka o'xshatilishida ham hikmat bor. Mamlakat necha asrlik tarixi davomida turli amaldorlar qo'lida har xil kuyga tushsa-da, xalq o'zligida sobit qolib, qadriyatlari, urf-odatlari, ma`naviy merosini butunlay unutib yuborgani yo'q, degan qarash mavjud.

Umuman, qissada o'tmish va kelajak, tarix va taqdirlar erk va ozodlik motivlarida o'zaro tutashadi. Humo Xartum, shoh Feruz, Majididdin Ravshaniy, professor Og'abek Turkoniy obrazlari talqinida olis va yaqin tariximizdagi hayat bilan birga kelajakda

qilinajak kashfiyotlar uyg'unlashib ketadi. Asar "hazilga o'ch" bolalar uchun lirik va komik maylga sug'orilgan ekan, undagi bosh g'oya esa har bir kitobxonning tafakkuri bilan birga ulg'ayib, anglanib borishiga shubha yo'q.

To'rtinchidan, ozodlik motivi va erkka intilish g'oyasi bolalar adabiyotida yorqin obrazlar va tasvirlarda aks eta boshladi (A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" va "Meshpolvon janglari" dilogik ertak-qissa hamda "Oltin yurakli Avtobola" asari).

A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" ertak-qissasi mustaqillik arafasida yozilgan tom ma`nodagi "ozodlik varaqalari" (M.Sattorov) edi. Asarda vatanparvarlik va mustaqillikka intilish tuyg'usi bolalar obrazi orqali gavdalantirilgani diqqatga sazovor. Avvalo, yozuvchi bu - ertak-qissani "Alpomish", "Ravshanbek" singari xalq dostonlari ohangida yozib, bolalar adabiyotiga shu rujni olib kirganligi ta'kidga loyiq. Meshpolvon portreti humoristik-fantastik tasvirga ega bo'lsa ham, ota-onasini bosqinchi dushmanlar olib ketgach, qalbida isyon tuyg'usining jo'sh urgani, ularni ozod qilish uchun tish-tirnog'i bilan "qurollanib", "askarlari" bilan kurashga otlangani hamda ezgulik yo'lidagi bu kurashi ertaklarga xos yaxshilik, g'alaba bilan tugashi, Sepkilshoh engilib, Qahratoniya do'sti Oshiqbola qo'liga o'tishi, bandilar ozod bo'lishi kabi voqealarning kul'minatsiyasida muallif g'oyasi teran aks etadi. Binobarin, adibning jahon bolalar adabiyoti, xalqimizning boy og'zaki ijodi, dostonchilik an`analaridan keng foydalanib, humor va taxayyulotga yo'g'irilgan, tafakkur yangilanishini o'zida yaqqol

namoyon etadigan obraz va detallar asosida yozilgan qissalarida shakl va mazmun, tafakkur yangiligi zohir.

"Dahshatli Meshpolvon", "Meshpolvonning janglari"; "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltiroq tugma" dilogik qissalari, temirtan - robot bola obrazi namunasi bo'lgan "Oltin yurakli Avtobola" shu jihatlari bilan ham o'zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi o'ziga xoslik shundaki, ularning qahramoni oddiy bola emas: "dahshatli Meshpolvon", "g'aroyib, olovqalb Alamazon" yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va haq-huquqi uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i, "ona yurtning jasur farzandlariga" bag'ishlagan .

Shu o'rinda dilogik qissa, ertak-qissa janrlarining o'zbek bolalar adabiyotida ommalashayotgani haqidà ham to'xtalib o'tish joiz, albatta. Dilogiya (yun. di - qo'shma so'zlarda "ikki", logos - so'z, hikoya, rivoyat) kompozitsion jihatdan nisbiy mustaqillikka ega ikki asardan tashkil topgan asardir. Dilogiya tarkibidagi ikki asarni ijodiy niyatning yaxlitligi, bir-birini davom ettiruvchi umumiyl syujet chiziqlari, umumiyl personajlarga egalik bir butunga aylantiradi . Rus adabiyotshunosligida "dilogiya" termini trilogiya, tetralogiyaga nisbatan ancha keyin XX asrning 20-yillarida paydo bo'lgani ta'kidlanadi. Ammo u adabiy hodisa sifatida 1830-yildayoq M.P. Pogodinning ikkita asar (yoki qism)dan tarkib topgan - "Yarmarkadagi qayliq" ("Nevesta na yarmarke") (I qism) va

"Baxtsizlik baxti" ("Schast'e v neschast'e") (II qism) asarlari; N.Polevoyning 1833 yilda yozgan "Orzular va hayot"ning birinchi qismi "Rus soldatining hikoyalari. I qism. Dehqon." Va 1834 shu to'plamning ikkinchi qismi "Hikoyalar" - "Soldat" nomi bilan nashr etilgani ayonlashadi. XIX asrning ikkinchi yarmi va so'nggida esa dilogik shakl roman janri yo'nalishida faollashgan. Xuddi shunday L.N. Tolstoyning dastlab ikki qismdan iborat "Bolalik" va "O'smirlik" avtobiografik qissalari "Bolalik va o'smirlik" nomli kitob shaklida nashr etilgani kuzatiladi (bunga keyinchalik "Yoshlik" qismi ham qo'shib, trilogiyani tashkil qilgan). SHu tariqa, XIX asrning oxiriga kelib nasr dilogiyasi adabiy-tanqidiy qarashlarda ma'lum o'rinni egallaydi va uni nazariy jihatdan o'rganishda quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi: a) polilog shakllarni yaratish jarayoni, xususan, dilogiya yozuvchining individual ijodi bilan (muallif niyati) bevosita bog'liq; b) dilogiyaning muhim xususiyatlardan biri uning qismlari o'rtasida chiziqli aloqaning mavjudligi; v) dilogiyaning yaxlitligini bitta asarning butunligi bilan tenglashtirish mumkin .

Binobarin, o'zbek bolalar adabiyotida ham X.To'xtaboev ("Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi"), A.Obidjon ("Dahshatli Meshpolvon" va "Meshpolvon janglari"; "Alamazon va uning piyodalari" va "Yaltiroq tugma"); E.Malik ("Shaytonvachchaning nayranglari", "Bolalik" va "O'smirlik") kabi adiblarning dilogik roman va qissalarining yaratilishida yuqoridaagi kabi xususiyatlar mujassam. Bunda yozuvchining avval boshdayoq dilogiya, trilogiya

yozishni rejorashtirgani yoki muallifda keyinchalik badiiy niyat tug'ilganiga qarab ham asarlarni tasniflash mumkin. Aytaylik, D.Defo "Robinzon Kruzo" asarini dengizchining kundaliklari asosidagi dastlab faqat birinchi kitobini yozgan. Asarning juda ommalashib, mashhur bo'lishi noshirlar va muallif uchun keyingi qismini yaratishga zarurat paydo qiladi. Xuddi shunday, o'zbek adabiyotida T.Malikning "SHaytanat" qissasi dastlab bir kitobdangina iborat bo'lib, muallifda uning qolgan qismlarini yozish niyati keyinchalik, aniqrog'i, kitobxonlar qiziqishiga qarab tug'ilgani ta'kidlangan. Yoki, aksincha, "Alvido, bolalik!" qissasining nihoyasida muallifning "davomi bor" deb izoh bergeniga qaramay, ikkinchi kitobi nashr etilmadi (CHo'lponning "Kecha va kunduz" romani kabi).

Ikkinchi jihatdan esa yozuvchi avval boshdanoq asarini ikki yoki uch qisqli shaklda yozishnè rejorashtirib, o'z niyatini amalgalashish holati ko'proq uchraydi. Bu jihat, ta'bir joiz bo'lsa, bolalar adabiyoti uchun ayni qulay usul ham. ZOTAN, A.Obidjonning turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar haqida, Vatan va yurt ozodligiga bag'ishlangan she'r va doston-qissalari o'quvchini har jihatdan zukko, ma'naviy etuk bo'lishga unday olishi yurt tarixi va xalqiga e'tiqodli bo'lishga da'vat qiladigan asarlari misolida asoslanadi. Masalan, uning "Oltin yurakli Avtobola" (1988) ertak-qissasi davr nafasini o'zida yorqin aks ettirgan asarlardan biridir. Ertak-qissa sobiq mustabid tuzum davri bolalar adabiyotining mavjud "qolip"lariga chek qo'yib, jahon ilmiy-fantastikasi, o'zbek mumtoz

adabiyotida kuzatilgan noan'anaviy fantastik obraz yaratish, tafakkuri yangilanayotgan zamon ruhini bolalar adabiyotida namoyon bo'lishiga intilish samarasidir.

Ertak-qissa, ertak-doston ham aslida sinkretik janrlar hisoblanadi. Fol'klorshunos olim O.Safarov birgina ertak janri (shakli) stilizatsiyasi asosida yuzaga kelgan oralig (sinkretik) janrlarni: nasrda - adabiy ertak, adabiy ertak-qissa, adabiy ertak-roman; poeziyada - she'riy adabiy ertak; dramaturgiyada - adabiy ertak-drama, adabiy ertak-opera tarzida tasniflab ko'rsatadi. SHuningdek, olim A.Obidjonning "Dahshatli Meshpolvon" (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta'minlaganini, shunga o'xhash ko'pgina asarlar nafaqat fol'klor syujetlari qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviri vositalar etakchi tamoyilga aylanganini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, A.Obidjonning ertak-qissasidagi etakchi obraz - Avtobola. U oddiy emas, oltin yurakli robot bola. O'zbek adabiyotida robot obrazini ko'pgina asarlar, jumladan, fantast adib H.Shayxovning "Olmos jilosi" qissasidagi Begnaz timsolida ham ko'rish mumkin . A.Obidjonning Avtobolasi esa ancha mukammallahsgan, shu bilan birga, o'zbek bolalar adabiyotidagi ilk robot bola obrazidir. U ayyorlikni mutlaqo bilmaydigan, to'g'riso'z, soddadillik, mehribonlik va pokizalik timsoli. Bu obraz qissaning 4-hikoyasidan boshlab, asosiy qahramonlar - Bekxo'ja, Kamol Kamtariy, Supersur hayotidagi voqealardan yigirma yil o'tgach,

muxbirlar tarqatgan yangilik sifatida tilga olinadi. Muxbirning shov-shuvli hodisa haqidagi savoliga professor javobidan bu temirtan fikran barkamol avtoodam emas, balki jamiyat oldidagi burchini hali chuqur his qila olmaydigan kibernetik Avtobola ekani, uning mustaqil fikrlay olish qobiliyati birmuncha chegaralangani, unga muntazam ravishda yo'l-yo'riqlar berib turish joizligi anglashiladi. Oltin eng noyob qimmatbaho, nodir metall, zar, tilla bo'lib, har qanday qimmatbaho yoki aziz narsaga nisbatan ham aytiladi . Har bir bolaning yuragi, chindan ham, dunyodagi eng pokiza, asl tuyg'ularga limmo-lim. Faqat nosog'gom muhitgina ularni qing'ir yo'lga boshlashi mumkin. Bola tabiatan yo'l-yo'riqqa ehtiyojmand bo'lsa-da, "avto" (yunoncha "autos") so'zining "o'zi", "o'zim" ma`nosini anglatishi g'oyasida bolaning mustaqillikka intilishi yotadi. Ayni paytda, uning soatiga 170 kmgacha yugurib, avtomatik boshqarilishi natijasida har qanday topshiriqni bajarishi zohiriyl ma`nosidir. A.Obidjon asarda ezgulikka yo'g'rilgan bolalik olamini o'z manfaatlari yo'lida yovuzlikka boshlagan jamiyat munosabatiga zid keltiradi. Qissadagi Avtobola, Pufak momo, Xoldor kabi obrazlar timsolida erk va ozodlik, hurfikrlilik, ma`naviy farovonlik, ezgulik g'oyalari ulug'langan. Pufak momo va uning paxmoq sochli nevarasi eshak minib, ko'chama-ko'cha tomosha ko'rsatib yurishidagi erkinlik har qanday tilla buyumlar-u saroydan afzalligini qafasdagagi qush singari qamab qo'yilgan Avtobola va Xoldor anglab etadi. O'zlarining tutqun ekanligini Ko'rshapalak va Supersur suhbatidan eshitgan bolalar xo'jayinlaridan ozodlik va

erkinliklarini talab qilib, oshkora tahdid boshlaydilar. Bekxo'ja esa "aldagani bola yaxshi" qabilida ish tutadi. Bolalarni tilla buyumlar ko'rgazmasidan oltin dubulg'ani o'g'irlab kelgach, ozodlikka chiqarishga va`da qiladi. Ammo, Avtobola bu topshiriqni bajarishi bilan "o'lim"ga - temir-tersakka aylanishga hukm etiladi. Odamlardan qattiq ranjigan Avtobola "o'lgan"da ham ko'zлari ochiq qolib: "Ýrkimni himoya qilolmas ekansan, nega meni yaratding?", - degan savolni tinimsiz takrorlayotganga o'xshardi .

Ertak-qissada shu tariqa roppa-rosa bir asr ilgari el-yurt boshiga tushgan har xil tamg'alar, yurt ozodligi, erki uchun berilgan yolg'on va`dalar, ezgu-maqsad yo'lida tinimsiz sa'y-harakat qilgan jadidlar qatag'oni, shuningdek, odamzot paydo bo'lganidan buyon er yuzida davom etib kelayotgan kurashning asl sabablari tamsiliy, falsafiy, badiiy-fantastik tarzda ifodalangan. SHu ma`noda aytish mumkinki, Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinchilar qatorida robot bola timsolida o'z tutqunligini anglab etgan avlod qismatini hikoya qildi. Avtobola temir-tersakka aylanishida ham yozuvchining erksiz va tutqunliqda yashash mumkin emasligi g'oyasini anglash mumkin.

Beshinchidan, detektiv yo'nalishda yozilgan asarlarda jinoyat yo'liga kirib qolgan o'smirlarning ("Alvido, bolalik", "Mungli ko'zlar") murakkab psixologik holatlari realistik va badiiy jihatdan teran tadqiq etildi.

X.To'xtaboyev "Mungli ko'zlar" asarida XX asrning 2-yarmidagi ijtimoiy-ma`naviy-ruhiy hayotning badiiy manzarasini ishonarli

ochib bergen. Zafarning ota-onasi pul, oltin yig'adi. Ular boyiganlari sayin o'zlarini boshqara olmay qoladilar. Topilgan pullar oilaga kulfat, baxtsizlik, fofia olib keladi. Yoqutxon, Saidlarning pul-boyliklari do'st-dushmanni tanib olishda o'ziga xos vosita vazifasini o'tagan. Oila boshiga tushgan tashvishlar farzandlar ruhiyatiga keskin zarba beradi. Katta o'g'li nogiron Akbarjon dang'illama hovliga qo'shib o'ziga o't qo'yib yuboradi, Zufar avtohalokatga uchraydi, Zafar ota-onasining sadoqatsiz do'stlaridan o'ch olish maqsadida jinoyat yo'liga kiradi, Nigora esa qattiq iztirobdan teri kasaliga chalinadi. Umuman, asarni ko'zda yosh bilan o'qigan kitobxon mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzandlarning achchiq qismatiga sabab bo'lgan ota-onalarga achinishi, shubhasiz. Asarda shunchaki bir oila tanazzuli emas, umuman ma`naviyat, iymon-e`tiqodga, milliy qadriyatlarga putur etgan joyda poydevorsiz qurilgan uy singari vayronagarchilik bo'lishi tayinligi, jamiyatda kattalar yo'l qo'ygan xatoning eng birinchi qurbanib bolalar ekani badiiy-realistik aks etgan.

T.Malikning "Alvido, bolalik" qissasi esa o'smirlar bosh qahramoni hisoblangan detektiv asar va unda aynan jinoyat yo'liga kirib qolgan o'smirlar psixologiyasi etakchiligi bilan e'tiborga loyiqliki, u haqda keyingi fasllarda kengroq to'xtalamiz.

Nihoyat, oltinchidan, bolalar adabiyotida "katta muammolar"ning paydo bo'lishi yoxud yozuvchi kontseptsiyasiga ko'ra o'smirlar botini va zohiridagi g'alayonlarga aynan o'zi yo'l

izlashi, voqelik ular nigohi bilan taftish qilinishi natijasida "polifonik" asarlar sari yangi qadam qo'yilayotgani anglashiladi.

Bolalar adabiyotida ham o'tgan asrning so'nggi choragi va istiqlol yillarida yaratilgan ayrim asarlarga nisbatan polifonik atamasini qo'llaganimizning boisi ham aslida badiiy tafakkurdagi evrilishlar ta'sirida noan'anaviy qahramonlar, obrazlar, talqinlarning serqirraligi; qolaversa, bir asarning o'zida turli yoshdagi va tafakkurdagi personajlar galeriyasi, yuzaga kelgan muammolarga munosabat xilma-xilligi kuzatila boshlangani bilan bog'liq. Masalan, T.Malikning "Alvido, bolalik!", X.To'xtaboevning "Mungli ko'zlar" asarlarida o'smirlar botini va zohiridagi g'alayonlar, jamiyatdagi illatlar, fojialar ildizi, turli mansab va kasbdagi insonlar fe'l-atvori; shu bilan birga ularning har biriga xos mustaqil ovozlari-ohanglari monofonik tasvirdan ko'ra polifonik tasvirga yaqinligi anglashiladi. Aytaylik, X.To'xtaboevning "Mungli ko'zlar" asaridagi Zafar jamiyatda kechayotgan barcha nohaqliklarning guvohi sifatida gavdalanadi. U ota-onasining o'zaro suhbatlari, munosabati, akasi hamda Ataullo muallim, magazin va cavdo bazalaridagi tovlamachiliklar, oyisi shug'ullanadigan noqonuniy chayqovchilik, so'ngra ota-onasi qamalgach, bir to'da puldorlar, mansabdorlarning asl basharasi, qing'ir ishlarini fosh etuvchi hikoyalari shundan dalolat beradi. Uning ota-onasi orqasidan sud idolariga qatnovi orqali bu erdag'iadolatsizliklar fosh etilsa, kasalxona, jinnixonaga tushib qolishi orqali ziddiyatli, detektiv voqealar yanada kuchayadi. A.Rasulov: "Xudoyberdi

To'xtaboev ijodida Zafarlar yangi, avval ko'zga tashlanmagan qahramonlar", - deb yozadi. Olim yozuvchining boshqa asarlaridagi Orif ("Besh bolali yigitcha"), Hoshim ("Sariq devni minib"), Akrom ("SHirin qovunlar mamlakati") kabi qahramonlar bilan Zafar, Zufarlarni taqqoslab, "Mungli ko'zlar" romani qahramonlari katta shaharda, dang'illama koshonada yashashlari, ular boy ota-onaning farzandlari ekanini ta'kidlaydi. Chindan ham, yozuvchi bir koshona tanazzulini ochib beradi: "Otning o'limi - itning bayrami" degandek. Yoqutxon ko'zining yog'ini egan kazo-kazo ulfatlari ro'y-rost tubanlik, talovchilik, muttahamlik qila boshlaydilar. Qo'mondon xola "Volga"ni ilib ketadi, Qozi xola tilla taqinchoqlarni o'maradi; ular olgan narsalaridan tonadilar. Yoqutxonni ayblab, Zafarni jinniga chiqarib qo'yadilar. Bir oilaning tag-tomiri bilan emirilishi sabablari asar kontseptsiyasini belgilaydi . Yoqutxon, Saidlarning pul-boylklari do'st-dushmanni tanib olishda o'ziga xos vosita vazifasini o'tagan. Ta'kidlash joizki, aynan bolalar adabiyotida, ko'pincha, bir asarning o'zida o'ndan ortiq turlicha taqdir egalari va ularning har biriga xos hayot falsafasi, qarama-qarshi qutbdagi shaxslar tafakkuri, fojalar girdobidagi qahramonning mustaqil pozitsiyasi aks etavermas edi. Ya'ni asarning boshidan oxirigacha birgina g'oya - konfliktsizlik, bir xil - silliq hayot tarzi, aniqrog'i, muallif ovozi etakchilik qilar edi. Binobarin, mustaqillik arafasida yaratilgan yuqoridagi asarlarda qahramonlarining erkinligi yaqqol seziladi. Ularning har biri o'z yoshi, kasbi, tafakkuri, aql-idrokiga qarab gavdalananadi; muallif har bir obrazga endi ularning nigohi

bilan yondashadi va hokazo. Umuman aytganda, bunday talqin va ifoda uchun ijtimoiy hayotning, badiiy tafakkurning o'zgarishi sabab bo'ldi va aynan yangilanish davridagi muammolar, fikrlar g'alayoni jahon, rus va o'zbek adabiyotida bo'lganidek, bolalar adabiyoti uchun ham polifonik tasvir usuliga zamin yaratadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalar qissachiligi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek bolalar qissalarining yangi tamoyillari haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
3. Detektiv qissalarda o'smirlar ruhiyati talqini haqida nima deya olasiz?

Foydalanimadigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

7-MAVZU. AVTOBIOGRAFIK VA BIOGRAFIK QISSALARING KOMPOZITSION HAMDA BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Avtobiografik qissalar taraqqiyoti.
2. Avtobiografik-dilogik qissalarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari.
3. Avtobiografik xarakterdagi bolalar qissalari.
4. Biografik qissalar.

Tayanch tushunchalar: *avtobiografik, biografik, kompozitsiya, sujet, dialogik qissa, avtobiografik-dialogik, motiv, badiiy olam, takomil, taraqqiyot, tamoyil*

XX asr o'zbek qissachiligida bola obrazi haqida fikr yuritgan R.Umurzoqov shunday yozadi: "Qissa qahramoni asl ismi pinhon tutilgan Shum bola, 14-15 yoshli o'smir yigitdir. U yarim yillik sarguzashti davomida hayotning barcha jahbalarini, undagi ikir-chikirlargacha ko'zdan kechiradi. Agar erda zulm ko'paysa, ijodkor mavzu va makonni o'sha erdan olisga ko'chiradi, qahramonlarini sarguzashtga chorlaydi yoxud voqe-a-hodisalarini arshi a'loga ko'chiradi. G'.G'ulom qahramoni sarguzashtga chiqadi. Muallif o'z badiiy niyatini sarguzasht davomida anglatib boradi. Qissadagi real voqeliklar g'ayrishuuriy tarzda aks ettiriladi. Ruhiyat birinchi planga olib chiqilib, aql ikkinchi darajali qurolga aylanadi. Agar Shum bola aql egasi sifatida gavdalantirilganda bu kabi erkinliklarga ega bo'lmasdi va asar ham hozirgidek mavqe qozona olmasdi. Muallif buni anglagan holda o'z qahramoniga katta ruhiy erkinlik beradi. Badiiy asarda ruhiy erkinlikni ta'minlash esa badiiylikning muhim asosi sanaladi".

Qissadagi yetimlik motivining umummiliy, umumadaniy ahamiyati ham shu bilan belgilanadi.

Bu asarlar davr ijtimoiy-siyosiy hayotining eng murakkab yillari, qatag'onlik va shaxsga sig'inish fojalari yuz berayotgan bir davrda yozilgan bo'lsa-da, badiiy jihatdan yuksakligi mavzu va voqelikning rang-barang talqini, hikoya uslubi, qahramonlar

tafakkurida yangilik zohir bo'lishi bilan belgilanadi. Ya`ni aynan asar personajlari, ko'proq yosh qahramonlar ko'zi bilan hayotdagi jiddiy muammolar aks ettirilishi, bola-o'smirning o'z haq-huquqlarini himoya qilishga intilishi yoxud jamiyatning bolalikka munosabati muammosining bosh masalaga aylanishi kabilar poetik tafakkur takomilini asoslaydi.

Umumadabiyotda yozuvchilarning o'z zamondoshlari, tarixiy shaxslar, mutafakkirlar haqida bitilgan xotira, badialar, avtobiografik va biografik qissa, romanlar talaygina. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida avtobiografik va biografik qissa yozish an`anasi o'tgan asrning 30-yillaridan G.G'ulom ("SHum bola"), Oybek ("Bolalik", "Alisherning yoshligi"), so'ngra A.Qahhor ("O'tmishdan ertaklar"), H.Nazir ("Oq fotiha"), N.Fozilov ("Ustozlar davrasida", "Topdimu yo'qotmadim"), O.Muxtor ("Uchqur poezdlar"), T.Malik ("Qaldirg'och") kabi adiblar ijodi misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Har bir millatning shon-shavkatini, o'lmas qadriyatini belgilab beradigan mezon adabiyot ekan, unda o'sha xalqning eng etuk shaxslari, ijodkorlar, mutafakkirlar hayotining realistik ifodasi katta ahamiyatga ega. U dunyo xalqlariga mamlakat, millat nomidan so'zlaydi.

Binobarin, rus adabiyotida ulug' adiblarning o'z bolaligi haqidagi avtobiografik qissalar XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlaridayoq alohida janr sifatida vujudga kelganligini ta'kidlash joiz. S.T.Aksakov, L.N.Tolstoy, A.M.Gor'kiy, I.A.Bunin, A.N.Tolstoy,

A.Gaydar, K.CHukovskiy, S.Marshak, V.Kataev, V.Rasputin, V.Astaf'ev, kabilarning "bolalik"lari, eng avvalo, o'z xalqlarining, so'ngra sobiq sho'ro davri xalqlar adabiyotida ham ommalashib, bu turkumdag'i asarlar yaratilishiga zamin hozirlagan edi. Badiiy asar va unda muallifning ishtiroki haqida yirik nazariyotchi olim V.E.Xalizev muallif (avtor - lot. auctor) so'zini sharhlab, bu badiiy asar ijodkori sifatidagi o'z taqdiri, shaxsiy fazilatlariga ega real shaxs ekanligi, badiiy matnga singib ketgan muallif obrazni to'laligicha asar botiniga joylashib olgan rassom ekanligini ta'kidlaydi.

Haqiqatan, ijodkorning xotira, kundalik va yodnomalari bu - oddiy qaydlardan iborat emas. Bunda voqealar, holatlar goh yozuvchining olis xotirasi yanglig' bolalikning jo'shqin ohanglarida, gohida esa hayotning achchiq haqiqatlari realistik bayon qilinadi. Masalan, M.Gor'kiyning "Bolalik" qissasi otasining o'limi voqeasi bilan bog'liq xotiralardan boshlanadi. M.Gor'kiy o'z bolaligiga nazar tashlaganda, butun rus hayotining, oddiy, qashshoqlikda kun kechiradigan mujiklarning, ozgina meros uchun aka-ukalar (tog'alari Mixal'ko va Yakov misolida) va ota-bolalar (bobosi Vasiliy Kashirin va umuman, Kashirinlar xonadoni misolida) yoqavayron, ur-sur, qon to'kish, yoqa yirtish darajasiga borib etganini ochiq-oydin tasvirlaydi.

A.M.Gor'kiyning "Bolalik" qissasida quvonchli hodisalar juda oz, aksincha, bolalarga nisbatan kattalarning nafratli munosabati, og'ir turmush tarzi, oila a'zolarining o'zaro janjallari, fojiaviy qismatlar tasviri ko'proq o'rinn egallaydi. Bu yosh qahramonning

murg'ak qalbiga darj etilgan ilk xotiralar, jarohatlar bo'lsa-da, aslida o'tgan asr boshlaridagi qashshoq rus hayoti lavhalari, chekka qishloqlardagi xalqning og'ir turmush tarzi, umuman, jamiyatda bolalikning o'rni haqida yaxlit tasavvur uyg'otadi. Yozuvchining ana shu badiiy niyati avtobiografik janr uchun asos bo'lganiga shubha yo'q. Aytish mumkinki, bu janr jahon va qardosh xalqlar, jumladan, o'zbek adabiyoti uchun ham etakchi janrga aylanishiga turtki bo'lgan.

A.Abrorov yozishicha, avtobiografik qissalar o'z uslubiga ko'ra ikki turli bo'ladi. Bir turdag'i avtobiografik asarlarda yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqeа-hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtiradi. Aniqrog'i, muallifning o'zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan syujetda harakat qiladi.

Ikkinci tur avtobiografik asarlarda muallif bosh qahramon sifatida o'z nomi bilan mustaqil personaj bo'lib qatnashadi. Avtorning o'z hayotida yuz bergen voqeа va faktlar, o'zi ko'rgan yoki ishtirok etgan epizodlar asarning asosiy materiali bo'ladi. O'zbek bolalar adabiyotida G.G'ulomning "Shum bola" qissasi birinchi turdag'i avtobiografik qissa hisoblansa, "Bolalik" (Oybek), "O'tmishdan ertaklar"(A.Qahhor) kabilarni ikkinchi turdag'i avtobiografik asarlarga kiritish mumkin.

Darhaqiqat, har qanday adabiy asarda avtobiografiklik unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergen ayrim voqealar, u guvoh bulgan holatlar, shular ta'sirida yuzaga kelgan uy-

kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgani holda, badiiy to'qima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Masalan, G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon sayohatga chiqib, tarixiy hayotning barcha qatlidan voqif bo'ladi. Qattol zamon bo'lishiga qaramay, bolalik erkinligi unga hayot haqiqatini anglashida turtki bo'ladi. Yosh o'smir olti oy ichida xalqning yaqin tarixini jinnilarning ko'pligi sababi bilan, og'ir turmush tarzini Sariboy va Hoji bobolar timsoli va yana sarguzashtlari davomida duch kelgan voqealar orqali oydinlashtirib boraveradi. Yozuvchi uslubi, yumorga to'yingan poetik detallar, holatlar, voqealar uning qariyb bir asrdan buyon davom etib kelayotgan rang-barang talqinlariga sababdir.

Shu ma`noda ham bolalar nasridagi aftobiografizm poetik tafakkur yangilanishining muhim omili sifatida e'tiborga sazovor. Zero, Oybek, A.Qahhor va Hakim Nazir qalamiga mansub bolalik xotiralarida ham tarixiy, ijtimoiy hayotga oid muhim voqealar, adiblarning o'z bolaliklari "fon" bo'lib xizmat qilsa-da, asarning g'oyasi uning mazmuniga, botiniga singib ketganini anglash mumkin.

Oybekning "Bolalik" qissasida ham Musavoyning bolalik va o'smirlik (4-14 yosh) davri hikoya qilinadi. Asar ko'proq yozuvchi - bola shaxsining shakllanish pillapoyalarini aks ettirganidek tuyulsa ham, adib chinakam badiiy niyatini ochib berishga erisholmagan deyishga asos bor. SHu sababli ko'pgina olimlar "Bolalik" qissasi

voqealari memuar tarzda bo'lsa ham, muallif unga ijtimoiy ruh bag'ishlagan. Oybek avtobiografik uslubni qo'llab, o'zini biroz cheklaganday bo'ladi. Qahramoniga Shum bola kabi to'la erkinlik bera olmaydi. Shunday bo'lsa-da, ko'p o'rinda ruhiyatidagi erkka tashnalikni qahramoniga ko'chirishga urinadi. Masalan, "Maktab jahannam kabi tuyuladi. Har soat, har daqiqa "ozod" so'ziga intizormiz"... Parchadagi "ozod" so'zi faqatgina "tanaffus, uyga javob" ma`nosida emas, unda bir umr tazyiq ostida yashagan muallifning ruhiyati ham aks etgan. Matnda "ozod" so'zi qo'llanishining o'zi muallifning ruhiy erkinlikka tashna bo'lganini ko'rsatadi.

Ta`kidlash o'rinligi, biografizm ham badiiy asarda muallif kontseptsiyasini oydinlashtirishning muhiì tamoyilidir. Oybekning "Alisherning yoshligi" qissasi bu jihatdan fikrimizni yaqqol oydinlashtiradi. Avvalo, har ikkala qissa deyarli bir vaqt - adib umrining so'nggi yillarida yozilgan. Yosh Alisherning siymosi shu qadar tiniq tasvirlarga boyki, unda aynan Musavoyning siymosi gavdalanganday taassurot qoldiradi. Oybek Alisherning ilm va adabiyotga bo'lgan intilishini, "Qur'on"ning ma`nosini tushunishga urinishini, fors-arab tillarini o'rganishi, turkiy (ona tili) baytlarni va g'azallarni mahorat bilan o'qishi va ko'plab g'azallarni yod olishi, maqollar, masallar, ertaklarni sevib mutolaa qilishga harakat qilganligini tasvirlash orqali o'z bolaligidagi ezgu niyatlarini bayon qiladi, go'yo. CHunki Oybek bundan besh yuz yil ilgarigi turkiy va forsiy xalq tilining milliy ruhini, boyligini, so'z yoki iboralar

ma`nosini nozik his etadi. Aytaylik, qissada keltirilgan ko'pgina lavhalarda muallifning hayratlari bevosita namoyon bo'ladi:" - Nay o'zimizning qadimdan qolgan cholg'u, mungli, ma'yus qalblarning firoqi, alamlarini kuylaydur, to'y-bazmlarda uning go'zal sadosi ko'ngullarga zavq to'lduradur, ajoyib sehrkor cholg'udir nay.... Dildagi ohang nafas ila nayga o'tur... Barmoqlar kuyni pardalarga solib turadur".

Ko'rindiki, milliy-madaniy qadriyatlar qissadagi poetik detal' - nay misolida yorqin ochib berilgan. Shuningdek, kichkina Alisher tog'asi, otasi va uning do'stlari huzurida g'azal o'qiganda, Qur'onning mag'zini chaqishga kirishganida turkiy tilga alohida muhabbat bilan qarashi ta`riflangan. Xususan, tog'asi Mirsaid "go'yo Alisherning qalbiga kirmoqchidek" shunday deydi: "Fors shoirlari yuksak tuyg'ular, teran fikrlar ilo to'la ajib she`rlar yaratmishlar. Bizning turk shoirlari ham ularga ergashib, forsiy she`rlar ijod etishni odat qilib olmishlar. Turkiston o'lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk-o'zbekdur. O'zimizga xos odatlarimiz, an'analarimiz, qo'shiqlarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular - cheksiz boyligimiz. Ayniqsa, tilimiz go'zal, shirin va rangli! Jiyan, o'z yo'lingni topsang, bas". Qissada bu tafsilot ikki-uch marta keltirilishi bejiz emas. Iroqdagi madrasalar, xonaqohlar bilan tanishgan yosh Alisherning hayratini (shahar kezib yura-yura bolalar bir madrasa oldida to'xtadilar. Atrofidan aylangach, ichkariga bosh suqdilar. Madrasa - g'ishtdan mustahkam ishlangan, yog'ochdan o'yma qilib yasalgan sharafa (karniz) va

peshtoqilarida naqsh aro bitilgan oyatlar...) ularni yasagan arab ustalarining bag'oyat mohirligi, naqshlarning nafisligi-yu, oyatlarning xushxat bilan bitilganiga zavq ilan qarashi tasvirini aynan Oybekning Buxoroga tashrifi munosabati bilan yozilgan "Toshtug'yon" (J.Kamol), "Quyoshli qalam" (Zulfiya) dostonlaridagi Oybek hayratida ham kuzatish mumkin.

"Oybek oltmis yoshga to'lishi munosabati bilan, - deb yozadi akademik N.Karimov, - o'z hayot yo'lini qayta nazardan o'tkazib, bu yo'lning mashaqqatli tomonlarini faylasuf shoir so'zi bilan munavvar etish, ulardan falsafiy xulosalar chiqarishga urindi" . Oybek qissada yosh Alisherning qulog'iga quylgan o'gitlar orqali "Muhokamat ul-lug'atayn"dek asar mohiyatini yosh kitobxonaga anglatish g'oyasini ham ilgari surgani ayonlashadi. CHunki mazkur asarda yuzlab so'zlarning rang-barang ma`no kasb etishi, masalan, ichmoqning "sipqarmoq", "tomshimoq"; yig'lamoqning "yig'lamsinmoq", "ingramoq", "singramoq", "siqtamoq", "o'kurmak", "inchkurmak", "hoy-hoy"lab yig'lash lafzlari chiroyli misollar vositasida asoslanib, bu tilning elning ulug'ligi ta'kidlangan. Oybek bu manbadan ijodiy ilhomlanib, "Bola Alisher" qissasini qadimgi turkiy so'zlar bilan jilolantirishga erishgan. Binobarin, qissada yozuvchi turkiy-o'zbek tilining imkoniyatlarini so'zlashmoqning "javrash" (birov supurgining ta`rifini aytib javrisa), "shivirlashish" (goho ular o'zaro shivirlashib qo'yurlar; omad, dedi kimdir shivirlab); emoqning "kemirish" (chorikorlar kesakni kemirurlar), "shimimoq" (Alisher tog'asi tutqizgan bir qobirg'ani asta shimgani

holda), "oshalamoq" (o'g'il bola degan oshni oshalab-oshalab eydi-da!), "chimdimoq" (hushyor ot taqqa to'xtaganicha turib qoldi. U bolaning boshida uzoq turdi-da, atrofida ohista aylana-aylana o't chimdiy boshladi); qaramoqning "angraymoq" (chol bir on angrayib qolgach), "hayratlanmoq", "tomosha qilmoq" (Alisher sahifalarning nozikligi, naqshlarning nafisligi, oyatlarning xushxat bitilganiga hayratlanib, zavq va maroq ila tomosha qilardi), "razm solmoq" (Alisherga boshdan oyoq razm soldi), "boshini ko'tarib" (Alisher to'satdan seskanib boshini ko'tarar ekan, bepoyon sahroda yolg'iz o'zi-yu saman otidan o'zgani ko'rmadi), "ko'zi yo'lda to'rt" bo'lmoq, "intizor", "poylab" singari turli-tuman ma'nolarda qo'llaydi. Qissada bunday so'zlar o'sha davr badiiy adabiyotiga monand uslubda yozilgani ham Oybek ijodiy maqsadini oydinlashtiradi. Chunonchi, "Kaftiga quyosh qo'ndirilganday charaqlagan, keng chorxari mehmonxonada yangi yavmud gilam ustida tig'iz davra qurgan qo'noqlar, yaqin do'stlar samimi suxanvarlik ila suhbat qururlar. Katta kashmiriy shol dasturxon uzra pista-bodom, mag'iz, asal, xilma-xil holvalar to'kilgan. Mehmonlar oshab ichish ila turli qiziq voqealardan gaplashurlar; majlisda xush suhbat bir dam uzilmas edi". Ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlar hamda ifoda usuli Navoiy davri ruhini berishi bilan birga, Oybekning badiiy tilimizning jo'nlashib borayotganidan nadomatda ekanligini anglatadi. SHu sababli, N.Karimov "Navoiy - Oybek ijodining qalbi", - deganda ko'proq ana shu tuyg'ularni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Muhimi, Oybek o'z asarlari orqali Navoiyni zamondosh o'quvchiga yaqinlashtirishdan

tashqari, o'zining dolzarb ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, tilimizning, xalqimizning ma`nan yuksak va serqirra ekanligini yosh avlodga "badiiy vasiyat" qilib qoldirganiga shubha yo'q.

Shu o'rinda jahon va rus adabiyotida muallif hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan voqelar, ijodkor yashagan davr, u o'sgan muhit, oila a`zolari va do'stlarining realistik xarakteri kabilar autobiografik qissalarning bosh xususiyatini belgilashi bilan birga, yaratilajak asarlarning "xamirtirush"i ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, "Bolalik"larning barchasi (L.Tolstoy, M.Gor'kiy, Oybek, Ch.Aytmatov) kompozitsion va ifoda uslubi jihatdan bir-biriga yaqin. "O'tmishdan ertaklar" (A.Qahhor) va "Oq fotiha" (H.Nazir) qissalarida esa mustaqil syujetli hikoyalarni bosh qahramon - muallif obrazi birlashtirib, kompozitsion butunlikni tashkil qiladi. Masalan, "Bolalik"ning bir necha sahifasida Musaning bobosinikiga borishi bilan ustaxonadagi asbob-uskunalar, ayniqsa, shonlar, qoliplarni taraqlatib, goh u tokchaga, goh bu tokchaga terishi, tayyor bo'lgan bachkana mahsilarni taxlashi, ba`zilarini oyoqlariga o'lchab ko'rishi, bobosi peshin namoziga ketgach, darrov uning o'rnida o'tirib, xuddi bobosi kabi jiddiyat va qunt qilib, gazan bilan charmlarni kesishi, shirach bilan bir-biriga yopishtirishi, burishgan eski charmlarni ho'llab, kunda ustiga qo'yib, ko'va bilan urib tekislashni juda sevishini maroq bilan hikoya qiladi. Bu esa adibning "Qutlug' qon" romanidagi "Mehnatkish qiz" bobida Unsinning Shokir otaga yordam berish uchun mahsi tikishda ip eshib, mumlab berishi,

mahsilarga shon qoqishi, shondan tushirishi, pardozlashi, lok surkashi kabi detallarning bejiz keltirilmaganini ayon etadi.

Adabiyotshunos olim A.Rasulovning bu boradagi e'tirofi ham shu ma'noda o'rinli. "Oybek, - deb yozadi u, - davrlarni yaxshi eslaydi. Aniqrog'i, XX asrning 10-yillari voqeligi, odamlari Oybek ijodining o'q ildizini belgilagan. Oybek ijodini o'rganishda

-biografik; T.Malik ("Qaldirg'och"), O.Muxtor ("Uchqur poyezdlar") kabilarning biografik qissalari poetik tafakkur evrilishi namunasidir.

Zotan, ustoz yozuvchilarning o'z bolaliklari yoxud buyuk shaxslar, ulug' mutafakkirlar, iste'dodli shoirlar, yozuvchilar siyosiga bag'ishlangan qissalari bolalar adabiyoti orqali yosh kitobxonlarning ong va idrokining rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsata oladi. Qolaversa, bu adabiy an'ana davom etib, adabiy yangilanishda namoyon bo'lmoqda. A.Obidjon ("Ajinasi bor yo'llar"), X.To'xtaboyev ("Qaydasan, bolaligim"), E.Malik ("Bolalik va o'smirlik ko'chalari") badiiy-estetik saviyasi va tafakkuri, Oo;p) o'z asarlari bilan istiqlol davri bolalar adabiyotida avtobiografizmni qayta jonlantirdi.

"O'zbek adabiyotida, - deb yozadi professor Q.Yo'ldosh, - biografik va avtobiografik yo'nalishda bir qator asarlar yaratilayotgani xarakterli holdir. Alovida bir odam va uning hayot yo'liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alovida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg'onayotganidan belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo'nalishdagi

bitiklarning ko'payishi o'sha erda odam shaxsiga e'tibor orta boshlaganidan dalolatdir".

Haqiqatan, A.Obidjon qissasining nomlanishiyoq e'tiborni tortadi. Umumadabiyot va bolalar adabiyotida birdek nom qozongan, shuningdek, deyarli barcha adabiy tur va janrlarda ijod qilgan shoir, dramaturg hamda adib asarlari nihoyatda boy va rang-barangdir. Bunga doir alohida tadqiqotlarning olib borilayotgani ham bejiz emas. Muallifning talay asarlari hozirgi bolalar qiziqayotgan sirli tilsimlar, g'ayrioddiy narsalar, hodisalarga, ertaklardan davom etib kelayotgan ajina, alvasti, dev singari demonologik obrazlarning mul'tiqahramonlariga mukkasidan ketganligini anglab, asarga shunday nom tanlaganiga amin bo'lamiz. Ikkinchidan, yozuvchi mansub avlod bolaligi kechgan og'ir turmush tarzi, mafkuralashtirilgan hayot so'qmoqlarining ramziy ifodasi, tashbehanishi tarzida ham diqqatga sazovor: "Polsiz, bo'yra ustidan kigiz yozilgan bu uylardan yozda ham zaxning isi anqib turardi. Oldimizga ovqat qo'yilishi bilanoq, shipdagi o'rgimchaklar o'zini dasturxonga tashlagudek bo'lardi. Ba'zan hali g'o'rligiga borib, odamdan hurkishni uncha o'rganmagan sichqonchalar bir-birini quvalab o'ta boshlardi. Qishda esa pechkaga yolchisang, ko'mirga yolchimaysan, o'tin yoqsang, bir lovullab isitadi-yu, yana tafti so'nadi. Sandalning ahvoli ham shu. Qor yoki yomg'ir yog'sa, tomdan chakka o'tgani-o'tgan. Suv g-tiring"larga ko'rinmas ajinalar o'yin tushayotgandek..."

Kitob ikki qismdan iborat: birinchi qismi "Qaylardasiz, onajon", ikkinchi qismi "Oymoma to'lgab so'nggida uning yana davom etishi haqidagi fikr rus adabiyotida mavjud bo'lgan dilogik, trilogik avtobiografik qissalar turkumiga mansubligini oydinlashtiradi. SHu o'rinda, avvalo, "dilogik qissa" atamasiga diqqat qilsak. Dilogiya faqat romanga nisbatan qo'llanilar edi. Bizningcha, bu istilohni qissaga nisbatan ham qo'llash joiz. Bir qissadagi voqeliklar, qahramonlar taqdiri ikkinchi qissada davom etsa va ikki qissa bir butunlik hosil qilsa, ularni dilogik qissa deyish mumkin. O'zbek adabiyotida ham bunday asarlarning mavjudligi e'tirofga loyiq.

Har bir qism ichki sarlavhalarga, mustaqil syujetli hikoyalarga ajratilishi jihatidan "O'tmishdan ertaklar"ga yaqin turadi. A.Qahhorning bolalik hikoyalari o'tgan asrning XX asrning 10-yillaridan 20-yillargacha davom etgan bo'lsa, Ў.Malik urush davri bolalik xotiralari bilan maydonga chiqib keladi. Bu ikki asarning o'xshash qirralari muallif obrazining o'z bolaligi tasviridagi barcha voqealar, qalb o'ksiklari, davr mashaqqatlarini juda yaxshi eslaydi va tizimli hikoyalarda aks ettiradi. Deyarli barcha hikoyalarda yosh qahramonning ruhiyati, voqealarga faol aralashuvi, go'dak boshiga tushgan ko'rguliklar realistik bayon qilinadi. Yozuvchi raqamlar, hujjatlilikdan ko'ra qalbining eng tubida bir umr saqlangan bolalik xotiralarini juda jonli, ta'sirli, aytish mumkinki, badiiy teran aks ettira olgan. Ularning ko'pchiligi alohida-alohida hikoya tarzida berilganda ham mustaqil kompozitsion butunlikni tashkil qila oladi. Masalan, "Chayon qovurdoq", "Ovulda", "Oyimni topib bering"

kabilarni qissa tarkibidagi mustaqil hikoyalar deyish mumkin. Ba`zi sarlavhalar esa o'sha faslda hikoya qilingan obrazlar nomi bilan "Omon tog'a", "Mujgon opa", "O'lmas opa", "Tegirmonchi tog'a" kabi atalgan. Qissadagi asosiy voqealar muallifning roviyligi orqali emas, tengqurlari, do'stlari, o'gay onasi, dadasi, ammasi va jamiki o'zi bilan muloqotda bo'lgan insonlarning fe'l-atvori, suhbatlari -dialoglarida aks etadi.

Umuman, dilogik qissada boshdan-oyoq hikoya qilingan voqealar muallif bolaligining yaxshi-yomoí kunlari, hatto ayachasi - o'gay onasining baldog'ini o'g'irlagani uchun ayovsiz jazolagani, obrezga yotqizib, ustiga chiqib olib o'lgudek savalagani-yu, Omon amaki kabi yaxshi insonlar tufayli sog' qolgani, hatto bolaning qo'rquvdan baldoqni kissasidan vokzalga tashlab yuborganida, o'sha amaki topib, bolaning nomiga isnod keltirmaslik uchun tomdan topib oldim, zag'izg'onlar olib ketgan ekan deya, rahm-shafqat qilgani kabilar, avvalo, birgina go'dak qahramonning onasini vokzalda yo'qotib qo'yib topa olmay, sarsonligi, onangni topib beraman degan lo'lilarning gapiga chippa-chin ishongan yosh bolaning ayanchli ahvoligacha ta'sirchan, badiiy bo'yoqlarda tasvir etilishi asarning o'qimishlilagini ta'minlagan. Bularning barchasida yozuvchi maqsadi yosh avlodga bugunning qadriga etmoq uchun kechagi kun tarixi, ota-bobolari boshidan kechirgan mashaqqatlarini his qilishga qaratilgan bo'lsa ham, avtobiografik qissalardagi poetik detal, makon-zamonning kengligi, qahramonlarning yosh va son jihatdan ko'pligi, hatto qardosh xalqlar obrazlari yorqin chizilgani

kabilar janriy takomil tadrijini namoyon qiladi. Qissada etimlik, o'gaylik, yolg'izlik motivlari ohorli voqealar tafsilotida namoyon bo'ladi. Janr takomilidagi novatorlik ham aynan shu kabi yangi voqelik, yangi talqinlarning paydo bo'lishida ko'rindi, deyish mumkin. Qissada tirik etimlikning azobi tag'inda og'irligini asar qahramoni boshidan kechirgani uchun onasini adashtirib qo'yib, yillar davomida uni topolmay, har kuni umid bilan kutishi, diydasi tosh qotgan otasining esa o'z farzandiga o'gay onaning qahr-g'azabi, minnatu-xo'rashidan tashqari, zamona zayli bilan o'z farzandiga bir itga rahm qilganchalik shafqat ko'rsatmasligining nadomati ufurib turadi.

Ko'rindiki, E.Malikning bolalik olamiga munosabatida o'z qarashlari mavjud. Uning eshitgani shuki, donolar hayotni beziz oqar daryoga o'xshatishmagan. Ana shu daryoning esa ikki qirg'og'i bor: biri - bolalar bo'lsa, ikkinchisi - keksalardir. Biri hayotdan ketib boradi, ikkinchisi dunyoga kelib, ularning o'rnini to'ldiradi. Lekin har ikkala qirg'oq ham zaif, yordamga muhtoj... Biri g'o'r bolalik tufayli hech narsaga qodir bo'lmasa, ikkinchisi, keksaligi, jismoniy kamquvvatligi uchun jamiyatda ojiz... Qissada ana shu ikki olam vakillari eng ko'p uchrashining sababi, ehtimol, shundadir.

O'zbek bolalar adabiyotida X.To'xtaboevning "Qaylardasan, bolaligim!" deb nomlangan to'plamida ham janriy sinkretlikning yanada xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Ushbu to'plamga kirgan qissa va hikoyalar, ertaklarning janriy, kompozitsion, badiiy xususiyatlari mustaqil tadqiqotga loyiq. Aytmoqchi bo'lganimiz, ularda

avtobiografizm yangicha usulda aks etgan. Ýndi bunda muallif obrazi alohida-alohida hikoyalarning qahramonlariga singib ketgan. Hikoya va ertaklar badiiy-fantastik detallar bilan to'yintirilgan bo'lsa ham, ba'zan makon (katta Tagob), obrazlar (Orif chol, Hafizaxon,) timsolida o'zi, oyisi va bobosi, ukalari haqidagi lavha ekanligi oydinlashadi (masalan, "Orif cholning o'rikzori" kabi).

To'plamga kirgan hikoyalar haqida S.Matjon shunday deydi: "Taqdim etilayotgan har bir asar X.To'xtaboevning bolalik yillari, bolalik orzulari, bolalik sevinchlari, bolalik sog'inchlari haqida so'zlaydi".

Xullas, qariyb bir asr ilgari bolalar adabiyotidan keng o'rin olgan avtobiografik qissalar yangi mualliflar, kompozitsion va ifoda usullarining xilma-xilligi jihatidan takomillashib, yangilanib borishda davoì etmoqda. "Avtobiografizm" endilikda nafaqat avtobiografik qissalarda, balki yozuvchi -mualliflarning deyarli har bir asarida o'ziga xos namoyon bo'layotgani anglashiladi. Shuningdek, "biografizm" degan istilohni ham endilikda nafaqat biografik qissalarda, balki juda ko'p qissa, roman va hikoyalarda qahramonlarning yaqqol prototipi bo'lgan ijodkor zamondoshlari, yaqin qarindoshlari, umuman, ularga qadrdon insonlar siymosida namoyon ekanligi ayonlashadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek bolalar qissalarining yo'nalishlari deganda nimani tushunasiz?
2. Avtobiografik-dilogik qissalarning kompozitsiyasi haqida ma'lumot bering.
3. Avtobiografizm nima?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O’zbek bolalar adabiyoti. O’quv qo’llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To’xtayeva N. Istiqlol davri o’zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

8-MAVZU. BOLALAR QISSALARIDA O’SMIRLAR RUHIYATI TASVIRI

Reja:

1. Jinoyat olamiga kirib qolgan o’smirlar ruhiyati ifodasi.
2. Bo’lajak adib va mutafakkirlarning o’smirlik olami.
3. Yetim va nogiron bolalar ruhiyati tasviri.

Tayanch tushunchalar: psixologizm,jinoyat olami, didaktik qissa, tamsil, badiiy detal, yetimlik motivi, nogiron bolalar ruhiyati

O’smirlar ruhiyati ancha murakkab. Jamiyat, ijtimoiy muhit insonni o’zgartirib, tafakkurini yangilab boraversa-da, tabiat qonuniyatlari singari bolalik, o’smirlik olamiga xos o’sish-o’zgarishlar ham muttasil jilolanib turadi. O’smirlik insonning bolalalik va etuklik pallasiga o’tishi bilan murakkab kechadigan davridir.

Muhimi esa har bir o’smir bu yoshda kitob, kinofil’m qahramonlariga ko’proq e’tibor beradi, ulardan andaza oladi. Binobarin, o’smirlarga mo’ljallangan badiiy adabiyotning vazifasi ham o’ta mas’uliyatli va serqirradir. Jahon adabiyotidagi J.Vernning "Kapitan Grant bolalari", "Havo sharida besh hafta", "Sirli orol", D.Defoning

"Robinzon Kruzo", J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" kabi asarlari qatorida o'zbek bolalar fantastik va detektiv nasri, masalan, H.Shayxov, T.Malik, O.Muxtor, X.To'xtaboyev asarlari, shuningdek, T.Malik, E.Malikning didaktik qissalari o'smirlarning bu boradagi ma`naviy ehtiyojlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti tarixida S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, N.Safarov, N.Fozilov, M.Osim kabi etuk adiblarning biografik va avtobiografik qissalari, memuar, esse hamda tarixiy-hujjatli asarlari o'smirlarning hayotda mustaqil shaxs sifatida toblanishi, insoniy fazilatlarining ortib borishiga dasturulamal bo'lib kelgan. Endilikda esa zamondosh o'smirlar ko'proq psixologik, sarguzasht, detektiv qissalarni o'qishga intilmoqda. Ayniqsa, bunday asarlarning bosh qahramoni bolalar va o'smirlar bo'lib, ularning ruhiy kechinmalari teran badiiy tadqiq etilsa, shu yoshdagi kitobxonlarga kuchli ta'sir qila oladi. Aytish joizki, detektiv adabiyotning mumtoz namunalari, asosan, jinoyatni fosh etishga qaratilgan bo'lsa ham, janrning keyingi taraqqiyotida ijtimoiy hayot, jamiyat va muhit, qahramonlarning ruhiyati tadqiqi asosiy o'rinni egallab kelmoqda.

Aslida ham bolalar, ayniqsa, o'smirlar hamisha sarguzasht va detektivga juda o'ch. Aytaylik, sehrli-fantastik ertaklar, qahramonlik dostonlaridagi dev va pahlavonlarning olishuvi, sehrli tilsimlar orqali biror sirni fosh qilish, g'ayrioddiy kuchlar, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan makon va peyzajlar tasviri hamisha ular diqqatini tortib kelgan. Ammo bolalar va o'smirlar asosiy qahramon bo'lgan detektiv qissa va romanlarda yozuvchi va badiiy qahramon

o'rtasida murakkab vaziyat yuzaga keladi. Muallif qarshisida jinoyat yo'liga bilib-bilmay kirib qolgan o'smir qismati, taqdiri, ruhiy kechinmalari va nihoyat kelajagini ko'ra bilish mas'uliyati turadi. Yozuvchi tasvirda jinoyatni fosh etish lavhalariga ko'proq urg'u bersa, "jinoyatchi"ga o'qilgan hukm ham qat'iy bo'lmos'i lozim. Yoxud jinoyatni sodir etgan bolalar va o'smirlarni panjara ortiga tiqish xulosasi aslida uning ildizini topolmaslikka olib keladi. Demak, bolalar detektiv nasrida faqat qotillik yoki jinoyatning izidan quvish emas, ko'proq o'sha jinoyatga qo'l urgan bolalar olamini o'rghanish asosiy maqsadga aylanadi. Hayotiy misollar, izchil kuzatuvlar, o'nlab sud jarayonlari, axloq tuzatish koloniyasidagi bolalar va o'smirlarning ichki olami, ular psixologiyasini o'rghanish kabilar bunday asar muallifining mahorati sanaladi.

So'z detektiv qissa va romanlarda qahramon psixologiyasi tasviri haqida borarkan, yozuvchè X.Do'stmuhammadning quyidagi fikrlari diqqatni tortadi: "Men tabiatan sarguzasht, detektiv asarlar kitobxoni emasman. Bunday desam, men uchun ardoqli asarlardan biri bo'lmish "Jinoyat va jazo"ni ayni detektiv asar, deguvchilar ham bor. To'g'ri, romanda detektiv va sarguzasht unsurlari talaygina, lekin ular buyuk adib qalamiga mansub yuksak badiiy psixologik tahlillar zamiridagi bir fon, xolos.

Bizning sarguzashtlarimiz, detektivnavigislarmizda eng katta qusur xuddi shu o'rinda bilinadi, ya'ni voqealar tafsiloti birinchi va asosiy maqsadga aylanib ketadi, badiiy adabiyotning asosiy talablaridan bo'lmish - insonni o'rghanish va tahlil etish vazifasi, burchi e'tibordan

chetda qoladi. Vaholanki, sarguzasht va detektiv asarlarga xos bo'lgan o'ta ziddiyatli va to'qnashuvlarga boy holatlarda bunga juda katta imkoniyat ochiladi. Biroq kimdir insonni tushunish yo'lini tanlasa, kimlardir to'qnashuvlar zanjirini to'qishga moyilligi kuchayib ketadi. Sarguzasht va detektiv asarlarimiz "toshi"ni shu mezon posangisiga qo'yib ko'rilsa, ko'pgina haqiqatlar oydinlashadi-qo'yadi .

Darhaqiqat, jahon va o'zbek bolalar adabiyotida ham aynan qahramon psixologiyasi, ya'nè bilib-bilmay jinoyat yo'liga kirib qolgan bolalar va o'smirlar psixologiyasi tadqiqi nihoyatda muhim. Odatda, katta yoshdagi insonlar oq-u qoraning farqiga boradi, qilayotgan ishining oqibatiga aqli etadi, qolaversa, o'z hayot yo'lini belgilay oladi. Ammo bolalar va o'smirlarning jinoyatga qo'l urishiga faqat va faqat jamiyat, muhit, kattalar sababchi bo'lishadi. Yozuvchi T.Malik aytganidek, ular onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Ularni jamiyat "etishtiradi".

Binobarin, o'zbek bolalar adabiyotida T.Malikning "Alvido, bolalik", X.To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar" qissalarida jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolgan o'smirlar obrazi tasvirlanishi natijasida o'zbek bolalar adabiyotida ham detektiv nasr paydo bo'lgani kuzatiladi. Mustaqillik arafasida yuzaga kelgan ijtimoiy muhit, jamiyat tafakkuridagi o'zgarish, yangilanish ijtimoiy hayotda jinoyatchi bolalar va o'smirlar ortib borayotgani, deyarli har bir mamlakatda bolalar axloq tuzatish koloniyalari borligi adiblarni bu mavzuga qo'l urishga da'vat etgan, deyish mumkin. Jahon bolalar adabiyotining ta'sirini ham nazarda tutish muhim.

Shu o'rinda M.Boboxonovning psixologizmning

adabiyotshunoslikdagi o'rni, ahamiyatiga oid qarashlarini eslashga to'g'ri keladi. U mazkur masalada N.G. Chernishevskiy va D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.P. Skaftimov, S.G. Bocharov, B.I. Bursov, L.I. Ginzburg, A. Iezuitov, V.V. Kompaneets kabi rus va jahon olimlarining fikriga tayanib, psixologik tasvir, tahlil kabi tushunchalarga oydinliê kiritishga harakat qiladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan bu olimlarning qarashlarini birlashtirib, "...badiiy asarda personaj ichki olamini tasvirlash haqida gapirar ekanmiz, A. Iezuitov tomonidan ilgari surilgan, keyinchalik V.V.Kompaneets hamda M.P.Kodaklar tomonidan ma'qullangan, psixologizm alohida olingan asarda nafaqat yozuvchining muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshirilgan ongli faoliyatining natijasi, balki muallifning ongli urinishlaridan tashqari, shaxsiy psixikasining aksi bo'lishi mumkinligi haqidagi qoidani ham dastlabkilaridan biri sifatida qabul qilsak bo'ladi. Buni Z.Freydning har qanday badiiy asar yaratilishida yozuvchi shuuri bilan g'ayrishuuriyligining mushtarak ishlashi haqidagi fikrlari ham tasdiqlaydi" .

Ko'rinadiki, badiiy asarda psixologik tasvir, qahramon ruhiyati tasviri, avvalo, yozuvchining turli qiyofadagi insonlar ruhiyatini teran his qila olish, ularning o'rniga o'zini qo'yib, aniqrog'i ular olami bilan "yashab" ko'rishi hamda badiiy talqin, poetik detallashtira olish mahorati uyg'unligida yuzaga keladi. Bir so'z bilan aytganda, yozuvchi psixolog ham bo'la olishi taqozo qilinadi.

Taniqli psixolog Z.Freyd psixoanaliz metodini asoslash uchun bevosita obrazli tafakkur, ya`ni poetik tafakkur mahsuli bo`lgan badiiy asarlarga murojaat qilgani ma`lum . Natijada olim badiiy asarlarni uning muallifi biografiyasi bilan bog`liqlikda o`rganib, asar ruhiyati muallif ruhiyati bilan bog`liq bo`lishini isbotlagan. Masalan, u "Dostoyevskiy va padarkushlik" maqolasida Fedor Dostoyevskiy bilan akasining otasiga munosabatini, ularning ong ostida padarkushlik xohishi bo`lganini va buning o`ta qattiqqo`l va beshafqat otasiga nisbatan nafratidan kelib chiqqanini asoslaydi .

Ko`pgina yozuvchilar asar qahramonining xarakteri, psixologiyasini to`laqonli yoritish uchóí shunga mos tamsillar, badiiy detal' tanlaydi. Adabiyotshunos H.Umurov Abdulla Qodiriyning "O`tkan kunlar" romanidagi psixologizm haqida fikr yuritar ekan, "Yozuvchi uchun ichki dunyoning - ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda ko`rinishini tasvirlash, ya`ni dinamik printsii asosiy mezondir", - deydi .

T.Malikning "Alvido, bolalik" qissasida shu yo`lga bilmasdan kirib qolgan, tinchgina erkin hayot qo`ynida, ota-onasi, oilasi bag`rida o`sayotgan, bu ko`cha oxiri nima bilan tugashini bilmay kirib qolgan o`smirlar psixologiyasi ham kuzatiladi. Aytaylik, "Uyqusiz tun yoxud qotillardan birining tundagi ruhiy kechinmalari haqida hikoya" deb nomlangan faslida Asrorning shunday notinch ruhiy holati ochib berilgan .

Asror qotil bo`lib, jinoyatchilarning aksariyatidek bag`ritosh emas, ammo bilib-bilmay, aniqrog`i, ilojsizlikdan Qamariddin va Salimga

qo'shilib qoladi. Dadasi bilan to'ylarga yurgani, ya`ni "puldor"ligi uchun ularga cho'tal berishga o'rganib, keyinchalik "hamtovoq", "orqatog"ga aylanadi. SHunday "ulfatchilik"larning birida pivoxonadan chiqib kelayotgan bir kishi sigaret bermagani uchun do'pposlanadi, tepkilanadi. Haligi odam ham pichoq chiqarib, Salimni sirmab yuborgani uchun uni shafqatsizlarcha tepishadi. O'lib qolgan deb o'ylab, qorong'uda anhor suviga uloqtiriladi... Asrorning ruhiy qiynoqlari aynan shu tundan boshlanadi. O'ngida, xayolida, tushida ham bu odam Asrorni ta'qib qilaveradi, ko'ziga ko'rinaraveradi... Bu yo'lga kirishining sabablari esa qissa davomida oydinlashib boradi. U ham bo'lsa shu qotillikdan keyingi kechinmalari tahlilida ko'rinati: "Asror xuddi ertaklardagiday uch yo'l qarshisiga kelib qolgan. Bir yo'lning boshida oq shayton turibdi. "Pul topib, aql topmagan odamlar ko'p ekan, shu yo'lga kir. Pul, maishat ichidasan. Odamlar boshingdan pul sochishadi, ammo istagan yo'riqlariga solishadi. It bo'lib vovulla deyishsa - vovullaysan, mushuk bo'lib miyovla deyishsa - miyovlaysan, kul desa, kulasan, xo'rlikka chidayolmasang ham kulasan, kula turib "rahmat, akaxon", deb ta'zim ham qilasan. Ammo bu bilan ishing bo'lmasin. Pulini olsang bas!" Bu oq shayton Asrorning tushlariga ham kiradi. Ajablanarlisi shuki, ko'pincha, o'sha oq shayton dadasiga o'xshab ketadi. Asror bola bo'lib dadasining ko'ziga tik qaramagan. Shu sababli oq shaytonning ko'ziga qaraganda cho'chib tushadi.

Ikkinchi yo'lda qora shayton turadi. "Yigitning yo'li shu yo'l, - deydi u, - birovga egilmaysan, senga qulluq qilishadi. Sendan qo'rqishadi. Nimani istasang - shunga egasan. Ozodsan, eng muhimi shu - erkin

qushsan!" Qora shayton Qamariddin bo'lib ko'ringanda cho'chimaydi. Nimagadir otasidan ko'ra ko'proq uni yoqtiradi. Suyagi buzuq, ko'zi g'ilay bo'lsa ham, shu yigit Asrorga istarali ko'rindi.

Uchinchi yo'l boshida hech kim yo'q. Ko'cha ham g'ira-shira qorong'ilik ichida. To'g'ri, bu qorong'ilikda ba'zan muallimi Mahmud aka ko'riniq qoladi. O'zi yosh, ammo sochlari tekis oqargan bu olim uni imlaydi..."

Yozuvchi bu yo'llarning har biri orqali mustaqillik arfasida xalq ongingin uyg'onishi orqali anglangan haqiqatlarni bayon qiladi. Oilada, jamiyatda bolalarning kuchidan yoppasiga foydalanish, ularning xohish-istiklari bilan hech kim qiziqmasligi, xalq tarixi, e'tiqodini qariyb yo'qotgan u mafkura ta'sirida endi katta avlodning ko'pchiligi "shaytonga" aylanib ulgurganidan, ular qo'li bilan o'z kelajagi tomiriga bolta urayotgani, o'z farzandining achchiq qismatiga o'zi sabab bo'layotgan ota-onalarning nofaol siyomosi orqali aks ettiradi.

Nazar Eshonqulning Bekket ijodi haqidagi maqolasida juda o'rinli mulohazalar bayon etilgan. Adib XX asr jahon adabiyotidagi barcha yangi oqim, uslubiy izlanishlar, eng avvalo, frantsuz adabiyotidà yuz bergenini e'tirof etib, yangi badiiy tafakkurda keskin burilish yasagan "absurd teatri"ni tilga oladi. Bekket o'tgan asrning 50-yillarida ko'targan muammolarga insoniyat 80-yillarda duch kelganini ta'kidlaydi. "Godoni kutish"da katta yo'l yoqasida, qurigan daraxt tagida ikkita odam kelib Godoni kutadi. Ularga yana hamma kelib qo'shilaveradi. Sahna oxirigacha Godo kelmaydi. Godo bu - saroblik

timсли сифатида талқин qilingan. N.Eshonqul ta'kidlaganidek, bu ko'ngil sarobligi, hayot sarobligi kabi talqinlarga asos bo'laveradi .

Asror, Qamariddin o'z ota-onasi uchun "hech kim", jamiyatda o'rnini topolmaydi, tengqurlari orasida yo mazax qilinadi, yo kamsitiladi. Asror o'sha murda cho'ktirilgan ko'prik yonidan tez-tez o'tadigan bo'lib qoladi, har turli vahimalarga beriladi... va yiqilib, cho'kib ketadi...

Xuddi shunday qismat "Mungli ko'zlar" qissasidagi yosh qahramonlar hayotida takrorlanadi. Voqealar Zafarning hikoyasi orqali bayon qilinadi. 16 yoshida qamoqqa tushgan o'smirning boshidan o'tkazgan yaxshi-yomon kunlari, oiladagi to'rt "polopon"ning mol-dunyo toplashga o'ch ota-onalari, nobop jamiyat, iymonsiz kattalar jabrining beayb qurboni bo'lgani haqidagi fojialar g'am-anduhga to'la bolalik qalbi bilan ifoda etiladi.

Ayniqsa, Zafar ayrim nohaqliklarga aqli eta boshlagach, ruhiy xastalikka chalinganlikda ayblanishi, iloji o'zini o'zicha jinnixonadan chiqarmay turish tarafдорлари bo'lgan kazo-kazolar bilan olishishga ojizliê qilganda Zafarning ruhiy iztiroblari alangalanadi. Qanday holatda jinoyat yo'liga kirib qolganligining ob'ektiv va sub`ektiv sabablari, o'z qismatining botiniy va zohiriylar qirralari ruhiy kechinmalari bevosita uning nutqi orqali ochib beriladi: "... Ko'p dard bilan olishdim, lekin ikkilanish dardidan og'iri bo'lmas ekan. Yo'q, ikkoviniyam o'ldiraman... Bu - jinoyat-ku? Uyiga o't qo'yaman ularning, nega, bu jinoyat emasmi!?

Qasos bilan insof olishyapti vujudimda. O'n olti yoshimda men molu dunyoga nega bunchalik hirs qo'ydim ekan? Otamdan o'tdimi, onamdan yuqdimi? Har ikkovining qalbi mening ko'ksimda urib

turibdi. Ruhimda ularning ruhi, xarakterimda - xarakterlari, ongimda - onglari yashayapti. Nimani orzu qilishgan bo'lsa, o'sha orzu tomirlarimda qizil qonimga qo'shilib oqayotgandek... sudga tortib, sharmandalarini chiqarib, boyligimizni qaytarib olmoqchi bo'ldim, bo'ljadi. Bas qilaymi, yo'q, yo'q! Ilgari bas qilsam ham, endi bas qilmayman. Nega meni jinniga chiqarishadi? Sog' ekanman, mana qo'linda viloyat kasalxonasi bergan ma'lumotnoma bor... Oyijonim, meni ne kunlarga tashlab ketdingiz? Nega ham qalbimda molu dunyo, boylik ishqini parpiratib yoqib ketdingiz? Otam qamalmaganida, onam o'limganda, akam kuyib ketmaganda, ukam nobud bo'limganda men ustilaridan yozarmidim? Uylariga o't qo'yarmidim? - Yo'q! Oyijonim, men qiynalib ketyapman, mahalla to'la vahimali mish-mish, tortishuv: - Jinni! - Sog'! Yo'q, men soppa-sog'man! Dunyoga o't qo'yishga tayyor turgan alamzadaman, xolos. Dadajonim, ahvolingiz qalay, hozir? Nega bunday bo'ldi, nega buncha boylik to'plovingiz? O'sha boyligingiz ajdaho bo'lib hammamizni yutib yubordiku, xonumonimiz barbos bo'ldi-ku!... Aybli bo'lsangiz ham baribir, siz mening dadamsiz, mehribonimsiz. Faqat yig'lamang. Yig'lamang, dadajon!.. "

Oila boshiga tushgan tashvishlar farzandlar ruhiyatiga keskin zarba beradi. Umuman, asarni ko'zda yosh bilan o'qigan kitobxon mol-dunyonи har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzndlarning achchiq qismatiga sabab bo'lgan ota-onalarga achinishi, shubhasiz.

Yozuvchi ko'pgina qahramonlari orqali, ayniqsa, Yoqutxon, Said Karimov, Qozi xola, Qo'mondon xola, SHahodat amma singarilarda

insof, diyonat, qanoat etishmasligini, buning asl ildizi esa sobiq sho'ro tuzumining xalq qadriyatlari, e'tiqodiga qarshi murosasizligini, qolaversa, ma`nan qashshoq qalblardà iymonsizlik tomir otishini bolalar nigohi orqali ko'rsata olgan. Adib endigina mustaqillikka erishayotgaí yurt bolalariga bu asar orqali juda ko'p mantiqiy xulosalarni, aytaylik, avvalo, har bir qilingan jinoyat jazosiz qolmasligi, qasos olish bandasining ishi emasligi, bilimu tajriba, tafakkur yo'q joyda haqiqatning "ko'zi yumuq" bo'lishligi kabi hayot falsafalarini yosh qahramonlar taqdiri orqali ko'rsatib beradi.

Bu ikkala detektiv qissa o'zbek bolalar adabiyoti uchun mavzu va yo'nalish jihatdan yangi voqelik ekanini ta'kidlash lozim. Yuqorida e'tirof etilgan sarob hayot, mafkura, hayotning bir timsoli ham. Har ikkala qissada katta-yu kichik qahramonlar taqdiri beiz yo'qoladi. Hech biri na yomon, na yaxshè maqsadiga erishadi. Shu ma`noda, nogiron Akbarning o'z koshonasiga qo'shib o'zini yoqib yuborishi, Zafarning avtohalokati, Zufarning o'z botiniga nazar tashlab, o'zi bilan o'zi suhbatlashishlari serqirra ramzlarga ega. Ya`ni bir oila misolida o'rnatilgan tuzumning sarobligi ko'rsatilayotgandek, go'yo.

Shu bilan birga, qissalarda o'smirlar ruhiyatining nozik qirralari, hissiyotchan tuyg'ulari o'zbek bolalar nasrining keyingi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki istiqlolning dastlabki yillaridayoq bolalar nasri ham badiiy-kompozitsion, mavzu va qahramon talqiniga ko'ra yangilanishga erishdi. Davr bolalar hikoyachiligida S.Barnoev, T.Malik, H.Nazir, F.Musajonov, X.To'xtaboev, A.Ko'chimov, Ý.Malik, SH.Bo'taev kabi adiblarning hikoya va qissalarida

o'ziga xos yangilanish kuzatiladi. Aytaylik, E.Malikning "O'qilmagan sahifalar", "Toshlar tilga kirganda", "Akbarobod ertaklari", "Yo'ldosh ota", "Xayr, yetimlik", "Bular ertak emas", "Bir boshoq don-bir tishlam non" hikoyalari; "Nevara", "Onaizor", "Yetim qolgan xotiralar", "Qaldirg'och" kabi qissa va badialarining har biri mavzu va talqin yangiligiga ko'ra ohorlilik kasb etadi. Ba`zilari esa kompozitsion tuzilishiga ko'ra bolalar adabiyotida originallikka ega. Masalan, "Onaizor" qissasining kompozitsiyasi epistolyar negizga ega. Asarning har bir bobি onaning o'g'liga yo'llagan maktubi shaklida yozilgan. SHu orqali maktublarda keltirilgan rang-barang voqealar yagona maxrajda bog'lanadi. Ayni paytda, adabiyotda qayta tiklanayotgan iymon va e`tiqodning namunasi sifatida Onaning bиринчи maktubida poklik, halollik, imonlilik haqida so'z boradi.

Asardagi Ona obrazи barcha yolg'iz ayollarning umumlashma obraziga aylana olganligi, erkaklarning o'rni nafaqat oila to'kisligi, avvalo, bolalik olamining ruhiyatiga ozor etkazishi o'g'il - Sherning bolalik iztiroblari misolida ochib berilgan. Bola oilasini tashlab, hamma narsani aroqqa almashtirib ketgan bo'lsa-da, dadasi borligiga o'rtoqlari bilan garrov o'ynaydi, bunga ishonmagan bir o'rtog'ini sudrab otasining vayrona kulbasiga olib keladi, kattakon qulf osilganiga qaramay, kechgacha shu erda qolib ketadi: "Ketmaysan, ketmaysan, dadamni ko'rasan, dadam bor... axir, hozir keladilar", - deya o'rtog'ining yoqasiga yopishadi; yig'lab turib, yolbora boshlaydi. Bolaning o'rtog'i oldida izza bo'lib, papkasining ustiga o'tirib, boshini tizzalari orasiga olib hiq-hiq yig'lay boshlashi ham Ona maktubida eslanib: "Sen hech qachon, ha,

hech qachon o'z farzandingni bunaqa ahvolga solmaysan. Bu azobni go'dak boshingdan o'tkazding", - deyilishi asar markazida ko'proq bola ruhiyati, o'ksik qalb jarohatlari turishini oydinlashtiradi.

Rus bolalar adabiyotining dolzarb muammolari haqida fikr yuritgan olimlar Otalar faolligi - eng asosiy mavzulardan biri ekanligini, ayniqsa, XXI asr o'quvchilariga otaning o'rni va vazifasi nafaqat ikkinchi darajali, balki xuddi onaning o'rni kabi juda muhimligini anglatish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu jihat o'zbek bolalar adabiyotida ham alohida muammo ekanligidan, bolalar adiblari tomonidan talay badiiy publitsistik hikoyalar (S.Barnoyevning "Qiblagohlar" kabi), she`rlar (A.Akbar "Dadam haqida she`riy hikoyalar") yozila boshlandi.

E.Malik qissasi shu jihatdan ham e'tirofli. Oilada otasiz o'sgan bolalarda otadan o'tadigan fazilatlar, gap so'zlaridagi dadilligu mustaqillikni ayol bera olmagani, hatto bu mumkin emasligini anglatadi. Bil`aks, uni tergayverib, o'ta ko'ngilchan qilib qo'yganiga pushaymon bo'ladi.

Xullas, bolani otasiz katta qilish dorbozning arqonida langarsiz yurishiga o'xhashi ona iqrorida oydinlashgan. "Onaizor" qissasidagi mavzular uning aynan epistolyar maktub shaklini taqozo etgan bo'lsa, bolalikka munosabat oqibati kompozitsion yaxlitlikni ta'minlagan. Xatlarning umumlashmasida ham kompozitsion butunlik ko'zga tashlanadi: maktubdan maktubga o'tilgani sayin voqealar rivoji kul'minatsion nuqtaga ko'tariladi. Sher bola bo'lib, otasiz o'sganligi uchun baxtiyorlikni his qilmagan edi, o'smir yoshida otasini izlab borib, undan ko'ngli soviydi. Endi faqat onasiga suyanchiq, elkadosh

bo'laman, deganda esa harbiy xizmatga jo'naydi... Mushtipar onasining orzularini ro'yobga chiqarish uchun hamma narsaga rozi bo'ladi... Garchi, qissada faqat onaning o'g'liga yozgan maktublari keltirilgan, o'g'ilning onaga yozgan birorta javob xati bo'lmasa ham, farzandining onasiga mehribonligi, sirdoshligi anglashilib turadi. Ammo Afg'on fojiasi ona va bolaning bu umidini ham sarobga aylantiradi. Dastavval, ayol qizi Sabohatni bezorilardan qutqargan, keyin unga ko'ngil berib, sovchi qo'ygan Ulug'jon ismli harbiy yigit uchun ko'k kiyadi, so'ogra esa... buning yoniga Sherning azasi qo'shiladi...

E.Malikov ijodida qissaning yana bir ko'rinishi kundalik shaklidadir. Muallifning "Etim qolgan xotiralar" qissasi aynan kundalikdagi bitiklar shaklida yozilgan bo'lib, unda o'smir qiz Ma'sudaning xotiralari orqali bolalar uylaridagi ko'ngli o'ksik o'g'il-qizlarning qalb kechinmalari, ota-onalari, oila sog'inchi, jamiyat haqidagi tasavvurlari aks ettirilgan. Natijada bu qissa ham yangicha g'oyaviy kompozitsion asosga ega bo'lgan .

Kundalik yozish o'smir yoshdagagi qiz-yigitlarga xosligi nazarda tutilsa, tanlangan uslubiy yo'nalish reallikka ega ekanligi ayonlashadi. SHuningdek, bolalar uyi, maishatga berilgan ota-onalarning o'z bolalarini tirik etim qilib qo'yishgani o'zbek bolalar adabiyotida qalamga olinmagan mavzulardandir. Otasi chet elga ishlashga ketib, uning kasal bo'lganligini eshitgan ona borib olib kelish bahonasida bolalarini shu erga tashlab ketadi.

Yozuvchi kundalikda muhrlangan qalb izhorlari - xatlar bahonasida yetimxonada tarbiyalanayotgaí Halima, Madina, Soliha,

Nargiza ismli qiz va Odil kabi o'g'il bolalarning achchiq qismatlarini tilga oladi. Bu taqdir egalarining har biri alohida hikoya. Shu sababli muallif asosiy voqeа rivojida bu hikoyalarni qoliplovchi hikoya tarzida beradi. Ma'sudaning oyijonisiga yozgan kundaligidagi maktublarida Darmonjon, Nargiza, Odil qismatlari juda ta'sirchan hikoya qilingan. "Darmonjon dunyodagi hamma onalarni yomon ko'rib qolgan ekan. Bechora, begona odamni ota deya olmagani uchun bu erlarga kelib qolgan ekan-da. Xo'rлansayam, o'limga rozi bo'lsayam, baribir begonani "ota" demapti. Men ham xuddi shunday qilgan bo'lardim..." Ma'sudaning maktublarida Darmonjonning onasi misolida o'z farzandini ertaklardagi o'gay onalardek kalamushli erto'laga qamab, bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'lgani, bunday voqealar ta'sirida etimxonadagi hamma bolalar ham barcha onalarni yomon ko'ra boshlashi ta'kidlanadi. Yoki Nargiza ismli qiz timsolida "etimxona kasali"ga yo'liqqan bolalar ahvoli bayon qilinadi. "U sog'inish kasali! - uqtiradi qizaloq. Bolalar onalarini o'ylab-o'ylab, ichlaridan kuyib-kuyib, oxiri yotib qoladilar... Biz o'n to'qqiz qiz- kulsak-kulamiz, yig'lasak - yig'laymiz. Dardimiz bitta-da, dardimiz. yetimmiz!"

Qissaning so'nggida Ma'sudaning o'z uyini topib borishi, kichkina qizaloqligidan mehribonlik uyiga kelganidan uylarini juda olisda deb xayol qiluvchi o'smir qiz bozorda sinfdoshini ko'rib, uning yordami bilan avtobusga chiqib, uyini topib kelishi juda ta'sirli tasvirga ega: "Ana uylari! Voy, darvozayam ochiq ekan. U beixtiyor bir vaqtlardagidek yugurbanicha ochiq turgan darvozadan kirib bordi. Kirdi-yu darvozaxonada turgan tanish mashinaga ko'zi tushdi.

Adasining o'rtog'inining mashinasi-ku... Ma'suda mashinani aylanib o'tdi-da, hovlining qoq o'rtasida paydo bo'ldi. Hovlidagi tanish so'ritok, ha tanish so'ritok tagida... Nimagadir Ma'sudaning ko'zlarini ko'rmay qoldi. Shoshib-pishib ko'zlarini uqalab, yaxshiroq tikildi. Adasining o'rtog'imi? Ie, oyisimi, oyijonisimi? Chaqaloq cho'miltirishyaptimi? Ha, chaqaloq oyog'ini chalpillatib yig'layapti. Nimaga bunaqa? Ma'suda xuddi uyat ishning ustidan chiqib qolgandek, hovliga qandoq kirgan bo'lsa, shundoq otilib chiqib ketdi..."

Ma'suda yetimxonaga ham qaytib bormaydi... Kundalik esa undan qolgan yolg'iz yodgorlik sifatida talqin etiladi.

E'tibor qaratilgan qissalarning barchasida asosiy qahramon fojiasi kuzatilishi tasodif emas. Buni, avvalo, yetmish yillik sho'ro mafkurasi ta'sirida bolalar adabiyoti ham "konfliksiz", "baxtli bolalik" tarannumidan charchagani, bolalarning chinakam hayoti shiorlardagidek emasligini asoslashga intilish, shuningdek, yangilangan adabiyotning bolalar qalbiga nazar tashlayotganidan, deb tushunish o'rinli. Bu talqinlarning barchasida poetik tafakkur yangilanishi, makon, zamon, qahramon yangiligi yarq etib ko'zga tashlanadi. Bu jihat nafaqat o'zbek bolalar adabiyoti, balki qardosh xalqlar, jahon adabiyotida ham namoyon bo'layotgani fikrimizni asoslaydi.

Boshqird yozuvchisi Aygiz Boymuxamedovning "Meni yolg'iz qoldirma, onajon!" ("Ne ostavlyay menya, mama!") va "Ýrtaksiz hayot" (yoki "Ertak tinglamagan bolalar" - "Jizn' bez skazki") qissalari bugun ko'pgina tillarga tarjima qilinmoqda. Avtobiografik xarakterdag'i bu

qissalarda mehribonlik uylari, bolalar ruhiyati realistik aks etgani bilan e`tiborni tortmoqda.

Bu qissalarning bosh qahramoni ota-onasidan bevaqt ajralib, opasi bilan bolalar uyiga kelib qolgan Ilyos obrazi orqali eng kerakli bo'lgan mehr, yaqinlarining hamdardligi etishmasligi, aksincha, tarbiyachilarining qattiqqo'lligi, jahldor va qo'rsligi uchun ko'p, ayovsiz jazolanishi, masalan, qorda oyoqyalang yurgizish yoki Farita ismli qizchaning derazadan uloqtirilishi va bir hafta davomida qarovsiz qoldirilgani uchun vafot etishi, shuningdek, bolalarni muallimlar o'z uyiga olib borib ishlatishi, hayvonlariga qaratishi, qorni to'yib ovqat eyishmagani kabi dardli hikoyalar tilga olingan . Bu avtobiografik hikoyalar muallif bilan uchrashuv va kitoblar taqdimotida ham ta`kidlanib, realistik voqealar, tilga olingan hayotiy personajlar mazkur asar nashridan so'ng bo'shatib yuborilgani, (masalan, etimxona direktori) sharoit ancha yaxshilangani ham qayd etiladi (2018 yil, 26 may. Qирғизистон, Ош шаҳри).

Shunga o'xshash, Xolid Ertug'rilning "Aldangan Ayselning tavbasi" qissasi ham bolalar uyida "tarbiyalangan" qizlarning fojeiy qismatini ochib berishga qaratilgan. U shu jihatni bilan G.G'ulomning "Netay" qissasini yodga soladi va ayrim jihatlari (masalan, etim o'sgan qiz bolaning boshiga tushadigan ko'rgiliklar, achchiq qismat, nomusining toptalishi kabi) uning zamonaviy talqinidek taassurot qoldiradi. Ayselning bolalikdagi achchiq xotiralarida tarbiyachi ayollarning shafqatsizligi, mehrga tashna qalblarni vayronaga aylantirgan, urish va haqorat bilan "betlarini qotirgan"i, ayniqsa, litseyda o'qib yurgan

vaqtlaridayoq "och qashqirlarning" qarovsiz qizlarga tashlanib, nomuslarini poymol qilishgani kabilar o'smirlar ruhiyatidagi bu kabi xastaliklarning umumjahon muammosiga aylanganini isbotlaydi...

Dunyo adabiyotida Charlz Dikkensning "Olliver Tvistning boshidan kechirganlari" asarida ham etim bolaning psixologiyasi teran aks etganini ko'rish mumkin. XIX asrda Londonda kambag'allik avj olib, past tabaqa vakillari yuqori tabaqa vakillari tomonidan eksluatatsiya qilinar ekan, kichik o'g'ri bolalar guruhlari kisovurlik qilib, o'z xo'jayinlariga o'g'rilik orqasidan topgan buyumlarini keltirib berishi, Janob Bamblga o'xshaganlar yosh bolalar mehnati evaziga boylik orttirgani, jumladan, ota-onasiz qolgan Oliverni o'z manfaati yo'lida ishlatib, xo'rashlariga chidab yashashga majbur qilingani tasvirga olingan. Yozuvchi o'z vaqtida adabiyotda qalamga olinmagan mehnat uyi bolalarining qismatini birinchilar qatorida badiiy aks ettirgani uchun keyinchalik katta shuhrat qozondi. Ch.Dikkens oddiy detallar orqali inson psixologiyasining murakkab qirralarini ochib beradi. Masalan, kiyim-kechakning nimalarga qodirligini jazzi Oliver Tvistning ahvolidan bilish mumkin edi. Olliver shu vaqtgacha yakka-yu yagona kiyimi bo'lgan yo'rgakda yotar ekan, asilzoda oila farzandimi yoki gado farzandimi - buni farqlash mumkin bo'lmaydi. Ammo chaqaloqqa eskirib, sarg'ayib ketgan "kolenkor" ko'ylak kiydirilgach, unga tavqi la`nat osiladi-qo'yadi. Shu lahzadan boshlab bola jamiyatdagi havas qilib bo'lmaydigan o'rnini kaltagu, nordon shapaloqlar bilan siylanadigan, hamma jirkanadigan, hech erda hech kimdan shafqat, muruvvat ko'rmaydigan, qavmga boqindi bola, mehnat uyidagi

"etimcha - etti kulcha", itoatkor, och-nahor tirikchiligin o'tkazuvchi yugurdak o'rnini egallaydi .

Ko'rindiki, jahon va barcha xalqlar adabiyotida ham jamiyatning asosiy e'tiboridan chetda qolayotgan etim va qarovsiz bolalar, o'smirlar ruhiyatini tasvirlash etakchi o'rin egallagani bu yo'naliishdagi asarlar yaratilishiga turtki bo'lgan. Samimiy mehr-muhabbatdan, ota-onas, yaqinlari g'amxo'rligidan mahrum bolalarning o'smir yoshida paydo bo'ladigan aggressiv xulq ko'rinishlarining ortib borishi sababi shu kabè asarlarda badiiy tarzda ohib berilgan.

"Internat muassasalari tarbiyalanuvchilarining, - deb yozadi D.Islomova, - ayniqsa, chaqaloqligidan ota-onas qaramog'isiz qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalarning jismoniy va psixik, ijtimoiy ko'ngilsiz holatlari ijtimoiy etimlikning asosiy fojiali oqibatlaridan biri hisoblanadi" .

Anglashiladiki, XX asr bolalar adabiyoti namunalarini nafaqat "baxtli bolalik" talqiniga, balki yosh qalblarning murakkab kechinmalari, ruhiyati, jamiyatga va kattalarga munosabati ifodasi bilan to'lishib borgan. Xususan, o'smirlar olami ifodasida poetik tafakkur evrilishlari ko'proq uchragani namoyon bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'smirlar ruhiyati qaysi asarlarda teran aks etgan?
2. O'smirlar psixologiyasiga oid asarlar qanday ahamiyatga ega?
3. O'smirlar adabiyoti mavjudmi?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- 1.Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.

- 2.Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
- 3.Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
- 4.To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

III MODUL. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI

9-MAVZU. ADABIY JARAYONDA BOLALAR ADABIYOTINING O'RGANILISHI

Reja:

1. O.Safarov bolalar adabiyoti fani muammolari to‘g‘risida.
2. S.Matchonovning bolalar adabiyoti san`atmi yoki tarbiya maqolasi haqida.
3. R.Barakayevning bolalar adabiyotida an’ana va vorisiylik maqolasi tahlili. Bolalar adabiyoti: yuksalish mashaqqati (davra suhbati).

O‘zbek bolalar adabiyotining so‘z san’ati sifatidagi ulug‘vor vazifasi va tarbiyachilik vositasi istiqlol yillarida alohida e’tiborga tushdi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Adabiyotga e’tibor- ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” yo‘riqnomasida adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi ekanligi ta’kidlab ko‘rsatilar ekan, jumladan shunday deyilgan: “Ayniqsa, biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e’tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim”.⁵

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentabrda e’lon qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida alohida belgilab berilganidek, bolalikdan

⁵Bu haqda qarang: Ўзбекистон адабиёти ва санъати. // 2009 йил, 3 июль
170

kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash haqidagi⁶, 2017 yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorlari ham bu fanning maqsad mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi.

Chindan ham bu jiddiy vazifani bajarishda, aniqrog'i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an'analari, milliy qadriyatları, folklor namunalari, milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari adabiyoti an'analari zaminida voqelikka aylangan **o'zbek bolalar adabiyotining** beqiyos o'rni bor.

Yarim asrdan oshayotirki, pedagogika oliygochlari va kollejlarining boshlang'ich ta'lim usuliyoti, mакtabgacha ta'lim yo'nalishlari talabalari ushbu fanni chuqur o'rganib kelmoqdalar. Bu davr mobaynida bolalar adabiyoti fani bo'yicha chop etilib kelingan darslik va qo'llanmalar tom ma'noda, yosh avlodni tarbiyalashda ruhiy va ma'naviy quvvat bo'lib kelganiga shubha yo'q. Ammo, XXI asr milliy bolalar adabiyoti namunalariga qo'yilgan talablarning ortgani beziz emas. O'zbek bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari

⁶Bu haqda qarang: “Халқ сўзи”. 2017, 11 сентябрь

aks etgan asarlar tahlili orqali talabalarda estetik, axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fanning yaratilishi XX asr boshlarida ma'rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko'zga tashlangan bo'lsa, ilk xrestomatiyalar va o'quv qo'llanmalarini tuzish harakati asr o'rtalariga to'g'ri keldi. Pedagogika bilim yurti talabalariga mo'ljallangan, I.Ahmedov, A.Suyumovlar tomonidan 1953-yilda birinchi marta tartib berilib, 1967-1978 yillarda qayta takomillashtirilib, nashr etilgan "Bolalar adabiyoti" xrestomatiyasi, 1957-yilda e'lon qilingan "Bolalar adabiyoti" o'quv materiallari qo'llanmasi shu harakatning dastlabki natijasi hisoblanadi. Keyinchalik, 1973-yilda A.Suyumov tomonidan maxsus o'rta o'quv yurtlari uchun nashrga tayyorlangan "Bolalar adabiyoti" qo'llanmasi o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu qo'llanma keyinchalik M.Jumaboyev tomonidan qayta ishlanib, 1995-yildan e'tiboran majmua va darslik sifatida kasb-hunar kolleji o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari uchun amalda foydalanib kelinmoqda.

Bu sohada P.Shermuhammedov, J.Tursunov, O.Safarov, X.Egamovlar muallifligidagi "O'zbek bolalar adabiyoti" darslik xrestomatiyasi (1976), O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlab nashr etilgan "O'zbek bolalar adabiyoti tarixi ocherklari" (1978), "Bolalar adabiyoti va zamonaviylik"(1981), "O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon" (1989) kabi monografiyalar ham o'ziga xos hodisa bo'ldi. Biroq, o'zbek bolalar

adabiyoti va bolalar kitobxonligi mundarijasini o'zida mujassamlashtiruvchi, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti namunalarining g'oyaviy, janriy, badiiy-kompozitsion jihatidan o'ziga xosligi, ularning kichkintoylar, bolalar va o'smirlar yosh xususiyatlariga ko'ra ifoda olami kabilarni milliy istiqlol tafakkuri nuqtayi nazaridan chinakam tahlil va tadqiqot asosidagi ilmiy tarix hanuzgacha yaratilgani yo'q. ZOTAN, ushbu qo'llanma mazkur vazifani qisman ado etish maqsadini ko'zda tutadi.

Bunda o'zbek bolalar adabiyotining bir asrlik tarixi, tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, XX asr bolalar adabiyotidgi fenomen yozuvchi va shoirlarning ijodi umymlashtirilishga, shuningdek, istiqlol davri bolalar adabiyotining yangi tamoyillariga munosabat bildirishga e'tibor qaratildi.

O'zbek bolalar adabiyotining nazariy masalalari ham shu ma'noda yangilangan tafakkur nuqtai nazaridan o'r ganila boshladi. Jumladan, O. Safarov, S.Matchonov , Q.Qahramonov, R.Barakayev kabi olimlarning adabiy-tanqidiy maqolalari hamda matbuotdagi davra suhbatlarida shunday munosabat ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari bolalar ijodkorlari haqidagi alohida monografik risola, maqolalar to'plamlari bolalar adabiyotidagi poetik yangilanish hodisasini anglashda muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Bu jihatdan O.Safarovning G'.G'ulom ijodiga bag'ishlangan "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2007), Q.Muhammadiy she'riyati haqidagi "She'rim - ochil dasturxon" adabiy portreti (2010), E.Malik badiiy olamini aks ettiruvchi "Bolalik boqiylik

timsoli yoxud "muxbirlikning olis yo'llari" (B.Jamilova bilan hammualliflikda, 2011); shuningdek, Elbek, H.Olimjon, Oybek, S.Jo'ra, Sh.Sa`dulla, T.G'oyipov, S.Barnoev kabi bolalar adabiyoti salaflarining badiiy olami tahlil va tadqiq etilgan "Bolalikning oydin osmoni" (2009) maqolalar to'plami fikrimizni asoslaydi. To'plamdan o'rin olgan maqolalarning ilmiy ahamiyati haqida D.O'raeva shunday yozadi: "Badiiy va ilmiy asarlar yosh avlodni yuksak axloqli, ma`naviy barkamol, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralsa, bolalar adabiyotining zukko tadqiqotchisi O.Safarov tomonidan yaratilgan bu saylanma alohida e'tiborni tortadi. Undagi materiallar bolalar ijodkorlarining mahorat sirlarini, ular ijodida bolalik olamingning qay darajada badiiy tahlil va talqin qilinganligiga xos xususiyatlarni, shuningdek, bolalar adabiyotining tabiatini, mundarijasini, taraqqiyot omillari va yo'nalishlarini yanada chuqurroq bilib olishga yordam beradi" . Darhaqiqat, xuddi shunday fikrni A.Rasulov, R, Barakaev, B.Ashurov tadqiqotlari yoki T.Adashboev, S.Barnoev, A.Obidjon va boshqa ko'plab ijodkorlarga bag'ishlangan jamoa to'plamlari haqida ham aytish mumkin. Ularda o'zbek bolalar adabiyoti masalalari haqida aytilgan dolzarb fikrlar ham yangilanayotgan tafakkur namunasidir.

Mustaqillikning keyingi o'n yilliklarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma`naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari

aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilayotgani haqli ehtiyoj. Hozirgi adabiy jarayonda bolalar asarlarining jahon bolalar adabiyoti bilan bo'yashayotgan qirralarini ochib berishga qiziqish ortmoqda. Shuningdek, bolalar adabiyoti namunalarida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlarning ustivorligi (S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik asarlarida), kichkintoylar va bolalar fe'l-atvordinagi xarakter xususiyatlarning hajviy-yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (G.G'ulom, Q.Muhammadiy, X.To'xtaboev, A.Obidjon ijodi) bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyat manzaralarining teran aksi (H.Nazir, N.Fozilov, M.A'zam), keng dunyo, tabiat va jamiyat muammolarini ma'naviy-falsafiy aks ettirgan asarlar (M.A'zam, A.Obidjon, T.Adashboyev) tahlili dolzarb vazifa. Uchinchi ming yillikning dastlabki o'n yilligidan e'tiboran, bolalar adabiy jarayoniga munosabat faollashayotgani, o'zbek bolalar adabiyoti umumadabiyot nazariga tusha boshlagani, zabardast olimlarning bu soha muammolarini teran his qilayotganlari bir qadar quvonarli.

Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g'oyaviy-badiiy, axloqiy-ma'rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahlili, salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa edi. Binobarin, O.Safarov ("Oliy o'quv yurtlarida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari" (1994), "O'zbek bolalar adabiyoti tarixi mundarijasini belgilashga doir" (1998), "Folklor va bolalar adabiyoti" (2003), S.

Matchonov ("Bolalar adabiyoti: san`atmi yo tarbiya"), R.Barakayev "Jonajonim she`riyat" (1997) kabi olimlarni haqli ravishda istiqlol davri bolalar adabiyotshunosligini yangiladilar, deya olamiz. Ularning ko'pgina maqola va risolalarida o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolari ilmiy-nazariy aspektida o'rganilib, badiiy jihatdan yuksak asarlar tahliliga e'tibor zarurligi ko'rsatib berildi. Shuningdek, olimlar o'tmishdagi bolalar kitobxonligi asoslarini o'rganish g'oyalarini ilgari surib, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti salaflari ijodini yangi nuqtai nazarlar bilan boyitish zarurligini asoslardilar. O.Safarovning "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), "She`rim – ochil dasturxon" (2011) adabiy portretlari shu ma'noda, alohida mazmun kasb etadi. Olimning G'afur G'ulom haqidagi risolasida shoirning bolalik olami naqadar cheksiz, kamalakdek tovlanuvchi va xazinadek boyligi qayta inkishof qilingan, chizgilarda shoirning qalb harorati yanada yorqinroq ufurib turadi. G'afurona bolajonlik she`rlar tahlilida, obrazlar tavsifida tabiiy mehr, zavq-shavq bilan olim satrlariga osongina ko'chadi. "G'afur G'ulom kuylagan bolalik xiyobonida,- deb yozadi muallif,- bog'cha bolasi ham, maktab bag'riga endigma qadam qo'ygan o'qish mashaqqatini zimmasiga olayotgan va olgan kichkintoy ham, o'rta maktabni oltin medal' bilan tugatib, hayotga, Vatan va xalq xizmatiga yaramoqqa chog'lanayotgan o'smirni ham ko'rish mumkin. Bu she'r qahramonlarining har biri o'z yoshi va ruhiy olamiga xos tuyg'ularni kechirishadi, o'z dardiga, o'z tashvishiga, o'z qiziqishiga va o'z intilishiga ega."

Olim shu tariqa, bunday asarlar davr sinovidan muvaffaqiyat bilan o'tib, XXI asr avlodiga ham ma`naviy huzur bag'ishlay oluvchi yorqin namuna ekanligini uqdiradi. O.Safarov G'.G'ulom ijodini kuzatishi asnosida, mutafakkir shoirning etimlik mavzusidagi she'r va qissalariga ham to'xtaladi. Adibning o'smirlar kitobxonligidan keng joy olgan "Netay", "Yodgor", "Shum bola" qissalaridagi etimlik va o'gaylik tuyg'usi shaxsiy fojea emas, o'tmishdagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi manzaralarini ochishga qaratilgani ta'kidlangan. Netay va netaylor boshiga tushgan kulfat talqinidagi yangi qarashlar ham adabiyotshunoslikdagi ohorli xulosalardan. R.Barakayev risola so'zboshisida ("Bolalik ifori anqib turibdi") qator yutuqlarni sanar ekan, uni istiqlol mafkurasi talablari asosida yozilganini alohida qayd etadi.

Quddus Muhammadiy XX asr o'zbek bolalar she'riyatini mavzu mundarija hamda janriy xilma-xillik bilan boyitgan zabardast shoir. Uning ijodi o'tgan asrning 30-yillaridan, to yangi asr bo'sag'asiga qadar keng qamrovli shakl va tamoyil kasb etdi. SHu davr mobaynida shoir she`rlarini bog'cha bolasidan tortib, mакtabni tamomlayottgan o'spirinlargacha birdek sevib o'qidi, qo'shiq qilib kuyladi. Q.Muhammadiyning alohida chop etilgan she'riy to'plamlari, ertak-dostonlaridan tashqari, birgina maktab darsliklariga kiritilgan asarlarining o'ziyoq, uning bolalar uchun bardavom she`rlar yozganidan dalolat beradi. Muhimi, ana shu ehtiros hali-hanuz so'ngani yo'q. Shoir she`rlari mustaqillik bolalarining ham ardoqli asari. SHunga yarasha, ijodkor badiiy

olamining talqini o'zining yangi qirralari bilan to'lishib borishi bugunning ehtiyoji. Shu sababli, O.Safarovning shoir ijodiy siy whole "bag'ishlangan navbatdagi risolasi ("She`rim -ochil dasturxon") ko'pqirrali ahamiyat kasb etadi. Olim Q.Muhammadiy ijodini mufassal o'rganib, turli yillarda adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar, tarjimonlarning shoir she`rlari haqida aytgan fikrlariga munosabat bildirib, ular tilga olmagan, e'tibordan soqit qillgan detallar, obrazlar, mavzu va g'oyalarga ko'proq to'xtalib o'tadi. Rost, Q.Muhammadiy hayoti va badiiy olami izchil monografik tadqiqotga arzigulik. Olim to'g'ri ta`kidlaganidek, u to'qson ikki yillik umri davomida uch ijtimoiy tuzumni ko'rdi: "Bolaligi chorizm mustamlakachiligi asoratiga griftor etilgan zamonda kechdi. Aqlu zakovati sho'ro tuzumiga sadoqatda etilib, ijodkor sifatida shakllandi, ammo keksalik, nurniylik kezlarida eli va yurtini hur ko'rib, istiqoldan masrurligini guvohi bo'ldi. Quddus Muhammadiy sho'ro zamonida etilgan va uning mafkurasiga to'yinib shakllangan ijodkor esa-da,- yozadi olim,- butun iste`dodini bolalikni kuylashga sarflay olgani tufayli o'z zamonasi qobig'ida qolib ketmadi, bolalik qiyofasida millat kelajagini ko'ra oldi... "(4-b.)

Risolada bu e`tirof to'la isbotini topa olgan. Olim XX asr o'zbek bolalar she`riyati xususiyatlarini ochish va umumlashtirish, unda Q.Muhammadiy o'rnini belgilash, shoir ijodini xolislik bilan baholashni bosh maqsad qilib belgilaydi. Ayniqsa, Q.Muhammadiyning o'zbek bolalar adabiyoti tarixida ilk bor besh kitobdan iborat yaxlit majmua yaratish an`anasining o'ziga

xosliklari, tabiat alifbesidan saboq beruvchi izchil tizimga egaligi ta`kidlanadi. Shoirning besh she`riy kitobi inson va uning hayoti, inson va uning tevarak-atrofida yashovchi qushlar, hayvonlar, hasharotlar, inson va uning nabotot olami, osmon jismlari, erdagi narsalar bilan munosabati mohiyatini bolalarga xos qarashlar zamirida badiiy talqin qilishga yo'naltirilgan xilma-xil janrdagi asarlar silsilasini qamrab olgani, shu jihatlariga ko'ra u o'zbek bolalar she`riyatidagi betakror hodisa ekanligi asoslanadi.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatni tushunmaslik tabiiy muvozanatning buzilishiga olib kelganini endi anglab etmoqdamiz. Q.Muhammadiy esa qariyb yarim asr ilgariyoq yosh avlodga bu haqiqatni uqdirmoqchi bo'lган. Shoir o'zining o'ynoqi ohang va jarangdor so'zlar silsilasida "kosa tagidagi nimkosa"ni anglatmoqchi edi. Ammo bu "nimkosa"lar mag'zi sho'rofiy mafkura chig'irig'idan o'tolmay, ko'pgina shoirlarning she`rlaridagi birlamchi - shakliy xususiyatlarnigina jo'shib gapirish urfga aylangandi. Istiqlol davri adabiyotshunosligi avvalo shu jihatdan yangilanishga ehtiyoj sezadi. Aslida, adabiyotning, badiiy asarning umrboqiyligi uning har bir avlod tafakkuridagi yangicha bo'y ko'rsata olishi, serqirra ma`nomohiyat kasb eta olganidadir. Zotan, O.Safarov shoir she`rlaridagi poetik-lingvistik qirralar, axloqiy, ta`lim-tarbiyaviy xususiyatlar tahlili orqali Q.Muhammadiyning zukko tilshunos, adabshunos va ma'rifatparvar ekanligini ham tasdiqlaydi. "Bola so'zi nimadir, bolaning o'zi kimdir?" she`ri olim talqinida shunday serjilo mazmun kasb etgan. "Bo'g'inlar talqinida,-deb yozadi olim,- bolaning er va

osmon oralig'ida o'z qismatiga ega ekanligi ishora qilinsa, harflar talqinida bolaning bir umrlik ishi "hayotni bilmoq", "hayotdan o'z ulushini olmoq", o'ziga nimaiki ravo ko'rilgan bo'lsa, barchasini kechmog'i, kechirmog'i shartligi uqtirilganday".

Darhaqiqat, badiiy ijod tahlili jarayonida adabiyotshunos va ilm ahlining idrok ufqi namoyon bo'ladi. Bolalik olami tarovatini dil-dilidan tuya oluvchi zukko olimgina bolalar adabiyoti "nozik adabiyot, izzattalab, mehrtalab adabiyot" (N.Fozilov) ekanligini his etadi. Kichkintoylarga bag'ishlangan jajji she'r bo'lsin, yoxud, katta hajmdagi ertak-doston bo'lsin, unga jiddiy e'tibor, ulkan muhabbat, chinakam san`at asari sifatida yondashadi. O.Safarov Q.Muhammadiy ijodini ana shunday e'tibor bilan kuzatadi. Shoirning bundan o'ttiz-qirq yillar ilgari nashr etilib, bugun noyob sanaluvchi she`rlari, ertak-dostonlari tahlili orqali bu asarlarni zamondosh o'quvchiga etkazish istagini ko'zlaydi.

Binobarin, professor O.Safarovning ushbu monografik risolasida bolalar she`riyatiga umrini, ijodini baxsh etgan Quddus Muhammadiy siymosi yangi asr ko'zgusida yaxlit namoyon bo'ladi. Shoir she`rlari mavzu mundarija, obrazlar olami, badiiy jozibadorligiga ko'ra mumtoz o'zbek adabiyoti, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan muqoyasalanib, o'zaro ta`sir aloqalari oydinlashtirilgan. Shu ma'noda, Quddus Muhammadiyning yoniq she`rlari haqidagi mazkur kitob o'zbek bolalar she`riyatidagi yangi tamoyillarni yoritishga bag'ishlangani va bu XX asr bolalar she`riyati manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi.

Bir asrlik tarixga ega o'zbek bolalar adabiyoti qiyofasini belgilashda R. Barakaevning "O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" (2004) risolasi muhim alohida rol' o'ynadi. Ushbu adabiyotning maydonga kelishi va shakllanish bosqichlarida maktab darsliklarining o'rni hamda Abdulla Avloniy ijodining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Olim o'zbek bolalar adabiyoti tom ma'noda H.H.Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvar adiblar tuzgan alifbo va o'qish kitoblaridan boshlanganini, shuningdek, o'tgan asr boshlaridagi darsliklarga kiritilgan tarjima asarlar ta'sirini alohida ta'kidlaydi. Bu monografik risolaning ilmiy-adabiy qimmatini shunday ifodalash mumkin: monografiya shu vaqtgacha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitishda etakchè o'quv qo'llanma hamda tadqiqotchilar uchun zarur omil sifatida xizmat qilib kelayotir. Shuning o'ziyoq, bu tadqiqot yangilangan davr ruhini, bolalar adabiyotshunosligining dolzarb vazifalarini o'zida ifoda eta olgan, muhimi, o'zbek bolalar adabiyoti mundarijasini belgilashga oid manba ekanligini ko'rsatadi.

Bolalar adabiyotshunosligida shoirlar ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar qatorida B.Ashurovning "Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati"(T., 2009) nomli kitobi ham muhim. Uning ahamiyati dastlab, muallifning o'zi to'g'ri ta'kidlaganidek, T.Adashboev she'rlari bolalar adabiyotining yangè tamoyillari nuqtai nazaridan tadqiq etilganidadir. Ya'ni, bolalar she'riyatida shu vaqtgacha e'tiborga olinavermagan badiiy mahorat masalalari,

hozirgi yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo'lgan Vatan va vatanparvarlik mavzusi talqinlari, tabiat manzaralari tasviri, lirik qahramon obrazi yaratish borasidagè o'ziga xosliklar, ularni xalq og'zaki ijodi va jahon bolalar adabiyoti an'analarini ijodiy o'rganish vositasida tasnif etilishi ilmiy ommalashtirilgan. Xususan, ertak va dostonlar, lof turkumidagi, tabiat va yil fasllari ta'rifidagi she'rlar tahlili shu jihatdan diqqatga molik.

Istiqlolning uchinchi o'n yilligiga qadam qo'ygan bo'lsak-da, XX asr o'zbek bolalar adabiyotining qiyofasini belgilovchi ko'plab shoimu yozuvchilar ijodi, jumladan, Q.Hikmat, M.A'zam, N.Fozilov, X.To'xtaboev, A.Obidjon singari iste'dod egalarining badiiy yuksak asarlari umumadabiyot mezonidagi tahlillardan hali yiroq. Shu o'rinda ayrim xayrli ishlarni sanab o'tish joiz. Bolalar adabiyoti namoyandalari haqidagi qator to'plamlar, monografik risolalar ham o'zbek bolalar adabiyotining tadrijiy, janriy tamoyilini belgilashda muhim omil bo'layotir. Jumladan, buxorolik yosh tadqiqotchi Hamida Nusratova tartib bergan risola ("Bolajonlik saodati", Toshkent, "Muharrir", 2011) o'z asosiga ega. Uning muhim qirralari shundaki, kitobda bolalar adabiyoti va adabiyotshunosligining etuk namoyandalari H.Nazir, O.Muxtor, E.Malik, T.Adashboyev, M.Jalil, J.Fozil, G'.Shomurod kabi yozuvchi va shoirlarning; O.Safarov, B.Nazarov, N.Abduaazizova, N.Rahimjonov kabi professorlar hamda T.Ahmad, S.Vohidov, I.Otamurod, D.Jabbor, S.Salim kabi shoirlarning xotiralari S.Barnoev ijodi, badiiy olami va insoniy fazilatlari samimiy tuyg'ular bilan aks etgan.

Safar Barnoyev asarlariga yozilgan taqrizlar alohida qimmatga ega. Adibning turli yillarda chop etilgan to‘plamlariga bag‘ishlab bildirilgan mulohazalarda istiqlol davri bolalar adabiyotiga xos yangi janrlar, obrazlar, mavzular, badiiy detallarning rang-barang talqini uchraydi. Ijodkor asarlari orqali o‘zbek bolalar adabiyotining umummasalalari, muammolari va dolzarb vazifalariga daxl qilingan. Shuningdek, S.Barnoyev ijodiy olamiga bag‘ishlangan ilmiy-adabiy maqolalar risolani ma`nan boyitgan. Binobarin, mazkur risola nafaqat yodnama, balki, tom ma`nodagi ilmiy-nazariy, ma`rifiy to‘plam ekanligi bilan maqsadga muvofiq.

Bunday fikrni "Beg‘uborlik olami kuychisi" (Toshkent, 2011) to‘plami haqida ham aytish mumkin. Xususan, "She`r va talqin" faslidagi maqolalarda Tursunboy Adashboyev she`rlarining yangè qirralari inkishof etilishi bilan birga, o‘zbek bolalar adabiyotining ayrim tamoyillari xususida so‘z boradi: A.Rasulov T.Adashboev ijodi misolida bolalar adabiyotida nasr materialini she`rda tasvirlay olish, parodiya (teskari tanqid) janrini maromiga yetkazish, "uch tug‘ishgan - hayvonot, nabotot va jamodot aro uzviy bog‘liqlik, o‘zaro ta`sir mukammal ko‘rsatilishi", masal, lof janrlari ahamiyatini ko‘rsatadi. Shoirning mutarjim sifatidagi yutuqlari o‘zbek bolalar she`riyati o‘zanlarini yangilagani ta‘kidlanadi.(16-21-b) .

A.Obidjon XX asr o‘zbek bolalar she`riyati xususiyatlari, 20-30-70- va 80-yillardagi yangi oqimlar, M.A`zam singari ijodkorlar misolida bolalarning faqat aqliga emas, ko‘ngliga ham ta`sir o‘tkazish yo‘lini izlashga tutinish, T.Adashboev ham shu silsilada

boshqalarga o'xshamagan she'riyati bilan bu olamga kirib kelganini ta`kidlab o'tadi. Shoirning "Bolalikka qaytaman" turkumiga kirgan, yoxud, "Yo'lchi yulduz", "Fufayka" singari she`rlari sobiq tuzum davrida o'z bahosini topmagani tilga olinadi. A.Obidjon, T.Adashboyev she`rlarini adabiyotshunos, o'quvchi hamda shu adabiyotning etuk salafi nuqtai nazaridan o'rganarkan, bolalar adabiyotshunosligrini yanada taraqqiy ettirish zarurligini o'rini ta`kidlaydi.

S.Matchon, Q.Yo'ldosh, Q.Qahramonovlar bolalar adabiyotshunosligi masalasida fikr yuritsalar, R.Barakayev, B.Ashurov T. Adashboyev ijodini kengqamrovli, monografik izchillikda talqin etadilar. Natijada, o'zbek bolalar she'riyati, adabiyoti sohasida ham nihoyat, teran anglanayotgan vazifalar, tamoyillar oydinlashadi.

Yetuk adabiyotshunos olim A.Rasulovning X.To'xtaboyev romanlari haqidagi "G'aroyib sultanat" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) hamda A.Obidjon ijodining ayrim qirralariga bag'ishlangan "O'zlik sari yo'l" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) risolalari aytish mumkinki, bolalar adabiyotshunosligidà yangi oqim hisoblanadi. Olim bolalar asarlarini tipik va kontseptual, yozuvchi mahorati, badiiy olami, makon va zamon, adabiy tur va janr nuqtai nazaridan o'rganish, ya`ni jahon va umumadabiyot o'lchovida tahlil qilish ehtiyojini asoslaydi. Ayni paytda qahramon xarakterini yoritishning an`anavié va modern usullariga e'tiborni qaratadi.

Biz o'zbek bolalar adabiyoti namunalarini jahon andazalarida o'lchashga o'rganmaganimizdan, bu tajriba favqulodda yangilikday tuyuladi. Biroq, olim hech ikkilanmay, X.To'xtaboyev asarlarini jahon bolalar adabiyotining mumtoz namunalari, X.Andersen asarlari, rus adibi N.Nosov hikoyalari qatorida sanaydi. Shuningdek, Hoshimjon, Akrom, Zafar, Orifjon singari o'smirlar sho'xlikda, aqlu zakovatda, sayohat-u sarguzashtda Tom Soyer (Mark Tven), Maugli (Kipling), Chippolino(Janni Rodari), Jelsomino (J.Rodari), Gulliver (Svift)dan qolishmasligini e'tirof etadi. Bu o'smirlarning sehrli tilsimlardan foydalanishida ham o'xshashlik ko'radi. Yoxud, hozirgi jahon bolalar adabiyotining mashhur asari Garri Potter (J.Rouling) haqidagi kitoblar fazilati mushohada qilinarkan, "Sariq devni minib" romanidagi sehrgarlik anjomlari undan qolishmasligi, aksincha, o'zbekona betakrorlikda yaratilgani ta'kidlanadi.

A.Rasulov "G'aroyib saltanat"da avvalo, bolalik olami bekatlarining tabiiy jozibalari, orzular dunyosida ijod qiluvchi adibu shoirlar topqirligi, jumladan, X.To'xtaboevning bu olamdag'i o'z o'rni, uning Hoshimjoni-yu Akrom qovunchisining sehrli qalpoqchasi hamda hid biluvchiligi bilan jahon kezgani sabablarini oydinlashtirgan. Olim zikr etgan qahramonlar, dunyo bolalar adabiyotida shuhrat qozongan asarlarni qiyosiy o'rganib, ularni bir nuqtada uchrashtiradi : "Hozirgi yoshlar,- yozadi muallif-bolalar adabiyotidagi intellektual qahramonlarni yoqtiradilar. Garri, Germiona, Ron singarilar raqibga qarshi uzoqni o'ylab kurashadilar. Shu nuqtai nazardan Akrom ham yoshlarning sevimli qahramoni.

Rost, badiiy qahramon, yozuvchi mahorati umumjahon adabiyoti bilan yonma-yon o'rganilishi, ulardagi o'zaro ta'sir aloqalarini tadqiq etish umumadabiyotga xos an`analardan. Ammo, bu hodisa hali o'zbek bolalar adabiyotshunosligida ommalashmagan. Shu jihatdan qaraganda, X.To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati yoxud sehrgarlar jangi" va boshqa romanlari haqida ilgari surilgan g'oya juda dolzarb. "Yana bir gapni aytish kerak, - deydi A.Rasulov, - Hoshim, Akromlar kitobxonga tanilib, Evropaga chiqib borganlarida hali Garri Potter yo'q edi. Ehtimol, Hoshim, Akrom singari o't-olov qahramonlar Garrilarning paydo bo'lishida turtki bo'lgandir."

Bunday e'tirofdan faqat xursand bo'lish lozim. Chindan-da, o'zbek bolalar adabiyotining bir asrlik tarixi yo'qlik sari yuz tutmagan. U ham jahon bolalar adabiyoti, umumadabiyot singari fenomen yozuvchilariga ega. Badiiy barkamol asarlar serob. Ularni jiddiy tahlil va tadqiqdan o'tkazishda esa yuqoridagi kabi samimiyat, mehr va e'tibor zarur, xolos. SHu ma'noda, A.Rasulov bolalar adabiyotshunosligidagi juda ham zalvorli adabiy vazifalar, o'rganilmagan muammolarga til tegizadi. "Mungli ko'zlar" romaniga nazar tashlab, uning qahramonlarida etishmagan insof, diyonat, qanoat kabilarga urg'u beradi. SHo'ro mafkurasi soyasida etilgan fojealar girdobi X.To'xtaboyev asarlarida ochib berilgani ayon bo'ladi.

"G'aroyib saltanat" yana shunisi bilan muhimki, unda bolalar adabiyoti xususiyati umumadabiyotdagi eng nodir asarlar mohiyati orqali ochib beriladi. Olim Qirol Lir (V.Shekspir. "Qirol Lir"),

Qoranor(Ch.Aytmatov. "Asrga tatigulik kun"), Oqbo'ri va Toshchaynar ("Qiyomat"), O'rozqul ("Oq kema"); Qovoq devona(A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"), Qiziqlar ("Mehrobdan chayon"); Bobo Kayfiy (M.Shayxzoda. "Mirzo Ulug'bek"), Parcha (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi"); Ibordin (T.Murod. "Otamdan qolgan dalalar") kabi "devonai rostgo'y" timsollarni bolalar adabiyotidagi tiniq ko'zgular deb biladi.

Bu ifodalarni teran idrok orqali qabul qilish, X.To'xtaboev, A.Obidjon ijodi misolida isbotlab berilgan tahlil va tadqiqot usullarini monografik tizimda ham kengqamrovli qo'llash jiddiy e'tiborga loyiq.

Bundan o'n besh yil ilgari zahmatkash olim B.Qosimov o'zbek adabiyotini jahon kontekstida o'rganish masalasini o'rtaga tashlab, shunday degan edi: "Biz milliy adabiyotimizni puxta o'rganish bilan birga, jahon adabiyoti daholarini ham etarlicha bilishimiz lozim. Bugungi adabiyotimiz jahon miqiyosida ravnaq topishi uchun milliy qobig'i ichida o'ralashib qolmasligi kerak. Zamonaviy o'zbek adabiyotining zaiflashib qolishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu chinakam fidoyi o'zbek olimining chaqirig'i edi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligining salobatida shu kabi da'vatlar ta'siri katta bo'ldi. Zero, A.Rasulov bu estafeta tayoqchasini bolalar adabiyotshunosligiga ham berganday, taassurot qoldiradi. Zotan, XXI asr o'zbek bolalar adabiyoti qatlamida ham Q.Hikmat, H.Nazir, N.Fozilov, M.A'zam, X.To'xtaboyev, S.Barnoyev, T.Adashboyev, A.Obidjon singari bolalik

olami ufqiga teran nazar tashlay oladigan ijodkorlar yanada ko'plab etishib chiqishida bugungi bolalar adabiyotshunosligi g'oyat mas'ul.

Umuman, istiqlol davri bolalar she'riyati tadqiqotchisi N.To'xtaeva ta'kidlaganidek, o'tgan asrning saksoninchi yillarida bolalar adabiyotiga dadil kirib kelgan ijodkorlar istiqlol sharofati tufayli erkin ijodiy muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanib, sertuyg'u, mushohadaga boy asarlar yarata boshlaganligi ular ijodida yangicha yondashuvlarga asoslangan shakliy rang-baranglik, bolani favqulodda o'ylantirib, hayot haqida, ijtimoiy munosabatlar borasida fikrlashga majbur etadigan teran mazmun singdirilgani muhim hodisadir .

Darhaqiqat, hozirgi bolalar she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishini ko'plab shoirlar ijodida kuzatish mumkin. Bunga zamin hozirlagan, aniqrog'i, o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran bolalar she'riyatida yuzaga kelgan yangi bir "to'lqin"ni alohida e'tirof qilish o'rinali.

Yetuk bolalar adabiyotshunosi R.Barakayev yozadi: "Ma`naviyatimizdagi tub o'zgarishlar ijodkor oldiga ham ulkan talablarni qo'ydi. Bir paytlarda madh etilgan, ko'kka ko'tarilgan ko'plab mavzularni hayotning o'zi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan o'tdi. Inchunin, 70-80-yillar shu ma'noda uyg'onish, tozarish fasli hamdir. Shu davrda xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi. Ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi".

Istiqlol arafasi davri adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining ayrim jihatlarini o'rganish jarayonè nisbatan jonlangani kuzatiladi. O'tgan asrning 80-90-yillarida bolalar adabiyoti muammolari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan , monografiya va to'plamlar, risolalar chop etilgan . Biroq bu tadqiqotlarning aksariyati sho'ro davri bolalar adabiyoti muammolari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, faqat ayrim tadqiqotlardagina istiqlol davrining dastlabki yillariga oid kuzatishlar mavjudligini qayd etish joiz.

Chunonchi, Q.Qahramonovning "Bolalar adabiyotida realistik printsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli" mavzusidagi dissertatsiyasida adabiy tanqidning bolalar adabiyotida realistik printsiplarning shakllanishidagi o'rni haqida fikr yuritsa, R.Barakaevning "XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" nomli tadqiqotida asr boshidagi adabiy muhit, bolalar adabiyotining vujudga kelishi va shakllanishida Abdulla Avloniy yaratgan asarlarning o'rni masalasi tadqiq etiladi. K.Turdiyevaning "Hozirgi zamon bolalar she'riyatida ma'naviyat masalasi", D.Rajabovning "80-yillar bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari" kabi nomzodlik dissertatsiyalarida o'tgan asr saksoninchi yillari bolalar she'riyatidagi poetik yangilanishlar jarayoni o'rganilsà, B.Ashurovning "Tursunboy Adashboev she'riyati poetikasi", G.Jo'raevaning "O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorati (XX asrning 80-90-yillari materiallari asosida)", H.Nusratovaning "Safar Barnoevning badiiy

mahorati", D.To'rayevaning "Qudrat Hikmatning badiiy mahorati" kabi dissertatsiyalarida muayyan ijodkorning badiiy mahorat va obraz yaratishdagi mahorati masalalari tadqiq etiladi.

Adabiyotshunos olim R. Barakayev ham o'zbek bolalar adabiyotining paydo bo'lishi haqida fikr yuritib, ilm-ma'rifikat va axloq-odob mavzularidagi pandnoma(didaktik) asarlarni bolalar kitobxonligi qatorida tasnif etadi.⁷

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berildi. Jumladan, bolalar she'riyati haqida so'z yuritganda uning mavzu mundargijasi kengqamrovli tus olgani e'tirofga loyiq. Bugungi bolalar she'riyatida kuzatilmagan mavzu deyarli yo'q. ya'ni barcha soha qamrab olinmoqda. Jumladan, ma'rifikatparvarlikka da'vat etuvchi she'rlar alohida yo'nalishni tashkil qilmoqda. Aytaylik, o'zbek bolalar she'riyatida birgina K.Turdiyevaning o'nlab she'rlari bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili ta'limini tushuntirish, qiziqarli o'tishda qo'l keladi. Yoki, T.Adashboyev singari shoirlarning ma'rifiylik aks etgan she'rlari o'qish kitoblariga kiritilgan. Binobarin, shu yo'nalishdagi she'rlar va ularni o'rganish usullari, ahamiyatini monografik tizimda o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

⁷ Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy. T., "Fan", 2004, 22-b.

Foydalanaladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O’zbek bolalar adabiyoti. O’quv qo’llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To’xtayeva N. Istiqlol davri o’zbek bolalar she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

10-MAVZU. BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLORI MUNOSABATLARI

Reja:

1. Folklorizm va janr stilizatsiyasi haqida tushuncha.
2. A.Obidjon ijodida folklorizm. Adabiy allalar va topishmoqlar.
3. Ertak qissa hamda ertak dostonlarning badiiy-janriy xususiyatlari.
4. Sinkretik janrlar taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: *folklorizm, stilizatsiya, janr, adabiy alla, adabiy topishmoq, ertak qissa, ertak-doston, sinkretik janr*

Yozma adabiyotda ijodkorlarning adabiy ertak yaratishi uchun sabab bo’lgan omillardan biri fol’klorga yoshlikdan oila muhitida bo’lgan katta qiziqishdir. Xalq ertak an`analari adabiy ertak janrining shakllanishi va kompozitsion kurilishining asosiy tamoyillari negizini tashkil etibgina qolmay, balki uning g’oyaviy-estetik idealini ham ta`minlashga xizmat qildi. Aytish mumkinki, o’zbek adabiyoti va uning ajralmas bir qismi bo’lgan o’zbek bolalar adabiyoti unga ta’sir ko’rsatgan boshqa omillar bilan bir qatorda

fol'klor ta'sirida ham shakllandi. Ayniqsa, yozma ertakchilik faol rivojlanishga erishdi. Yozuvchi yoki shoirlar o'z ertaklarini xalq ertaklarining syujetini poetik tarzda, ya`ni qanday bo'lsa shunday qayta bayon qilish yo'lidan bormay, bir necha fol'klor asarlari (doston, afsona, rivoyat, naql) syujeti poetik an`analaridan ham ijodiy foydalanib, yangicha shakl va mazmunda yaratdilar. Ularda ertak an`analari ruhi sezilib tursa-da, uni qayta yaratgan yozuvchi yoki shoirning individual uslubi, o'ziga xos mahorati baribir yorqinroq ko'rinish turadi.

Ertakchi yozuvchi va shoirlarga xalq ertaklari ikki xil holatda ta`sir ko'rsatishi mumkin: a) bevosita, ya`ni o'zi yashagan davr voqeliklari tufayli; b) bilvosita, ya`ni o'qigan yoki eshitgan ertagi ta`siri.

Adabiy ertaklar fol'klor bilan yozma adabiyotning, fol'klor janrlari bilan yozma adabiyot janrlarining zamon talablariga mos tushuvchi aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijodkor bilan xalq ruhining mutanosibligini dalillaydi.

Yozma adabiyotda fol'klor janrlarini o'zlashtirib, ular assosida yangi bir asar yaratish o'ziga xos keng tarqalgan ijodiy jarayonlardan biridir. Ba`zan bu holat adabiy ta`sir samarasi sifatida ham izohlanadi. Darhaqiqat, fol'klor hamma davrlarda yozma adabiyot badiiy takomilining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Deylik, ijodkor ertak janri assosida o'zi yashayotgan davr voqeliklarini, axloqiy g'oya va qarashlarni ifodalamoqchi bo'lib, uning shakli va ifoda uslubini yo to'liq, yo qisman o'zgarishlar bilan saqlasa, baribir

u yaratgan asar ertak hisoblanaveradi. Faqatgina u muallifining aniqligi, yozma yaratilganligi inobatga olinib, stilizatsion ertak sifatida qabul qilinadi.

Folklorshunos I.Yormatov stilizatsiya hodisasini ikki: a) o'zini oqlagan modifikatsion stilizatsiya yoëè g'oyaviy-badiiy modifikatsiya; b)soxta modifikatsion stilizatsiya yoki soxta modifikatsiya ko'rinishiäà ajratadi.

Agar "modifikatsiya" so'zi "turlanish", "ko'rinishini o'zgartirish", "o'zgargan shakli" ma'nolarini bildirishini inobatga olsak, olimning fikriga qo'shilish biroz qiyin. Negaki, bunda stilizatsiya qilingan janr (masalan, ertak yo topishmoq) sira turlanmaydi, ko'rinishini o'zgartirmaydi va o'zgargan shakl bo'lib ko'rinxaydi. Demoqchimizki, ertak ertakligicha, topishmoq topishmoqligicha qolaveradi. Sababi, ijodkor ularga xos bo'lgan eng muhim janriy xususiyatni, masalan, ertakni ertak qiladigan xayoliy yo hayotiy uydirma ifodasini, topishmoqni topishmoq qiladigan yashirin nom yoki predmetni aytib, uni topishga da`vat etish jihatini, albatta, saqlab qoladi. Aks holda, u o'z asarini fol'klor janri nomi bilan atashga qancha urinmasin, uning ko'zlaganiday bo'lmaydi. Bunga Mahmud Murodovning bir necha "ertak"larini misol qilish mumkin. Masalan, yozuvchi "Jonli surat" nomli hikoyasini "ertak" deb ko'rsatgan, lekin unda ertak janriga xos belgilar kuzatilmaydi. Ijodkor "jonli surat" birikmasini qo'llash orqali uni ertakka yaqinlashtirmoqchi bo'lgan. Chunki hayotda jonli surat mavjud emas. Hikoyada Qosimjon ismli bolakayni ota-onasi buvisiga

qoldirib bir erga boradigan bo'lishibdi. Ammo u buvisi bilan o'tirganida qo'shnisi buvisini chaqirib qolibdi. Qo'shni kasal bo'lgan ekan. Buvisi Qosimjonni yolg'iz qoldirib, qo'shniga ukol qilishga chiqib ketibdi. Qosimjon aslida aqli, odobli bola ekan. Lekin u yolg'iz qolgach, ko'ngliga kelgan ishni qilmoqchi bo'libdi. Avval u oyisining taqinchoqlari solingan qutichani o'ynamoqchi bo'libdi. Biroq birdan ko'zi buvisining devorda osig'lik turgan rasmiga tushibdi-yu, uyalib ketibdi. Buvisi unga xuddi: "Bo'tam, u narsalarga tegma!" deyotgan mish. Qutichani joyiga qo'yib qo'yibdi. Endi u oshxonaga kirib, murabbo emoqchi bo'libdi. Keyin dadasingning ustarasini o'ynamoqchi bo'libdi. Ammo har gal ko'zi buvisining rasmiga tushib, o'zini tiyibdi. U buvisini xafa qilgisi kelmabdi. SHundan so'ng Qosimjon o'yinchoqlarini o'ynay boshlabdi. Buvisi ham shu orada qaytib kelibdi va nevarasining aqli bo'lib o'tirganidan minnatdor bo'libdi.

Ko'rinyaptiki, hikoyada oddiy hayot voqeligi - Qosimjon ismli bolaning bir muddat uyda yolg'iz, kattalar nazoratisiz qolib, o'zini yaxshi tutganligi bayon qilinmoqda. Suratning gapirishi esa bolaning o'ngida emas, xayolida yuz beradi. Bizningcha, bu matnni ertak emas, hikoya sifatida qabul qilgan ma'qulroq.

Shuningdek, M.Murodovning "Chumchuq" ertagida ota-ona chumchuqlarning o'z polaponlariga mehribonligi, ularni boqib parvarishlari, temirqanot qushlarning asta-sekin mustaqillikka o'rganishi, ammo bir kuni Ahmad ismli yomon bolaning qushlarga qarata ragatka otishi, ragatkaning toshiga to'ng'ich polaponning

ko'ksini qalqon qilib, onasini asrab qolishga intilishi, buning natijasida uning oyog'i sinishi, Rahimjon ismli bolaning polaponni parvarishlab tuzatishi voqealari hikoya qilingan. U qushmi, insomni - ota-onaning o'z bolalariga mehr-muhabbati, fidoyiligi va buning evaziga bolalarning ham ota-onalariga sadoqati, g'amxo'rligi g'oyasi o'ziga xos talqin qilingan bu hikoyada ham ertakka xos belgilar u qadar bo'rtib ko'rinnmaydi. Faqatgina unda polaponning o'zini insonlarday tutishi, ragatka zararini anglab, unga ko'ksini qalqon qilishi va onasini asrab qolishi tasvirida jonlantirish san'atidan foydalanilganligi uni ertakka yaqinlashtirgan. Lekin uni hikoya deb qabul qilsa ham bo'ladi, nazarimizda.

Yana shu adibning "Qanday qilib uylar nomli bo'lib qoldi" ertagida Tohir, SHokir, Zokir, Zoir, Mohir ismli besh aka-uka onasining iltimosiga ko'ra, galma-gal qishloqdagi tog'asidan xabar olib qaytishadi. Dastlab tog'asi yashaydigan qishloq juda ko'rimsiz bo'ladi, ammo yildan-yilga u obodonlashib, tanimaydigan ko'rinish aks etadi. Buning natijasida uning "CHangtepa" degan eski nomi "Gultepa" degan yangi nomga almashtiriladi. Ko'cha va hovlilarga nom beriladi. Ko'rinyaptiki, bu hikoyani ham ertak sanash qiyin, chunki uning syujetida ertaklarga xos na xayoliy, na hayotiy uydirma talqini mavjud.

Stilizatsion ertaklarda transformatsion jarayonlar shaklidan ko'ra ko'proq ularning obrazlar va motivlar tarkibida kuzatiladi.

Bu jihatdan ertaklar stilizatsiyasi asosida she'riy, nasriy, hatto dramatik turda yaratilgan yozma ertaklað borligi ma'lum.

Adabiyotshunosligimizda she`riy ertaklar xususiyatlari birmuncha tadqiq qilingan, ammo nasriy va dramatik ertaklar tabiatini hali etarli o'rganilmagan.

Shunisi borki, yozma ijodda ertak stilizatsiyasi xalq ertaklariga xos ijtimoiy-estetik mohiyatni yanadà chuqurlashtirganini inkor qilish qiyin. SHuningdek, ularning badiiy vazifalari va roli ham ortgani kuzatiladi. Mana shu tufayli adabiyotimizda uning bir turi bo'lgan nasriy ertaklarni maxsus tadqiq qilish ehtiyoj va zaruriyatga aylandi.

Ertak janri stilizatsiyasi uchun ertak shakli (bosylanmasi va tugallanmasi) va ifoda uslubi (xayoliy yo hayotiy uydirma), mifologik obraz (Xizr, sehrgar chol yo kampir, uchar ot, oltin shoxli kiyik, dev, ajdar, jin, pari), tilsim predmetlar (qaynar xumcha, sehrli oyna, sehrli kitob kabi) va motivlari (evrilish, tush, sinov, shart qo'yish, safar singari) vazifalari imkon qadar saqlanib, mazmun o'zgartiriladi.

H.Olimjon, P.Mo'min, Q.Muhammadiy, Z.Diyor, M.A'zam, Q.O'taev she`riy, T.G'oyibov va M.Murodovlar esa ko'pincha nasriy ertaklarni stilizatsiya qilishgan bo'lsa, topishmoq stilizatsiyasida K.Turdieva, N.Ýrmat faolligi ko'zga tashlanadi. P.Mo'min, Q.Muhammadiy, Z.Diyorlar esa har ikkala janr stilizatsiyasida o'ziga xos faollik ko'rsatishgan.

I.Yormatov stilizatsion fol'klorizmlarni ikki xil ko'rinishda tasniflaydi:

1. Progressiv (ijobiy xarakterdagi) stilizatsiya. Bunda ijodkor fol'klor janri, motivi yoki obraziga ijodiy va erkin yondashib, uni to'liq qayta ishlaydi. SHu asosda ma'lum bir fol'klor asari mazmunini rivojlantirib, badiiy qurilishini, obrazlar tarkibini boyitishga erishadi.

2. Regressiv (salbiy xarakterdagi) stilizatsiya. Bunda ijodkor fol'klor materialini shaklan kengaytiradi va uning g'oyasini ham aynan saqlaydi, o'z g'oyalarini qo'shmaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida fol'klorizmlar tadqiqotchilaridan biri bo'lgan L.Sharipova fikricha, ijodkor o'zi tanlagan xalq ertagi syujetini xohishiga qarab, yo ertak, yo doston shaklida qayta ishlashè mumkin.

Yozma adabiyotda doston, ertak, naql, afsona, rivoyat, qo'shiq, yor-yor, yig'i-yo'qlov (marsiya), alla, topishmoq, tez aytish, hukmlagich, erkalamaga singari fol'kloring qator janrlari stilizatsiyasi kuzatiladi.

Ertaklar epik tur sifatida ko'pincha nasriy bayonga asoslanadi. Shuning uchun xalq ertaklariga nasriy ertak sifatida ijodiy yondashilsa, ularga xos epik bayon uslubi yo'qolib ketmaydi. SHe'riy (poema) hamda dramatik ertaklarda esa yo'qoladi. Shunday ekan, bu haqda bizgacha o'z mulohazalarini bayon etgan fol'klorshunos I.Yormatov aytgandek, stilizatsiya jarayonida yozuvchi fol'klorga xos rivoyaviy bayon uslubini o'zgartirmasligi har doim lozim bo'lavermaydi. Yana u ta'kidlaganidek, muallif har doim ham hikoyachi sifatidagina ko'zga tashlanmaydi. Xususan, she'riy va dramatik ertaklar stilizatsiyasida buning iloji yo'q. Chunki she'riy

ertaklarda voqelik ijodkorning lirik kechinmalari asosida lirik talqin qilinsa, dramatik ertaklarda voqelik ikki personaj dialogi asosida yuzaga chiqariladi.

Masalan, M.Murodovning "Rahmat senga, Karimjon" nomli kichik bir ertagi bor. Unda dangasa, landavur Xoliqjon obraziga uddaburon, ishbilarmon Karimjon obrazi zid keltirilgan. Ertakda bu g'oya "bolta" obrazining jonlantirilishi orqali ochib berilgan. Egasi ishlatmay, zanglatib yuborgan Boltachà uyidan qochib ketadi. Uni ustachilikni yaxshi o'zlashtirgan Karimjon topib oladi va ishlatadi. Karimjon tufayli ko'pgina narsalarni o'rganib olgan Boltacha unga minnatdlorchilik izhor qiladi. Ushbu matnni ertak deb qarashga birgina asos - boltaning jonlantirilishidir. Bo'lmasa, uning oddiy hikoyadan farqi bo'lmasdi. Boltaning oyoq chiqarib uydan qochib ketishi va Karimjonga ustachilikni o'rgatgani uchun insonlardek tilga kirib "rahmat" aytishi matnga ertakona ruh bag'ishlagan. SHunga ko'ra, unda ertak stilizatsiyasi qisman sodir etilgan, deyish mumkin.

XX asrga kelib, folklor va yozma adabiyot munosbatining yangi pog'onaga ko'tarilganligi bolalar adabiyotida xalq ertak, alla, topishmoqlarining ma'lum yozuvchi va shoirlar tomonidan zamonaga moslab qayta ishlanishi, ya`ni stilizatsiya qilinishida ham namoyon bo'ldi. SHu tariqa fol'klorga aloqador bu janrlar yozma adabiy janrlarga ham aylantirilib, shaklan va mazmunan zamonaviylashtirilgan bolalarbop ertak, topishmoq va allalarning muallifli matnlari paydo bo'ldi.

Kattalar adabiyotidan ko'ra bolalar adabiyotida fol'klor janrlari, obraz va motivlariga murojaat yanada ko'proq kuzatiladi. Xususan, bolalar fol'kloriga aloqador alla, erkalamaga, hukmlagich, shuningdek, ham kattalar, ham bolalar fol'kloriga tegishli ertak, topishmoq, tez aytish singari janrlarning shakli, ifoda uslubi, obraz va motivlariga ayrim ijodkorlar qayta ishlov berishi natijasida stilizatsion fol'klorizm ko'rinishlari paydo bo'ladi.

Adabiyotshunos S. Mamajonov yozganidek: "Xalq ijodi yozuvchilar uchun xalq tarixini, kurashini, uning maqsad va ideallarini, ruhi, ongi, psixologiyasi va xarakterini, uning boy tilini o'rganish manbai bo'lmoqda; xalq bilan, hayot va zamon bilan uzviy bog'lanishda ma'lum ma'noda g'oyaviy-estetik ko'priklardan biri bo'lib xizmat etmoqda". Darhaqiqat, fol'klor ta'sirida o'zbek bolalar adabiyoti yanada mazmunan teranlashib, janriy jihatdan boyib, hayotiy ta'sirchanligi ortib bormoqda. Bu jarayonni chuqur va har taraflama o'rganish esa uning kamolot ufqlarini aniqlash uchun muhim hisoblanadi.

Fol'klor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlarining chuqurlashish jarayoni ikki tomonlama yuz bergan:

1. Bolalar uchun ijod etish an'anasi hali yozuv bo'limgan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalar, ovutmachoqlar, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlar, tez aytishlar, taqvimiylar va maishiy qo'shiqlar, butun bir tizim tarzida namoyon bo'luvchi o'yinlar shakllarida fol'klor bag'rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi

aqidalariga to'yintirilgan qadimiy an'ana bo'lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta'minlagan omil bo'ldi. Bu fol'klor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

2. Fol'klor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida fol'klorizmlarning xilma-xil ko'rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining milliyligini, xalqchillashuvini, g'oyaviy-badiiy barkamollahuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta'minladi. SHu tariqa o'zbek bolalar adabiyoti ham fol'klorga tayangan holda shakllanib, badiiy takomillashib bordi. Bunda o'zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to'plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, fol'klordagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, ikki yo'nalishda faoliyat yuritdilar:

Birinchi yo'nalish - fol'klor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolar)ni bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib, qayta ishslash yoki tadbil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti - asarning xalqchil ruhiga putur etkazmagan holda g'oyaviy-badiiy barkamolligini ta'minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi.

Ikkinci yo'nalish - fol'klor syujetlari asosida she'riy, nasriy va dramatik asarlar ijod etish yoki stilizatsiya xarakteridagi fol'klorizmlarni yaratish. Bu yo'nalish barcha xalqlar bolalar adabiyotlari ravnaqida etakchi omillardan hisoblanadi.

Fol'klorshunos B.Sarimsoqov stilizatsiya xarakteridagi fol'klorizmlarni ikkiga bo'ladi:

1. Ijobiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan fol'klorizmlar. Bu tipdagi fol'klorizmlar, asosan, fol'klor materiallarining ham g'oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga tayangan holda ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga keladi. Fol'klor asarlaridagi o'lmas g'oyalarni xalq ommasiga yanada kengroq yoyish, ular orqali xalqning axloqiy, estetik talablarini to'laroq qondirish ehtiyoji, ijodkorning shaxsiy mayli va uslubi talablari asosida ijobiy xarakterdagi stilizatsiya fol'klorizmlari yaratiladi.¹ Bu sohada jahon bolalar adabiyotining ilg'or namoyandalari ijodiy tajribalaridan o'rganish ham o'zbek bolalar yozuvchilari uchun o'ziga xos mакtab vazifasini bajardi.

Tez aytishlar bolalar fol'klorida ma`naviy o'yin turlaridan biri bo'lib, kichkintoylar adabiyotida ko'p stilizatsiya qilingan janrlardan hisoblanadi. Sababi shuki, bolalar nutqini o'stirishda, tilida talaffuz bilan bog'liq kamchiliklar, duduqlanish holatlari bo'lsa, ularni to'g'rilash va bartaraf qilishda, aqliy o'tkirlik va sezgirlikni tarbiyalashda tez aytish o'yinining ahamiyati katta. Xuddi shu ma`noda ulardan o'qituvchilar dars jarayonida ham foydalananib kelayotganlarini alohida ta'kidlash joiz. Aslida azaldan mana shunday tarbiyaviy maqsadlarda xalq orasida ko'plab tez aytishlar yaratilgan. Bu jarayon yozma ijodga ham ko'chgan. O'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib bu borada faoliyat yuritgan shoir Quddus Muhammadiy bo'lib, u tilni burro qiluvchi xalq tez

aytishlarining shakli va ritmidan ijodiy foydalanib, adabiy tez aytish janrini stilizatsiya asosida shakllantirdi. SHoir o'zining gullar badiiy tavsifiga bag'ishlangan "Urto'qmoqgul" she'riy tez aytishida bolalarga shu nomdagi gulni tanishtirishdan tashqari, uning nomidagi "R", "L", "Q" tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishni ko'zda tutgan. CHunki yosh bolalar ko'pincha bu tovushlarni, yana shunga o'xshash sh, ch, s, g' kabi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchilik sezib, gohida kulgiga ham qolishadi. "SHoir shu holatni chuqur his etganidan bu tovushlar faol qatnashadigan "urto'qmoqgul" so'zlariga ohangdoshlik hosil qiladigan so'z va iboralardan foydalanib, ritorik so'roq va poetik inkor san`atlari vositasida she'riy tez aytishning ravon va o'ynoqi namunasini to'qigan".

O.Safarov tomonidan "Urto'qmoqgul" she'riy topishmog'ida "R" tovushi 13, "L" tovushi 27, "Q" tovushi 38 marta qo'llangani aniqlangan.

Shoir Sobit G'afurov ham topishmoq va tez aytishlar bolalarining aqlini peshlab, tillarini burro qilishda munosib ko'makchi bo'lishini inobatga olib, kichkintoylarga bag'ishlab shu janrdagi asarlarni yaratgan. Xususan, shoir Nabijon Ýrmat o'nlab tez aytish va topishmoq kitoblari bilan yanada shuhrat qozongan. U o'zining yuzta tez aytishini o'zbek alifbosidagi barcha harflar asosida yaratgan. Masalan: "Asal ammam azonda Asliddinni allalab alla aytdi", "Buvi buvaga bugundan boshlab buzoq boqishni buyurdi", "Vaqqosning viz-vizagi viz-vizlab vizilladi", "Gulshodaning

gulzoridagi gullarning gulg'unchasi gurkirab gulladi", "Dadamatning dehqonchilik daromadi Davronbekning dehqonchilik daromadidan durustroq", "Etti-etti, etmish etti, ettimning emishi etdi", "Yorkentlik Yovqoch yoshligidan, yolg'iz yovg'onsho'rvani yoqtirardi", "Jikkak jiblajibon jiyydazordagi jonsarak jajji jo'jalarga jik-jiklardi", "Zafar Zarifning zardali Zarbasini zaruratdan zo'rg'a zaiflashtirdi", "Ishbilarmon ishbaychi istar-istamas ishshayib ishlardi", "Yilqiboqar Yigitalining yilqilari Yo'ldoshali yilqilaridan yiroqlashmoqda", "Ko'klamda ko'kargan ko'm-ko'k ko'katlar kech kuzgacha ko'rksamligini ko'rsatdi", "Lalmizordagi lolarang lolaqizg'aldoqlar lolalardek lov-lovlanardi", "Manzuraning mahorat mavzusidagi manzumasi mazmunli", "Nizomjon nayzabozlikda namunali natijani nishonladi", "Obiddin olmazorlarini obdon obodonlashtirib obro' oldi", "Pirnazar puchuqning po'pisali pisandasini Pirnafas puchuq payqamadi", "Rassomning rangtasviridagi rasmlari rosmana rangli rasmlardir", "Sakkiz sada salqinida sakson sakkiz suluv saman salqinlamoqda", "Toshtemir toshtarosh toshloqdagi toshlar to'dasidan taroshlangan tosh topdi", "Ustoz Ulug'murod ustaning usuli ustaxonadagi ustaning usulidan ustunroq", "Faxriy faxriylar farovonlikdan faxrlanib farog'atlandilar", "Xolmo'minning xohishini Xolxo'ja xohlamaadi", "CHustlik CHori, CHaqchamlik CHoridan chang cholg'usini chaqqonroq chaldi", "SHavkat shom shabadasida shabnamga shaydo", "Etikdo'z erkatoylarning etikchalarini e'tirozsiz epaqlashtirdi", "Yuk yuklovchi yuklarni yuqori yukxonaga yukladi", "Yamin yaylovda yaltiragan yaxga yaqinlashdi", "O'tov o'rtasida

o'tirgan o'ttiz o'rtoq o'rtasidan o'qilon o'tdi", "Qizil qo'ng'iz qo'ng'ir qo'ng'iz qarorgohida qarindoshlardek qo'noqladi", G'ala-g'ovur g'alayon G'ulomni g'amginlatdi", "Hazil-huzulli hamsuhbat hamisha huzurlidir" shular jumlasidandir.

Tez aytish boladan takror-takror o'rin almashinib keladigan tovushlardan iborat so'z va birikmalar asosida tuzilgan matnni teztez, aniq artikulyatsiya bilan ravon ritmda, nutq organlarini tez va to'g'ri harakatlantirgan holda talaffuz qilishni talab qiladi. Bu o'ziga xos qiyin talab va sinovdir. SHuning uchuí bu kabi matnlar "tez aytishlar" nomini olgan.

Boshida qiyin tuyulgan tez aytishlar bir necha marta takrorlanganidan so'ng to'g'ri aytila boshlanadi. Tez aytishda, ayniqsa, tovushlarning talaffuzi to'g'ri va aniq bo'lishiga ahamiyat beriladi.

Nabijon Ermat qalamiga mansub tez aytishlar, asosan, yoyiq sodda gap tuzilishida yaratilgan. Ular ko'pincha darak gap shaklida uchraydi. Masalan: "Darbadar darveshlar dunyoning dardidan dardlashdilar". Bu tez aytish matnida "darveshlar" ega, "gaplashdilar" kesim bo'lib, predikatni tashkil qilgan. "Darbadar" sifati ega uchun sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan. "Dunyoning" so'zini ifodalagan ot qaratqich kelishigini olib, gapda chiqish kelishigidagi ot bilan ifodalanib kelgan vositali to'ldiruvchi "dardidan" so'ziga qaratqich aniqlovchi bo'lган. Shuning natijasida fikr yoyiq sodda gap ko'rinishida ifoda etilgan.

Ijodkor yaratgan quyidagi tez aytishlar qo'shma gap ko'rinishidadir: "Jo'ra jo'rga jo'r bo'ldi, jo'r Jo'raga jo'r bo'ldi", "Ilmlilarning ilmliligi ilmdan, ilmsizlarning ilmsizligi ilm istamaslikdan". Bu tez aytishlar bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap shaklida shakllantirilgan.

Nabijon Ermatning ritorik so'roq gap yoki undov ohangli so'roq gap shaklida yaratilgan tez aytishlari ham bor: "Gadoy garangga gangur-gungur gapirdimi, garang gadoyga gungur-gungur gapirdimi?", "Irillagan it irg'ishlaydimi, irg'ishlagan it irillaydimi?!" kabi.

Shuningdek, ijodkor N.Ermatning she'riy ko'rinishda ham tez aytishlari mavjud:

Nurda durlar nurlandimi?

Nurlar durda nurlandimi?

Bunday ikkilik ko'rinishidagi she'riy tez aytish Zuhro Hasanova ijodida ham uchraydi:

Piyolali ey bola,

Piyolang gul lola.

Tez aytishlarda kishilarga atab qo'yiladigan ismlar, ya'ni antroponiqlarga juda keng o'rin berilishi ularga xos muhim belgilardan biridir. Ularda ba'zan bitta, ba'zan ikkita, ba'zan uyushiq bo'lak ko'rinishida bir necha antroponim keltirilishiga guvoh bo'lish mumkin. Bunday xususiyat Nabijon Ýrmat tez aytishlariga ham xosdir. SHoir tez aytishlarini bu jihatdan uchga ajratish mumkin: Bir antroponiqli tez aytishlar: Pastqam pastlik pastida Parpiqo'zi po'stloq parchalarini pachaqladi.

Ikki antroponimli tez aytishlar: Kirakash Karim ko'm-ko'k ko'katlarni Komiljon kirakashdan ko'ra ko'p ko'tardi.

Ko'p antroponimli tez aytishlar: Fuzuliy, Furqat, Fitrat, Farobiylar fanda fozil, faqat foniylar.

Kishilarning kasb-koriga alohida urg'u qaratiladi. Masalan, "Zarif zargar zardo'z Zafarning zangor zanjirini zulfladi", "Chegachi choynak chetining chegaralarini chegaladi" kabi tez aytishlarda keltirilgan zargar, zardo'z, chegachi singari professionalizmlar bu jihatdan diqqatni tortadi.

Shoir N.Ermatning ayrim tez aytishlari shaklan ixchamligi, mazmunan purhikmatligi jihatidan maqollarni yodga soladi. "Ýryigit elga ellashur", "Tig'ning tig'idan tilning tig'i tig'liroq", "Xasis xilvatda xasislikdan xastalandi", "Yovuz yovning yovqarashi, yolg'iz yovning yovqarashidan yovuz", "G'urbatda g'arib g'amgindir, g'amginlik g'aribga g'urbatdir" kabilar shular jumlasidan bo'lib, ular alliteratsiya (bir xil tovushlar takrori)ga asoslanib yaratilganligi uchun tez aytishlar deb ko'rsatilmoqda.

Shoir tez aytishlarining ayrim namunalari bevosita bolalarning tevarak-atrof, mavjudotlar haqidagi bilimini kengaytirish maqsadida yaratilganligi seziladi. "O'rgimchaksimon o'rgimchakkana o'rdakburunlar o'ljasidir" tez aytishini bunga misol qilish mumkin.

Biroq, bizningcha, shoir N.Ýrmatning "ng" hamda "''" tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlar asosida yaratgan tez aytishlarini shu janr talablariga to'liq mos tushadi, deyish qiyin.

Agar N.Ermat tez aytishlari, odatda, bir xil tovushlar takroriga asoslanib yaratilgan bo'lsa, M.Hamidova tez aytishlari orasida shunday namunalardan tashqari, har xil tovushlar takroriga asoslanganlari kam bo'lsa-da, uchraydi:

Jur`at Tal`atdan jur`atlimi?

Tal`at Jur`atdan talantlimi?

Umuman aytganda, bolaga estetik zavq bag'ishlab, fikrlash doirasi kengayishiga, qobiliyatiyu xotirasi, sezgisi va nutqi o'sishiga foyda beradigan tez aytishlar nafaqat fol'klorda, balki yozma adabiyotda haì o'z o'rniغا ega. Ularning stilizatsiyasi tez aytishlarga xos xalqona ifoda uslubini yanada boyitmoqda, deyish mumkin.

Bolalar adabiyotida bolalar fol'klorining eng keng tarqalgan janrlaridan biri allaning stilizatsiyasi haì ancha kuchli. Saida Zunnunova tomonidan stilizatsiya qilingan quyidagi allada har to'rtlik banddan so'ng xalq allalari kabi refren ko'rinishidagi "Uxla, yulduzim, alla" yoki "Uxla, qunduzim, alla" satri saqlangan.

Oyni olib beraymi?

Gullar terib kelaymi?

Atrofingda o'rgilib,

Shamol bo'lib elaymi?

Uxla, yulduzim, alla.

Oyning shu'lasi suvda,

Hamma narsa uyquda.

Mehrim tovlanib ketib,

She`r yozgim kelar juda.

Uxla, kunduzum, alla.

Allalar, odatda, ayollar repertuarida uchraydi va bolani uxlatish uchun onalar yoki buvilar, ba`zan otalar, opa yo akalar tomonidan kuyylanadi. Demak, allalarni erkaklar ham aytishi mumkin. Bunday allalar haqida birinchi bo'lib G'ozi Olim Yunusov 1926 yilda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalidagi maqolasi orqali ma'lumot bergen hamda ularning xalq orasida "huyyalar" deb yuritilishini bildirib o'tgan.

Oydin Hojieva "Alla" nomli she'rini "Xalq ohangida" degan yozuv bilan maxsus ajratib ko'rsatgan. Darhaqiqat, she'r xalq allalari ohangida yaratilgan. Unda bola "ikki ko'zning aymog'i", "yurakning qaymog'i", "xudo bergen chiroq", "kaklikchaday sayroqi", "ro'moldagi tumor", "qizil gulning payvandi", "bog'dagi qirmizi lola", "kissadagi mayiz", "yangi chiqqan oy", "ipakdan mayin" kabi xalqona sifatlashlar bilan erkalangan. Uning beshagini qo'sh farishta qo'riqlashi istagi izhor qilingan. Xususan, 5 band, 25 misradan tashkil topgan ushbu alla matnining oxirgi beshligidagi quyidagi misralar bevosita olqishlarga yo'g'rilgan xalq erkalamalaridan hech bir o'zgarishsiz olinganligi bilan e'tiborni tortadi:

Kadining bog'i uzilsin-o, ko'royin,
Kelincha bo'lib suzilsin-o, ko'royin.

Yana shuni aytish kerakki, she'rning ilk beshligida "alla" takrori birinchi, ikkinchi va beshinchi, so'ngðà har beshlikning oxirgi misrasida keltirilgan bo'lsa, "alla-yo" takrori ilk beshlikning hamda har beshlikning to'rtinchi misrasi yakunida keltirilgan.

Qizig'i shundaki, alla janri stilizatsiyasi nafaqat ayol, balki erkak shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Masalan, Zafar Diyorning "Ona allasi" qo'shig'i ham bunga misoldir. Yana Safo Ochil qalamiga mansub alla matni ham bor. Bu alla uchta to'rtlik banddan (jami 12 misradan) iborat bo'lib, ushbu bandlarni bir-biriga ikkilik ko'rinishidagi quyidagi refren hech o'zgarishsiz takrorlanib o'zaro bog'lab kelgan:

"Ayni kechki palla-yo,
Qo'g'irchog'im alla-yo".

Biroq Sadriddin Salim Buxoriy ijodiy merosida uchraydigan "Sitorabonu allasi" nomli she`rda "allayo-all" takrori har bir satr oxirida takroran keltirilgan:

Tashqarida uvillar shamol, allayo-all. = 14
Yo'ling bo'lsin doim bezavol, allayo-all. = 14
Beshigingning tumori hilol, allayo-all. = 14
Yillar o'tib etasan safar, allayo-all, = 14
Dunyoda ko'p ekan xavf-xatar, allayo-all, = 14
Dunyoda ko'p o'q-yoy va xanjar, allayo-all. = 14
Na sipoh bo'l o'g'lim, na podshoh, allayo-all, = 14
Na jahongir va na bir askar, allayo-all, = 14
Men tunu kun etaman duo, allayo-all, = 14
Xalq dardidan bo'lgil boxabar, allayo-all. = 14
SHunda senga kor etmas xanjar, allayo-all, = 14
Sendan yiroq bo'lsin xavf-xatar allayo-all. = 14

Ushbu alla ham xalq allalari kabi olqish ruhida yaratilgan bo'lib, sarlavhasidan u go'yo qiz bola Sitorabonuga bag'ishlanganday, ammo matn bilan tanishgach, uning Sitorabonu tomonidan o'g'liga kuylanayotgani anglashiladi.

Ma'lumki, qiz bolalar o'yin faoliyatida qo'g'irchoq o'ynash va ularga alla aytish holati ko'p kuzatiladi. Shu holatni e'tiborga olib, ba'zi bolalar shoirlari inson, ayiq siymolaridagi qo'g'irchoqlarga aytildigan alla matnlarini yaratgan. Bunga bolalar shoiri Nabijon Ýrmatning "Ayiqbeka allasi" she`rini misol keltirish mumkin:

Archazor adirlarda,
Aylanib adashmangiz.
Adangizni ardoqlang,
Ayangizni ayangiz.
Ayiqchalarim, alla-yo alla!
Asalllarning asillari,
Archazorda aslida.
Ayiqvoylar azaldan,
Ah, asalga asir-da.
Azizlarim , alla-yo alla.

Har bir so'zi "a" harfi bilan boshlangan jumlalardan tarkib topgan hamda to'rtta besh misralik banddan iborat yigirma satrlik ushbu allada bolalarga ayiqlarning archazor o'rmonlarda yashashi, asalni juda yoqtirishi haqida alohida tushuncha berib o'tilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, barcha "Alla" sarlavhali she`rlarda alla so'zining takrori uchrayvermaydi. Ularning sarlavhasi va

uxlatishga qaratilgan mazmunidangina alla matni ekanligini anglash mumkin. Bunga H.Imomberdievning "Alla" she`ri misol bo`la oladi:

- Uxla, Olabo`ji-voy,
Ko`rsatgan qorasini. -
Odam shunday qo`rqtib,
Uxlatar bolasini.

Bolalar fol'klori va adabiyoti bo'yicha taniqli olim O.Safarovning bolalarga atalgan she`ru ertaklari ham mavjud bo'lib, ular orasida xalqning kichkintoylarni erkalash maqsadida yaratilgan qo'shiqlari ta`sirida yaratilgan "erkalama" she`rlari alohida turkumni tashkil qilgan. Ularning birida shunday satrlar keltirilgan:

Voy, bu zebo qizchaning,
Ko'zi shahlo qizchaning,
Ismi-chi? Ra`no ekan!
Ra`no - purma`no ekan...
SHu qizcha o'ssin yayrab,
Baxtidan qo'shiq kuylab.
Ýliga aziz bo'lsin,
Qalbida mehr kulsin.

Erkalamalar uslubida yaratilgan ushbu she`rda bola (qizcha) zebo, ko'zi shahlo, xushro'y, navnihol, so'zi asal, o'zi g'azal singari go'zal sifatlashlar bilan erkalangan. Uning kejakda baxtli-saodatli, mehr-oqibatli bo'lishi uchun olqish aytilgan.

Quyida bolalar fol'kloriga mansub "Laylak kelsa - yoz bo'lur" hukmlagichining Safo Ochil tomonidan "Laylak kelsa..." she`ri ko'rinishida stilizatsiya qilingani kuzatiladi:

Laylak kelsa,

Yoz bo'ladi.

CHo'milishga

Soz bo'ladi.

Quddus Mukhammadiyning "Kim chopag'onu, kim polvon?", "Oq terakmi, ko'k terak", "Oq sholi-ko'k sholi" o'yinlari aytimlaridan analitik fol'klorizm sifatida foydalangani ham alohida e'tiborga sazovordir.

Anvar Obidjon to'y marosimiga aloqador "kelinsalom" va "kuyovsalom" qo'shiqlari asosida bolalar tilidan turli jonzotlarga qaratilgan "Salomnomalar" yaratgani ham o'ziga xoslik kasb etgan. O'ttiz misradan iborat bu she'r 15 bayt (15 ikkilik)dan iborat. U qo'r quoqlarning qo'r qog'i g'ilay Quyonga, yaqin o'rtog'i yo'q sho'rlik Chayonga salom bilan boshlangan. Shundan so'ng

Shoxdan shoxga yugurgan, dumida uy supurgan, yong'oq chaqib tupurgan sho'x Olmaxonga, chidamli Mushukvoyga, teshikka pishloq sudrovchi olg'ir Sichqonga, igna-bigiz sotuvchi, ilon poylab yotuvchè Tipratikonga salom qaratilgan.

Ko'r nadiki, shoir ichki qofiya asosida har bir jonivorning xarakter-xususiyati, tashqi ko'rinishi haqidà fikr yuritgan. U bo'g'ma ilonga qaratilgan salomda, bu jonivorning arg'amchidek buralishini, yantoqlarga o'ralishini alohida tasvirlaydi.

Shoir e'tiboridan ho'kizlarni yiqitgan, Qashqirlarni qo'rqtgan, bor jonzotni hurkitgan shoh Arslon ham chetda qolmaydi. U yana ho'tikchaning qondoshi, ochlikka zo'r bardoshi, kamroq bo'lsa ham oshi, erkin Qulonga, xumbosh hamda xirqiroq, oziq tishi oshpichoq, ochko'zligi sal chatoq, xasis Qobonga ham salom yo'llaydi.

Shuni anglash mumkinki, shoir "salomnoma"sida ko'pincha yirtqich jonivorlar satira kulgisi bilan yo'qlanadi:

Nafsi o'lja tilagan, qo'lin qonga bulagan,
Asta mo'ylov silagan pismiq Sirtlonga salom.
Meshkay qorni qovoqdir, burni tappak tovoqdir,
Ikki lunji lavoqdir, go'l Karkidonga salom.
O'g'rilarning ustasi, qushning xunuk tusdasi,
Ko'rib qo'ying nusxasin, sur Zag'izg'onga salom.
Bebahodir po'stini, poylar hatto do'stini,
Sipo demang siz uni, ayyor Qoplonga salom.
Shoir beozor, ijobiy xususiyatli jonivorlar haqida esa simpatiya bilan kuylagan:

Bulbul kabi izillar, tog'-toshlarda g'izillar,
Yirtqichlardan bezillar, do'stim Jayronga salom.
Rizqin mag'rur izlagan, yuksaklarni ko'zlagan,
Dushmanlarin tuzlagan botir Tarlonga salom.
Guldor to'ni kelishgan, qurtlarni eb to'lishgan,
Daraxtlarda in teshgan Qizilishtonga salom.

Xullas, o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos alla, kelinsalom, erkalamaga, hukmlagich, tez aytish, ertak, topishmoq singari qator

janrlar bolalar adabiyotida keng stilizatsiya qilib kelinayotganligi kuzatiladi. Ularning badiiy shakli va ifoda uslubi, obraz va motivlaridan har bir ijodkor individual tarzda o'ziga xos mahorat bilan foydalanishgan.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Jamilova B. Bolalar adabiyotida poetic tafakkurning yangilanishi. T., 2022.
4. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari. Dis.avtoref. T., 2019.

11-MAVZU. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA ADABIY ALOQALAR TA'SIRI

Reja:

1. Jahon bolalar adabiyoti an'analari.
2. Bolalar adabiyotida motiv va sujet yangilanishida novatorlik.
3. Ilmiy-fantastik, detektiv asarlar takomilida adabiy ta'sir aloqalar ta'siri.

Tayanch tushunchalar: motiv, sujet, novatorlik, adabiy ta'sir, fentezi,

S.Y.Marshak bolalarning zabardast shoiri bo'lish bilan birga "kichkintoylar uchun katta adabiyot" yaratish yo'lida ham alohida jonbozlik ko'rsatdi. Ustozi M.Gorkiy an'analariga sodiq qolib, bolalar uchun yoza boshlagan iste'dodlarni tarbiyalashga alohida g'amxo'rlik qildi. Ayni chog'da bolalar adabiyotining nazariy asoslarini ishlab chiqishda, bolalar adabiyoti sohasida tanqidchilikni kuchaytirishda g'ayrat ko'rsatib izlandi va salmoqli natijalarga

erishdi. Bu jihatdan uning 1934-yilda yozuvchilarning birinchi s'ezdida bolalar adabiyoti haqida, so'ngra bolalar adabiyoti masalalariga bag'ishlanib 1936 yil yanvarida o'tkazilgan kengashdagi "Bolalarning katta adabiyoti uchun" va dekabrida o'tkazilgan ikkinchi kengashdagi "Bolalarga yozish huquqingiz uchun faxrlaningiz!" kabi nutqlarida va "So'z vositasida tarbiyalash" kitobidan joy olgan qator maqolalarida bolalar adabiyotiga daxldor nazariy asoslardan bahs yuritdi. Ijod ahlini bolalar uchun haqiqiy san'at namunasi darajasidagi yuksak g'oyaviy-badiiy saviyadagi asarlar yozishga da'vat etdi. Marshak uchun bolalar kitobida mayda-chuyda narsaning o'zi yo'qligi, kitobxon yosh jihatidan qancha kichik bo'lsa, unga atalgan kitobga nisbatan talabni ham shu qadar kuchaytirar edi. U bolalar kitobini ham mazmun, ham til, ham kitobatchiligi, ham shakli, ham chopi sifatini yaxlit holda ko'rар, unda "ishlamaydigan yoki nursiz so'zlarni, tamg'alarni, ta'qiq fikr va o'tkinchi hissiyotlarni" xush ko'rmasdi. Uning fikricha, bolalar adabiyotining asosiy vazifasi bolani har tomonlama chiniqqan, jasur va mustaqil fikrlay biladigan komil inson qilib tarbiyalashdan iborat. Bu – g'oyat murakkab vazifa. Uni butun murakkabligi bilan, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-estetik mohiyati bilan his etish har bir bolalar yozuvchisi, shoiri, dramaturgi, rassomi, noshirining mushtarak muqaddas burchi. "Bolalar ijodkorlari uchun-romannavismi yoki rasmlar tagiga yoziladigan she'rlar muallifimi, kim bo'lishimizdan qat'iy nazar, shunchaki yengil ishning o'zi yo'q", -deb e'tirof etgandi Marshak. Ayni chog'da u bolalar yozuvchilariga "tayyor pedagogik

aqidalarni foyda evaziga xarakterga aylantiruvchilar” qabilida mensimay qarovchilarni keskin tanqid qilgan edi. ZOTAN, uning tushunchasicha, bolalar yozuvchisi bolalar bilan san’at tilida so’zlashib, tarbiyaning murakkab vazifalarini shu til vositasida amalga oshirishni chin maqsad qilib olgan tom ma’nodagi haqiqiy so’z san’atkoridir. Binobarin, bolalar uchun ijod qiluvchilarga past nazar bilan qarash-jamiyatning kelajagiga past nazar bilan qarashga olib keladi. Shu sabali bolalar uchun yozadigan iste’dodlarni alohida e’tibor bilan tarbiyalash, ularga g’amxo’rlik ko’rsatish, ijodini keng mi1yosda tashviqva targ’ib qilish, qusurlarini samimiyat bilan ko’rsatish va muvaffaqiyatlarini rag’batlantirib turish zarur. Bu uning ijodiy kamolotigagina emas, kichkintoylar uchun katta adabiyotning yaratilishiga ham yo’l ochib berdi. Marshak bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ular ichki dunyosining barcha tomonlarini aks ettiruvchi xilma-xil mavzularda rang-barang janrlarda asarlar, uning iborasicha, kitoblar (S.Marshak bolalarga atalgan asar tushunchasi o’rnida “bolalar kitobi” (“detskaya knijka”) iborasini ishlatishni xush ko’radi va bu bilan bolalarga oid asar hamda kitob tushunchalarini o’zaro uyg’un holda tasavvur etadi) yozish lozimligini qayta-qayta ta’kidlardi. Uningcha, bolalar kitobi-boshdan oyoq “katta adabiyot” namunasi. U-san’at qodisasi va hammadan avval bola hissiyotiga ta’sir ko’rsata bilmog’^{216s} hart: “Biror bir ilmiy haqiqat, biror bir hayotiy dalil, agar u bola xayolotiga, uning hissiyotiga qaratilmagan bolsa, hech qachon bolaga yetib bormaydi”, -deya uqtirar ekan, o’zining xuddi

shu aqidasini nazariy asoslaydi. Marshak nazariyotchi sifatida bolalar kitobining ular hissiyotini boyituvchi va xayoloti doirasini kengaytiruvchi fazilatlarini birma-bir sanab, shunday ifodalaydi: Birinchidan, bolalar kitobi qahramonini shunday mohirlik bilan yaratish kerakki, yosh kitobxon u bilan bir umrga haqiqiy do'st bo'la olsin. Kitobxon o'qiyotgan kitobi qahramoning qiyofasini, xarakterini va axloqini aniq tasavvur qila bilishga imkoniyat yaratib berishi zarurligini esda tutishi shart. Shu munosabat bilan u Mark Tvenning Tom Soyeri, K.Kollodining Pinokkiosi darajasidagi yorqin obrazlar kashf etilmog'i lozimligini uqtiradi. Ikkinchidan, bolalarga hikoya qilinadigan voqeа-hodisalar "shiddatli oqim" ("stremitelnoe techenie")da qat'iy tartibda epizodlarning o'zaro mantiqiy asoslangan alohadorligida bo'lishi lozim. Bunday "hikoya qilishning shiddatkorligi va alohadorligini" bolalar sevgan yaxshi kitoblarning barchasida ko'rish mumkin. Uchinchidan, bolalar kitobiga "umor, quvnoq hazil juda-juda kerak..." deb hisoblaydi. To'rtinchidan, bolalar kitobidagi "har bir so'z tekshirilgan" va o'z o'rnidagina qo'llangan bo'lmosg'i lozim. Chunki "bolalar fikrlashni, his etishni, so'zlashni" o'zlariga mo'ljallangan kitobdan o'rganadilar. Marshak uchun bolalar kitobidagi har bir so'z sahifalari bilan, ulardagi rang-barang suratlar bilan, muqovadagi shriftlar, hatto qolaversa, kitobchaning shakli va hajmi bilan ham jips bog'liq edi. U bu bilan bolalarga kitob "qalbini", uning adoqsiz imkoniyatlarini hs etishga, u bilan butun umrga qadrdon bo'lishga, shu tariqa kitobni sevib qolishlariga yordamlashadi. Marshak bolalar bilan "kitob orqali

o'ynab", hamisha har qanday vaziyatda ongli ravishda g'olib chiqar, ko'zda tutgan barcha maqsadlari mo'ljaldagi nishoniga aniq borib yetardi. Shu sababli Marshak kichkintoylarga atalgan kitoblari ustida yakka o'zi emas, balki rassom bilan, ko'p hollarda esa o'zini yaxshi anglaydigan grafik-rassom V.V.Lebedev bilan hamkorlikda jiddiy ishlardi. Shunday hamjihat ijod asnosida "Sirk" kitobi maydonga keldi. Uning har bir sahifasi-tsirkdagi yangi tomosha sahnasi, butun kitob esa – butun boshli mo'jaz tomosha. "Bagaj" va "Muzqaymoq" kitoblari ham shu xildagi mo'jizakorlik namunalari. Shoир va rassom hamkorligining yuksak cho'qqisi sifatida "Rangdor kitob" ("Raznotsvetnaya kniga") alohida e'tiborga sazovor.

Samuil Marshakning bolalarga atalgan quvnoq she'r va ertaklari XX asrning 30-yillari o'rtalaridan e'tiboran o'zbek matbuotida ko'rina boshladi. Asarlarini o'zbek tiliga o'girib, millatimiz farzandlarining ma'naviy mulkiga aylantira bordilar. Shu tariqa uning o'zbek tiliga o'girilgan she'r va ertaklari jamlamalari sifatida "Biz harbiylarmiz" (1946), "She'r va ertaklar" (1950), "Bir yil nima?" (1953), "She'r va ertaklar" (1959), "Yoykamalak" (1977), "Usta Jek qurgan uy" (1978) va "Oylar kamalagi" (1988) she'riy to'plamlari kichkintoylarga tortiq qilindi. Qolaversa, uning o'zbekchaga o'girilgan bir qator she'r va ertaklari pedagogika bilim yurtlari va institutlariga mo'ljallangan. "Bolalar adabiyoti xrestomatiyasi" (1953, 1967, 1978, 1993), "O'zbek bolalar adabiyoti darslik-xrestomatiyasi" (1976), "Kichkintoylar uchun xrestomatiya" (1978, 1988), shuningdek, o'zbek o'rta maktablari uchun rus tilini

o'rganishga bag'ishlangan "Kniga dlya chteniya" (1988) singari o'qish kitoblaridan ham joy ola bordi. Uning bu she'rlarini o'zbek bolalar shoirlarining turli avlodiga mansub Quddus Muhammadiy ("Nabiram bilan so'zlashganda"), Shukur Sa'dulla ("Axmoq sichqoncha haqida ertak", "Bagaj", "Yaxshi kun", "Tegirmonchi, bola va xo'tik"), Ilyos Muslim ("Bizning gerb", "Yil bo'yi", "Yalqovlar bilan mushuk", "Sanoqcha", "Topishmoqlar"), Qudrat Hikmat va Husniddin Sharipov ("Pochta"), Po'lat Mo'min ("Usta buzarmon", "Kitobcha haqida kitobcha", "Bir yil nima?", "Stol qayerdan kelgan?", "Bir o'quvchi haqida", "Mo'ylovi bor olachipor"), Asqad Muxtor ("Petya nimadan qo'rkar edi?"), "Sutingdan ber", "Tipratikan va tulki", "Urushga kirish") va Miraziz A'zam ("Robin Bobin") kabilar turli davrlarda o'zbek tiliga o'girganlar.

O'zbek adabiyoti namunalarini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etish yangilanayotgan tafakkur taqozosi hisoblanadi. "Badiiy tafakkurning biqiq holga tushib qolishi, - deb yozadi professor Sh.Rizayev, - avvalo, boshqa adabiyotlarni o'rganmaslik, o'z adabiyotiga tanqidiy nazar bilan qaray bilmaslik, qiyoslash, solishtirish imkoniyatidan mahrumlik hisobiga ro'y beradi". Darhaqiqat, zamonaviy adabiyotshunoslikda har bir muammo jahon adabiyoti kontekstida o'rganilar ekan, tadqiq etilayotgan asarlar orasidagi mental va umummadaniy xususiyatlar yarq etib ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti namunalarini ham jahon bolalar adabiyoti durdonalari bilan qiyosiy-tipologik o'rganish, qolaversa, ularni bugungi yosh avlod qiziqishlari, ruhiy,

ma`naviy olami, intellektual salohiyatiga mos talqin va tadqiq etish zaruratga aylanmoqda.

Yetuk adabiyotshunos olim A. Rasulov X.To'xtaboyev romanlari haqida fikr yuritib, bolalar asarlari tahliliga teran tadqiqotli yangi talqinlar zarurligini ta'kidlaydi. Shunisi e'tiborliki, olim X.To'xtaboyev romanlarini hech ikkilanmay, jahon bolalar adabiyotining mumtoz namunalari, X.Andersen asarlari, rus adibi N.Nosov hikoyalari qatorida sanaydi. Shuningdek, Hoshimjon, Akrom, Zafar, Orifjon singari o'smirlar sho'xlikda, aqlu zakovatda, sayohat va sarguzashtda Tom Soyer (M.Tven), Maugli (Kipling), Chippolino (J.Rodari), Jelsomino (J.Rodari), Gulliverdan (J.Swift) qolishmasligini ta'kidlaydi. Bu o'smirlarning sehrli tilsimlardan foydalanishida ham o'xshashlik ko'radi. Yoxud hozirgi jahon bolalar adabiyotining mashhur asari Garri Potter (J.Rouling) haqidagi kitoblar fazilati mushohada qilinarkan, "Sariq devni minib" romanidagi sehrgarlik anjomlari undan qolishmasligi, aksincha, o'zbekona betakrorlikda yaratilgani ta'kidlanadi.

Olim zikr etgan qahramonlar, jahon bolalar adabiyotida shuhrat qozongan asarlarni qiyosiy o'rganib, ularni bir nuqtada uchrashadiradi: "Hozirgi yoshlar, - deb yozadi muallif, - bolalar adabiyotidagi intellektual qahramonlarni yoqtiradilar. Garri, Germiona, Ron singarilar raqibga qarshi uzoqni o'ylab kurashadilar".

Zamonaviy bolalar adabiyotshunosligi bu jihatdan ancha yoshligi o'rinli e'tirozlardan, albatta. Ammo ijodiy ta'sir adabiy

aloqalarini o'rganish, yozuvchi-shoirlarning ijodiy tarjimalariga oid qarashlar o'tgan asrning 60-yillaridan davom etib kelayotgani ham ayni haqiqat. Jumladan, O.Safarov shunday ma'lumotni keltiradi: "Shukur Sa'dulla bolalarning sevimli lirkil shoiri, ertakchi-dramaturgi, sarguzashtchi-qissago'yini sifatida tanildi. U "Ism qo'yilmagan xat" va boshqa hikoyalari bilan o'zbek bolalar prozasiga S.Marshak va K.Chukovskiylarning ilg'or an'analarini olib kirib, "ikkidan beshgacha" yoshdagi bolalarga ijod etishni boshlab berdi". Bundan tashqari, olim Sh.Sa'dullaning "Kachal polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" (1963) asarini yozishda italiyalik adib K.Kollodining "Pinokkioning sarguzashtlari" hamda rus adibi A.Tolstoyning "Oltin kalit yoki Buratinoning boshdan kechirganlari" (1936) asarlaridan ijodiy ta'sirlanganligini aytgani buni asoslaydi .

Ta'kidlanganidek, endilikda bolalar adabiyoti namunalarini jahon adabiyoti konteksti doirasida o'rganishga endilikda keng imkoniyatlar ochilmoqda. Tarjima qilinayotgan asarlar keljakda bu yo'nalish taraqqiyotiga, albatta, xizmat qiladi. Jumladan, jahon bolalar adabiyoti seriyasida nashr qilinayotgan juda ko'p asarlar bunga dalildir. Aytaylik, shunday nashrning 2-kitobida Chili bolalar adabiyotining namoyandası Pablo Neruda (1904-1973)ning "Savollar kitobi" ham berilgan . Tuzuvchi va tarjimon M.A'zam o'rinali e'tirof etganidek, "Savollar kitobi" dunyo adabiyotida katta iz qoldirib, bolalarga tushunilishi oson bo'lgan, tezda tafakkur olamiga olib kiradigan, qiziqish uyg'otadigan savollar tarzida ko'plab kitoblar dunyoga kelishiga turki bo'lgan. Bunga o'zbek adabiyotida

T.Qahhorning "Savollar kitobi", M.A`zamning "Qirq bolaga qirq savol" va boshqa adiblarning shu kabi asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Muhimi shuki, M.A`zam "savol"lari shu yo'nalishdagi kitoblar bilan bo'ylasha oladi. Xususan, P.Neruda ijodidagi erkin vazn, g'oyadorlik, hur fikrlilik M.A`zam uslubiga ijodiy ta'sir etgan, deyish mumkin. Chunonchi, P.Neruda shunday savollar beradi:

Ilk bor dunyo paydo bo'lganda
Bu Venusuela edimi?
Ummomonning o'rtasi qaerda?
Nega o'sha erga oqmas to'lqinlar?
Erga tushgan uchar yulduz
Olmos kaptar emasmidi?
So'ray olamanmi kitobimdan
Uni yozgan menmidim o'zi?

O'z navbatida, M.A`zamning qirq savoldidan biri shunga yaqin:

O'zbek desak siz ham mendek
Ko'rasizmi paxtani?
Paxta - baxt deb aytgan edik
O'zbeklarda baxt qani?
Yo noshukur bandamanmi?
Paxta - mehnat saylimi?
Unday bo'lsa baxt nima deb
Savol bersam maylimi?

Haqiqatan, bu savollar qaysi tilda yangramasin, inson qalbini, ijtimoiy hayotni, tafakkurni o'zida aks ettira olgani bilan muhim.

O'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotida jahon bolalar adabiyotining ijodiy ta'siri, alohida o'rni bor. Xususan, istiqlol yillarida ko'plab mamlakatlarning bolalar adabiyoti namunalarini o'zbek tilida tarjima qilinishi va nashr etilishi bu jarayonning yanada

faollashuviga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Turkiya bolalar adabiyoti namunalarining kengqamrovli tarjimasi va nashri fikrimizga dalil bo'la oladi. Yetuk o'zbek bolalar shoiri va tarjimon Miraziz A'zamning bu boradagi xizmatlari ham tahsinga sazovor. Shoир tarjimalari asosida bunyodga kelgan qator turk ijodkorlari, masalan, Tavfiq Fikrat, Nozim Hikmat, Gultan Doyi o'g'li, Ali Oqbosh, Mustafo Qutlu, Mustafo ruhi Shirin kabilarning bolalar uchun yozgan asarlari orqali ikki halq ijodidagi mushtarak xususiyatlarni yaqqol anglash mumkin. Ya`ni, turk bolalar adabiyotidagi mavzular olami, bola ruhiyati ifodasi, jonivorlar va hayvonlarga munosabat talqini, ifoda usullarida o'zbek bolalar adabiyotiga hamohanglik ko'zga tashlanadi.

Ali Oqbosh Turkiyaning hozirgi zamon bolalar adabiyotida muhim o'rин egallab turgan shoirlaridan. Uning she`rlarida bolalar olami, ruhiyati ustuvor. Ayni paytda kattalar olaming armonlari lirik qahramon tuyg'ularida teran aks etgan she`rlari o'zbek bolalar shoiri Safar Barnoev she`riyatiga hamohang. Har ikkala shoir o'tgan asrning 40-yillarida tug'ilib, o'z yurti maorifi va bolalar adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan. Binobarin, Ali Oqboshning "Buvimga alla" she`rini S.Barnoyevning "Qo'shni kampir iltijolari" she`ri bilan qiyoslab o'rganishga loyiq. Turk bolalar she`riyatining lirik qahramoni o'z buvisi qismati, o'ksik qalbi armonlarini bayon qiladi:

Oyni o'rab olgan bulut,
Boshida ro'mol bувимning...
Buvim guzal, ayb oynada,

Buvim kabi yo'q dunyoda[1, 64].

She`rdagi bulut so'zi buvining boshida qayg'u borligidan dalolat beradi. Lirik qahramonning oynani ayblashi ham bejiz emas. Buvining rangi ro'yi so'lg'in, erta keksaygan jismida yoshlikning, go'zallikning alomati sezilmasligi anglashiladi. Keyingi misralarda esa bu fikr o'z isbotini topadi:

Safarbarlikning so'nasi,
So'ngan sochining xinasi,
Buvim uch shahid onasi,
Boshi qordan oq buvimning.

Kichik kitobxon buvining g'an-anduhi sababini endi his qila boshlaydi. Uch o'g'lining shahid ketganidan "boshi qordan oq". Shoir ifodasida ma`no yanada taranglashadi. Xina ketishi bilan sochning oqarishidan tashqari qosh, kipriklar oppoq tusga kirishi yuqoridagi iboraning mazmunini kuchaytiradi. Bu yoziqlikning buvini ezishi, ko'zlar hamisha "suvloq" buvining keyingi misralarda telba shamol dastidan "to'kilgan yaproq"qa o'xshatilishi ham bu dardning nechog'li og'irligini ayonlashtiradi. Shu sabali buvisining bu ahvolidan og'ir iztirobga tushgan yosh lirik qahramon buvisining makoni uchmoh ekanligiga ishonadi. Ya`ni, sabr bilan, og'ir bir toshni bag'riga bosib yasash azobini lirik qahramon idrok eta olgan.

Safar Barnoyevning "Qo'shni kampir iltijolari" she`rida ham farzand dog'ini obdon tuygan ona siymosini gavdalantiriladi. Faqat bunda lirik qahramon yosh bola emas, aynan kampirning o'zi:

Qari tutning shoxlaridek suyaklarim mo'rt bo'ldi,
Yo'lingizga qarayverib, bu ko'zlarim to'rt bo'ldi,- deb boshlanuvchi satrlarda onaning hasratlari lirik qahramon hikoyasi tarzida bayon qilingan. Uning qo'shnisi bo'lmish o'sha kampirning

uch o'g'li ketma-ket urushga ketadi va uchchallasidan ham qora xat keladi. Ularning yo'liga ko'z tutaverib, g'amdan mung'ayib qolgan kampirning nolalari chinakam yig'i-yo'qlovni eslatadi:

Omon o'g'lim!
Davron o'g'lim!
Sulton o'g'lim!
Jon o'g'lim!
Oy-yulduzim, boshimdagi osmonlarim edingiz,
Alpomishday, Alpomishday posbonlarim edingiz,
Ýlu yurtga ko'z-ko'z qilgan posbonlarim edingiz...
Men chiroyda oy edim,
Bag'rim butun, boy edim.
Uch o'g'lim bor, uch shunqorim,-
Deya hotamtoy edim.

Kampir uch o'g'il tuqqanida sevinchlarga sig'magani, har bir o'g'lining nomi o'z mazmuniga ega ekani, ularni umumlashtirib "Jon o'g'lim- deb atashi bejiz emasligini aytib bo'zlaydi. Afsus nadomatlar bo'lsinki, bir kuni ona qalbi bukiladi, ko'zdan yoshi to'kiladi. Shu sababli uning iztiroblari yanada ayanchli tóñ oladi:

Avaylagan, asragan yurakdan darmon ketdi,
Qora bo'ldi kunduzim, boshimdan osmon ketdi.
Sizni ketma-ket tug'dim,
Deyishgandi katta baxt,
Ketma-ket uchingizdan,
Kelib qoldi qora xat.
...Qonga to'lgan yuragim mozorlarga aylandi,
Hasratlarim tugamas bozorlarga aylandi.

Shu tariqa, lirik qahramon qo'shni kampirning faryod to'la dardini, o'z o'g'illarini so'ray-so'ray quyoshdayin ufq sari botib borishini, demakki umri poyoniga etayotganini afsus bilan tilga oladi.

Ko'rinaridiki, ikki xalq bolalar she'riyatida bir xil mavzu, bir xil ohangda, o'zaro uyg'un kompozitsion shaklda ifoda etilgan. Shahid ketgan farzandlar dog'ida jismonan va ruhan majruh bo'lgan onalar siyoshi, armon va o'kinchlari makon va zamondan qat'iy nazar o'xhash tuyg'ularda in'ikos etishi anglanadi. Umuman, adabiyot haqiqatan shunday mo"jizaki, chinakam san'at asarlari millat, irq, zamon tanlamaydi. Insoniyat kechinmalari baayni realistik ifodaga boyligi bilan bir xil ta'sirchanlik qudratiga ega. Qolaversa, kattalarmi, bolalarmi ularning botini, ruhiyati ochib berilgan asarda inson qalbi yashaydi. Uni his qilish, tafakkurlash orqali anglash baxtiga muyassar bo'lamiz. SHu ma'noda, turk va o'zbek bolalar adabiyotidagi mushtarak xususiyatlar nasrda ham yaqqol kuzatiladi.

Mustafo Qutluning "Yulduz changi" hikoyasidagi aynan o'smir bola ruhiyati, tuyg'ulari ifodasi A.Qodiriyning "Uloqda" hikoyasidagi o'smir kechinmalari bilan mushtaraklik kasb etadi.

"Uloqda" hikoyasi qahramoni o'n ikki yashar Turg'un chavandoz ekanligi, unda yosh Turg'un ta'rifi, bolalik zavqi, yangi kiyim kiygandagi quvonch va g'ururining tabiiy tasviri bolalar obrazi poetik talqinining badiiy yuksak namunasi sifatida e'tiborni tortadi. Qolaversa, uloq o'yinining barcha taassurotlari o'smir Turg'un histuyg'ulari, ruhiy olami, sevinchu shodligi orqali ifodalanishi voqeas tasviri jihatidan ruhiyat va xarakter holati tasviri ustuvorligiga ko'ra XX asr boshlaridagi o'zbek hikoyachiligidagina emas, bolalar nasrida ham jiddiy yutuq, deyishga asos bo'ladi.

"Yulduz changi" hikoyasining qahramoni o'smir bola. Unga tog'asi sovg'a qilgan velosiped quvonchi Turg'un dan kam emas: "Bizning Qasaba juda kichkina, juda oz velosiped bor, ular ham mansabdor kishilarning bolalarida. Ýndi mening ham mana bir velosipedim bor. Hammasining havasini keltiraman, hech kimsaga mindirmayman. Har kuni artib yarqiratib qo'yaman. Zotan, yap-yangi, hech kim qo'l tekkizmagan. Qasabaning eng chiroyli velosipedi bu. O'zim ham minishga ko'zim qiymay turibdi. Yo yiqilsam, yo velosipedga bir narsa bo'lsa!.." [3, 74]

Hikoya qahramoni ukasi Kanonni velosipedga havasi kelsa ham mindirmagani uchun bir kuni tong saharlab, uni minib qochgani va zovurga yiqilib hushidan ketishi va bundan akasi ukasini o'lib qoldi deb qo'rqib ketishidagi ruhiy iztiroblari, ukasi tanlagan yulduzning uchganini ko'rib, dashtu qamishzorlar osha "qo'liga qo'ndirib", yana uchirib yuborganligi qiziqarli hikoya syujetini tashkil qilgan.

Har ikki hikoyadagi o'xshashlik asar qahramonlarining yangi bir voqelikdan qattiq hayajonga tushib, cheksiz orzu-xayollarga berilishi, ammo alal-oqibat bu quvonchli hodisa qayg'uga ulanib ketgani yosh qahramonlar qalbini yaralab qo'ygani teran aks etganidir. Turg'un chavandoz ko'pkarida odamlar oyog'i tagiga qolib ketib, o'lishiga sal qolgan bo'lsa, Kanon akasining velosipediga uchaman deb o'lishiga oz qoladi va bundan akasi qattiq pushaymon bo'lib, shunchalik yaxshi ko'rgan velosipedini o'rtog'i, oilasi nochor, o'zi etim Abdurahmonga berib yuboradi.

Bundan anglashiladiki, bolalik olami quvonchlari va qo'rquvlari ifodalangan qahramonlar tuyg'usi ham makon va zamon tanlamaydi. Barcha xalqlar adabiyotiga xos mushtarakliklar shu tariqa mamlakatlar madaniyati taraqqiyotiga xizmat qilaveradi.

Darhaqiqat, kichkintoylarning ko'nglini topib, diqqati va zavqini oshiradigan iste'dodning o'zigina etmaydi. Shu bilan birga mohir muallim kabi bola qalbining muhandisi ham bo'lish talab qilinadi.

Turk va o'zbek bolalar adabiyotidagi badiiy joziba ulardagi mushtaraklikni ta'minlagan asosiy omildir. Yosh qahramonlar ruhiyati va tuyg'ularini teran badiiy aks ettirish mahoratini asarlar tahlilida ko'plab topish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida jahon adabiyoti an'analarining ta'siri deganda nimani tushunasiz?
2. Turk va o'zbek bolalar nasridagi adabiy ta'sir qaysi asarlar misolida yaqqol ko'rindi?
3. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatida qanday tuyg'u va kechinmalar turk bolalar adabiyoti bilan o'zaro mushtarak?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: "Sharofat-fayz", 2022. - 320 b.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
3. Ali Oqbosh. Buvimga alla. Kitobda: Jahon bolalar adabiyoti: Turkiya, Eron. - Toshkent, 2016. - B.64.
4. Barnoev Safar Tinchlikni ulug'laymiz. Toshkent: "Yosh gvardiya", 1988.
5. Mustafo Qutlu . Yulduz changi. Kitobda: Jahon bolalar adabiyoti: Turkiya, Eron. - Toshkent, 2016. - B.74.
6. Kamol Ya. Ilonni o'ldirsalar. Turk tilidan L.Aminova tarj. - Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2001. - B.187.
7. Malik Tohir. Alvido bolalik. - Toshkent: Sharq, 2009. - 188 b.

8. Malik Tohir. Jinoyatning uzun yo‘li. <https://www.ziyouz.com> kutubxonasi
9. Umurov H. O‘zbek romanida psixologizm printsiplari, shakllari va vositalari: O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. - T.:Turon iqbol, 2011. - B.239.

KREATIV TESTLAR

1. *Quyidagi rasmlarga mos keluvchi she'r va ularning mualliflarini toping?*



- | | |
|---|--|
| A) Yana xazonrezgilik,
Bog‘lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi. | B) Quyosh qizdirib har on,
Nurlarin sochar har on.
O‘lkamizga nozlanib,
Juda ajib soz keldi. |
| C) Qish qorini supurdi,
ko‘yda
Quyosh nurin ufurdi.
Yalpiz hidи gupurdi,
..... kelgach. | D) Bundan buyon ko‘cha-
Piyma, etik g‘archillar.
Tinim bilmas chanalarda
Shokir, Ra’no, Barchinlar. |

- a) *Safar Barnoyev*
- b) *Tursunboy Adashboev*
- c) *Qudrat Hikmat*
- d) *Anvar Obidjon*

1	2	3	4
D	A	C	B
b	a	d	C

2. *Quyida Tursunboy Adashboevning "Tol va terak" she'ri misralarini ketma-ketlikda to'gri belgilang?*

Ko'rolmasdan dedi: – Do'stim	A
Bo'lomaysan ko'kka ustun.	B
Tol terakning o'sishini	C
"Mirzaterak – uyga kerak"	D
Novchalikning nafi bor.	E
Bo'y-bastiga ishonmagil	F
Degan elning naqli bor	J
– Ta'na qilma, og'aynijon	H

JAVOBI:

1	2	3	4	5	6	7	8
C	A	F	B	H	E	D	J

35. *Quyidagi ta'riflarga mos javoblarni toping.*

1.	She'r tuzilishining asosini nima tashkil qiladi?	A	Hijolarning miqdoriga
2.	Shakliga ko'ra she'r vaznlari:	B	5,6,7,8,9 va undan ortiq.
3.	Aruz vazni nimaga asoslanadi?	C	aruz, barmoq, erkin (sarbast), nasriy she'r

4.	Barmoq vazni nimaga asoslanadi?	D	Hijolarning-cho'ziq qisqaligiga.
5.	Barmoq vazdagi she'rning misrasi necha bo'g'indan tashkil topishi mumkin?	E	Ritmik o'lchov-hijo (bo'g'im)

Javob:

1-Е	2-С	3-Д	4-А	5-Б
-----	-----	-----	-----	-----

3. *Quyida berilgan fikrlarning qaysi biri to'g'ri?*

- A) **Adabiyot** – (ar. adab-go'zal xulq) – keng ma'noda, inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan;
- B) **Alliteratsiya** –(yun. allos-o'zgacha, agoreuo- gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi;
- C) **Allegoriya** – (lot.al- yonida, litera-harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi.
- D) **Aforizm** – (yun. ta'rif, ixcham ifoda) – muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.
- E) **Neologizm.** Ma'lumdavr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.). Mas., *surur*(sevinch), *xayon* (foyda) va b.
- F) **Atributiv forma.** So'zning gapda asosan anshugovchi funkstiyasi -da kelishiga xos formasi.
- G) **Afrikata** (lot. ishqalayman). qorishiq undosh tovush, paydo bo'lish o'rniga va ovozning ishtirokiga ko'ra bir xul bo'lgan portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovush

To'g'ri javob: A, D, F,G

4. O'zbek bolalar shoiri T.Adashboyevga tegishli to'g'ri fikrlarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "Ha" yoki "Yo'q" so'zlarini yozing .

- 1) U 1939-yilda Qirg'izistonning O'sh viloyatiga qarashli Olabug'a tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan.
- 2) U Toshkent davlat dorilfununini hamda Jahon adabiyoti institutini bitira olmagan.
- 3) Toshkentdagi «Yosh gvardiya», Bishkek shahridagi «Mektep» nashriyotlarida «Biz sayohatchilar» (1969), «Ala-Toluk bolomun» (1971), «Arslonbob sharsharasi» (1973), «Surnay» (1975), «Nur daryo» (1977), «Guldasta» (1979), «Olatog'-lolatog'» (1982), «Oqbura to'lqinlari» (1985), «Sovg'a» (1987) to'plamlari bosilib chiqdi.
- 4) «Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1997-yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan.
- 5) «Pesnya Jovoronok», «Podarok», «Olti oyoqli xo'tikcha», «Olatog' ohanglari» singari bir talay kitoblari rus, latish, qozoq va o'zbek bolalar she'riyati antologiyalaridan munosib o'rinn olgan.
- 6) Ijodkor «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» degan nom va «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan. SHuningdek, «Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» hamda «Manas» ordenining sovrindoridir.
- 7) «Yassaviy zurriyotlari» qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Test topshirig'i javobi:

1	2	3	4	5	6	7
Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Ha	Yo'q

38. Quyida berilgan ta'riflarning qaysi folklor atamasiga mosligini toping.

1.	Bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega bo'ladi. Masalan, aqiba - ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug' qadash) marosimi, o'rimga kirishish marosimi va hokazolar.	A	Terma
2.	bu o'zbek folklorining mustaqil, qadimiy, an'anaviy janri bo'lib, insonga yomonlik, o'lim tilash motivlarini ifodalashi bilan ajralib turadi	B	Olgish
3.	kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut-baraka, sog'liq tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini ko'tarib, yaxshilikka da`vat etadi. SHuning uchun janr nomi turkiy tillarda «maqtash», «sharaflash», «yaxshi istaklar bildirish» kabi ma'nolarni anglatadi.	C	Marosim folklori
4.	Ularda qo'shchi yoki	D	Qarg'ish

	qo'shga qo'shilgan ho'kiz tilidan og'ir mehnatdan qilingan shikoyat yoxud ish hayvoniga murojaat motivlari etakchilik qiladi. Bu qo'shiqlarida ko'pincha uchta an'anaviy obraz ko'zga tashlanadi. Ular-zolim boy, mehnatkash, qashshoq dehqon hamda ezilgan, jabrlangan ho'kiz obrazlaridir.		
5.	istilohiy ma'noda <i>terib aytmok</i> , <i>tanlab termoq</i> ma'nolarida bo'lib, xalq qo'shiqlari silsilasidagi mavzu mohiyatiga ko'ra bir – birini to'ldiradigan uchlik, to'rtlik, beshlik va oltilikdan iborat bandlarni kompozitsion jihatdan bir tizimga yaxlitlashtirish asosidagi lirik yoxud xalq dostonlari ijrosi oldidan baxshining o'z repertuariga poetik ekskurs qilishi asnosida badihatan tug'ilgan biografik yoki avtobiografik, ayrim hollarda didaktik xarakterdagi epik qo'shiq namunasi.	E	Qo'sh qo'shiqlari

Javob:

1-C	2-D	3-B	4-E	5-A
-----	-----	-----	-----	-----

39. Quyida berilgan misollarning janrini to‘g’ri belgilang.

1	Olim bo‘lsang, olam seniki	A	Bolalar qo‘srig'i
2	Oq choynakka oq qopqoq Ko‘k choynakka ko‘k qopqoq	B	Maqol
3	“Chol:Ur,to‘qmoq”degan ekan to‘qmoq uy egasini ura ketibdi.Mezbon : Voy,doood, iltimos,otaxon, To‘qmog’ingni to‘xtat, barcha narsalaringni qaytaraman...” deb dodlarmish.	C	Topishmoq
4	Yer tagida oltin qoziq, U hammaga berar oziq	D	Tez aytish
5	Boychechagim,boylandi Qozon to‘la ayrondi, Ayroningdan bermasang, Qozon tovog’im vayrondi.	F	Qo’shiq
6	Oq olma, qizil olma Olmaga nazar solma Otam senga bermaydi, Endi yo‘lingdan qolma	J	Ertak

Javoblari:

1	2	3	4	5	6
B	D	J	C	A	F

5. O'zbek bolalar adabiyoti ijodkorlarini su'ratini va nomini to'g'ri toping?

1)




2)



3)



4)




5)



6)



7)



8)



9)



- A) Po‘lat Mo‘min
 B) Anvar Obidjon
 C) Kavsar Turdiyeva
 D) Tursunboy Adashboyev
 E) Rauf Tolib
 F) Mirtemir
 G) Quddus Muhammadiy
 H) Miraziz A’zam
 I) Normurod Narzullayev

TO‘G’RI JAVOB:

1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	B	I	H	G	C	E	D	F

GLOSSARIY

ABETSEDARIY 1.Ispancha ABSDario, yoki AlfaBetto so'zlaridan olingan bo'lib, qaysi yozuv, til bo'lmasin, o'shandagi harflarning umumlashmasini bildiradi. 2.O'zbek adabiyotida o'rta asrlarda paydo bo'lgan, misralarning birinchi harfi alifbo tartibida keladigan she'r.

ABJAD Qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so'zning birinchisi va shartli umumiyligi nomi. Bu so'zlar: abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa'ufas, qarashat, saxxaz, zazag'. Sharq, shu jumladan o'zbek mumtoz adabiyotida biror muhim hodisaning sanasiniesda tutishni osonlashtirish uchun sonlar harflar bilan ifodalangan. O'zbek adabiyotida abjaddan maxfiy yozuvlar yozishda ham foyda-lanilgan. O'zbek mumtoz adabiyotida abjad hisobi 20-asr boshlarigacha qo'llangan.

ADABIYOT (ar. adab - go'zal xulq). Keng ma'noda inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan, o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma'noda - so'z san'ati, badiiy adabiyot.

ADRESLILIK Bolalar adabiyotida kitobxonlar yoshiga mo'ljallab yozilgan asarlarga nisbatan qo'llanadi. Shunga ko'ra maktabgacha tarbiya yoshidagi kichkintoylar, kichik mакtab yoshidagi bolalar hamda o'smirlar kitobxonligi o'zaro tafovutlanadi.

AFORIZM (yun. ta'rif, ixcham ifoda) Muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr. *M: Navoiy*

aforizmlari (Tilga e'tiborsiz- elga e'tiborsiz, Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur).

ALIFBE-MANZUMA Abidsedariylar asosida yozilgan majmua hisoblanadi. Shermuhammad Munisning “Savodi ta’lim”, A.Otinning “Yakka baytqlar”i arab alifbosidagi harflarni yod olish va ularni eslab qolishga asoslangan she’riy baytlari badiiy va metodik xususiyatlari bilan adabiyot tarixida o’z o’rniga ega. Muhimi shundaki, ular yaratgan majmualar aynan o’quvchilarining ilk savod chiqarishlari, boshlang’ich maktablarda o’qitishga mo’ljallangan bo’lib, metodik ahamiyatga ega. O’quvchilarining yozishni o’rganishlarini osonlashtirish uchun arab yozuvi asosidagi o’zbek alifbosidagi 28 harfning shakli, nimalarga o’xshashligi va imlo xususiyatlarini birma-bir ta’riflangan she’riy shakldagi asar.

ALIFBE-TOPISHMOQ Alfavitdagi harflar ketma-ketligi asosida yaratilgan janr. K.Turdiyeva topishmoqlarni shunday ketma-ketlikda beradiki, ularning javobi alfavitdagi harflar bilan boshlanadi.

ALIFBE-SHE'R Alifbe she'r alfavitdagi har bir harf bilan boshlanuvchi she'r bo'lib, kichkintoylarga ularni esda saqlash, to'g'ri talaffuz qilish maqsadini ko'zlaydi, alliteratsion tovushlar tizimi o'quvchilarни shu tovush talaffuziga o'rgatib boradi. XX asr bolalar adabiyotida alohida janr darajasiga ko'tarilgan alifbe she'rlar tadrijiga Sulton Jo'ra, Asqad Muxtor, Muxtor Xudoyqulov kabi shoirlar alohida hissa qo'shishgan. Istiqlol yillarida esa K.Turdiyeva, D.Rajab bu janrda barakali ijod qilib kelmoqda.

ALIFBE O'GIT Alifbedagi har bir harf bilan boshlanuvchi o'gitlar. Ijodkor alfavitdagi har bir harf bilan boshlanuvchi o'gitlarni she'riy misralarga tizib chiqadi. *Masalan, K.Turdiyevning "Alifbeda nasihat" she'ri:*

ALLEGORIYA (yun. allegoria – o'zgacha ifodalash) Mavhum tushuncha yoki g'oyalarni aniq bir obraz vositasi bilan ifodalash; majoz. Masalan, bo'ri so'zining yomonlik (yovuzlik), tulki so'zining ayyorlik ifodasi uchun qo'llanishi. (yun. allos-o'zgacha, agoreuo-gapiraman)- 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

ALLITERATSIYA (lot. al – yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi. Masalan, *Qaro qosning, qiyiq qosning, quyuq qayrilma qosning qiz..* (E. Vohidov)

ANNOTATSIYA (lot. annotation – izoh, sharh) Asar mazmunining qisqacha bayoni. Noshirlik amaliyotida kitoblarning ichki muqovasida, ilmiy maqolalarning sarlavhasidan keyin beriladi. A. asarning o'ziga xos pasporti bo'lib, u bilan umumiylar tarzda tanishtiradi.

ANTOLOGIYA (yun. guldasta) Biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo'nalishga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to'plam. *M; O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. I. She'riyat. II. Nasr. T., 2006.*

ANTROPOMORFIZM (antropo ... va yun. morphe - shakl, ko'rinish) Xudo hamda ilohiy kuchlarni, tabiatdagi narsa, hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish. Antropomorfizm qadimgi yunonlar dinida keng tarqalgan edi. Ularning tasavvuricha, xudolar insonga xos xususiyatlarga ega bo'lib, abadiy yashaydi. Xalq ertaklarida esa hayvonlar, qushlarning insonlarga o'xshab gapirishi, suhbati va h.k. M: "*Susambil*" ertagi

AVTOBIOGRAFIK ASAR (yun. autos-o'zim, bios – hayat, grafo – yozaman) – muallifning o'z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o'z hayatini qaytadan yashab ko'radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. A.a.aksar hollarda mualliflarning ijodiiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. *Oybekning "Bolalik"*, *A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasi*.) U memuar, kundalik va sayohatnomalarga o'xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, A. a. avtobiografik xarakterdagi asarlar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollardan tafovutlanadi. Unda muallifning o'zi mustaqil personaj sifatida ishtirok etadi (mas. Musavoy, Abdulla obrazi).

BADIA Kishining diqqatini tortadigan badiiy asar. *Alisher bolalik yillarida ikki tilda badilar ijod qilib shuhrat topgan*. Oybek, Navoiy.

BADIHA (ar. o'ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroylis so'z, topqirlilik) Avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, daf'atan aytilgan she'r. Biror voqeadan qattiq ta'sirlanish, mushoiralarda o'zga shoir aytgan

she'rga javoban yoki qaltis vaziyatdan hozirjavoblik bilan chiqish zarurati tufayli yaratiladi.

BADIIY TAHLIL (ar. tekshirish, hal qilish) Adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudliginiturli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

BESTSELLER (ingl. best – eng yaxshi, sell – sotilmoq) Noshirlikning tijoriy tomoni bilan bog'liq holda yuzaga kelgan termin, kata tirajda chop etilgan va tez tarqalib ketgan, tijoriy jihatdan muvaffaqiyat qozongan kitob. Shundan kelib chiqib bestseller termini kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olingan va qo'lma-qo'l bo'-lib ketgan asarlarga nisbatan ham qo'llanadi.

BIOGRAFIK Biografiyaga, tarjimai holga oid. Adabiyotda biror bir mashhur yozuvchi, tarixiy shaxs yoki mutafakkirlar haqida yozilgan *b.qissa, roman. M:M.Osimning tarixiy-biografik qissalari, Oybekning "Alisherning yoshligi" qissasi*.

BOLALAR ADABIYOTI 2 yoshdan 16-17 yoshgacha bo'lgan kichkintoylar, bolalar va o'smirlar didi, tili, qiziqishi, saviyasi va obrazli badiiy tafakkuriga ixtisoslashgan, ular uchun maxsus yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Shuningdek, b.a. bevosita bolalarga mo'ljallab, yoki aslida kattalarnig o'zi uchun yaratilgan bo'lsa ham keyinchalik butunlay ular kitobxonligiga o'tib qolgan asarlarni ham o'z ichiga oladi.

BOLALR KITOBOXONLIGI o'z ma'nosida umuman kitob o'qish hodisasini anglatsa-da, keng ma'noda necha ming yilliklar davomida

aslida kattalar didi, hayotiy tajribasi, dunyoqarashiga mos holda yaratilib kelingan bo'lib, bolalarning ham o'qishi doirasida amal qilgan va yaxlit tizim tarzidagi ma'naviy-axloqiy hodisa darajasiga ko'tarilgan hammabop diniy, diniy-axloqiy, diniy-tarixiy, didaktik, badiiy, ilmiy, shuningdek, XX asr boshlaridan esa, professionallik kasb eta boshlagan o'zbek bolalar adabiyotiga doir asarlar silsilasini o'qish va o'qitishni anglatadi.

BOLALAR KITOBACKHILIGI bolalar kitobxonligining asosi bo'lib, uyda ham, bog'chada ham, mакtabda ham bolalar o'qishiga mo'ljallangan rang-barang mazmun va shakldagi kitoblar. Bunda kitoblarning aksariyati o'yinchoq timsolli mazmun va maqsadiga muvofiq esa chidamli qalin qog'oz yoki kartondan foydanilgan taxlamga ega bo'ladigan su'ratli kitobchalar, o'yinchoq kitobchalar, yig'ma kitobchalar, animal kitobchalar,¹ kesma kitobchalar kabi turlarda yaratilishi mumkin. Bu xildagi kitoblar komikslar² deb yuritilib, badiiy matni adib yoki shoirga taalluqli bo'lsa, taxlamini bichishda noshir (poligrafist) va badiiy bezatilishida musavvir ishtirok etadi.

DETEKTIV ADABIYOT (yun. izquvar) 1. Sarguzasht adabiyotining bir tarmog'i, sujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog'liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiyl nomi. 2. Jouslar, yashirin ayg'oqchilar, izquvarlar hayoti, sarguzashtlari, murakkab jinoyatlarning ochilishi haqida hikoya qiluvchi (badiiy asar yoki film).

¹ Animal kitobchalar hayvonlar, qushlar, hasharotlar rasmlari asosida tartib berilgan rangli kitoblar.

² Komiks silsilali rasmlardan iborat kitoblar bo'lib, goh matnli, goh matnsizdir.

DIALOG (yun. dialogos . di – ikki + logos – so‘z; nutq; tushuncha)

1. Ikki kishi o‘rtasidagi og‘zaki muloqot, suhbat.

2. Adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o‘rtasidagi gaplashuv, suhbat. Dramada dramatik harakat va harakatlarning ochilishida dialoglar muhim rol o‘y-naydi.

DILOGIYA (yun. di – qo‘shma so‘zlarda “ikki”, logos – so‘z, hikoya) Kompozitsion jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ikki mustaqil asardan tashkil topgan asar. Bolalar adabiyotida X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va “sariq devning o‘limi” romanini dilogiyaga misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

DRAMA (yun. drama – harakat) 1. Badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Dramaning tasvir predmeti – harakat. U Arastu ta’rificha “barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan, faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi”. Dramaning asosiy janrlari sifatida tragediya, komediya va drama (janr ma’nosida) ko‘rsatiladi. 2. Dramatik turning uchta asosiy janridan biri.

EPIGRAF (yun. epigraphe – bitik, sarlavha) Asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo‘lim (bob, fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda e’tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so‘zlari va shu kabilar) olingan ko‘chirma, sitataning bir ko‘rinishi. Ko‘p holda epigraf o‘zining aforistik mazmuni bilan asar mohiyatini ochib beradi. Masalan, A. Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasiga epigraf qilib olgan “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli hikoya mohiyatini, undagi voqeaga g‘oyaviy-emotsional munosabatni ifoda etadi.

EPILOG (yun. epilogos – so'ngsoz) Asarda tasvirlangan asosiy voqealardan alohida ajralib turuvchi yakun, xotima.

EPISTOLYAR ADABIYOT (yun. epistole – maktub, noma) Birovga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asarlar. Epistolyar adabiyotning o'zbek mumtoz adabiyotidagi namunasi sifatida A. Navoiyning “Munshaot” asarini keltirish mumkin. Bolalar adabiyotida E.Malikning “Onaizor” qissasi epistolyar xarakterga ega.

EPITET (yun. epitheton – ilova etilgan, izohlovchi) Badiiy sifatlash; narsa-hosisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi. Xalq og'zaki poetik ijodida sodda va doimiy epitetlar ko'p qo'llaniladi (*alpkelbat* pahlavon, *sunbul* soch, *qunduz* qosh, *oy* yuz, *la'l* lab, *sarv* qomat kabi).

EPIZOD (yun. epeisodien – kiritma) Epik, liro-epik va dramatik asarlarda tasvirlanayotgan voqeaning makon va zamonda kechishi jihatdan ajraluvchi, makoniy va zamoniy jihatdan aniq chegaralanganlik asosida nisbiy mustaqillik kasb etuvchi bo'lagi. Mas. H.Olimjonning “Simurg’ yoki Parizod va Bunyod” ertak-dostonida d Simurg’ Bunyodga birgina **epizodda** – devni yengishini ta'minlashidagina ko'maklashsa-da, aslida bu voqealar dramatizmni avj nuqtaga chiqarib, tugunni yechishga ochqich vazifasini bajargan hal qiluvchi *epizoddir*.

EPIGRAMMA (qad.grek. “nadpis”- biror predmet yoki qabr toshiga bitilgan yozuv, bitik) keyinchalik uncha katta bo'lмаган satirik she'r. XIX-XX asrda yozilgan epigrammalarning asosiy

xususiyati piching, istehzo va hajvdan iborat bo'lgan. E. bolalar she'riyatida Sh.Sa'dulla, A.Obidjon ijodida ko'plab uchraydi.

FOLKLORIZM Yozma adabiyotda qo'llangan og'zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm "ikkinchi shakl" (K. Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi. Ijodkorning folkloriga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o'z asarida foydalanishi, folkloriga mansub sujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab folklorizm hisoblanadi. Asqad Muxtorning "Chinor", Turob To'laning "Suyuk momo", Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", Abdulla Oripovning "Qasam dara", O'tkir Hoshimovning "Parvona kuni" kabi asarlarida folklorizmning yorqin namunalari bor.

GALLYUTSINATSIYA (lot. hallucinatio – xomxayol; alahlash) Bosh miya faoliyatining buzilishi natijasida ko'rvu, eshituv, sezuv, hidlov a'zolarining chalg'ishi, yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etash.

GENEZIS (yun. genezis - kelib chiqish, yuzaga kelish) Kelib chiqish, paydo bo'lish tarixi.

GIMN (yun. himnos – madhiya) 1. Qadimgi yunonlarda ilohlarni ulug'lash, maqtash uchun aytilgan qo'shiq.

2. Mazmunan dasturiy xarakterdagi she'r asosidagi tantanavor qo'shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, muassasa, davlat va sh. k. larning atributlaridan biri, madhiyasi. Masalan, O'zbekiston

Respublikasi davlat madhiyasi, “Internatsional”, “Jahon demokratik yoshlari federatsiyasi gimni” va hokazo.

HARFIY SAN'ATLAR Arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda.

HIJO (ar. bo‘g‘in) She’riy nutqning ritmik birligi, ya’ni so‘zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan qismi. Hijo ko‘pincha tilshunoslikdagi bo‘g‘in tushunchasiga to‘g‘ri keladi, ba’zan bo‘g‘indan farqli o’laroq undosh tovushning o‘zidan ham tuzilishi mumkin. Hijo talaffuziga ketgan vaqt va tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi; cho‘ziq (-) va qisqa (V) hijo. Cho‘ziq hijo unli bilan tugasa, qisqasiga nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinadi yoki undosh bilan tugaydi (chunonchi, yuqoridagi: **Vas-l bo-g‘i** kabi).

HIKOYA Badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Hikoya inson hayotida yuz bergen ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, qanday ro‘y bergen, kim bilan – bular to‘g‘risida ma’lumot berish shart emas. Juda zarur bo‘lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Mas, A. Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-furushdan kichkina shart evaziga ikkita ho‘kiz olgan.

HIKOYAT Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy termin. Har qanday she’riy va nasriy asarni, ko‘pincha voqeaband asarni anglatadi. Tor ma’noda muallifi yo‘q yozma nasriy epos.

IMPROVIZATSIYA (lot. improvises – kutilmagan, birdan) Badiiy ijodning alohida ko‘rinishi bo‘lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi. Improvizatsiya ko‘proq ijro bilan bog‘liq san’at turlar (musiqa, raqs, teatr san’ati)da, shuningdek she’riyatda kuzatiladi. Improvizatsiyaning ildizlari folkloridan suv ichadi. Xalq baxshilari folklore namunalarini ijro etish jarayonida improvizatsiya yo‘li bilan ularga yangiliklar qo‘sib borishgan, shu yo‘l bilan yangi asarlar yaratishgan. Jumladan termalarni ijro qilish, aytishuvlarda improvizatsiyaning roli va ulushi sezilarli bo‘lgan.

INTERPRETATSIYA (lot. tushuntirmoq) Talqin; adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

KOMPOZITSIYA (lot. compositio – tuzilish, qurilish, tarkib) Badiiy asardagi qismlar, obrazlar va vositalarning muayyan g‘oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligi. Asar kompozitsiyasiga makon va zamonning cheksizligini sig‘dirishda avtor xarakteristikasi, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira, lirik chekinish, ruhiy chekinish, ruhiy iztirob, tush ko‘rish, o‘z-o‘zini baholash kabi usullardan foydalilaniladi. Masalan, A. Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asari xotiralar tarzidagi kompozitsiyaga ega.

KONTEKST (lot. con – birga, textus – mato, to‘qilgan) 1. Aloida so‘z (matn birligi)ni qurshab turgan va uning ma’nosini tushunilishiga asos bo‘luvchi matn, uni tashkil etayotgan so‘zlarning bevosita lug‘aviy ma’nosidan keng bo‘lgan ma’no tizimi. Masalan, shirin so‘zi

qo'llangan ikkita gapni olib ko'ramiz: 1. *Muharram shirin tabasum bilan kului*. (Shuhrat) 2. *Siz pishirgan taom shu darajada shirin, lazzatli bo'ladiki... (Mirmuhsin)* Birinchi gapda shirin so'zi "xush yoqadigan, yoqimli", ikkinchi gapda esa "ta'mi yoqimli, mazali, lazzatli" degan ma'noni bildiryapti. Bu ikkala gap shirin so'zi uchun turli kontekst bo'lib, mazkur ma'nolar aynan shu kontekstlar yordamida ro'yobga chiqyapti.

2. Adabiy asar – so'zlardan tarkib topgan matn. Badiiy matnni tashkil etayotgan unsurlar

KULMINATSIYA (lot. culmen – cho'qqi) Badiiy asarda voqealar rivojining eng yuksak nuqtasi, sujetning ziddiyatlar keskinlashib, konflikt yaqqol namoyon bo'ladigan o'rni. Ijodkor uslubi, maqsadi va xohishiga ko'ra kulminatsiya asarning boshlanishi, o'rtasi yoki oxirrog'ida kelishi mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida kulminatsiya asar o'rtasida kelsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida kulminatsiya asar oxirida, yechim sifatida uchraydi, ya'ni Kumushning Zaynab bergen zahardan o'lishi asarning kulminatsiya nuqtasidir.

Kulminatsiyaning eng muhim belgisi shuki, u badiiy asardagi voqealar oqimini, xarakterlarning o'z sifatidagi va boshqalar bilan munosabatidagi xislatlarni albatta o'zgartiradi.

LEYTMOTIV (nem. leitmotiv – yetakchi motiv) Musiqadan o'zlashtirilgan termin bo'lib, keng ma'noda muallif tomonidan ilgari surilayotgan asosiy g'oyaning butun asar davomida ta'kidlab o'tkazilishi bo'lib, shu ma'noda g'oyaviy leytmotiv atamasi ham

ishlatiladi. Masalan, A. Oripovning “Men nechun sevaman O’zbekistonni” she’rida Vatanga beg’araz muhabbat, “Vatanga muhabbat aslida xalqqa muhabbat” degan asosiy g’oya leytmotiv sifatida butun she’r matnidan sizib o’tadi.

LIRIK CHEKINISH (rus. kalka: лирическое отступление) Badiiy asardagi muallif nutqining bir turi bo’lib, ijodkor biror munosabat bilan asosiy voqeani to’xtatib, ya’ni asosiy voqeadan chekinib, tasvirlanayotgan voqeaga o’z munosabatini yoki shu voqea ta’sirida vujudga kelgan kechinma, his-tuyg’ularini bayon etadi.

LIRIK QAHRAMON Lirk asar asosida yotgan “men”dan iborat adabiyotshunoslikdagi shartli tushunchalardan biri bo’lib, lirk qahramon sifatida ko’pincha shoirning o’zi gavdalananadi.

LITOTA (yun. litotes – soddalik) 1. Narsa-hodisaga xos xususiyatni uning aksini inkor qilish orqali ifodalshga asoslangan uslubiy figura, mohiyatan kinoyaga yaqin turadi. Litota kundalik muloqotda ham ancha faol qo’llanadi. Msalan, “bu kishim ham ahmoq emas” – aqli-hushi joyida; “uyam shahar ko’rmaganmas” – sodda emas, pishiq va h. k. 2. Tasvirlanayotgan narsa-hodisa, unga xos belgilarni o’ta kichraytirishga asoslanuvchi badiiy usul, stilistik figura; giperbolaning ziddi, mumtoz adabiyotshunosligimizda tafrit deb yuritiladi. Jahon xalqlari og’zaki ijodida litota usulida qator obrazlar yaratilgan: No’xatpolvon, Yortiquloq, Barmoqcha bola (mal’chik-spal’chik), Duymovochka va b.

MONOLOG (mono. + yun. logos – so’z, nutq) Sahna yoki boshqa adabiy asar ishtirokchilarining o’z-o’ziga yoki o’zgalarga qaratilgan,

javob talab qilmaydigan nutqi. “*Navoiy*” pyesasidagi *Navoiy monologi*.

MONOTON Bir xil ohangda. Mas. Monoton ohang o‘zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Biroq *monoton ohang* onaning ijro paytidagi holati va kayfiyati bilan chuqur bog’liq. Ona kayfiyati chog’ kezlarda allaning monoton ohangida xush yoquvchi mayin yumshoqlik mayli sezilib tursa, xafaligida, iztirob chekayotganida ma’yus tortuvchi hazinlikka moyil bo‘ladi.

MOTIV (lot. moveo – harakatlantiraman) Musiqashunoslikdan o‘zlashtirilgan termin. Motiv musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek o‘zgartirilishi yoki zid motivlar kiritish) asosida rivojlanadi. Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha ma’nolarda qo’llanadi. Jumladan, voqeaband asarlarda motiv sujet sxemasi (masalan, qahramon bandi etiladi, unga biron-bir qiz yordam beradi; o‘gay ona va mushtipar soliha qiz) qahramon kimsasiz yetimlikdan yuksak martabaga yetadi; Ya’ni motivlar yarim tayyor holda olinadi: Masalan, “Alpomish”dagi Qorajon, Farhod va Shirindagi Shopur, “Otgan kunlar”dagi usta Olim – bari do’st motivining turli variantlari bo‘lib, ular asar sujetidagi funksiyalari, badiiy konsepsiyanı ifodalashdagi o‘rni jihatidan farqlanadi. Lirikada ham motivlar keng o‘rin tutadi. Xususan, an’anaviy tarzda ishlatiluvchi “oshiq – yor – ag’yor”, “kutayotgan oshiqa kelmagan yor”, “ishq o’tida yonayotgan oshiqa beparvo yor” singari qator sujet motivlari turli variantda qo’llanib, lirik qahramonning turfa o‘y-hislarini lo’nda va ta’sirli ifodalashga

xizmat qiladi. Yoki, bolalar adabiyotidagi asarlarda mas. G'.G'ulomning "Shum bola", "Yodgor", "Netay" qissalaridagi *yetimlik motivi*, xalq ertaklaridagi *o'gay ona* motivi, *yetim qiz* motivi va h.k.

MUALLIF NUTQI Adabiy asardagi bevosita mualliv tilidan berilgan bayon, tavsif, izoh, va sh. k. o'rinalar. Garchi biz "badiiy asar tili" desak-da, aslida gap "badiiy nutq ustida boradi", chunki adabiy asar til unsurlari vositasida yaratilgan tekst, ya'ni nutq hodisasidir. Badiiy nutq uslubiy jihatdan farqlanuvchi komponentlarning birikuvidan hosil bo'ladi: unda muallif nutqi bilan personajlar nutqi ajratiladi. Mazkur farqlanish asasan epic va liro-epik xarakterdagi asarlarga xos bo'lib, ularda voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, personajlarga berilayotgan ta'rif, muallif fikr-mulohazalari va sh. k.lar bevosita muallif tilidan beriladi.

MUALLIF OBRAZI Badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi. Muallif shaxsi asar badiiy voqeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko'rilgan va ideal asosida qayta yaratilgan voqelikdir. M.G'.G'ulomning "Shum bola" qissasidagi Qoravoy obrazi talqinida muallif obrazi yorqin anglashilib turadi. Yoki, X.To'xtaboyevning "Besh bolalali yigitcha" romani.

MUHARRIR (ar. ozod etuvchi; tahrir qiluvchi; yozuvchi) 1. Nashriyot yoki boshqa mas'ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim. *Adabiy muharrir. Texnik muharrir. Bosh muharrir. Mas'ul muharrir.*

2. Ayrim matbuot organlariga rahbarlik qiluvchi shaxs. *Keksa ishchi gazetaning muharririga qarab: – Nega bunga chittak deb laqab qo'ydilaring? – dedi.* (A. Qahhor)

MUNAQQID (ar. tanqid qiluvchi; tanqidchi) Adabiy tanqid bilan shug'ullanuvchi shaxs; tanqidchi so'ziga sinonim sifatida qo'llanadi.

MUQALLID (ar. taqlidchi) 1. O'zbek an'anaviy teatrining janri; shu janr ijrochisi (Muqallid shaklidagi tomoshalarda qush va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba'zi kishilar xulq-atvori, qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan).

2. Bolalar o'yin folklorida bolalarning o'z ota-onalari turish-turmushiga *muqallidlari* zamirida yuzaga kelgan «Olmacha do'm-do'm», «Osmondagi oy» o'yinlari uchun dehqonning o'zi yetishtirgan olmani sotishiga bolalar taqlidi asosga aylangan bo'lsa, «Bog'lam-bog'lam», «Chillik toy», «Qo'rg'on olish», «Cho'pon va shog'ol», «Boylandi» o'yinlari uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar faoliyatiga *muqallid* qilish zamin vazifasini o'tagan.

NASR (ar. sochib, to'kib tashlash; proza) Vazn va qofiyaga ega bo'limgan yozma nutq mahsuli. Muomala amaliyotda umuman badiiy proza, nasrda bitilgan asarlar jami ma'nosida proza terminiga sinonim sifatida ham qo'llanadi. Bolalar nasrida roman, qissa, hikoya yetakchi.

NAZM (ar. tuzuk, tartib, tartibga keltirish, terish, tizish) Badiiy nutq shakllaridan biri, tizma, she'riy nutq. Nisbatan kam hollarda

nazm keng ma'noda qo'llanib, umuman she'riyatni bildiradi, bu keng ma'noda nasr bilan qarama-qarshi qo'yilgan holda yuzaga keladi.

NOSHIR (ar. tarqatuvchi, nashr etuvchi) Nashr etuvchi, chop qiluvchi, chiqa-ruvchi. Noshir kitob shakl-shamoyilini, harflari, hoshiyalari, sarlavhalari, taglavhalari, yonlavhalari, qismlari va boblarini ajratib ko'rsatuvchi belgilarni matn mazmuni va kitob bichimiga muvofiqlashtirsa

NOSIR Nasrda ijod qiluvchi shaxs; yozuvchi, adib.

NOVATORLIK (lot. novator – yangilovchi, yangilanuvchi) Bolalar adabiyotida istiqlol davri she'riyati, jumladan, A.Obidjon, D.Rajab singari ko'plab shoirlar ijodida shakl va mazmun jihatidan yangilanishi ilgari uchramagan obraz va mavzular yaratilishi novatorlik belgisidir.

OBRAZLAR SISTEMASI Badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog'langan obrazlar tizimi. Amaliyotda obrazlar sistemasi deyilganda kopincha asrdagi personajlar tizimi nazarda tutiladi, biroq bu terminning tor ma'nosidir. Zero obrazlar sistemasi faqat personajlardan emas, balki badiiy voqelikni tashkil qilayotgan jami (narsa, hodisa, joy va h. k.) obrazlardan tashkil topadi.

OQ SHE'R (ruschadan kalka: «beliy stix») Muayyan o'lchovga ega bo'lgani holda misralari o'zaro qofiyalanmagan she'r. Oq she'r shoirga o'z fikri va hissiyotini to'laroq ifodalash imkonini beradi, undagi ritmik izchillik esa she'r g'oyasiga kuchli ta'sirchanlik bag'ishlaydi

PAFOS (yun. pathos) Ijodkorning o‘zi tasvirlayotgan voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabati. Masalan, E. Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonining pafosi mustamlakachilik istibdodiga qarshi norozilik, isyondir.

PAREMIOGRAFIYA Paremalarni yozib olish, to‘plash faoliyati. Maqoll metal, topishmoqlarni yozib olinishi va to‘planib kitobat qilinishi paremiografiyaga daxldor.

PAREMIOLOGIYA (yun. paroimia – hikmatli so‘z, zarbulmasal va ... logiya) 1. Ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o‘rganadigan fan sohasi.

2. Muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi. ,

PERSONAJ (lot. persona – shaxs, teatr maskasi) Badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqealari ishtirokchisi, hiskechinma va nutq subyekti. Personaj termini *qahramon*, *ishtirok etuvchi* (dramatik asarda), *xarakter* terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma’no jihatdan neytral bo‘lgani bois bu qatorda dominanta vazifasini o‘taydi.

PEYZAJ (fr. paysage – joy, yurt) Adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon tasviri. An’anaga ko‘ra peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni, balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar

tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasing tasviri ham peyzaj, holbuki ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir.

POETIKA (yun. poietike – poetik san'at) Adabiyot nazariyasining so'z san'ati asarlari tuzilishini uning izchil va tarixiy qonuniyatlari asosida o'r ganadigan bo'limi; badiiy asarlarda qo'llanuvchi ifoda vositalari tizimi.

POEZIYA (yun. poezio, poiesis – ijod qilmoq) 1. Badiiy ijodnint she'riy shak-li, she'riyat, nazm. 2. Biror shoirning, xalqning yoki davr-ning she'riy asarlari majmui; she'rlar. *Furqat poeziyasi. O'zbyok poeziyasi.*

PROLOG (yun. pro – oldidagi, logos – so'z) Adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Har qanday muqaddima emas, faqat badiiy muqaddimagna prolog sanalishi mumkin. Ya'ni prolog sanalishi uchun muqaddima badiiy matnning uzviy qismi bo'lishi zarur..

PROZA [nem. Prosa < lot. prosa (oratio) – oddiy, jo'n (nutq)] 1. Badiiy ijodning asosiy turlaridan biri, adabiy tur; nasr.

2. O'lchamli mutanosib bo'laklar – she'rlarga bo'linmagan og'zaki yoki yozma nutq; nasr bilan yozilgan badiiy asar. *Proza bilan yozilgan asar.*

PUBLITSISTIKA (lot. publicus – jamiyatga, jamoatchilikka oid, ijtimoiy) 1. Davr (zamona)ning dolzarb ijtimoiy-siyo-siy masalalari hamda jamiyatning kundalik hayotiga bag'ishlangan adabiyot turi. Publitsistika siyosiy kurashning o'tkir qurolidir.

2. Shu janrga xos asar yoki asarlar (maqola, ocherk, pamflet, felyeton va sh.k.) majmui. *A. Qahhor publitsistikasi.*

QISSA (ar. hikoyat, sarguzasht) Epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri. O'zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig'idagi hodisadir: hikoyada qahramon hayotidagi birligiga voqealari, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi bqlamga olinadi. Hikoyaning diqqat markazida voqealari, romanning diqqat markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam (jamiyatning joriy holati) tursa, qissaning markazida hamisha qahramon turadi. Ya'ni roman uchun qahramon vosita, qissa uchun esa maqsaddir. Shunga ko'ra qissadagi barcha voqealar qahrmon atrofida uyushtiriladi, uning sujeti romanniki kabi ko'p tarmoqli bo'lmaydi. G'. G'ulomning "Shum bola", S. Ayniyning "Odina", Oybekning "Bolalik", A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", "Sinchalak", shuningdek O. Yoqubov, O'. Hoshimov, S. Anorboyev, O'. Umarbekov va boshqalarning qissalari mazkur janrning yetuk namunalaridir.

RAMZ (ar. imo, ishora, imlash) Simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirsida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki ramz kon-tekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi.

REALIYA (lot. realis – ashyoviy) Muayyan xalqning turmish tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog'liq betakror, o'zga xalqlarda

uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so'z. Muayyan xalq turmushida ishlatiluvchi narsa-buyumlar (mas., kanoe, tamogavk, mokasin va sh. k. – hindularda; isiriq, obrez, tandir, beshik, taxmon va sh. k. – o'zbeklarda, diniy unvon va darajalar (abbat, pop, yepiskop, shayxulislom, muftiy, qozi), mansab nomlari (graf, baron, dyak; bek, amir, tunqotar, hudaychi, hokim), shuningdek geografik yoki madaniy-etnografik tushunchalarni anglatuvchi so'zlar ham realiyalar sirasiga kiradi.

REMARKA (fr. remarque-belgi, izoh) ad.Dramatik asarlarda qahramonlar tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, sahna manzarasi va b. haqida muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar.

RETRO (lot – ilgarigi, o't mishga murojaat). Ancha ilgari mashhur bo'lgan qo'shiq, she'r, musiqa va shu kabilarga qayta muroaat qilish orqali yana ommalashishi. Mas. Bolalar qo'shiqlaridan "Boychechak", "Chittigul", "Odob yaxshimi, oftob yaxshimi?", "Kel baxt kuyin kuylaylik", "Ko'ylagim", "Oppoq qandim" va h.k.

ROMAN (fr. roman – "lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan" ma'nosida) Zamonaviy adabiyotda epic turning yirik hajmli janri. Roman janr sifatida hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidagi katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa

kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko‘p chiziqli sujetga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

SAJIYA (a. tug‘ma sifat, xususiyat; xulq, tabiat) Xarakter, fe'l-atvor.

SARGUZASHT ADABIYOTI Haqiqatda yuz bergen yoki to‘qib chiqarilgan voqeaalarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqeaband asarlarning umumiy nomi. Aslida sarguzasht deb boshdan kechirilgan, voqealarga aytiladi, biroq adabiy asardagi har qanday voqeani ham sarguzasht deyish mumkin emas. Sarguzasht asarda favqulodda qiziq va g‘aroyib voqealar, o‘quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko‘p bo‘ladi. Jonatan Swiftning «Gulliverning sayohatlari», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Jyul Vernning «O‘n besh yoshli kapitan» kabi kitoblari ana shunday asarlardandir. Xudoyberdi To‘xtabov evning “Sariq devni minib” romani ham sarguzasht usulida bitilgan asar hisoblanadi.

SAYOHATNOMA Adabiy janr, yo‘lchining safar davomida ko‘rgan-kechirganlari, o‘zga yurtlarning tabiat, ijtimoiy-maishiy turmushi, xalqi, urf-odatlari va boshqa shu kabi muallif mansub millat o‘quvchilari uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar beruvchi asar. Bunga misol qilib Muqimiyning “Sayohatnoma”, Cho‘lponning “Vayronalar orasidn”, J. Swiftning “Gulliverning sayohatlari”, Fitratning “Sayyohi hindi” asarlarini ko‘rsatish mumkin.

SAYYOR SUJET Bir asardan ikkinchi asarga ko‘chib yuruvchi sujet. bir xalq ertagiga xos sujet motivlari boshqa bir xalq ertagiga

ko'chib o'tishi va buning oqibatida bir necha o'xhash syujetli ertak paydo bo'lishi mumkin. Folklorshunoslikda bunday ertaklar- sayyor syujetli ertaklar deb yuritiladi. Sayyor syujetli ertaklar ko'pincha mazmunan o'zaro o'xshashsalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xos ifodaviy vositalar va geografik muhit tasviriga ko'ra farqlanuvchi mustaqil adabiy -og'zaki hodisa sifatida yashash huquqiga ega.

YUMOR (ingl. humour – kayfiyat, moyillik) Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdar emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradyan farq qiladi. o'zbek adabiyotida G'. G'ulom, A. Qahhor, S. Ahmad va boshqalar.

G'OYA, badiiy g'oya Badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. Asarda tasvirlanayotgan voqeа-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasi vositasida qo'yilgan problematikaning badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo'luvchi badiiy hukm. Masalan, X. To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" qissasining g'oyasi " inson o'qimay, bilim olmay turib hech qanday kasbni egallay olmaydi, jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi" degan fikrdir.

CHISTON (fors. u nima?) She'riy topishmoq, narsatushunchaning nomini aytmagan holda o'xshashlik yoki aloqadorlik asosidagi belgilarni tavsiflashga asoslangan janr. O'zbek adabiyotshunosligida lug'z termini ham ishlatiladi.

Bu na gumbazzdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon?
Tuynugin ochib, alarning holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'ri qon. (Uvaysiy)
Bu chistonda anor haqida so'z boryapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

5. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik / T.: “Sharofat-fayz”, 2022. - 320 b.
6. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021. - 222 b.
7. Jamilova B., Safarov F. Ona tili va bolalar adabiyotidan ilmiy atamalar lug'ati. Buxoro, “Durdona”, 2021. – 220b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

8. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: “O'zbekiston”. – 2017, – 102 b.

9. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017, – 488 b.
10. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. - Toshkent: O‘qituvchi, 2011. - 224 b.
11. Ibroximova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. - Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2005. - 36 b
12. Gritsenko Z.A. Detskaya literatura: Uchebnoe posobie. - Moskva: Akademiya, 2004. - S.4.
13. Dobritskaya, I.G. Mirovaya detskaya literatura: posobie. - Minsk: BGPU, 2015. - 184 s.
14. Egorova T. Yu. Detskaya literatura angloyazichnih stran. - Vologda, 2005. - S.51.
15. Arzamastseva I.N., Nikolaeva S.A. Detskaya literatura. - Moskva: Vissaya shkola, 2000. - 472 s.
16. Arzamastseva I.N. Priroda komicheskogo v skazkax tsikla "Zapaxi mindalya" S.G.Georgieva - Detskaya literatura segodnya. - Ekaterinburg, 2010. - S.74.
17. Rasulov A.O‘zlik sari yo‘l. - Toshkent: Adib, 2012. - 40 b.
18. Rasulov A. G‘aroyib saltanat. - Toshkent: Adib, 2012. - 40 b.
19. Rajab D., Jo‘raeva G. Mahorat marralari. - Toshkent: Paradigma, 2018. - 36 b.
20. Raximjonov N., Ko‘baev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. -Toshkent: Adolat, 2005. -188 b.
21. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. - Toshkent: Fan, 2007. - 260 b.
22. Rahimjonov N. Badiiy so‘z estetikasi. - Toshkent: G‘G‘ASN, 2017. - 236 b.
23. Safarov O. SHe`rim - ochil dasturxon. - Toshkent: Musiqa, 2010. - 100 b.

24. Safarov O. Fol'klor - bebaho xazina.- Toshkent: Muharrir, 2010. - 360
25. Safarov O., Jamilova B. Bolalik - boqiylik timsoli. - Toshkent: SHarq NMAKBT, 2011. - 76 b.
26. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. - 356 b.
27. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma/ - Buxoro: Durdona, 2019. - 420b.
28. Safarov O. Bolalikning oydin osmoni. - Toshkent, 2009. - 362 b.
29. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. - Toshkent: Fan, 2004. - 128 b.
30. Turdieva K. XX asrning 60-80 yillarida o'zbek bolalar she`riyatida ma`naviyat masalalari. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2013. - 88 b.
31. Chukovskiy K. Ot dvux do pyati. - Moskva: Pravda, 1990. - 654 s.
32. Qahramonov Q. Adabiy jarayon va estetik talqin. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014. - 162 b.
33. Qahramonov Q. Bolalikka oshufta ko'ngil. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. - 40 b.
34. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. - Toshkent: Fan, 2007. - 196 b.
35. Hamdam U. Yangi o'zbek she`riyati. - Toshkent, 2012. - 304 b.
36. Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti: tahlil va talqinlar (davra suhbati) / O'zbekiston adabiyoti va san`ati. - Toshkent, 2005. - 29 avgust.
37. Safarov O. Oliy o'quv yurtida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari //Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 1994. ¹². - B.4.

38. Safarov O. O'zbek bolalar adbiyoti tarixiy mundarijasini belgilashga doir // O'zbek tili va adabiyyoti. - Toshkent, 1998. - ¹6. - B.63.
39. Safarov O. Bolalar adabiyyoti va fol'klor //O'zbek tili va adabiyyoti. - Toshkent, 2003. - ¹6. - B.20.
40. Umurzoqov R. XX asr o'zbek qissachiligidida bola obrazi // SHarq yulduzi. - Toshkent, 2014. - ¹4. - B.54
41. O'zbek bolalar adabiyyoti antologiyasi. 2 jildlik (to'ldirilgan uchinchi nashr). Nazm. 1-qism - Toshkent: CHo'lpon nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. - 288 b.
42. Quvvat O. Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida. - Toshkent: O'qituvchi, 2019. - 192 b.
43. Quvvat O. Ulug'bek yulduzlar saltanatida. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2021. - 198b.
44. Quronov S. Galaktikada bir kun. - Toshkent: Akademnashr, 2019. - 160 b.

Elektron ta'lim resurslari:

www.kitob.uz

www.vikipediya.uz

www.classicreader.com

www.journal.fedu.uz.

www.ziyouz.com

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.Ziyonet.uz

www.edu.uz

tdpu-INTRANET.ped



MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT

JAMILOVA BASHORAT SATTOROVNA

1968-yil Buxoro viloyati, Vobkent tumanida tug'ilgan. 1991-yil Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. 1994-yilda Buxoro davlat universiteti huzuridagi aspiranturani tamomlab, o'zbek filologiyasi, boshlang'ich ta'lim, mакtabgacha ta'lim, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga "O'zbek adabiyoti", "Bolalar adabiyoti", "Bolalar folklori", "Ifodali o'qish" fanlaridan saboq berib kelmoqda. 2004-yilda "O'zbek bolalar publitsistikasining rivojlanish tamoyillari" mavzusida nomzodlik, 2022-yil "O'zbek bolalar adabiyotida poetik tafakkur yangilanishining omillari va tamoyillari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor B.S.Jamilova "O'zbek bolalar publitsistikasi", "Bolalar adabiyotida poetik tafakkur yangilanishi" monografiya, "O'zbek bolalar adabiyoti", "Bolalar adabiyoti" (hammualliflikda) o'quv qo'llanma, "Chet el bolalar adabiyoti", "Bolalar adabiyoti va folklori" o'quv-uslubiy qo'llanma hamda "Bolalar adabiyoti" darsligi; "Bolalik - boqiylik timsoli yoxud muxbirlikning olis yo'llari" risolasi kabilarning muallifidir. Uning 200 ga yaqin ilmiy-usuliy maqolalari e'lon qilingan.

MUNDARIJA

I MODUL. BOLALAR ADABIYOTINING YANGILANISHI	13
1-MAVZU. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING YANGILANISH OMILLARI	13
2-MAVZU. ISTIQLOL DAVRI BOLALAR SHE'RIYATI	27
3-MAVZU. BOLA RUHIYATINI YANGICHA IDROK ETISH USULLARI	41
4-MAVZU. BOLALAR SHE'RIYATIDA IJODIY-USLUBIY IZLANISHLAR..	69
II MODUL. BOLALAR NASRI POETIKASI	88
5-MAVZU. ZAMONAVIY BOLALAR HIKOYALARINING XUSUSIYATLARI	88
6-MAVZU. BOLALAR QISSACHILIGINING TAKOMILI.....	112
7-MAVZU. AVTOBIOGRAFIK VA BIOGRAFIK QISSALARILING KOMPOZITSION HAMDA BADIY XUSUSIYATLARI	133
8-MAVZU. BOLALAR QISSALARIDA O'SMIRLAR RUHIYATI TASVIRI	150
III MODUL. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI.....	170
9-MAVZU. ADABIY JARAYONDA BOLALAR ADABIYOTINING O'RGANILISHI	170
10-MAVZU. BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLORI MUNOSABATLARI	191
11-MAVZU. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA ADABIY ALOQALAR TA'SIRI	214
KREATIV TESTLAR.....	229
GLOSSARIY.....	238
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	261
GLOSSARIY.....	Ошибка! Закладка не определена.
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	Ошибка! Закладка не определена.
MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT	265

QAYDLAR UCHUN

BASHORAT JAMILOVA

BOLALAR ADABIYOTIDA ZAMONAVIYLIK

O'quv qo'llanma

Muharrir:

H.Qahhorov

Texnik muharrir:

O.Jabborov

Musahhih:

M.Kuziyeva

Sahifalovchi:

X.Axrarov

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Orginal maketidan bosishga ruxsat etildi: 04.07.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozni. Bosma tobog‘i 16.5 Adadi 100. Buyurtma № 65



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy.